


UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI



Toshkent – 2017

74.06.2017
X.65
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

B.X.XODJAYEV

UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

pedagogika ta'lif sohasi bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun
darslik

«Sano-standart» nashriyoti
Toshkent - 2017

UO'K: 37.013(075.8)

KBK: 74.00

X 69

B.X.XODJAYEV

Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.

– T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.

Mazkur darslik pedagogika ta'lrim sohasi bakalavriat ta'lrim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'z ichiga pedagogikaning uchta – pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat kurslarini qamrab olgan. Darslik pedagogika sohasining bakalavriat ta'lrim yo'nalishi DTS, o'quv reja va o'quv dasturlari asosida yozilgan.

Mazkur fan 2016 – 2017-o'quv yilidan boshlab «Umumiy pedagogika» nomi bilan o'qitilib kelinmoqda.

Taqrizchilar:

U.I.Inoyatov, pedagogika fanlari doktori, professor

F.R.Yuzlikayev, pedagogika fanlari doktori, professor

UO'K: 37.013(075.8)

KBK: 74.00

ISBN 978-9943-5002-3-5

© B.X.XODJAEV, 2017

© «Sano-standart» nashriyoti, 2017

SO‘Z BOSHI

«Umumiy pedagogika» nomli darslik pedagogikaning uch mustaqil sohalarini o‘zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat.

«Pedagogika nazariyasi» kursi kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, yaxlit pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta’lim nazariyasi), ta’lim jarayoni qonuniyatları va tamoyillari, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatları, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta’lim muassasalarini boshqarish, korrektion pedagogika asoslarini o‘z ichiga qamrab olgan.

«Pedagogika tarixi» kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko‘rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta’lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlariida tarbiya, ta’lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarini o‘zida aks ettirgan.

«Pedagogik mahorat» kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta’lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o‘qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o‘qituvchining kommunikativ qobiliyat, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo‘llari, nutq madaniyati, o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi mahorati, o‘qituvchining turbiyachilik mahorati, o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash, ilg‘or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi masalalar bayon etilgan.

I BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI

I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

1.1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Tayanch so'zlar: ta'lismiz, ta'lismiz islohotlari, Maktabgacha ta'lismiz vazirligi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lismiz, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lismiz, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lismiz, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lismiz to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lismizidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning **maqsadi** – ta'lismiz sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

– «Ta'lismiz to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lismizini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lismiz muassasalari hamda ta'lismiz va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat

muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy-
ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga
oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga
moslashtirish;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali
mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va
ijtimoiy maqomini ko'tarish;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning
ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat
ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning
zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

– ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va
ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab
chiqish va joriy etish;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini
attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho
berishning xolis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab
qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda
faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini,
ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot
bazasini yaratish;

– ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini
ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga
nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari,
korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning
mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uzlusiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan
tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb
etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy
etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro
hamkorlikni rivojlantirish.

- davlat grantlari yoki pulli-shartnormaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni olish huquqiga;
- davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;
- ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;
- ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo’llab-quvvatlashga;
- sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga.

Uzluksiz ta’lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-tehnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma’lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta’lim quyidagi **ta’lim turlarini** o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- mактабдан ташқари та'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismalaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi».

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi.

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeい va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi».

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyoragarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarini belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Avvalari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo'lida uzlusiz

ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlар strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergen eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoni va «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalarini davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamонави та'lим дастурлари va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'naliishi etib belgilandi:

birinchidan, maktabgacha ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ikkinchidan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdag'i bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uchinchidan, respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'lif muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiylar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'lifi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga ta'tbiq etish;

to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lif va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lif-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lif muassasalarini ta'minlash;

oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodit bo'igan maktabgacha ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

Yetinchidan, maktabgacha ta'lif muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lif-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

sakkizinchidan, maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'igan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish;

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi «O'zbekiston respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3304-son Qarori asosida O'zbekiston respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirildi.

Mazkur qarorga muvofiq, quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

birinchidan, xalq ta'lifi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

ikkinchidan, o'rta ta'lif mifik tabrlari hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarini o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlash orqali 11 yillik o'rta ta'lifni joriy etish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

uchinchidan, umumiy o'rta ta'lif mifik tabrlarining 10-11-sinf o'quvchilariga kasb-hunar o'rgatish hamda umumiy o'rta ta'lifning davlat ta'lif standartlariga va maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq xalq ta'lifi muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatishda metodik rahbarlik qilish;

to'itinchidan, umumiy o'rta ta'lif muassasalarida chet tillarini o'qitish samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va mehnat ta'lifini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbitlarni amalga oshirish;

beshinchidan, o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamasini

optimallashtirishni hisobga oлган holda ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

oltinchidan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangilangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq ishiab chiqilgan o'quv va o'quv-metodik adapbiyotlarning yangi avlodи yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;

yettinchidan, mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, otanonalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko'nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg'unlashuviga ko'maklashish;

sakkizinchidan, rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning (shu jumladan inklyuziv) ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi choratadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkeniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini muvofiqlashtirish;

to'qqizinchidan, xalq ta'limi muassasalarida O'zbekiston yoshlar ittifoqi bo'limlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g'oyalalarini yanada chuqur singdirish, «commaviy madaniyat» ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

o'ninchidan, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan davlat ta'lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

o'n birinchidan, ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda byudjet intizomiga rioya etishni ta'minlash;

o'n ikkinchidan, ta'lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-sон Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim mакtablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan mакtablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat mакtab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari mакtab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzlusiz va 11 yillik muddatda; 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlariга o'qishga qabul qilish umumta'lim mакtablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyorilik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lган o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5313-sон Farmoniga muvofiq, **majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim mакtablarida, kasb-hunar ta'limi ixtiyorilik** asosida kasb-hunar kollejlariда amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari ta'lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o'rgatish, o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta'limni davom etirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-shareitlar yaratish, o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim

berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmularini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 868-sodan qarori qabul qilindi.

O'quv-ishlab chiqarish majmuasi – o'quvchilarga kasbiy bilimlar berish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asoslarini, mehnat va kasb ko'nikmalarini egallashlari, shuningdek ularning o'ziga xos kasbiy qobiliyatları va sifatlari rivojlantirilishini ta'minlaydigan ta'limi tashkil etish shakli.

O'quv-ishiab chiqarish majmuasida kasbiy ta'lim berishning vazifalari etib quydagilar belgilab qo'yildi:

o'quvchilar tomonidan kasb-hunar ko'nikmalarining o'zlashtirilishini ta'minlash, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etilmaydigan kasblarni o'rgatish orqali ularning kasb-hunar olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

kasbiy ta'lim berish jarayonida «usta-shogird» an'analari, mahalliy va xorijiy ilg'or tajribani o'rgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish hamda kasblarning malaka talablari va kasbiy ta'lim berish jarayonining metodik ta'minotini takomillashtirib borish;

kasbiy ta'lim berish jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali kasbiy ta'lim berish sifatini ta'minlash;

e'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlagan holda mehnat jarayonini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning mehnat faoliyati bilan faol shug'ullanishi imkonini beruvchi kasb egasi bo'lishlarini ta'minlash;

mehnat bozori uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etilmaydigan kasblar bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash.

Akademik litsey – o'rta maxsus o'quv yurti. Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqaqlashtirilgan va kasb-hunarga yo'nalirilgan bilim olishlarini ta'minlaydi. Akademik litseyda o'quvchilar o'zlarini tanlab, olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va b. sohalari) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanlarni chuqur

o‘rganishiga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqr, tabaqalashtirilgan va kasbhunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydi.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliv ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi ta’lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliv ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta’lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta’lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-2829-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari belgilab berildi:

umumta’lim maktablarining eng iste’dodli o‘quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o‘qishni oliv ta’lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqr tayyorlash;

o‘quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi va faollashishiga ko‘maklashuvchi, individual iste’dodlarni va har bir o‘quvchining qobiliyatlarini hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat

ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qarorga ko'ra, quyidagilar oliy ta'lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalg etish;

oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalaridagi ixtisoslik yo'nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliv ta'lim tizimiga keng tatbiq etish, oliv ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazami oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish;

oliv ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliv ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyatini samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalg etish;

oliv ta'limning ma'nnaviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyasini, xalqimizning yuksak ma'nnaviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo'lgan g'oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

oliv ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o'quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalarini qurish, kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash;

oliv ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash, talabalar, o'qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg'or ta'lim resurslari,

ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bo'yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2017-yil 16-fevraldag'i PF-4958-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-mayda «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi: tayanch doktorantura; doktorantura; mustaqil izlanuvchilik.

Tayanch doktorantura – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rghanish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Doktorantura – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o'rghanish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

Mustaqil izlanuvchilik – ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rghanish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoniga muvofiq oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o‘qitish shakllari va usullarini, pedagog kadrlar tarkibining sifat darajasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdaggi «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 242-son qarori bilan «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevralndagi 103-son Qarori bilan mazkur Nizomiga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi — yangi kasbiy bilimlar, mahoratlar, zamonaviy ko‘nikmalar hamda boshqaruva va pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur hajmda va yetarli darajada hamda davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvta’lim jarayoniga talab qilinadigan sifatni ta’minlaydigan darajada vakolatlarni nazarda tutadigan oliy ta’limdan keyingi o‘qitish shakli.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan hujjatlarga asosan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublifikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o‘quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha ikki oy davomida, ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilar o‘qishni tugatgandan keyin attestatsiya komissiyalari tomonidan o‘tkaziladigan attestatsiyadan o‘tishlari kerak. Attestatsiya

komissiyasi tegishli sohalardagi yetakchi olimlar va mutaxassislar, ilmiy kengash a'zolari, o'quv-uslubiy ishlar sohasidagi yirik mutaxassislar safidan kamida 7 kishidan iborat bo'lgan oliy ta'lim muassasasi rektori yoki fan doktori ilmiy unvoni berish bo'yicha ilmiy kengash raisi boshchiligidagi shakilantiriladi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglevchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan o'tmagan oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari bir yil mobaynida pulli asosda o'qishning tegishli yoki turdosh yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakunida attestatsiyadan o'tishadi.

Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini takroran o'zlashtirishi asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o'quv dasturlarini mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali o'zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda yoki masofadan o'qitish usullari orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv dasturlari bo'yicha tayyorlanib kelgan tinglevchilar yakuniy attestatsiyaga kiritiladi. Yakuniy attestatsiya tegishli yo'nalishlar bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari huzuridagi attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan takroran o'tmagan yoki asosiy ish joyi bo'yicha belgilangan muddatda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o'tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan hamda bo'sh turgan pedagog lavozimini egallash tanlovi davrining tugagan muddatidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi. Bunda ular o'z pedagogik faoliyatini boshqa ta'lim muassasalarida (oliy ta'lim muassasalaridan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa

tashkilotlarda ishlashi hamda o'zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibiy qismlariga izoh bering.
3. Uzluksiz ta'limga tizimining isloh qilinishi qanday omillar bilan bog'liq?
4. 11 yillik majburiy ta'limga o'tilishining sabablarini izohlang.
5. O'quv-ishlab chiqarish majmuasining asosiy maqsadini tushuntirib bering.
6. Kasb-hunar ta'limi tizimining isloh qilinishi qanday omillar bilan bog'liq?
7. Oliy ta'limga tizimining isloh qilinishi asosida qanday natijalarga erishiladi?
8. Oliy o'quv yurtidan keying ta'limga bosqichlariga izoh bering.
9. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan talablarga baho bering.

1.2. PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO'G'RISIDAGI FAN. ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI

Tayanch so'zlar: pedagogika, maqsad, vazifa, obyekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pegagika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida – «bola» va gogike – «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiyligini qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lif berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lif berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika – ta'lif va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihatini – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lif nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lif nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rghanuvchi») ta'lifning nazariy jihatilari, ta'lif jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlar, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'lifning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lif jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarini tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.


Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'naliishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining **obyekti** – yaxlit pedagogik jarayon.

Pedagogika fanining **predmeti** – ta’lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatları, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo’shamdi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o’rin tutuvchi g’oyalar mohiyati muhim abamiyatga ega.

O’zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg’ot xorijiy tajribalar asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:



2-rasm. Pedagogika fanining asosiy vazifalari

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlar, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiyligi mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlanirish.



3-rasm. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonloma o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashrnalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllantirish – shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiyligi mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahtil etishga imkon beradi.

Etika – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliv insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rinni tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rinni tutadi.

Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisod – ta'lif muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lif-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-tehnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashiga xizmat qiladi.

Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anotomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarini o'rganishga yordam beradi.

Gigiyena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishga nazariy va amaliy g'oyalarni taqdim etadi.

Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zatnin yaratadi.

Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lif-tarbiya jarayonlarining dinamik, diafektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o'rgatish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asosiari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlani-shini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fanlari tizimi. Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismeniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga

xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika – pedagogikaning konseptual masalalari va amaliy jihatlarini tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi – pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlarini va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadi.

Pedagogika tarixi – pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta'limgurlarining davriy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.

Pedagogik mahorat – o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo'llarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'limgullarning pedagogikasi – maktabgacha ta'limgullarning yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Boshlang'ich ta'limgullarning pedagogikasi – boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'limgullarning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

Metodika – xususiy fanlarni o'qitish mazmuni, qonuniyatlarini, tashkiliy shart-sharoitlarini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya – ta'limgullarning tarbiya jarayonida zamonaliv pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'limgullarning samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Ta'limgullarning menejmenti – ta'limgullarning faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy pedagogika – shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy me'yordan og'ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va reabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi.

Oila pedagogikasi – oilaviy ta'lif-tarbiya, oilada bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar asosida tarbiyalash, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish masalalarini o'rghanadi.

Xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, marosimlar, milliy va bolalar o'yinlari, o'yinchoqlari kabilarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va milliy tarbiyaga doir tajribalar majmuidir.

Qiyosiy pedagogika – qiyosiy aspektida turli davlat, hudud, umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogika nazariyasi va amaliyotining mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rGANADIGAN pedagogik fan sohasi.

Pedagogik innovatika – pedagogik innovatsiyalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rGANADIGAN, shuningdek pedagogik an'analar bilan istiqboldagi ta'lif loyihamining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan fan.

Pedagogik aksiologiya ta'lif oluvchi va ta'lifni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiylar qadriyatlarni o'rganish hamda ta'lif-tarbiyaga aksiologik yondashuvni qaror toptirishga xizmat qiluvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

Neyropedagogika – bu bosh miya (o'ng va chap miya yarim sharları) faoliyatı va tuzilishidagi funksional tafovutlar to'g'risidagi bilimlar hamda mazkur bilimlarni ta'lif-tarbiya jarayonida qo'llay olish haqidagi amaliy fan sohasi.

Muzey pedagogikasi – pedagogika, psixologiya va muzeyshunslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan sohasi bo'lib, muzey muhitida ta'lif-tarbiya berish yo'llarini tadqiq etadi. Muzeydagi mazkur ma'rifiy yo'nalish bilan shug'ullanadigan xodim muzey pedagogi deb ataladi.

Pedagogik antropologiya – falsafiy, ijtimoiy, psixologik antropologiya qonuniyatlariga asoslangan holda ta'lif oluvchi uchun qulay va individual shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'lifning antropologik modeli va texnologiyasini o'rGANUVCHI fan sohasi.

Pedagogik akmeologiya – barcha yosh davrlari psixologiyasi bilan bog'liqlikda jadal rivojlanayotgan shaxsnig yetuk rivojlanish cho'qqisi – «akme shaxs» darajasiga yetkazish qonuniyatlar, texnika va texnologiyasini tadqiq etadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va tadqiqot metodlari. Pedagogika fani rivojinining hozirgi bosqichida alohida dolzarb metodologik masalalarni hal etish bilan chegaralanmasdan xususiy bilimlar tizimi sifatida pedagogika fani metodologiyasini aniq belgilab olish zarur. Bu birinchidan, pedagogik nazariyalarning ishonchligini ta'minlasa, boshqa tomondan metodologik bilimlarsiz pedagogik tadqiqotlarni samarli tashkil etish va o'tkazish mumkin emasligini uqtiradi.

Ijodiy jarayonda bugungi kunda pedagogika fani metodologiyasiga, uning predmetiga nisbatan turlicha yondashuvlar vujudga kelmoqdaki, ularning mohiyatini qisqacha tushuntirishga harakat qilamiz.

Metodologiya alohida fan sifatida ikkita funksiyani bajaradi: deskriptiv (ifodalovchi) va perskriptiv (me'yorlovchi). Birinchisi – obyektni nazariy jihatdan ifodalashni ko'zlasa, keyingisi – tadqiqotchi uchun aniq mo'ljal olishga shart-sharoit yaratadi. Bu ikki vazifaning mavjudligi pedagogika metodologiyasini ham ikki guruhgaga ajratishni taqozo etadi – nazariy va me'yoriy.

Pedagogikaning nazariy metodologiyasiga quyidagi kiritish mumkin: «metodologiya» tushunchasi ta'rifi; fan metodologiyasining umumiy tavsifi, uning darajalari; metodologik bilimlar va faoliyat tizim sifatida; pedagogika sohasidagi tadqiqiy faoliyatni metodologik ta'minlash manbalari; pedagogik tadqiqot obyekti va predmetining metodologik tahlili.

Me'yoriy asos quyidagi savollar doirasini qamrab oladi:

pedagogikani obyektiv borliqni ma'naviy jihatdan o'zgartirishning boshqa shaklidan farqli tomonlarini ilmiy asoslash;

pedagogika sohasidagi ishlarni fanning fundamental asoslariga muvofiqligini aniqlash;

maqsadning aniqligi; maxsus tadqiqot obyektiini ajratish; maxsus bilish metodlari va vositalarini qo'llash; atamalarning bir xil qo'llanilishi;

pedagogik tadqiqotlarni tizimlashtirish;
tadqiqot asosnomasi: muammo, mavzu, uning dolzarbliji,
tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, farazi, himoya
qilinadigan holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy-amaliy ahamiyati;

pedagogik tadqiqotning tarkibi va mantiqiy ketma-ketligi;

pedagogik fanlar tizimi, ularning o'zaro aloqasi.

Tadqiqot muammosi bo'yicha qabul qilingan direktiv va
me'yoriy hujjatlar ham bevosita metodologiyaning me'yoriy asosini
tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan metodologiya nazariy va amaliy
faoliyatni tashkil etish prinsiplari va usullari tizimi, shuningdek, bu
tizim haqidagi ta'limot (nazariya) sifatida qabul qilinadi. Aniqrog'i,
metodologiya predmeti – faoliyatni tashkil etish haqidagi nazariya
demakdir.

Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy
asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik
hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini,
pedagogik voqeikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni
olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga
kiritishga doir faoliyat tizinni o'zida mujassamlashtiradi.

Ko'rinish turibdiki, bu ta'risda ilmiy bilishning ikki jihatı –
bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki
faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta'minot
hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari
rivojining qonuniyatları va yo'nalishlari, pedagogik tadqiqotlarning
sifat va samaradorligini oshirish prinsiplari, ularning tushunchalari
tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot
dasturlarini asoslashda va sifatini bahoishda foydalanishni
anglatadi.

Shu bilan birgalikda pedagogik muammolarning umumnazariy
muammolar bilan almashtirishga yo'i qo'yib bo'lmaydi. Chunki,
birinchisi «qanday qilib metodologiyani pedagogikaga qo'llash
mumkin» degan savollni aniqlashtirsa, ikkinchisi – umumnazariy
savollar esa pedagogikaning predmeti, uning boshqa fanlar bilan

aloqasi, ta'lim va tarbiya mohiyati kabi umumiy savollar yechimiga qaratiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalasi respublikamiz va jahon miqyosida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur muammo ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonini tashkil qilish texnologiyalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ularning to'laqonli hal etilishiga esa pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda yanada moslashuvchan va taraqqiyparvar yondashuvlarni keng joriy etish orqaligina erishish mumkin. O'z navbatida pedagogika fani boshqa fanlar kabi yangi-yangi faktlar, yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologiyalar asosida rivojlanib boradi. Buning uchun esa ilmiy asoslangan tadqiqot metodlariga tayanish talab etiladi. Ilmiy tadqiqot metodlari esa o'z navbatida metodologiya tushunchasi bilan ataluvchi nazariy prinsiplar majmuasiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik metodologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili «metodologiya», shuningdek, «pedagogik metodologiya» tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Pedagogika fanida metodologiya tushunchasining gnoseologik talqini ko'proq ustuvorlik kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra «metodologiya» tushunchasi, mazmunan «gnoseologiya» (bilish to'g'risidagi fan), «nazariy bilish» kabi tushunchalarga yaqin turadi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari masalaga bir tomonlama yondashib, metodologiyani faqat «bilish metodlari to'g'risidagi ta'limot» yoki hodisalarni bilish jarayoni sifatida talqin qiladilar. Shu o'rinda, ushbu tushunchaning «borliqni o'zgartirish metodlari to'g'risidagi ta'limot» ekanligini e'tibordan chetda qoldiradilar va metodologiyani gnoseologik qolip bilan cheklab qo'yadilar.


Pedagogika fani metodologiyasi – jamiyatning rivojlanishi sharoitida uzuksiz taraqqiy etib boruvchi pedagogik muhit holatini haqqoniy aks ettiruvchi, pedagogika nazariyasi hamda amaliyoti, ta'lim olish hamda unga yondashuv mezonlari haqidagi bilimlar tizimi.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minianadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol topirish imkonini betuvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtida, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqeletik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzlusiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriylarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir: muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi; ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi; vazifalarining tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi; tadqiqot metodlar fizienga nisbatan obyektiv yondashuv; tajriba-



sinov ishlari jarayoniga jaib etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi; tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini bashorat qilish; tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda iadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanimoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1)kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2)kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- 3)kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4)har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- 5)xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho

berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektilari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individuall, guruhli hamda omumaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylilik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiyl munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil bayon etishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingen ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dailillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o‘quvchilarining dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta‘minlovchi vaqt ni kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o‘quvchilarining pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta‘minlaydi. Intervyu respondent e‘tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faoliylik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o‘quvchilarining shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig‘ilishi bayonnomalari yozilgan daftар, Pedagogik Kengash qarorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o‘quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftар va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rghanishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan niuammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rGANILGANLIK darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rGANISH metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyat, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni

qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, bahołash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) bilimlar bellashuvi;
- 2) fan olimpiadalar;
- 3) turli mavzulardagi tanlovlari;
- 4) mакtab ko'rgazmalar;
- 5) festivallar;
- 6) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniładi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalaniłish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga bera olishi zarur.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.
3. Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.
4. Pedagogikaning asosiy kategoriylariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.
6. Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.
7. Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.
8. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.

1.3. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOYLASHUVI

Tayanch tushunchalar: pedagogik antropologiya, individ, shaxs, individuallik, o'sish, rivojlanish, ijtimoiylashuv, irsiyat, muhit, tarbiya, yosh davrlari.

Shaxs haqida umumiy tushuncha. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.

Odam **shaxs** bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'nnaviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsnинг fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlari mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiyidan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskinining yo'qolib

borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtida inson tirk, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlarini ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rinni egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarining ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rinni tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqorida? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinnlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-

biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deyildilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan **preformizm** oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – **bixeviorizm** XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Tordaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimeiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasingin shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kainolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariiga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o'zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko'ra o'quvchining ma'naviy dunyosiga

yo'naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o'zaro bir-birini tushunish asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi.

Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi ta'lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko'rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim. Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzuksiz ravishda o'z-o'zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqidir.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalgalashuv qilishi shaxs kamolga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, mahsulot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzlusizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. **Biologik yondashuv** – inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinct va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'yusunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. **Ijtimoiy yondashuv** – inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv – insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo‘nalganligi – qiziqishlari, qobiliyatları ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv – shaxs yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta’sir ko’rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijaları – motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir **to‘rt** – biloqik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv qator topgan.

Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar **yosh xususiyatlari** deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar **yosh xususiyatlari** deb ataladi.

Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvafqaqiyatlari o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o’tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, surʼ fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, erinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi

kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiyligi tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'r ganish, metodikasini bilish muhim. Temperament lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatları ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.
2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) – 7 yoshdan 11–12 yoshgacha.
5. O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar, ilk o'spirinlar) – 12–17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1–2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2–3 yosh);
- kichik yosh (3–4 yosh);
- o'rta yosh (4–5 yosh);
- katta yosh (5–6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta'lim).

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'mini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam fatq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyojkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'r ganishga qiziquvchan bo'ladi.

O'rtta va katta mакtab yoshi (o'smirlik, ilk o'spirinlik 12–17 yosh). O'smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizzomi bo'shashadi.

Ilk o'spirinlik balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlari hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, hist tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergasbish kuchayadi. Bu davrda ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik – bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal etta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o'z qiziqishlari bilan o'lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlarning beg'araz, to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeい, jamoadagi shaxslar bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada ta'lif muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlari ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Chunki o'spirin-yoshlari mustahil hayot ostonasida bo'lib, ularning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo'lishining muhim shartidir.

Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. Gender» atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'moliga kiritilgan bo'lib, «jins» ma'nosini bildiradi. Jinsiyo munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'r ganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. «Gender tarixi», «Gender psixologiyasi», «Falsafaning gender tomonlari», «Gender antropologiyasi», «Gender sotsiologiyasi», keyinchalik esa «Gender pedagogikasi» kabi fan tarmoqlari shakllandi. «Gender» tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil taqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: «Gender» inglizcha so'z bo'lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma'nosini anglatadi... Bu tushuncha erkaklar va ayollar o'rta sida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuuni hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog'liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarini ifodalaydi. Psixologlar ham gender tushunchasiga o'ziga xos tarzda yondashganlar: psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko'rinishidir. Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug'ma, qaysi biri esa ta'lif va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to'g'risida keskin munozaralar bormoqda. O'g'il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular muktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma'lum bo'ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.E.Taras, 2002) qizlar o'g'il bolalardan matematik va vizual qobiliyatni bilan ustunroq deb ta'kidlashadi. O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda o'ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O'zgaruvchan

muhitga tez moslashishadi. O'g'il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o'rganib, keyin unga baho berishadi.

Pedagogik ma'noda gender – o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiylar sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsiyonal xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda o'g'il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, emotsiyonal, xulq-atvorga oid farqlar to'liq o'rganilgan. Ana shu asosdan kelib chiqib, o'quvchilarning rivojlanishida hisobga olish lozim bo'lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ikki marta ko'proq savol berishadi;

qizlar to'g'ridan-to'g'ri o'zining istaklari haqida gapirmaydi, lakin tezda kelishiб ketadi; o'g'il bolalar esa, hal qiluvchi fikri ayta olishadi va o'z nuqtai nazarida qolishni afzal ko'rishadi;

mustaqil hal etish bilan bog'liq vazifalarni bajarishda o'g'il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi;

o'g'il bolalar ko'proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantig'iga e'tibor berishadi; qizlarga ko'proq psixologiya, adabiyot yoqadi;

o'g'il bolalar dialog, munozarani afzal ko'rishadi; qiz bolalar monologlikka moyil, eshitishni va o'zida aks ettirishni yoqtiradi;

o'g'il bolalar ko'proq virtual(mo'jiza)likka, xayolotga qiziqishadi; qiz bolalar o'g'il bolalarga qaraganda ratsional va pragmatik. Ular o'z tanlovlарини foydalilik nuqtai nazaridan, ya'ni tanlanayotgan narsa qanchalik maqsadga erishishga imkon berishiga qarab analga oshirishadi;

o'g'il bolalar o'z tuyg'ularini ochiq bayon etishadi; qiz bolalar o'z xohish va istaklarini yashirishadi, aytish uchun uzoq vaqt kutishadi.

Shaxs ijtimoiylashuvi. Ijtimoiylashuv insomning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo'lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo'lgan quyidagi holatlar aniqlangan:

shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o'tish jarayonida ro'y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeliklar hamda ularning ta'siri yetakchi o'rinn tutadi;

bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlari, ularning o'zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega;

shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi;

shaxs ijtimoiy ta'sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o'zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo'ldi – mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihatni hisoblanadi;

shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davrda shaxsning ijtimoiylashuvida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ldi;

ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo'lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqarciviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o'zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-

qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi – ta’lim-tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi.

Ijtimoiylashuv jarayoni o‘zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo‘lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o‘ziga xosliklari) ko‘ra murakkabdir. Ana shu sababli u o‘zida turli fanlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil – madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko‘rinishlarini aks ettiradi. Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o‘ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e’tibor bilan qarab o‘tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni – tarbiyalanganlik, ta’lim olganlik, ma’lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o‘zgarib borishi (mukammallahuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir.

Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o‘z-o‘zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o‘z hayot yo‘li uchun javobgarlikni his etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Pedagogikaning vazifasi – insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo‘lib yetishishiga, jamiyatda o‘z o‘mini va xulq-atvorini, o‘z istak-maqsadlarini yo‘nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashiga yo‘nalgan shaxs bo‘lishiga yordam berishdir.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiyl mexanizmlari mavjud:

ana'naviy – oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faoliyka jaib etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish;

institutsional – ijtimoiy institutlar va ta'lif muassasalari tomenidan o'quvchilarining rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish;

shaxslararo – o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jaib etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish;

refleksiv – o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini loyihalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongini taraqqiy ettirish.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy **mexanizmlari** mavjud:
ana'naviy, institutsional, shaxslararo, refleksiv

O'quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo'nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo'nga qo'yishda o'z isodasini topadi. Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajriba kabilar kiradi.

Ijtimoiy tajriba o'quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o'zida aks ettirib, faoliyatga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o'quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o'zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig'indisini o'zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini korrektsiyalash madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan «o'z-o'zini boshqarish tajribasi»ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida individni subyekt-subyekt munosabatlariga jaib etish; subyektda tashabbuskorlikni shakllantirish; hayotiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini tashkillashning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin.

Aksioologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllanirish ikkita o‘zaro aloqador yo‘nalishda amalga oshadi. Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma’naviy-axloqiy me’yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo‘naltirilgan orientatsiyani shakllanirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazaridan yuqori mavqega ega o‘z-o‘zini boshqarishda aks etuvchi o‘zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liqliknii o‘zida aks ettiradi.

O‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish pedagogik hodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo‘naltirilgan sohalar uyg‘unligini talab etadi hamda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik;

loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini anglash, individual xulq-atvor strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me’yorlarini qabul qilish va faoliyatta namoyon etish.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Individ» tushunchasi nimani ifoda etadi?
2. Odamning shaxs sifatida shakllanishining asosini nima tashkil etadi?
 3. Shaxsnинг rivojlanishi tushunchasiga izoh bering.
 4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
 5. Shaxs rivojlanishiga doir zamonaviy yondashuvlarni izohlang.
 6. Shaxs rivojlanishining yosh davrlariga tavsib bering.
 7. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari deganda nima tushuniladi?
 8. Shaxs ijtimoiylashuvining mazmun-mohiyatini yoritib bering.

1.4. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

Tayanch tushunchalar: jarayon, pedagogik jarayon, pedagogik tizim, yaxlit yondashuv, komponent, yaxlit pedagogik jarayon, qonuniyat, tamoyil.

Pedagogik jarayon va uning tuzilishi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, shu narsa ko'rindiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo'lsa, keyinchalik ta'lim va tarbiya bir-biriga qarama-qarshi qo'yila boshladi: o'qituvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyat parvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda obyektiv nuqtai nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F.Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta'limda vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa maqsad bor, vosita yetishmaydi.

Nemis pedagogi A.Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: «Ta'lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha».

Pedagogik jarayonning yaxlitligi masalasi K.D.Ushinskiy g'oyalarda chiqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma'muriy, o'quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi. K.D.Ushinskiyning taraqqiyat parvar g'oyalari uning izdoshlari: N.F.Bunakov, P.F.Lesgaft, K.B.Yelniskiy, V.P.Baxterov va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan.

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F.Kapterev alohida shug'ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko'ptomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: «Ta'lim, o'qitish, o'rgatish, tarbiya, pand-nasihat, o'git va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yaxlit pedagogik jarayondir».

Pedagogik jarayon – pedagogik fanlarning eng muhim, asosiy tushunchalaridan biri.

Pedagogik jarayon kattalarning pedagogik faoliyati va tarbiyachilarning boshqaruvchilik roli tufayli hayotiy faoliyat natijasida bolaning o‘zini-o‘zi o‘zgartirishining maqsadga yo‘naltirilgan mazmundor, tashkiliy barakatidir.

U haqiqatdan ilmiy asoslangan, rivojlantiruvchi va takomillashib boruvchi tizim sifatida mavjud bo‘ladi hamda tarbiya qonuniyatları, pedagogning ijodkorligi va ta’lim oluvchilarning yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlari dinamikasiga asoslanadi.

Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog‘langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo‘nalganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarning real o‘zaro harakatiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quv-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati – **yaxlitlik**, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati.

Yaxlitlik asosiga ta’lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta’milash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik jarayon – ko‘plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig‘indisidir. Unda o‘qitish, ta’lim, tarbiya, shaxsnинг shaklianishi va rivojlanishi jarayonlari **birlashadi**.

Pedagogik jarayonning umumiyligi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo‘ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari:

- uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi;
- undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;
- umumiy mavjudlik va o‘ziga xoslikni saqlashda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o‘zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin. **Tuzilish**(struktura) – bu tarkibiy qism(element)larning tizimdagи joylashuvидir. Tizimiarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo‘yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o‘zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: pedagoglar; tarbiyalamuvchilar; tarbiyaviy shart-sharoitlar.

Jarayonning **aniq maqsadli tarkibiy qismi** pedagogik faoliyatning barcha ko‘p obrazli maqsad va vazifalarini: bosh maqsad – har tomonlana va barkamol shaxsni tarbiyalashdan – alohida sifatlarni shakllantirishning aniq vazifasigacha o‘z ichiga qamrab oladi.

Mazmunli tarkibiy qism umumiy maqsad bilan birga, xuddi shunday aniq vazifani qo‘yadigan ma’noni aks ettiradi.

Faoliyatli tarkibiy qism – jarayonni tashkil etish va boshqarishda belgilangan natijalarga erishishga doir pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro harakati va ularning hamkorligi. Mazkur tarkibiy qism pedagogik adabiyotlarda tashkiliy yoki tashkiliy-boshqaruvgaga doir qism, deb ham nomlanadi.

Jarayonning **natijaviy tarkibiy qismi** uni amalga oshishi samaradoriigini aks ettiradi, qo‘ylgan maqsad bilan bog‘liqlikda muvafaqqiyatli o‘zgarishlarga olib kelish bilan xarakterlanadi.

Professor I.P.Rachenko ta’lim tizimidagi tarkibiy qism(komponent)larni quyidagicha strukturalashtiradi:

- tizim faoliyatini aniqlashtiruvchi maqsad va vazifalar;
- ta’lim va tarbiya mazmuni maqsad va vazifalarining amalga oshishini ta’minlovchi pedagogik kadrlar;
- tizimning ilmiy asosda ishlashini tashkil etuvchi ilmiy kadrlar;
- ta’lim oluvchilar;
- moddiy-texnik ta’minot;
- tizim va uning samaradorligi ko’rsatkichlarining moliyaviy ta’minoti;
- shart-sharoit(psixofiziologik, sanitar-gigiyenik, estetik va ijtimoiy);
- tashkil etish va boshqarish.

Amerikalik pedagog F.G.Kumba quyidagilarni ta’lim tiziminining asosiy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi:

- tizimning faoliyatini aniqlashtirib beruvchi maqsad va asosiy vazifalar;

- ta'lif oluvchilar hamda tizimning asosiy vazifasi hisoblanuvchi o'qitish;
- tizim faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlik va baholashni amalga oshiruvchi boshqarish;
- turli vazifalar bilan bog'liqlikda o'quv muddati hamda ta'lif oluvchilar guruhining tuzilishi va taqsimlanishi;
- mazmun – eng asosiysi, ta'lif oluvchilar ma'lumotga ega bo'lishlari shart;
- o'qituvchilar;
- o'quv qo'llanmalar: kitoblar, doskalar, xaritalar, filmlar, laboratoriyalar va boshqalar;
- o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan bino;
- texnologiya – ta'lifda foydalilanadigan barcha metod va usullar;
- bilimlarni baholash va nazorat qilish: qabul qilish, baholash, imtihonlar, tayyorgarlik sifati qoidalari;
- bilimlarni oshirish va tizimni takomillashtirshi uchun tadqiqot ishlari;
- ta'lif samaradorligi ko'rsatkichlari.

Pedagogik jarayon qonuniyatları – bu ob'yektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorlik, mazkur jarayonning alohida tomoni.

Pedagogik jarayon qonuniyatları – bu ob'yektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorliklar yig'indisi.

Pedagogik taraqqiyot sifatidagi bu qadar murakkab, katta va dinamik tizimda ko'plab turli tavsiyiy aloqalar namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon qonuniyatlarining yagona tasnifi mavjud emas. Shu sababli quyida mavjud tasniflardan ba'zilarini ko'rib o'tamiz.

I.P.Podlsiy tasnifi bo'yicha:

Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o'ziga xosliklari bilan aniqlanadi.

Ta'lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o'zaro bog'liqligini, ularning ko'ptomonlama o'zaro ta'sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.

Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash – faoliyatning turli turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.

Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning obyekti(shaxs) bir paytning o'zida subyekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatlari amalga oshadi, ya'ni shaxs o'zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.

Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar – o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro harakatida kechadi.

Bola tarbiyasi muvafaqqiyati to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo aloqalarning intensivligi va boyligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati – ta'lim oluvchining keyingi barcha muvafaqqiyatlarining qimmati uning dastlabki bosqichlardagi muvafaqqiyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonda shaxsnинг rivojlanishi qonuniyati – shaxs rivoji darajasi va sur'ati: irsiyat; tarbiya va ta'lim muhiti; pedagogik ta'sir etish usul va vositalarining qo'llanishiga bog'liq bo'ladi.

O'quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati – pedagogik ta'sirning samaradorligi: ta'lim oluvchilar va pedagoglar orasidagi gayta aloqafarning intensivligi; ta'lim oluvchilarga ko'rsatiladigan korrektsiyali ta'sirlarning asoslanganligi hamda xarakteri, qimmatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jarayonda hissiyot, mantiqiylilik va amaliyotning birligi qonuniyati – o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi: hissiy idrokning sifati va intensivligi; idrok etilganning mantiqiyl anglanganligi; anglanganning amaliy qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

Tashqi(pedagogik) va ichki(bilish) faoliyatning birligi qonuniyati – pedagogik jarayonning samaradorligi: pedagogik faoliyatning sifati; tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quv-tarbiyaviy faoliyatining sifatini shart qilib qo'yadi.

M. Kodjaspairov bo'yicha:

Ijtimoiy shart-sharoitlar bilan shartlanganlik qonuniyati: ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlarga bog'liqligi.

Inson tabiatini bilan bog'langanlik qonuniyati: shaxsni shakllantirishda muloqot va faoliyatning hal qiluvchilik roli; ta'lim va tarbiyaning ta'lim oluvchilarining yosh va individual o'ziga xosliklariga bog'liqligi.

Tarbiviylar jarayon mohiyatining shartlanganlik qonuniyati: tarbiya, o'qitish, ma'lumot va shaxs rivoji jarayonlarining o'zaro bog'liqligi; o'quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs va ijtimoiy guruhlarning o'zaro aloqasi.

M.Kodjaspairovning mazkur tasnifi Yu.K.Babanskiyning tasnfiga juda yaqin. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlari, aynan akademik Yu.K.Babanskiy tomonidan sodda va tushunarli ochib berilgan:

Ta'lim va tarbiya jamiyatning chtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlariga bog'liq holda amalgga oshadi.

Tarbiya, o'qitish, ma'lumot va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi qonuniyati.

Tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning birligi qonuniyati.

Ta'lim va tarbiya jarayonida muloqotning hal qiluvchilik roli qonuniyati.

Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

Pedagogik jarayonda jamaa va shaxsning o'zaro aloqadorlik qonuniyati.

Pedagogik jarayon vazifalari, shakllari, metodlarning o'zaro aloqadorlik qonuniyati.

Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillari. Yaxlit pedagogik jarayon qonuniyatlari singari tamoyillari masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto ba'zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e'tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qonuniyatlар obyektiv, eng muhim, barqaror, o'zgarishdagi, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlardan uni samarali tashkil qilishga nisbatan

muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar(prinsiplar) deb ataymiz.

Pedagogik jarayon qonuniyatları asosida uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan qo'yiladigan muhim talablar **tamoyillar** deb ataladi.

Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasniflari adabiyotlarda o'z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o'rGANIB chiqilsa, tasniflarning bir-biriga yaqinligini ko'tish mumkin. Shu sababli biz quyida ko'pchilik tomenidan tushunarli deb topilgan ikkita (Yu.K.Babanskiy, B.T.Lixachev) tasnifini keltirib o'tishni ma'qul deb topdik.

Yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarining Yu.K.Babanskiy bo'yicha tasnifi:

- pedagogik jarayonning maqsadga yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;
- ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarllik;
- tizimlilik va ketma-ketlik;
- onglilik, faollik, tashabbuskorlik, ta'lim oluvchilarning ijodkorligi;
- ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;
- ta'lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;
- ko'rgazmalilik;
- ongli talabchanlik bilan birlgilikda ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;
- ta'lim va tarbiyaning qo'lay metod, shakl va vositalarini tanlab olish;
- sababiylilik, onglilik hamda ta'lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalarini;
- tarbiyaga kompleks yondashuv.

B.T.Lixachev tasnifi:

- o'quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-qadriyatli maqsadga yo'nalanligi;

- ta’lim oluvchilar faoliyatining turli turlarining o‘zaro harakatini tashkil etishga kompleks yondashuvning amalga oshirilishi;
- butun o‘quv-tarbiyaviy ishlarning hayot bilan bog‘liqligi;
- ta’lim va tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, janoada ta’lim va tarbiya;
- ta’lim oluvchilarga talabchanlik va hurmatning birligi;
- ta’lim oluvchilar hayotiga rahbarlik qilishda ularning tashabbuskorliklarini hisobga olish;
- barcha ta’lim oluvchilar hayotini estetizatsiyalash;
- ta’lim va tarbiyaning boshqaruvchilik roli;
- ta’lim oluvchilarning bilish, mehnat va boshqa faoliyatlarini rag‘batlantirishni hisobga olish, ularda ishga bevosita qiziqish uyg‘otish orqali axloqiy-irodaviy kuchini faollashtirish;
- ta’lim oluvchilarda barcha turdagи fikrlashni rivojlanishini hisobga olish, ketma-ketlik va tizimlilik;
- ko‘rgazmalilik;
- tushunararlilik;
- sababiylilik.

Umuman olganda, yaxlit pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlarining umumiyligi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering.
2. Yaxlit pedagogik jarayonning komponentlariga nimalar kiradi?
3. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatları deb nimaga aytildi?
4. Yaxlit pedagogik jarayonning qonuniyatlariga tavsif bering.
5. Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillari tushunchasiga ta’rif bering.
6. Yaxlit pedagogik jarayonning tamoyillariga izoh bering.

II BOB. DIDAKTIKA – TA’LIM NAZARIYASI

2.1. DIDAKTIKA – PEDAGOGIK TA’LIM NAZARIYASI. O’QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

Tayanch tushunchalar: didaktika, o’qitish, o’qitish jarayoni, didaktikaning asosiy kategoriyalari, ta’lim paradigmalari, ta’lim qoninuyatlari, ta’lim tamoyillari.

Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktika pedagogika nazariyäsining nisbatan mustaqil qismi bo’lib, unda o’qitish jarayonining emumiy qonuniyatları ochib beriladi. Didaktikaning so’zma-so’z tarjimasi «ta’lim nazariyası» ma’nosini anglatadi. Didaktika «yunoncha» so’zdan olingan bo’lib, «didacticos» – o’rgatish, o’qitish ma’nosini bildiradi.

Didaktika – ta’lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslاب beruvchi ta’lim nazariysi, pedagogikaning alohida sohasi.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571–1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida u fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy sohani tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chek tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o’rgatish san’ati» deb tushuntirdi.

«Didaktika» ataması ilk bor nemis pedagogi Wolfgang Ratkening «Didaktika yoki ta’lim san’ati» (1613-yil) deb nomlangan ma’ruzasida qo’llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chek pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tarmoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Didaktika «nimaga o'qitish?», «imani o'qitish?» «qanday o'qitish?» «qayerda o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktikaning obyekti – o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyat) va o'rganish (o'quvchilarining bilish faoliyati), ularning o'zaro harakati aks etadi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarining maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'liga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarida dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aysak, butun

o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbü jarayonda o'quvchilar bilan bиргаликдаги фаолиятни ташкил этади. О'кувчиларга қиyingchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lif jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lif jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'п qirrali yo'nalgar harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

Didaktikaning **asosiy kategoriyalari** quyidagilardan iborat: *o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lif, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.*

O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O'rganish – anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

Ta'lif – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim – ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi;

Ko'nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.

Maqsad – o'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar ctilishi.

Mazmun – o'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchununga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

Vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt.

Natija – o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Zamonaviy ta'lif paradigmalari. Paradigma (grekeha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Ta'limumning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'imasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rinn egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson

hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e’tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish chtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e’tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovnin amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoraliq, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o‘rnatalish jarayonida sodir bo‘ladi.

Asosida ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo‘shishgan; yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birligidagi faoliyatni roli haqidagi ta’limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatları haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamenaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta’limiy, tarbiyaviy), ta’limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o‘quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro ta’sir etish tafsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi.

Ta’limning keng tarqalgan **beshta paradigmasi** mavjud: an’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi); ratsionalistik (bixevoiristik, xulq-atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

An’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan) paradigma. Bilimga yo‘naltirilgan paradigmada ta’limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta’lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko‘proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko‘nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon

bo'ladı. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, assosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsnинг funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevoiristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigm an'anaviy paradigmaga qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmunni emas, o'quvchilarning turli turdagı bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lif paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevoiristik konsepsiysi turadi. Ta'lif muassasasining maqsadi – ta'lif oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talabları va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi «barcha turdagı reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrashi, his-tuyg'usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta'lif muassasasiga ta'lif oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lif muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korreksiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasingining diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot subyekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lif oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'lifning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyalli munosabat, ya'ni ta'lif muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lif tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lif va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik

paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

– ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarни tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarда umuminsoniy, unummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

– milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

– ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g'oyalariiga asoslanish;

– shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

– o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

– ta'lim jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

– pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, o'quvchilar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

– mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

– ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalarishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u

yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv munassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

ta'larning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'limg standarti, milliy madaniyat va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvosiq darajasi.

Ilmiy-teknik, texnokratik paradigmasing bosh maqsadi amaliy tukomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo'q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyaligi – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiylar paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimasi «sirli», «yashirin» ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdarlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'limgan oluvchilarining axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. O'qitish – o'qituvchi va o'quvchilarining maqsadga qaratilgan birlilikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarini rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to'liq anglash mumkin:

$$DJ = M + A_{o\cdot r} + A_{o\cdot fb}$$

Bu yerda:

DJ – didaktik jarayon.

M – motivatsiya.

$A_{o\cdot r}$ – o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati algoritmi.

$A_{o\cdot fb}$ – o'quvchilarning billish faoliyatini boshqarish algoritmi

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O'qitish jarayonining **ta'limi vazifasi** o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat. O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chiqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida abamiyatga ega.

O'qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Ta'limga tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsiyal-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarni ajratma bilish, faoliyat

maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'llidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- 1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;
- 3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetentsiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan obyekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va faqmlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va

malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko'nikma malaka va kompetentsiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokazojariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilonaga biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobjiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialini egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ma'lumki, bilish faoliyatining subyekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida

namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori surajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy huoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jilb etilayotgan ta'llim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktuv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xarakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta aloqasidir. O'quvchilarning ta'llim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, «men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas» degan fikri qat'iy takrorlashi bejiz cinas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'liga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quvharakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiyl

yo‘nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o‘quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobjiy ta’sir etadi.


Ma’lumki, o‘quv jarayoni modeli o‘zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati hamda o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning jadal o‘zaro faoliyati. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko‘ra tasnif etish mumkin: yo‘nalganligiga ko‘ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko‘ra (o‘zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo‘nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko‘ra.

O‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida turli darajadagi faoliyknii namoyon etishadi. Ana shu sababli, o‘quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazaridan qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zatur: o‘quv faoliyatining inkor etilmagan tavsisi asosida unga munosabat o‘zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo‘tadillashgan bosqichga o‘tish sifatidagi vaziyatlari faoliyat; o‘quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyat; o‘quvchining subyektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytigarlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko‘rsatkichi sifatida mo‘tadillik, ishtiyoq, o‘rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo‘lishi, nostandard o‘quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o‘quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o‘tish muunkin (4-rasm).

O‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki va faolliginining namoyon bo‘lishi – bu rivojlanib boruvchi, o‘zgaruvchan jarayon. O‘qituvchi yordamida o‘quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatlari-faoliyka, undan faol ijrochilikka o‘tib beradi. Ko‘p jihatdan o‘quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko‘tarilishi yoki ko‘tarilmasdandan qolishi o‘qituvchiga bog‘liq.

Bilish faolligi ko'rsatkichlari



4-rasun. O'quvchilarining bilish faoliyati ko'rsatkichlari

Didaktlarning ishlarida shu narsa yaqqol ko'rindiki, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat subyekt-subyekt tavsifiga ega bo'lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish umuminki, ta'lim – bu keng tarzda sotsiumning bo'lajak a'zosini umumiyl mehnat, hamkorlikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarining rollar orqali namoyon bo'lishi quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtiroychisi;
- namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi.

Ta'lim jarayoni qonuniyatları. Pedagogikada qonuniyatlar – bu qonunlarning aniq sharoitldaridagi harakat ifodasi. Ularning

asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta'lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko'rib bo'lmaydi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'yekтив, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik **ta'lim qonuaniyat** deb ataladi.

Ta'limninig umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kirdi:

ta'limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqligidagi aniqlashtiriladi;

ta'lim mazmunini belgilashda ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta'lim nazariysi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;

ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldarligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatları va ta'lim vaqtiga bog'liq;

ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga; o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlariga; ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq;

ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korreksiya, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq;

ta'limda rag'batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Shuningdek, pedagogikada ta'limning xususiy qonuniyatları ham mavjud: **gnoseologik**: ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq;

psixologik: ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga;

xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq;

kibernetik: ta'lism samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sisati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lism sisati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq;

sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga; ta'lism samaradorligi «intelлектual muhit»ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq;

tashkiliy: ta'lism natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq.

'Ta'limga xususiy qonuniyatlariga gnoseologik, psixologik, kibernetik, sotsiologik, tashkiliy qonuniyatlar kiradi.

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim yamoyillari o'quv jarayonining umumiylarini maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limga mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta'lim mazmuniga aloqador tamoyillarga quyidagilar kiradi: insonparvarlashtirish; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik; ilmiylik; ta'limga fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi; ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.

Ta'limni insonparvarlashtirish – uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlanirishga yo'naltirishdir.

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarining ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlanirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirot etishga jalg etish, uning bilish bilan qo'shilivi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'limgan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naitirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiat bilan uyg'un bo'lishi lozim.

Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshitma olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini

tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamidagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatdagi o'rnnini aniqlash imkonini beradi. Ta'larning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'limg o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'limg asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlari – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'limg berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'larning ilmiylik tamoyili – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'limg mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'limg vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtida amalga oshiriladigan ta'limg mazmuni o'quvchilarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'larning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining abamiyati shundaki, umuiy o'rta ta'limg maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'larning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilumlarini

doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning fundamentalligi bilimlar mazmumining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsn shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga quyidagilar kiradi: ta'limning tizimliligi va izchilligi; ta'limda onglilik, faoliy va mustaqililik; ko'rsatmalilik; ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi; ta'limda bilim ko'nikma va malakalarini puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili; tushunarlilik.

Ta'limning tizimliligi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzlusiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subyektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis -- qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rta sidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimliliği va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladı.

Ta'linda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'linda ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta'linda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilarini bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarası 15%, ko'rib qabul qilish esa – 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtida ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiyligi tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvosiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasini pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdag'i sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qo'lay olish malaka bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiyligi eng fundamental g'oyalari, qoidalari, tushunchasi, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsiyallarni qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va

natijalarini hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv tarmog'ning o'quvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan qavonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu belalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'qov masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktika nimani o'rGANADI? Mezkur sohaning obyekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asesiy kategoriyalarini sahab bering.
3. Zamonaviy ta'lim paradigmalariga nimalar kiradi?
4. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
5. O'qitish jarayonining bosqichlariga ta'rib bering.
6. O'quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklarini izohlang.
7. Ta'lim qonuniyatları deganda nimani tushunesiz?
8. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatları mavjud?
9. Ta'limning xususiy qonuniyatlariga nimalar kiradi?
10. Ta'lim tamoyillari deb nimaga aytildi?
11. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?
12. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.

2.2. TA'LIM MAZMUNI

Tayinbek tushunchalar: ta'lim mazmuni, kompetentsiya, Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, o'quv dasturi, malaka talabari, o'quv-metodik majmuasi.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni deganda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarining aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

Ta'llim mazmuni tarkibida quydagilar aks etidi: elam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari, ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsiional-faoliyat tajribasi.

Ta'llim mazmuni takomillashib borish ravsifiga ega bo'lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quydagi larni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlangandik darjasini;
- 2) jamiyat tomonidan qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma;
- 3) ta'llimning maqsad va vazifalari;
- 4) innovatsion rivojlanish darjasini;
- 5) axboretlarning hajmi va ko'lami;
- 6) o'quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta'llim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta'llim mazmumini modernizatsiyalashni davrning o'zi pedagogiarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yemoqda. Hozirgi vaqtgacha ta'llim mazmumini loyihalash tizimli-faoliyati yondashuvga asoslangan bo'lsa, umumiy o'rta ta'llim maktablarining maqsadini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tarzidan o'z-e'zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyati yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgiash talab etilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'llim maktablarida tashkil etilayotgan o'quv-tarbiya jarayonining mohiyati o'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shaklantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o'zlashtirilgan ma'lumotlar o'quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlautirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o'quvchilarda juda ko'p axborotlarning behuda jang'arilayotganligi, ta'llimning samarasini past bo'lishi va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko'zga tashlanmoqda. Aniqrog'i, o'quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga feqat ilgaridan to'plangan axborotlarnigina o'zlashtirish

maqsadi qo'yilgandek tuyuladi. Ta'limning maqsadini bunday tarzda belgilash o'quvchining faolligini cheklab qo'yadi, eqibatda ueng ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma'nosi yo'qoladi.

Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'lli umumiy o'rta ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o'rta ta'lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o'rta ta'lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo'lsada, u pedagogika fanida chuqur angjab yetilganligi va o'z o'tniga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, so'unggi vaqtarda ta'limga doir muammolarni tablil etishda «kompetensiya», «kompetentlik», «tayanch kompetensiyalar» kabi atamalardan keng soydanilmouqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarini aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o'quvchidan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyatda qo'llash o'z navbatida ta'lime jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashfirishni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o'rta ta'limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanasi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) — «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni oltita birlik (sikstet) — «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Amaliy faoliyat tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tahlil etilishi talab etiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvvia ta'llimning an'usiyiy uchib elementi (triada) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka»ni olibta etish (sikstet) – «Bilim – Ko'nikma – Malaka – Analig fatlyu tajribasi – Kompetensiya – Kompetentlik» tarzida tabbi etish talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'linda kompetent yondashuvni tafbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta'llidan farqli ravishda «umumta'limiy kompetensiya» tushunchasini ta'llim smisliyatiga tafbiq etish maqsadga mavofiqdir. Chunki umumta'lim maktabi o'quvchisi hali ma'lum bir kompetensiyanı o'zida to'liq aks etirish olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishiga qodirdir.

Umumta'limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy aharziyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan rejal vogelikning aniq belgilangan obyektlariga manusabaiini toqozo eruvchi o'quvchining semantik (ma'no-mazmun) yo'nalishganligi, bular ko'nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta'limiylar tayyorlarlikka qo'yiladigan talabdir.

O'quvchi uchun kompetensiya – ba uning kelajak obrazi, o'zlashtirish uchun aniq mo'ljal (orientir). Biroq maktab ta'limi davrida o'quvchida «yuksak» kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi besqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarini umumta'limiylar nuqtai nazardan o'zlashtiradi.

Umumta'limiy kompetensiyalar maktabda o'qitiladigan fanihami o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to'liq ro'yebga chiqarishni ta'minlay olishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni alohiba ta'kidlab o'tish joizki, maktab ta'limi davrida o'quvchi eng asosiy – fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtiradi va ta'llimning keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

Ta'llim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. Ta'llim mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

Ta'lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmuniga an'anaviy bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o'quv jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko'zda tutadi. Bu umumiy o'rta ta'lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o'zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog'liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta'lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o'quv fani, o'quv materiali, pedagogik faoliyat, o'quvchi shaxsi kabi komponentlarining o'zaro mosligini ko'zda tutadi.

Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o'quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o'zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liqdir. Buning uchun insonparvar g'oyalar umumiy ta'lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro munosabatlari tamoyilining o'zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo'nalanlik tashkil etishi zarur.

Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta'limni insonparvarlashtirishdagi to'siqlarni yo'qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o'matish va fanlararo aloqalarni o'quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini o'sib boruvchi yo'nalishda rejalashtirishdan iborat bo'lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta'lif mazmunining muntazamliligi tamoyili. Ushbu tamoyil o'rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdag'i o'mi, umumiyligi o'rta ta'lif, barcha o'quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Ta'lif mazmunining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta'lif mazmunini loyihalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko'zda tutadi. Ma'lum bir yosh davriga mos bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta'lif mazmunida aks ettiriladi.

Ta'lif mazmunini loyihalashtirishda quyidagi **mezonlarga** asoslaniladi:

ta'lif mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish;

ta'lif mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi;

ta'lif mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi;

ta'lif hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

ta'lif muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

ta'lif mazmunini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olish.

Ta'lif mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar. Ta'lif mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me'yoriy hujjat Davlat ta'lif standartidir. O'quv reja, o'quv dasturi, malaka talablari uning tarkibiy qismiga kiradi.

«Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miyisosidagi turli ta'lif muassasalarida ta'lifning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta’lim standartining maqsadi – umumiy o’rtalik tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta’lim standartining **vazifalari** quyidagilardan iborat:
umumiy o’rtalik mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va metodlarini joriy etish;

o’quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o’rtalik muassasalarining o’quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatlari tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

ta’lim va uning pirovard natijalari, o’quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo’yiladigan xalqaro talablarga muvosiqiligini ta’minlash.

Davlat ta’lim standarti quyidagi **asosiy tamoyillarga** asoslanadi:
o’quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o’rtalik mazmunining insonparvarligi;

davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o’rtalik limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzlucksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta'lim standarti quyidagi **tarkibiy qismlardan** iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning **tayanch o'quv rejasi** umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagani holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o'rtta ta'larning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o'rtta ta'larning malaka talablari umumita'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat.

Umumiy o'rtta ta'larning **malaka talablari** quyidagilardan tashkil topadi: bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi – davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rtta'larning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rtta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari asosida o'quv materiallari o'quv-metodik majmuada o'z ifodasini topadi.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashiq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim

oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa – bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rghanishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarida o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rghanish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishslash jarayonida ta'limning boshqa vositaları (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapositiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishslash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o'qitish vazifasi darslik bilan ishslashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Mashq daftari – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar,

mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalilaniladigan vositalar va ulardan foydalinish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lif standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lif olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lif resursi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ta'lif mazmuni deb nimaga aytildi?
2. Ta'lif mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushiniлади?
4. Ta'lif mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering.
5. Ta'lif mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta'lif standarti nima va u qanday komponentlardan iborat?
7. Tayanch o'quv rejasiga izoh bering.
8. O'quv dasturida qanday masalalar o'z aksini topadi?
9. O'quv-metodik majmua nima va u o'z ichiga nimalarni qamrab oladi?

2.3. TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI.

Tayanch tushunchalar: metod, ta'lif metodi, ta'lif usuli, qoida, interfaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, ta'lifning texnik vositalari.

Metod, usul va texnologiya. Ta'lif metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin. Ko'pchilik mualliflar ta'lif metodini o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

Shu qoidani boshlang'ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada bat afsil ko'rib chiqish va uning ilmiy ta'rifiiga kelishga harakat qilamiz.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko'rinadiki, bu o'rinda ham o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o'quvchilarning faol o'quv-bilish faoliyatini uyg'unlashadi.

Ta'lif metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Didaktikada, shuningdek, ta'lif usullari atamasи ham keng qo'llanadi. **Ta'lif usuli** – ta'lif metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo'lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu

metod turli o'qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi muvaffaq.

Ta'llira usul -- o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida uchunchi usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'liqdir. Usullar yordamida saqat o'quv vazifasining bir qismi bo'lib qoladi.

Mazkur o'qituvchilar tomonidan ko'p qo'llaniladigan mashq qurashingizda ko'va amaliy metod hisoblansa, uni qo'llash esa bir nechta - sulur (mashqning qoidasini o'qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko'rsatish (2-usul), o'qituvchining namumasi asosida o'quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o'quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzmasht (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi.

O'qituvchilarning ayrimlari esa, «metod» tushunchasining e'miga xosligi tushunchasini ham qo'llaydilar. Animo «ushbu» teshunchasi «metod» atamasining mohiyatini o'zida to'liq aks ettira olmaydi. Chunki ushbu ko'proq xususiy (so'z berayotgan holatda aynan o'qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo'lib, aniq maqsadga erishish yo'lli sifatida xizmat qila olmaydi.

Pedagogik texnologiya -- bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalarishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoni mazmunidir.

Ta'llim amaliyotida «pedagogik texnologiya» tushunchasi uch carajada qo'llaniladi:

Umuropedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo'lib, ularga moammoli, tabaqalashtirilgan, integrasion, shaxsiga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli, masofali o'qitish texnologiyalarini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur texnologiyalar innovatsiye tavsifiga ega bo'lib, novator o'qituvchilar, olimlar va izlamuvchilar tomonidan ishlab chiqiledi hamda samaradorligi kafolatianganidan va amaliyotga keng tarbiq

etish imkoniyatiga ega bo'linganidan so'ng uni amaliyatchi o'qituvchilar o'z faoliyatida qo'llaydilar.

Xususiy-metodik (mezo) daraja. Ushbu daraja o'zida ma'lum bir o'quv fanini o'qitish jarayonini loyihalash va tejashtirishni o'zida aks ettiradi. Masalan, o'qituvchi darsni har safar texnologik modeli va xaritasini tuzib kelishi kerak. Hozir ko'p ta'kidlanayotgan texnologik model loyihalashga, texnologik xarita rejlashtirishga to'g'ri keladi. Natijada har bir famni o'qitish texnologiyasi yuzaga keladi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sisatlarini shakkantirish, maxsus o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchilarning mantiqiy fikrleshini shakkantirish texnologiyasi, o'quvchilarning aqiliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi va boshqalar.

Metodika – qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. "Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shaki, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.

«Metodika» va «texnologiya» tushunchalarining babs doirasasi bilan ham bog'liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim «Qanday o'qitish?», «Nima uchun o'qitish?», «Nimaga o'rnatish?» kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, «Qanday tarzda samarali o'qitishga erishish mumkin?» degan savolni markazga qo'yadi. Metodika o'quv jarayoninin qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo'sinda o'quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e'tiborni qaratadi.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Didaktik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda

tanlangan yondashuvga bog'liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to'xtalamiz.

Ta'llim metodlari tasnifi:

An'yanaviy (xuanbasiga ko'ra) ta'llim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzifin va bosh.)

Og'ezalgi	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Video-metod
Mikoya Sabibut Tushunishish Ma'tuza Munozara	Miyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish, O'rganish, Nazerat qilish

O'quvchilarning bitish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'llim metodlari tasnifi (J.Va.Lerner va M.N.Skatkin).

Ta'llim metodining nomralishishi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
Axboriy-retseptiv	O'quv axberotini uzatish, o'rganilayotgan obyekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosiq qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Narmuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash
Muammleli bayon etish	Muammoni yo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismalarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish
Evidenslik	Muammoni yo'yish va	Qo'yilgan vazifa bilan

(qisman-izlanish)	uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	beg'ilajikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil iclash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida meammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir meammomi vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilev va B.P.Esipov):

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari.

Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

O'rgatish metodlari	O'rganish metodlari
Axbority-ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktry
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi (Yu.K.Babanskiy):

- Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'battantirish metodlari.

- O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashitirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliklar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O’n minutlik esse.

Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmuni.

Hikoya – o‘qituvchi tomonidan mavzuga cid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasи ko‘p jihatdan o‘qituvchining nutq mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Shu bois hikoya mazmuni o‘quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni saralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga e’tiborni qaratadi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi bo‘lib, u fanga qadirindan ma’lum, hatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mehirona foydalangan. Suhbat ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi)ni bajaradi, ammo asosiysi o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos

harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binebarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarining diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarining javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalgalashadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiylashtirishda xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarini yangi bilimlarni bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiylashtirishda xususiy xulosalarga keladilar. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya’ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Tushuntirish o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo’llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniлади. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasini ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Maktab ma’ruzasi mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma’ruza maktab sharoitida yugori sinflardagiga

qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Ta'lif sifati va samaradorligini ta'minlashda **ko'rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'r ganiladi. Illyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l kefadi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqoni ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'r ganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

Amaliy metod – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar cehimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash ko'nikmasi hosil qiliradi. Amaliy ishlar sinfa yoki tabiiy sharoitlar – muktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnomalar yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoni) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoni va boshqa turlarga bo'linadi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, quroq hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar

asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lhash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqt ni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faoliigi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lhash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining biilishga bo'lgan qiziqishi va faoliik darajasini rag'batlantruvchi o'quv faoliyati turi. Ayni vaqtida o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Ta'lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta'limming umumiylar maqsadlari.
- Fanning va o'rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o'ziga xosliklari.
- Biror sanni o'qitish metodikasining o'ziga xosliklari.
- Materialni o'rganishga ajratilgan vaqt.
- O'quv mashg'ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O'quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
- Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganligi.
- O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Ta'lim vositalari. Ta'lim metodlari ta'lim vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari – bu yangi bilimiarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalilanadigan obyekt. Ta'lim vositalari katta ahamiyatga ega.

Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqiyatli amalga oshiradi.

Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odadta ular ta'lim metodlariga mos holatda foydalaniadi. Biroq agar metodlar «qanday o'qitish» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida nimani o'qitish» savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriylar, axborot vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini bosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta'lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Fanni o'qitish bilan bog'liq holda ta'lim vositasi tanlanadi. O'qituvchi o'zining ixtiyori bo'yicha ko'rgazmali material, o'quv qo'llanmadan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositasini qo'llashning yana bir jihatni albatta ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta'lim vositasini tanlab olish ta'lim metodini tanlash bilan bog'liq. Agar ta'limning faol metodi (kitob bilan ishslash, mashqlar) foydalanssa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va ta'limning texnik vositalaridan foydalaniadi. Aynan ta'limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniadi.

Ta'limning passiv(sust) metodlari (o'quvchilar eshitadi, ya'ni hikoya, ma'ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta'limning ko'rgazmali

vositalaridan foydalaniładi. Ta'larning ko'rgazmali vositalari pedagogning o'zi tomonidan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o'lechov va mutanosiblikka e'tibor berish kerak. Masalan, ko'rgazmali vositalarning soni yetarli bo'lmasligi bilimlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, bilihga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarning o'r ganilayotgan fanga yengil-yelpi qara-shiga olib keladi. Murakkab mavzularni o'r ganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

Ta'lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo'llanilishiadir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollishtirish uchun ta'larning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta'lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

- faoliyat subyektiga ko'ra;
- faoliyat obyektiga ko'ra;
- o'quv axborotiga munosabatiga ko'ra;
- o'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.

Faoliyat subyekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'r ganishga bo'linadi.

O'qitish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi toionidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

O'r ganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo'llaniladi.

Didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo'linadi. Birinchisiga ko'ra, narsalar o'qituvchi tomonidan ta'larning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo'llanilsa, ikkinchisi – bu o'quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlari. Bunday tashqari didaktik vositalar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat turiga ko'ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo'linadi.

Faoliyat obyektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar, mebel, o'quv-laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va o'quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammlar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita(grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita(tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to'ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg'otish, amaliy harakatlarni amalga oishirish bilan bog'liq bo'lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog'liq.

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazorat qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayenidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot) o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o'quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) – haqiqiy(original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammlar, kartalar; audial(eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual(ko'rish-eshitish) – ovozli

filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'limning texnik vositalari. TTV – bu o'zida o'quv axborotlarini ekrani-ovozi aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o'quv kinofilmrlari; diafilmrlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko'rsatuylar.

Ta'limning texnik vositalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: axborot; aralash(kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta'limning texnik vositalari quyidagi **funksiyalarni** bajaradi:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;
- o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- o'quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o'zini-o'zi nazorat qilishni ta'minlaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ta'lim metodlari deb nimaga aytildi?
2. «Ta'lim usuli», «pedagogik texnologiya», «metodika» tushunchalariga izoh bering.
3. Ta'lim metodlari tasnifini izohlang.
4. Ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatini bayon eting.
5. Ta'lim vositalari deganda nima tushuniladi?
6. Ta'lim vositalari tasnifini izohlang.
7. Ta'limning texnik vositalariga nimalar kiradi?

2.4. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI. DARS – TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI.

Tayanch so'zlar: tashkil etish, shakl, ta'limga tashkil etish shakli, ta'limga tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari, ta'limga tashkil etishning yordamchi shakllari.

Ta'limga tashkil etishning shakllari. Ta'limga tashkil etish shakli – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasıdır.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limga tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limga tashkil etishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtida ta'limga tashkil etishning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: **individual**, **individual-guruhli**, **sinf-dars**, **leksiya-seminar** va **sinfdan tashqari**, **auditoriyadan tashqari**, **maktabdan tashqari**. Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilaringa ko'ra quyidagi **uch asosiy turga** ajratiladi:

- 1) individual;
- 2) sinf-dars;
- 3) ma'ruza-seminar.

Qadim zamoniarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli **ta'limga individual shakli** hisoblanadi. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi; 2) aniq bir masalani hal etishda ta'limga oluvchining	1) vaqtning tejamli emasligi; 2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.	3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi); 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.
--	---

XVI asrdan boshlab individual o'qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o'rmini **ta'limning individual-guruqli shakli** egallashiga imkon berdi.

Ulardan biri bolalarning **guruqli (jamoali) ta'limi** sanaladi. U G'arbiy Rossiya (hozirgi Belorusiya va Ukrainianing g'arbiy qismlari) **birodarlik** maktablarida ilk bor qo'llanilgan va u sinf-dars shaklining asosi bo'lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jhatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga *o'quv yili, o'quv kuni, dars, mashg'ulotlar orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari* kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelimoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
<p>1) yaxlit o'quv-larbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;</p> <p>2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtaida o'zaro munosabatlarning shaklianish imkoniyati;</p> <p>3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsiional ta'sir ko'rsatishi;</p>	<p>1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi;</p> <p>2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;</p> <p>3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha</p>

<p>4) ta'limning emotsiyonalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga imusobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi;</p> <p>5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning mutazamligi va ketma-keiligi.</p>	<p>individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;</p> <p>4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtaсидаги munosabatlarning qaror topmasligi.</p>
--	--

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda **tanlab o'qitish** shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada **Mangeym tizimi**).

Yevropa va AQShda XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarni ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lif tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusetts shtiati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **ta'limning individuallashtirilgan tizimi** ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan **laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi** deb ham ataydilar.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning ma'ruza-seminar tizimi** yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksiya-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oly va oly maktabdan keyingi ta'lif amaliyotida qo'llaniladi.

Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan

o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilari ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimiarni bayon qilish darsi.
- O‘rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);
- v) yangi mavzuni bayon qilish;
- g) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) o‘quvchilarni baholash;
- e) uy vazifasi.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) yangi mavzuni bayon qilish;
- v) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;
- d) uy vazifasi.

O‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilgan mavzularga doir savol-javob o‘tkazish;

- v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

- a) taskiliy qism;
- b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
- v) nazorat ishini o'tkazish;
- g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) taskiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) laboratoriya ishini o'tkazish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) taskiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy vazifani hal etishga yo'naltiriladi: **o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish.** Ana shuni hisobga olib darsga didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablar qo'yiladi.

Didaktik (yoki ta'limi)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakl, metodlar va vositalardan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilalar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, uquvchanllilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyati ijobjiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, «rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish», «o'zib ketish» darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilalar kiradi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to'rtta bosqich ko'zga tashlanadi: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish.** Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi. **Tashxis** didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatları va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatları, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi. **Bashoratlash** bo'lajak darsni tashkii etishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan

mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish. **Loyihalashtirish va rejalashtirish** o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzitgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir.

Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Ta'limning yordamchi shakllariga to'garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar kiradi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqtini va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqishini va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga **ekskursiyalar** ham kiradi. Ular omnaviy, guruqli va kichik guruqli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejaleshtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'liq rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O'quv rejasi turli **fakultativ va tanlov bo'yicha kurslarni** tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog'liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab

imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlar bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lif fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya – o'quv suhbati)ga talablar ko'pincha o'quvchilarining ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohiba e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hozirgi vaqtida ta'limi tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?
2. Ta'limi tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.
3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.
5. Dars deb nimaga aytildi?
6. Darsning qanday turlari mavjud?
7. Darsga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
8. O'qituvchining darsga tayyorlarlik ko'rishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
9. Ta'limi tashkil etishning yordamchi shakllariga nimalar kiradi?

2.5. O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH.

Tayanch tushunchalar: tashxis, tashxis etish, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baho, ta'lif sifati, monitoring.

Ta'lif olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mayjud sharoit uchun optimal natjalarga erishish mumkin emas.

Didaktik tashxislashning ***maqsadi*** o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi.

Ta'lif jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalari. Ta'lif jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lif jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lif jarayonida) ta'lif oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'chash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'chash esa **tekshirish** deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish

haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O‘quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko‘rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi *birinchi bo‘g‘in* ta’lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o‘quv yili boshida o‘quvchilar tomonidan avvalgi o‘quv yilida o‘zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o‘quv yilining o‘rtasida yangi bo‘lim (kurs)ni o‘rganishga kirishilganda ham o‘tkazilishi mumkin va o‘rinli bo‘ladi.

Bilimlarni tekshirishning *ikkinci bo‘g‘ini* har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o‘zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o‘rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo‘lib, ular o‘quv materiali mazmuni, murakkabligi, o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta’lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirishning **uchinchi bo‘g‘ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo‘lishi mumkin. Yangi mavzuni o‘rganish bilan birga o‘quvchilar avval o‘rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko‘maklashadi, biroq o‘quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o‘zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo‘llanilsagina kutilgan samarani beradi.

Tizimning *to‘rtinchi bo‘g‘ini* o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini yaxlit bo‘lim yoki kursning alohida mavzusi bo‘yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o‘rganilgan o‘quv materialining strukturaviy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘zlashtirish

sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda *beshinch* bo‘g‘in ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O‘zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. U olingan baholarni qo‘sib, o‘rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo‘lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta’lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o‘z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi.

Baholash deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lchagich)lar bilan selishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytildi.

O‘zlashtirish tabellari, sınıf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilar va xokazolar baho ko‘rinishida qayd etiladi. O‘quvchining o‘zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

O‘qituvchi o‘qitish bilan bir vaqtida o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo‘llash malakalarini egallahini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘zlarining keyingi bajaradigan ishlaring shaklini va mazmunini belgilaydi. O‘zlashtirishni hisobga olish o‘quvchilarning bilish faoliyatini rag‘batlantirib, ma‘lum bir harakatlarni bajarish uchun

uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish **vazifalarini** bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rindi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.

Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (obyektivlik), tizimlilik (sistematilik), ko'rgazmalilik (oshkoraliq) sanaladi. **Xolislik (obyektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilniy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona

munosabati hamda bilim, ko'nikma va malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo'yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o'tkazgan o'qituvchidan qat'iy nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashxislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida olib borish kerak. Tizimlilik barcha ta'lim oluvchilar o'quv muassasida bo'lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashxisga jalb ctishini anglatadi. Ta'lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo'lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta'lim nazoratini tez-tez o'tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashxis o'tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o'zaro bog'liqlikda va birlikda qo'llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Ko'rgazmalilik (oshkoraliq) tamoyili avvalo barcha ta'lira oluvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoraliq tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo'ljal (orientir) bo'lib, ta'lim oluvchilar unga muvofiq o'zlariga qo'yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashxislash natijalarini e'lon qilish, ularni manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tuzatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o'quvchilar o'quv faoliyatini nazorat qiliشning qo'yidagi *turlaridan* foydalaniлади: joriy nazorat; oraliq nazorat; yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan

mavvzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oлади. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir o'quvchining o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlashtirmagan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat – bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'linmlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin o'quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq nazorat savollari alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **besh shakli** mavjud:

nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi o'quvchilarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, o'quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchini nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni o'quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

nazoratning guruhli shaklida o'quvchilarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o'quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o'quvchilar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

nazoratning individual shaklidan har bir o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniлади. Nazoratning bu shaklida, odatda o'quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

nazoratning kombinatsiyalangan aralash shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o'quvchilardan so'rash kerak bo'lgan vaqtida foydalaniлади. Har bir o'quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtida bir nechta o'quvchini tekshirish mumkin bo'ladi.

o'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki qayta aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari quyidagilar:** og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'tinadiki, o'qiuvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda sulbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki

o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida barcha o'quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant yordamida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida bevosita aloqaning yo'qligi sababli uning fikrlashini kuzatish imkonni bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingen natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olishda keng foydalilanildi. Bu usul yordamida o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifasini tekshirish. O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish uchun ulardan uya berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganiqan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u o'quv adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumiashtirib aytish mumkinki, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentsiyalarini baholash mezonlari bar bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi dasturdagi materialni to'liq o'zlashtirib olgan bo'lsa; b) o'rganiqan mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo'llay olsa; g) o'rganiqan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'ymasdan, ma'lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganiqan mavzuning mohiyatini bilsa; b) o'qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa; v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olsa;

g) og'zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasdan, o'qituvchining qo'shimcha savollari bilan xatolarini to'g'rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo'limgan xatoga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

«3» bahо yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzuni o'zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o'qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa; b) savollarning mantiqiy tuzuulishini o'zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa; v) yozma ishda xatolari bor bo'lsa.

«2» bahо qo'yiladi, agar: a) o'quvchi o'rganilgan mavzu haqidа tushunchaga ega, biroq mavzuni o'zlashtirmagan, b) yozma ishda qo'pol xatolarga yo'l qo'ysa qo'yiladi.

Ta'lim sifati monitoring. «Monitoring» atamasi ilk maratoba Birlashgan Millatlar tashkilotining 1972-yil iyun oyida Stokholm konferensiyasini tashkil etish arafasida «nazorat» atamasiga muqobil sifatida ishlatila boshlangan.

«Monitoring – inglizcha atama bo'lib, «uzluksiz kuzatish» degan ma'nosini anglatadi. Monitoringga ijtimoiy boshqaruv nazariyasida eng muhim, boshqaruv sohasidagi nisbatan mustaqil bo'lim sifatida qaraladi hamda ta'lim monitoringi doirasida pedagogik faoliyat natijalari yuzaga chiqariladi va baholanadi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'qitish sifati monitoring tizimi samarali yo'lga qo'yilgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat: ichki nazorat – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o'rta ta'lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi; tashqi nazorat – ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi; davlat-jamoatchilik nazorati – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi; milliy va xalqaro darajada baholash – Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta'limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi

Umumiy o'rta ta'lim sifatini nazorat qilishning turlari
quyidagilardan iborat: ichki nazorat; tashqi nazorat; davlat-jamoatchilik nazorati; milliy va xalqaro darajada baholash.

O'qituvchilar yoki maktab ma'muriyati, o'quvchilarning o'zлari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari o'quvchilarning bilimlarini o'quv maqsadlari asosida tekshiradilar. Mazkur yo'nalish o'ziga xos bir qator afzallikkarga ega bo'lib, baholash bevosita o'quvchining sinfda amalga oshirilgan ishlari bilan bog'liq, bunda o'qituvchi turli metodlardan (masalan og'zaki so'rov o'tkazish, amaliy mashq bajarish, test va h.k.) foydalanib, o'quvchi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo'yadi. Baholash jarayoni tizimli ravishda o'quv choragi va o'quv yili davomida olib boriladi. Bunday baholashda o'qituvchilar, maktab monitoring guruhi o'quvchilarning o'zlashtirishi sifati, o'quv yutuqlariga asosiy me'yор bo'lgan davlat ta'lim standartlariga taqqoslagan holda individul baho beradilar.

Baholashning ikkinchi turi hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari tomonidan amalga oshiriladigan hududiy o'qitish sifati monitoringi hisoblanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatiladi, o'quvchilar bilimi dagi bo'shliqlar va ularning klib chiqish omillarini aniqlanadi hamda bartaraf etish chora-tadbirlari rejalashtiriladi.

Shu sababli zamonaviy shaxsga, raqobatbardosh mutaxassisiga qo'yilgan talablarning ortib borishi eng avvalo ta'lim muassasalarini va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari dagi alohida tuzilmalar tomonidan ta'lim sifati monitoringini tizimli va maqsadli amalga oshirishni talab etadi. Ta'lim muassasalarida monitoring – yaxlit tizimning holati va dinamikasini kompleks kuzatish, tahlil qilish, korrektsiyalash hamda prognozlash jarayoni hisoblanadi.

Baholashning keyingi uchinchi turi – davlat attestatsiyasi va ta'lim muassasalarining akkreditatsiyasi hisoblanadi. Ular davlat tomonidan yoki uning nomidan vakolatli tashkilotlar tomonidan o'tkaziladi. Ularda qatnashish huquqiga muayyan taiablarga javob beradigan barcha o'quvchilar ega. Mazkur baholash muayyan ta'lim bosqichi yoki turi tugaganidan so'ng amalga oshiriladi. ularning asosiy va ijtimoiy jihatdan muhim vazifalari bitiruvchilar va ta'lim

muassasalarining davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmalarni bajarish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Umumimilliy baholash – barcha o'quvchilarni yoki ma'lum bir guruhdagi o'quvchilarni tanlab olish yo'li bilan mintazam ravishda o'quvchilar o'quv yutuqlari darajasini milliy standartlarga nisbatan mosligini baholash hisoblanadi. Mazkur turdag'i baholash o'quv dasturlari asosida olinib, imtihonlardan farq qiladi. Birinchidan, alohida olingen o'quvchilarning bilim va malakasi darajasi emas, balki tizimning ishlash natijalari o'chanadi. Ikkinchidan, milliy baholash natijalari muayyan yoshdagi yoki sinfdagi o'quvchilarning umumiyy o'zlashtirish darajasining «rentgen surati» sifatida soydalaniлади va milliy standartlarning ko'p muddatda monitoringini olib borishga xizmat qiladi. Tanlash yo'li bilan o'tkazilgan umumimilliy baholash qisqa muddatlarda va iqtisodiy jihatdan arzonroq o'tkazish imkoniyatini beradi. Uning natijalari ma'lum o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar o'quv yutuqlari to'g'risida qimmathi ma'lumotlarni berishi mumkin.

Xalqaro baholashni yaqin 15-20 yilda tashkil etish yo'lga qo'yilib, ularda bir necha mamlakatlar o'quvchilarining o'quv yutuqlari tanlov yo'li bilan baholanadi. Bunday keng qamrovli tadqiqotlarning asosiy maqsadi qamrab olingen muayyan yoshdagi (masalan, 13 yoshdagi o'quvchilar) yoki sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir necha o'quv fanlari bo'yicha o'quv yutuqlarini baholash va bir qator mamlakatlar kesimida qiyoslashdan iborat. Misol tariqasida matematika va tabiiy fanlardan o'tkazib kelinayotgan – TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study – Xalqaro matematika va tabiiy fanlarning o'r ganishdagi tendensiyalari)ni keltirish mumkin. TIMSS ning birinchi xalqaro tadqiqotida 38 mamlakatning 4-, 8- va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilar (11- va 12-sinf o'quvchilar) qamrab olingen. Oxirgi uchinchi tadqiqotida esa 46 mamlakat o'quvchilari qatnashganlar.

Yana bir o'quvchilar ta'limiy yutuqlarini xalqaro baholash dasturi – PISA (Programm for International Student Assessment) tadqiqoti hisoblanadi. Bu tadqiqot birinchi marta 2000-yilda o'tkazilib, unda 32 mamlakatning 15 yoshli o'quvchilari qatnashgan. PISA da asosiy e'tibor o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar (fizika, ximiya, biologiya)dan olgan bilimlarini turli hayotiy

vaziyatlarda qo'llay olishlarini baholashga qaratilgan. Uchinchi xalqaro tadqiqot – PIRLS da turli mamlakatlar boshlang'ich maktablari bitiruvchilarining matnni o'qish va uni tushunish darajasi baholanadi.

Mazkur tadqiqotlarning maqsadi – o'quvchilar yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni xalqaro miqyosda qiyoslash bo'lib, uning natijalariga ko'ra ta'lim siyosati masalalari hamda o'quvchilar o'zlashtirishidagi tafovutlarni yaxshiroq anglab yetishga qaratilgan xalqaro muloqot olib boriladi. Xalqaro tadqiqotlar nufuzining oshib borishi bugungi dunyoda globallashuv jarayonlari natijasida mustaqil hayotga kirib kelayotgan o'quvchilarga mehnat bozorida qanday bilim va ko'nikmalar kerakligi to'g'risidagi ijtimoiy buyurtmalarni hamda raqobatbardosh mutaxassislarga qo'yilgan talablarni kengayib borayotganligidan darak beradi.

Ta'lim sifati monitoringini olib borishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablarining bajarish dinamikasini tizimli kuzatish, ta'lim sifatiga ta'sir etgan omillarni aniqlash, ta'lim muassasalari, hududiy xalq ta'limi boshqarushi idoralari, metodik xizmat va malaka oshirish tizining faoliyatini baho lab, rivojiantirishga oid chora-tadbirlarni begilash, keyingi holatni bashoratlash natijasida ta'lim sifatini oshirishdan iborat.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Didaktik tashxis deganda nimra tushiniladi?
2. Tashxislashning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
3. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytildi?
4. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
5. Tekshirish deb nimaga aytildi? Tekshirishning qanday bo'ginlari mavjud?
6. Baholash deb nimaga aytildi? Baho deb nimaga aytildi?
7. Tashxislashning tamoyillarini izohlang.
8. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
9. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari kompetentsiyalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.
10. Ta'lim sifati monitoring qanday bosqichiarda amalga oshiriladi?

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI

3.1. TARBIYA JARAYONINING MAZMUNI, TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiyaning maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyaning umumiy vazifalari, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatları, tarbiya tamoyillari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyanı tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- ✓ jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;

- ✓ jamiyat rivoji uchun zarer bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;
- ✓ madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ✓ ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayonining qonuniyatları va tamoyillari. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va ta’lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- ✓ maqsadga yo‘naltirilganligi;
- ✓ ko‘p qirrali jarayon;
- ✓ uzoq muddat davom etishi;
- ✓ uzlucksizligi;
- ✓ yaxlitligi;
- ✓ variativligi;
- ✓ natijalarning oldindan aniqlanmasligi; biroq kafolatlanishi zarurligi;
- ✓ ikki tomonlamalilik;

Tarbiya qonuniyatları – bu bir tomondan, ijtimoiy hedisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar yig‘indisi

Tarbiya jarayonining quyidagi **qonuniyatları** mayjud:

- ✓ ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog‘liqligi;
- ✓ tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- ✓ faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishning negizi va asesiy manbai;
- ✓ tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyatni o‘rtasidagi bog‘lanish;
- ✓ tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;

✓ tarbiyalanuvchining «ichki olami»ga ta'sir etishning intensivligi;

✓ tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo'nali shiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishti rokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalananadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi **tamoyillar** asosida boshqariladi:

✓ maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'naliganligi;

✓ tarbiyaning insonparvarlashuvi;

✓ tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;

✓ tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;

✓ jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish;

✓ shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib borish;

✓ o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;

✓ tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;

✓ tarbiya jarayonining tizimligigi va uzlusizligi.

Tarbiya turlarining umumiy tavsifi. Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oлади. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy istchlarning turli yo'nali shlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsional belgilariga bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Keng va tor ma'nodagi tarbiya tushunchalariga izoh bering.
2. Tarbiya mazmuni deganda nima tushiniladi?
3. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalarini bayon eting.
4. Tarbiya jarayoni qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
5. Tarbiya qonuniyatlarini sharhlab bering.
6. Tarbiya tamoyillarini izohlang.
7. Tarbiya turlarining umumiy taysisini bayon eting.


3.2. JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

Tayanch tushunchalar: jamoa, o'quvchilar jamoasi, jamoaning shakllanish bosqichlari, jamoaning shakllanish darajalari, konformizm, lider, norasmiy lider.

Jamoa haqida tushuncha. Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birlashma, guruh) bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Zamонавиј талқинда «jamoa» тушунчаси иккі xil ma'noda ishlataladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruh tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o'quv yurti jamoasi, xo'jalik jamoasi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi.

O'quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

«Jamoa» tushunchasi



5-rasm. «Jamoa» tushunchasi tavsiyi

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'tasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birlashikda rivojlanshini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmasaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgililar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mayjudligi. Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, Davlat konstitutsiyasi va qonunlariga, jamiyat maskurasiga qarama-qarshi bo'lmasligi zarur.

Umumiy birlashuvidan iborat guruh. Kishilar aniq maqsadga birlashuvidan iborat guruh. Buning uchun jamoaning har bir a'zosi birlashuvidan iborat guruh.

zarur, faoliyat umumiy tashkil etilishi kerak. Jamoa a'zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi. Jamoa a'zolari orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g'am-qayg'ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

Saylangan umumiy rahbariy organga egalik. Jamoada demokratik munosabatlardan o'rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro'li a'zolarini to'g'ridan-to'g'ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilardan tashqari jamoa boshqa muhim o'ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o'ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a'zolari orasidagi munosabatlarda ko'rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyatini sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlardan tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o'ziga xos belgilardan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhidir.

Jamoani shakllantirish bosqichlari. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish **to'rt bosqichda** amalga oshiriladi.

Jamoa shakllanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf yoki guruh) hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzlusiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. O'quvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat biriligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishni paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasdagi tajribaga ega emasliklari bois so'z yuritilayotgan bosqichda o'qituvchining asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyuştirishdan iborat bo'ladi.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktiv) muayyan guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamea manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayriyohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlash hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tafsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga uni jalg etadi. Ushbu bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni, jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

O'quvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinci bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mustaqil rejashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga

tiyyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususyat kasb etishini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolining guruhning boshqa a'zolari bilan qaramaqarshi qo'yish xavfli tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolarining alohida faollik ko'rsatishga erishishlari zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Jamoa faoliyatida bu bosqich anchagini sermahsul hisoblanadi. Bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs» larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoa ishiga ushbu bosqichda faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasи, jamoaning birgalikdagi faoliyati va uning a'zolari xattiharakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzu'larda suhbatlar va ma'ruzalar uyuştililadi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. O'qituvchi jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarining ijodiy tajribasiga hissa qo'shish imkonini beradigan o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchchi bosqichi. Bu bosqich uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish joizki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli va o'mini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun mutlaqo qulay sharoit yaratiladi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlari. O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonida quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning jarayonida quyidagi **shart-sharoitlarni** hisobga olish lozim: pedagogik talab, jamoa faolini tarbiyalash, jamoaviy an'analarni qaror toptirish.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiyl natija beradi:

- qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;
- talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mayjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;
- jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim;
- o'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'nnaviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Talablarining qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'matish lozim. Nazorat qilib borish turli

shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarни ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda sinf faolini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamo faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur.

Jamo faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zları, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi.

Jamo faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga crishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rinn tutadi. Jamoa an'analar jamoa a'zelari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi: kundalik faoliyat an'analari; bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mchnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyuşdırish va beshqalar)ni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analariiga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqealarni hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, «Alisbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Jamoa» va «o'quvchilar jamoasi» tushunchalariga izoh bering.
2. O'quvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini sanab bering.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.
4. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalariga doir ma'lumotlarni topib o'qing.
5. O'quvchilar jamoasini shakllantirish shart-sharoitlariga tavsif yozing.

3.3. TARBIYANING UMUMIY METODLARI

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodi (yunoncha «métodos» – yo'lli) tarbiya maqsadiga erishishning yo'lli. Tarbiya amaliyotiga taqbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari yig'indisidir.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining

tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganiilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda astasekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika, taqqoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun foydalilanidigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

Tarbiya vositalari – bu usul ham emas, metod ham emas, usullar yig'indisi.

Tarbiya metodlari tasnifi. Zamonaviy pedagogikada ba'zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilari faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mayjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Mariyenkonning tasnifida tarbiya metodlari guruhlari quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reprodukтив, muammoli vaziyatlari, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

- Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Hozirgi vaqtida o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko'proq obyektiv va qulay metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

- Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar.

- Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari.

- Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantirish metodlari o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari sanaladi.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi: hikoya, tushuntirish, izohlash, ma'ruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna

Bu guruhga mansub metodlarning mohiyati shundaki, ular orqali o'quvchilar ongiga jamiyatda ustuvor o'tin tutuvchi ijtimoiy g'oya va maqsadlar singdiriladi. O'quvchilarda g'oyaviy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni, davlatning ichki va xalqaro siyosati mazmunini tushunish va idrok qilish ko'nikmalarini tarbiyalash lozim.

Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p ishlatalidigan metoddir. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak madaniyatti, milliy g'urur tuyg'usiga ega bo'lib voyaga yetishlarini tarbiyalashga yordam berishidan iborat.

Suhbat. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur

sinf o‘quvchilari uchun dolzarbligi, o‘quvchilarning suhbat mazmuniga bo‘lgan munosabatlari va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish zarur.

Hikoya. O‘quvchilar odatda hayot va turli adabiyottlardan olingan aniq misollar bilan boyitilgan hikoyalarni katta qiziqish bilan tinglaydilar. Ularga axloq me’yorlari, xalq o’tmishi, tabiiy boyliklar, qahramonlar hayoti va jasorati, shuningdek, tarix, adabiyot va san’at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot namunalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari – radio, televidenie, gazeta va jurnallar sahifalarida hamda Internet matbuotida e’lon qilingan ma’lumotlar ham o‘quvchilar uchun qitmatli material bo‘lib xizmat qiladi. Suhbat ham, hikoya ham o‘quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so‘zlar vositasida adabiy tilda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Suhbat yoki hikoya mavzusining o‘quvchilar tomonidan belgilanishi, ularning samarali kechishini ta’minlaydi, buning natijasida o‘quvchilar ilgari surilayotgan mavzuga befarq qaramaydilar.

Namuna. O‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko‘rishlari va ibrat olishlari nihoyatda muhim.

O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniqsa, yoshlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va hayotda o‘zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O‘quvchilar o‘zlariga yaqin kishilarning xulq-atvoriga taqlid qiladilar, Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba’zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o‘zlarini tuta bilishiari kerak. Ular qayerda bo‘lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so‘zi bilan yurish-turishi va xatti-harakatlarida tafovut bo‘imasligi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari. O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni, o‘z ustida ongli, bartartib ishlashga chtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sisatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarning kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat metodi.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. **Ishontirish** vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalariлади.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sisatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan babs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonech hosil qilishga yordam beradi.

Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish (mashq) metodlari: mashq, pedagogik talab, ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat.

Mashq va o'rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzlucksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyatini rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan metod. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyaiga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar, mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlari:
rag'batlantirish, tanbeh berish, uyaltirish.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash metodidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglab olishi zarur.

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Uyaltirish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jaimoa yoki uning tarbiya uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharmhayodir. Insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarmi tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyoikorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'mida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq:

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari shunga muvofiq bo'lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metedlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal etiladi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son

ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lism, o'rta ta'lism va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lism olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zarotasi etishning asosi bo'la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligining rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sifatda yuzaga keladigan munosabatlari: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko'rindi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko'trgazmali qurollar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchidan ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin

tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-shareitlardan kelib chiqib metodlardan foydalananishga qaraganda past samaraga ega bo'ladi.

9. Tarbiya vaqt. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniadi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishонч bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tarbiya metodi, usuli va vositasi tushunchalariga ta'rif bering.
2. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohiang.
3. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
5. Faoliyatni rag'batlash va motivatsiyalash metodlarini qo'shimcha manbalardan o'qib to'ldiring.

3.4. O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. AQLIY TARBIYA

Dunyoqarash haqida tushuncha. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimmi insonnинг оламга menosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishini,

o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «ifodani idrok qilish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma'nodosh cketligini aytish joiz. Dunyoqarash insoniyatni o'tnish merosi, hozirgi hayot va bundagi sharoitlar, tizimlarning anglab olinganligi, qadriyatdir.

Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlari yig'indisidir.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzlusiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakilanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rinni tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobjiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzlusiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaiadi.

E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. **Ikkinchi bosqichda** ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mayjud talab, jamiyat tomonidan tan olingen axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sisatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. **Uchinchi bosqichda**, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyali chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asesi vositalari. Agar uning qarashlari tizimi ong birligiga tayansa, insон dunyo haqida bir butun tasavvur hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, dunyoqarashni shakllantirish shaxsnинг intellektiga, irodasiga, his-tuyg'usiga, uning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy vositalari: intellektual tarkibiy qismi, ijobiy emosional holat, amaliy faoliyat sohasi, fanlararo aloqadorlik, pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozisiyası.

Dunyoqarashning **intellektual tarkibiy qismi** borliqni bevosita hissiy aks ettirishdan, abstrakt tushunchali fikrlashgacha bo'lgan harakatni talab etadi.

O'quvchilarning ijobiy emosional holati ta'lif muassasasida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishga – adabiyotlar va

san'atni ishlab chiqishga, olimlarning hayoti va faoliyati, ijtimoiy faoliyatiga, o'zining shaxsiy tajribasiga e'tibor qaratishni uyg'otadi.

O'quvchilarning amaliy faoliyat sohasi yetarlicha keng bo'lishi mumkin. O'quv-mehnat va ijtimoiy faoliyat o'quvchilarni keng doiradagi ijtimoiy munosabatlarga jalb qiladi, muloqot tajribasi, har tomonlarma axborotlar bilan qurollantiradi.

Ta'llim-tarbiyani tashkil etish jarayonida **fanlararo aloqadorlik**, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'llim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya ctilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogning ijtimoiy va kasbiy pozisiyasi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili sifatida aks etadi. Dunyoqarashni shakllantirishning muvafaqiyati ko'pincha, o'quvchilarning o'qituvchiga ishonchiga asoslanadi.

Aqliy tarbiyaning mazmun-mohiyati va komponentlari. Aqliy tarbiya ta'llim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uning asosiy vazifasi – ta'llim oluvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni o'zlashtirish natijasida dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiyaning **asosiy vazifasi** ta'llim oluvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirishdir.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishni rivojlantirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;

- doimiy ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirish, umumta’limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Agar inson odamlar orasida ijtimoiy muhitda yashar ekan, uning aqliy taraqqiyoti, intellekti haqida gapirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa uning jismoniy taraqqiyoti uchun ham muhim.

Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta’sir etish va natijavilyigining barcha miqdoriy imkoniyatlaridan kelib chiqadigan aql kuchi va fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin.

Aqliy rivojlanishning nima ekanligini aniqlash uchun «fikrlash» va «aql kuchi» tushunchalariga to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Amaliy tajribamizda **fikr** so‘zini juda ko‘p uchratamiz. Oddiy qilib aytganda, obyektiv olamdagи voqeа-hodisалarni ongimizga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘u fikr deb ataladi. Uning tub mohiyati shundaki, fikrimiz orqali biz ko‘zimiz bevosita ilg‘amayotgan, ko‘z o‘ngimizda bo‘lмаган, bo‘lgan taqdirda ham o‘sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo‘lgan «sirlи» jihatlarini ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz.

Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, vogelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, u aqliy faoliyat mahsuli. Eng qizig‘i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha inchonlarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko‘rsatiladi: mantiqiy; abstrakt(mavhum); urumlashgan; nazariy; texnik; reproduktiv; ijodiy(produktiv); tizimli; kategorial; induktiv; deduktiv; algoritmik; tanqidiy; mustaqil va boshqalar.

Aqliy rivojlanish – inson psixikasining individual o‘ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o‘zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi

omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak.

Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim olganlik o'z aksini topadi. **Ta'lim olganlik** – bu aql sifatini shakllaniuvchgi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi.

Aqlning teranligi inson yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo'lgan belgilarning muhimligi va ularni umumlashganligi darajasida namoyon bo'ladi.

Aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdar tizimidan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikda namoyon bo'ladi.

Fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o'zgaruvchanlikni talab etadi.

Aqlning barqarorligi insonga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rindi.

Fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so'zda ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati.

Aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo'llarini faol izlashda namoyon bo'ladi.

Fikrning tejamkorligi – kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dunyoqarash deb nimaga aytildi?
2. Dunyoqarashning qanday turlari mavjud?
3. Ilmiy dunyoqarash dunyoqarashning boshqa turlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
4. E'tiqodning shakilanishi qanday bosqichlarda amalga oshadi?
5. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vositalariga nimalar kiradi?
6. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini izohlang.
7. Fikrlash va uning turlarini tahlil eting.

3.5. FUQAROLIK TARBIYASI

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs. Fuqarolik – insonning Vatan, xalq oldidagi huquq va vazifalari, ijtimoiy va axloq me'yorlariga bo'ysunishi, ijtimoiy faolligi hamda ma'naviy yetukligidir. **Fuqarolik** deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalanishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalanishi tushuniladi.

Fuqarelik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Fuqarolik tarbiyasining **vazifalari** tizimini quyidagilar tashkil etadi:

Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqr o'zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o'z majburiyatlarini to'laqonli anglashlari uchun imkoniyat

yaratishini tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Fidoiylik, intiluvchanilik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, qat'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida tarbiyalanadi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shartsharoitlarning mayjudligi taqozo etiladi:

o'quv yurtida tashkil etilayotgan ta'llim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq;

tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;

oila, mакtab va mahalla o'rтasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi;

o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiyl tartibga qat'iy rioya etishga o'rgatish, zimmasidagi burchni to'laqonli ado etishlariga e'tiborni qaratish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javoblar olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi.

«Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ulaming ajdodlari azalazaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir».

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat sanaladi.

Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi:

- Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat.
- O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik.
- Vatan va millat tarixidan g'ururlanish.

- Yurting moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxurlik qilish.
- Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish.
- Vatan ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidiga qarshi kurashish.
- Vatan va millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish.
- Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.

Baynalminallik («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq) o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

O'quvchilar o'rtasida vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhhati, matbuot konfernsiyasi, viktorina, uchrashuv, ko'rik-tanlov, bahs-munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarni Respublika Baynalminal markazi yoki joylardagi Milliy-madaniy Markazlarning faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ayni vaqtida respublika hududida turli millat va elat vakillarini birlashtiruvchi 138 ta Milliy-madaiy markazlar faoliyat yuritayotgani to'g'risida ma'lumotlar berib, ular tomonidan yusushtirilayotgan tadbirlarga o'quvchilarni faoi jalb etish ham ijobiy natijalarni beradi.

Huquqiy ta'llim-tarbiya uzuksiz jarayon bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha ta'llim muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgisida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur. Shuning uchun 2000-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'llim muassasalari va umumiy o'rta ta'llim maktablaridan boshlab, barcha ta'llim turlarida bosqichma-bosqich huquq saboqlari, huquqiy bilim va tarbiya berib borilishi yo'lga qo'yildi.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongmi qaror toptirishga erishish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni bosil qilish;
- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollilik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;
- o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbazarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir. Boshqacha aytganda, huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega. Ma'lumki, huquqiy ong ikki tarkibiy qismdan, ya'ni huquqiy maskura va huquqiy ruhiyatdan iborat. Huquqiy maskura huquqning mohiyati, ahamiyati va talablari to'g'risidagi g'oyalar, qadriyatlarini o'z ichiga

olsa, huquqiy ruhiyat hissiyotlar, kayfiyatlar, kechinmalar, ya'ni huquqning emosional qabul qilinishi bilan bog'liq.

Huquqiy munosabat huquq normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlardir. Binobarin, huquqiy munosabat, birinchi navbatda, yuridik normalarni amalga oshirishning, huquq amal qilishining natijasidir. Aynan huquqiy munosabatlar orqali huquq «yashaydi», amal qiladi.

Huquqiy faoliyat – huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishdir. Huquqiy madaniyat murakkab, serqirra hodisa bo'lib, u eng avvalo, huquqiy ongning muayyan darajasi, ya'ni huquqiy voqelikni ongli ravishda tushunib, o'zlashtirishni; umumiy madaniy asoslar, yuksak madaniylilik darajasi, milliy negizlari va manba'lар, tarixiy xotira, urf-odatlar va an'analarni; aholi tomonidan qonunlarni bilishning tegishli darajasi, huquq normalariga hurmatning yuqori darajasini, ular nufuzini; huquqiy faoliyat, huquqiy ijodkorlik, huquqni muhofaza etish, boshqaruv va boshqa organlar ishining sarnarali usullarini hamda fuqarolar va mansabdar shaxslarning qonunga itoatkorligini ta'lab etadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
2. Fuqarolik tarbiyasini tashkil ctishda qanday shart-sharoitlarni hisobga olish lozim?
3. Fuqarolik tarbiyasini tashkil ctishning shakl, metod va vositalariga nimalar kiradi?
4. Vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishda nimalarga alohida e'tibor qaratish zarur?

5. Baynalmilallik tarbiyasining ahamiyatini izohlang.
6. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
7. Huquqiy madaniyatni shakllantirish komponentlariga izoh bering.

3.6. MA'NAVİY-AXLOQİY TARBIYA

Tayanch tushunchalar: axloq, ma'naviyat, tarbiya, ma'naviy axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tushunchalar, ma-naviy-axloqiy xulq-atvor, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari.

Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruuhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa, o'z navbatida, guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatining o'zaro tutash ommaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sisatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq (arabcha – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlardan shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq – shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. Axloq shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur. Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi: xulq-atvorni rag'batlantirish va jazolash. Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

Axloq tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohadagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar **axloqiy kategoriya** deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatssevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi **axloqiy tamoyillar** deb ataladi.

Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o'zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu **axloqiy ideal** deb ataladi.

Axloqning asosiy qirralari (tamoyillari) – birdamlik (shaxsiy manfaatlarning umumiylikning yuqori ko'rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo'y sundirilishi) va insonparvarlik (shaxsga o'z-o'zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo'lish). Axloqiy ongning o'ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o'tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, axloqning, jamiyat a'zolarining faoliyatiga yo'nalgaligi va uni boshqarilishi ma'nosida, faoliyatlari tafsisini ko'rsatib o'tish to'g'ri bo'ladi.

Axloqiy me'yorlar har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p astlik tajribasi natijasidir.

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg'unlikka intilib kelgan. Axloq me'yori va insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, czgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloq me'yor va qadriyatlardan iborat. Axloqning uchinchi elementi ideallarni esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin.

Me'yor – bir turdag'i xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy aharniyatga

ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

Qadriyatlar – ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlari. Qadriyatlar xilma-xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiylar tarzda mullaq va nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar, ya'ni umumahamiyatli (obyektiv) tavsifga ega bo'lib, ular o'zida shubhasiz asoslangan, istalgan nuqtai nazardan, turlicha munosabatlar va barcha subyektlar uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir subyektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil ctilgan davlat va jamoat instituti orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va niroyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida yorqin namoyon bo'lgandagina, rivojlangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqe'a-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagini samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat ceng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida yuushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan

iborat bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o‘qivchi tomonidan axloqiy me’yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma’naviy-axloqiy tarbiya – yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o‘zaro bog‘liq vazifani shart qilib qo‘yadi: birinchidan, jamiat ongida me’yorlar, tamoyillar, ideallar,adolat, ezzulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko‘rinishida aks etadigan va asosianadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o‘z xatti-harakatlarini yo‘naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirot eta olishi, ya’ni boshqa kishilarga talab qo‘ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog‘liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsnинг tegishli e’tiqod, ma’naviy moyilliklar, his-tuyg‘ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy imunosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma’naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. O‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: 1) o‘quvchilarda axloqiy his-tuyg‘ular va xatti-harakatlarini tarbiyalash; 2) xulq madaniyati va ijobiylis-tuyg‘ularni tarbiyalash; 3) axloqiy xulq-atvori ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi; ta’lim-tarbiya ishiga o‘quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; ma’naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog‘lab olib borish; o‘quvchilarning faolligi; jamoada tarbiyalash; tarbiyaviy ishning tizimliligi va izchilligi; tarbiyaviy ishning ta’sirchanligi; oila, ta’lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta’sirining birligi;

o‘quvchidagi ijobji sifatlarga suyanish; o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko‘zda tutish.

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasida subyekt-subyekt munosabatlarining o‘rnatalishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun psixik jarayonlarga (motivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta’sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o‘quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobji munosabatlarni, shaxsnинг axloqiy his-tuyg‘ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig‘indisidir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari: hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o‘git, ko‘rsatma, namuna va boshqalar.

Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o‘rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hakozolar.

Ma’naviy-axloqiy motivasiyani hosil qilishga doir metodlar: rag‘batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.

I. **Ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari.** **Ma’naviy-axloqiy mavzudagi hikoya** – axloqiy mazmundagi voqeа-hodisalarni yorqin emosional bayon etilishidir. Hikoya tarbiyalanuvchilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir etib, ularga axloqiy me’yor va qoidalarni tushunish hamda o‘zlashtirishga yordam beradi. Yaxshi bayon tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalarning mohiyatini ochib berishgagina xizmat qilib qolmay, balki tarbiyalanuvchilarda madaniy xulq-atvor qoidalariiga ijobji munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ma’naviy-axloqiy mazmundagi hikoya bir nechta vazifani bajaradi: bilimlar manbai

bo'lib xizmat qiladi, tarbiyalanuvchining xulq-atvor tajribasini kattalarniki asosida boyitadi.

Ushbu metodning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1) tarbiyalanuvchilarda ijobjiy axloqiy hislarni uyg'ota olish, hikoya qahramonlariga hamdardlik bildirish – yutug'idan quvonib, muvafaqiyatsizligiga birgalishib achinish;

2) tarbiyalanuvchilarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;

3) ma'naviy-axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, tarbiyalanuvchilarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalananish.

Ma'naviy-axloqiy inazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

1. Hikoya tarbiyalanuvning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Hikoyaning qisqa, emotsiyonal, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.

3. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

4. Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

Tushuntirish metodi esa, tarbiyalanuvchilarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlataladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslaniladi. Masalan, ro'paradan keiayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab «Assalomu alaykum» deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim.

Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar orqali tarbiyalanuvchilar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobjiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida

tarbiyalanuvchilarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida tarbiyalanuvchilar o‘z fikrlarini erkin aytishlariga keng imken berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me’yorlari va qoidalari asosida bajarishga urinadilar.

Izohlash – tarbiyalanuvchilarga og‘zaki-emosional ta’sir ko‘rsatish metodi. Milliy tarbiyamizda mazkur metod «ta’birlamoq» tarzida ham ishlataladi. Ta’birlamoq – tarbiyalanuvchida, tarbiyalanuvchilar guruvida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatlamoqdir. Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda izohlashning muhim jihatni biror yosh guruhi yoki alohida tarbiyalanuvchiga ta’sir etishga yo‘nalganligidadir. Mazkur metodni qo‘llashda o‘quvchilarning yosh va shaxsiy sifatlariga asoslaniladi. Maktabgacha yosh guruvida sodda izohlash ko‘rinishidan foydalaniлади: «Mana bunday qilish kerak», «hamma shunday qiladi» va boshqaлar. Izohlash metodi yangi axloqiy sifatlar yoki xulq-atvor shakllarini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarda ma’lum bir xatti-harakatlarga to‘g‘ri munosabatni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tarbiyalanuvchilarni axloqiy tarbiyaishda nasihat qilish muhim o‘rin tutadi. **Nasihat** – sokin, xayrixoh vaziyatda tarbiyalanuvchini yaxshi yo‘lga solish, ta’lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur yosh guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali tarbiyalanuvchi psixikasiga tizimli ta’sir ko‘rsatilib, unda ma’lum bir faoliyat motivlari va ustanonvkalar hosil qilinadi.

Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning axloqiy ongini shakllantirishda ko‘rsatma berishdan ham foydalaniлади. Ko‘rsatmoq – tarbiyalanuvchiga, tarbiyalanuvchilarga o‘rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e’tiborlarini jalb qilishdir.

Ishontirish – tarbiyalanuvchilarni axloqiy tarbiyalashda katta yordam beradi («Kasal bo‘lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo‘lni yuvish kerak», «O‘rtog‘ini urish yomon»). Ishontirish o‘z navbatida namuna ko‘rsatishni talab etadi. Narnuna tarbiyalanuvchining birinchi signal tizimiga faol ta’sir ko‘rsatib,

harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o‘z navbatida tarbiyalanuvchida axloqiy ong, his-tuyg‘u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

II. Ma’naviy-axloqiy xulq-atvorni shaklantirish metodlari.

Mashq – ma’naviy-axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta’sirli metodidir. Unga qoidalarni mashq qildirish – foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o’rgatilgan tajribani yangilash, nazorat – o’rgatilgan odatning to‘g‘ri va samarali ekanligini tekshirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, tarbiyalanuvchini faollashtiruvchi shaxsiy gigiyena qoidalari, ovqatlanish madaniyati, ko‘chada, shaxsda xulq-atvor madaniyatini egallashtirish mashq qildirish bunga misol bo‘la oladi. Mashq qildirish natijasida o‘quvchida malaka va odatlar tarkib topadi.

Mashq metodining samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olishni talab qiladi: 1) mashqlar tizimi; 2) ularning mazmuni; 3) mashqning tushunarli bo‘lishi; 4) hajmi; 5) takrorlash tezligi; 6) nazorat va tuzatish; 7) o‘quvchilarning individual o‘ziga xosliklari; 8) mashqni bajarish joyi va vaqt; 9) individual, guruhli va jamoaviy mashq shakllarini uyg‘unlashtirish; 10) motivatsiya hosil qilish va rag‘batlantirish. Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur’ati hamda kutiladigan natija o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko‘p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

Talab – tarbiyalash maqsadida o‘quvchidan biror narsani qat’iyat bilan so‘rab turish bo‘lib, o‘quvchilarning ma’lum bir saoliyatini rag‘batlaydi yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taqdim etish shakliga ko‘ra bevosita va bilvosita talab farqlanadi. Bevosita talab uchun qat’iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo‘lishi xos bo‘lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg‘unligi aks etadi.

Bilvosita talab (maslahat berish, yalinish, ta’kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda o‘quvchida qayg‘urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi. Maslahat berish orqali o‘quvchida ma’lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. O‘quvchi qachonki bildirilayotgan

fikrni o'zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi. Yalinish – agarda boshqa talab qilish ko'rinishi kor qilmasligiga ko'zi etsa, o'quvchi qalbida mehrni yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror narsaga ko'ndirish uchun iltimos qilish, o'tinib so'rashdir. Ta'kidlash – o'quvchilar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmunni uqtirib, tayinlashdir. Qaytarish – o'quvchi jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko'rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo'ya ishdan, xatti-harakatdan o'zini tutishga undash, tiyish.

O'rgatish – o'quvchiga biror ish-harakat (masalan, turli joy va vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo'l-yo'rug'ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish. Mazkur metodni to'g'ri qo'llash qoidalariga quyidagilar kiradi:

1. O'qituvchi va o'quvchilar tarbiya maqsadiga doir aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa, o'quvchi o'rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib yetmasa, o'qituvchining harakati zoe ketadi.

2. Ish-harakatni bajarishga o'rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: «Qo'shnilar bilan salomlashib yursang, ular seni yaxshi ko'rishadi», «Seni chiroyli kuladi deyishlari uchun tishlarining yuvib yurishing kerak» va boshqalar.

3. O'quvchilarga o'rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma'lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab o'quvchini harakatlarni to'g'ri bajarishi haqidagi qayg'urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur.

4. O'quvchiga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko'rsatib berish lozim. Masalan, toza va iflos poyabzal, siliq va g'ijimlangan kiyimni taqqoslab ko'rsatish orqali o'quvchini bunday holatlarni bartaraf etishga o'rgatib borish mumkin.

5. O'rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko'ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida

bo'lmasligi hamda o'z-o'zini nazorat qilish bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

6. O'rgatish o'yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O'yinda o'quvchi belgilangan qoidalarni boshqalarining majburlashisiz ham o'z xohishiga ko'ra bajaradi.

Muammoli vaziyat o'zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni o'quvchida faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, masalan birorta hikoya ma'lum bir yerida to'xtatiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. O'quvchilarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Keyinchalik o'quvchilarga real muammoli vaziyat taklif etiladi: futbol o'yini ketyapti. Bir jamoaning sardori yaxshi o'yinchisi, uning jamoasi har doim yutib chiqadi. Mana shunday voqeа sodir bo'ldi: u jamoadagi bir o'yinchisi koptokni noto'g'ri tepgani uchun uni qattiq uradi. Undan o'yinchisi bilan qo'pol munosabatda bo'lgani uchun o'yinchidan kechirim so'rash talab etiladi. U kechirim so'rashdan bosh tortadi, demak, uni o'yindan chetlashtirish kerak. O'quvchilariga avval o'qituvchining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

III. Ma'naviy-axloqiy motivatsiyani hosil qiluvchi metodlar. Bu guruh metodlardan o'qituvchi o'quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, o'quvchi xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalilaniladi. Bunda koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, tahsinlash, tergash, uyaltirish, shavqlantirish kabi metodlardan foydalilaniladi. **Koyish** – jazo berishning yengil turi. O'quvchiga **tanbehlovchi so'z aytish**, tanbeh berish, urishib qo'yish. **Maqtash** – o'quvchini uning o'ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko'rsatib gapirish, yaxshi qilib ko'rsatish. **Taqdirlash** – o'quvchini qadrlash, munosib baholash, o'quvchiga uning qadri bor ekanligini sezdirish. **Ta'qiqlash** – tarbiyaviy maqsadda o'quvchiga, o'quvchiga biror narsani man etish. **Tahsinlash** – o'quvchini «ofarin», «balli» kabi so'zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash. **Tergash** – vaqtı-vaqtı bilan

o'quvchiga yetarli darajada qattiqqo'llikni namoyon qilib, tekshirib, nojoya xatti-harakatlari uchun koyib, «yo'li»dan qaytarib turish. **Uyaltirish** – noma'qul qilig'i uchun o'quvchiga o'ta noqulaylik tug'dirish, xijolot qildirish. **Shavqlantirish** – o'quvchining xulqi, muvaffaqiyatlari, kelajagiga g'oyat mammunlik hissi bilan qiziqish, ruhiy ko'tarinkilik bilan zavqlanish, zavqlantirish, qanoatlantirish.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Axloq va ma'naviyatning o'zaro aloqadorligini asoslang.
2. Ma'naviy-axloqiy tushunchalarga nimalar kiradi?
3. Ma'naviy axloqiy tamoyillarga izoh bering.
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya deganda nima tushuniladi?
5. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini izohlang.
6. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning metodlarini misollar asosida tushuntirib bering.

3.7. O'QUVCHILARNING MEHNAT, JISMONIY VA ESTETIK TARBIYASI

Tayanch tushunchalar: mehnat, mehnat tarbiyası, mehnat turları, jismoniy tarbiya, jismoniy yetulklik, jismoniy tarbiya vositalari, estetika, estetik tarbiya, estetik madaniyat.

Mehnat tarbiyası. Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiylar hal etish maqsadga muvosiq;

yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning mayjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish;

ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish; o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlarga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning **pedagogik shart-sharoitlari**:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi.

2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi.

3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'lidan kela olishi.

4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi.

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib borish.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lif muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. **O'z-o'ziga xizmat** o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zları tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash

va fermer xo‘jaliklarida faoliyat yuritish va boshqaşar. Unumli mehnat – o‘quvchilar mehnatining eng omniaviy shakli sanaladi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish **shakkli**: mehnat bayrami, o‘quvchilar yasagan buyumlar ko‘rgazmasi; hasharlar uyushtirish; qarovchisi yo‘q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko‘rsatiluvchi insonparvarlik yordami; ko‘kalamzorlashtirish; ta’mirlash (maktab binosini); «Mohir qo‘llar» to‘garagi faoliyati.

Jismoniy tarbiya deganda organizmning morsologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o‘zlashtirib olish tushuniladi.

Jismoniy tarbiya – o‘quvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari xilma-xil bo‘lib, pedagogikada qator tasniflar mavjud. Jumladan, V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko‘rsatishadi:

1) bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishiga yordam berish – organizmning morsologik va funktional rivojlanishini ta‘minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini mustahkamlash;

2) asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish – bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatligi uning barcha jismoniy sifatlari – kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillikni yuksak uyg‘unlikda rivojlanishini ta‘minlaydi;

3) hayotiy muhim harakatga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish – bolada maxsus harakatga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

4) jismoniy madaniyatning tizimli mashg‘ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash. Sog‘lom tur mush tarzining asosida bolaning doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam jismoniy

mashqlar bilan shug'ullanish va bolalarning jismoniy mashg'ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiyena sohalariiga oid minimum nazariy bilimlarni egallash zarurligi. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiena haqida, jismoniy madaniyat va sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati haqida aniq tasavvurlarga ega bo'lishi zarur.

B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatadi:

1) rivojlantiruvchi – bolalarning jismoniy kuchini va nerv tizimini takomillashtirish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvini ta'minlash;

2) tarbiyaviy – bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib topishiga erishish. Boshqacha aytganda, «Sog'lom tanda – sog' aqlo»;

3) ta'limiy – bolalarning jismoniy madaniyatning nazariy asoslari bilan tanishtirish, uning inson hayotidagi ahamiyatini tushunib yetish;

4) sog'lomlashiruvchi – bolalarda harakatga doir sifatlarni tarkib toptirish, ularning baquvvat va tetiklashuviga ko'maklashish;

5) umummadaniy – bo'sh vaqt ni mazmunli va foydali o'tkazish.

I.P.Podlasiy tomonidan taklif etilgan jismoniy tarbiyaning vazifalari V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanovlar tasnifiga mos kelib, shu bilan birga jismoniy tarbiyaning yana ikkita funksiyasi alohida ajratib ko'rsatilgan: 1) o'quvchilarda estetik sifatlarni tarbiyalash; 2) o'quvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Jismoniy tarbiya vositalari. Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari xilma-xil bo'lib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin: tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jasmoniy mashqlar.

Tabiiy omillar tabiat in'omlari (suv, havo, quyosh)ning sog'liqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy to'g'ri rivojlanishiga ko'maklashish imkoniyatlarini o'zida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat «bola organizmini chiniqtirish» atamasi bilan tavsiflanadi. Bola organizmini chiniqtirish deganda, organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish, hayotiy sharoitlarning o'zgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi tushuniladi.

Gigienik shart-sharoitlar. Bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishi uchun gigiyenik shart-sharoitlar – uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur.

Bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi muhim vazifa nerv tizimi gigiyenasidir. Bu vazifani hal etishda uyqu katta ahamiyatga ega. **Uyqu** miya yarim sharlarining normal ishlashi uchun zarur bo‘lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv tizimining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to‘ymasa nerv tizimining buzilganidan dalolat beradi. Nerv tizimi qo‘zg‘aluvchan bolalarning aksariyati yomon uxmlashadi. Bunday bolalarning uyqu tormozlanishi chuqur normal uyquni ta’minlay olmaydi.

Kiyinish ham gigienik omil sifatida bolaning jismoniy rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Kiyim har doim bolani o‘rab turgan havo temperaturasiga mos kelishi kerak. U yengil materialdan tayyorlanib, havoni, issiqlikni yaxshi o‘tkazadigan bo‘lishi, oson yuviladigan, yaxshi ho‘llanadigan, namni shimaadigan, elastik va badanni bezovta qilmaydigan bo‘lishi lozim.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o‘tishi kerak. Bola stol atrofiga yaxshi ishtaha bilan o‘tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo‘lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil qiladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillik, madaniy-gigienik, stol atrofida o‘zini to‘g‘ri tutib o‘tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhimmi – bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo‘lishini ta’minalash muhim ahamiyatga egadir.

Kun tartibi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir.

Jismoniy mashqlar deganda, jismoniy tarbiya qonuniyatları va vazifalari bilan bog‘liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig‘indisi tushuniladi. Jismoniy mashqlarni tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida gimnastika, o‘yin, sayr kabilarni qamirab oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan **gimnastika** organizmga nafis ta'sir etish yoki uning alohida tizim va funksiyalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Gimnastikaning asosiy, gigiyenik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari mavjud.

O'yin bolaning jismoniy kuchini, qo'llarining qattiqligini, qaddiqomatining tikligini, ishonchli ko'zlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda o'tkir zehn, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bolalarda g'amxo'rlik, o'z jamoasi uchun qayg'urish, birgalikkagi harakatlanishdan quvonish, do'stlik va o'rtoqlik hissini kuchaytiradi.

Sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o'tkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lib, ularning sog'ligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya – o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli. Estetik tarbiya – bu estetik jiha'dan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish jarayoni. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzuga mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiyaning **maqsadi**: o'quvchilarda shaxsuing har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik, insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.

Estetik tarbiyaning vazifalari:

1) o'quvchilarni san'atdagi, atrofimizdagi go'zallikni his qila olishga o'rgatish;

2) voqelikka estetik munosabatni qaror toptirish;

3) estetik didni, go'zallikni baholash qobiliyatini tarbiyalash.

Estetik madaniyatni shakllantirish – bu faqatgina badiiy dunyoqarashni o'stirish, o'qilgan kitoblar, ko'rilgan kinofilmilar, tinglangan musiqiy asarlar sonini ko'paytirishgina emas. Aksincha, bu insonning hissiyotiga ta'sir ko'rsatish, shaxs ma'naviyatini boyitish, xulq-atvorini boshqarish va tuzatishdir. Agar befarqlilik, loqaydlik namoyon bo'lsa, inson o'zining antiestetikligini namoyon

etadi. Agar o‘quvchi go‘zallikni his qilishning ijobiy odatlari, she’riyat, ijodiy mehnatini o‘zlashtirgan bo‘lsa, u holda uning estetik madaniyatini yuqori darajada ekanligi haqida bemalol gapirish mumkin. Shunday odamlar borki, romanlar, she’rlar o‘qishadi, ko‘rgazma va konsertlarda ishtirot etadi, biroq ijtimoiy axloq me’yorlarini buzishadi. Bunday odamlar estetik madaniyatdan uzoq, chunki estetik qarashlar va estetik lazzatlanish ularning ichki dunyosiga kirib bormagan. Buning uchun shaxs estetik madaniyatini shakllantirishning muhim tarkibiy qismlari – estetik qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik ong, estetik mulohaza, estetik did, estetik idealni tarkib toptirish, ularning psixologik-pedagogik jihatlarini asoslash lozim.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari:

Shaxsni voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi subyektiv omillar **estetik ehtiyoj** deb ataladi.

Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan o‘zlashtirishga kirishishi **estetik qiziqish** deb ataladi.

Ijtimoiy voqelik, tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida – nazariyalar, qarashlar, badiiy ta’lim va tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyat **estetik ong** deb ataladi.

Shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini ifoda etuvchi aqliy harakati **estetik mulohaza** deb ataladi.

Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig‘indisi orqali shakllanadigan va shaxsning narsa-buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo‘ladigan hodisa **estetik did** deb ataladi.

Shaxsning tabiat, jamiyat va san’atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go‘zallik borasidagi bahosining aks etishi **estetik ideal** deb ataladi.

Tarbiyaviy faoliyatning shunday shakllari borki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirshga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday shakllari **estetik tarbiya vositalari** deb ataladi.

Estetik tarbiya vositalariga tabiat, mehnat va san’at kiradi.

Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turлari texnikalashib borgani sari, ularning ko‘ngilli va ijodiy tabiat ortib boradi. Shu tariqa mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo‘lib qoladi. Qoloq ishlab chiharish texnikasi va texnologiyasi

sharoitida har qanday mehnat turi shaxsga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir shaxs o'z mehnatidan ko'proq moddiy va ma'naviy manfaatdor bo'lsagina, mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili – bu **tabiatdir**. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo'lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan go'zallik manbai.U estetik his-tuyg'u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o'zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi.

Estetik tarbiya vositalari orasida **san'at** muhim o'rinn egallaydi. Sav'at voqelikka estetik munosabatning eng muhim shaklidir. Jamiyat estetik madaniyatining darajasi ko'p jihatdan san'at rivojining darajasi, uning ijtimoiy hayotda qanchalik ko'p ahamiyat kasb etishiga bog'liq.

San'at estetik tarbiya vositasi sifatida har bir shaxsga mo'ljallanganligi, dunyoga keng va ochiq ko'z bilan qarash tuyg'usini shakllantirish, nafosatni bevosita mushohada etish, yuksak orzu-umidlar yo'llida ijodkorlik qobiliyatini vujudga keltirishi bilan izohlanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
2. Mehnat faoliyatining asosiy turlariga nimalar kiradi?
3. Mehnat faoliyatini tashkil etish shakllarini izohlang.
4. Jismoniy tarbiya deganda nima tushuniladi?
5. «Jismoniy kamolot» tushunchasi o'zida nimani ifoda etadi?
6. Jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
7. Jismoniy tarbiyaning estetik va axloqiy vazifalariga nimalar kiradi?
8. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini izohlang.
9. Estetik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlariga tavsif bering.
10. Estetik madaniyatni shakllantirish vositalarini bayon eting.

IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

4.1. TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tayanch tushunchalar: boshqarish, menejment, boshqaruvin funksiyalari, boshqaruvin metodlari, boshqaruvin uslublari.

Ta'lismuassasasini boshqarish. Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lismuassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarini nazorat va tahsil qilishga aytildi.

Ta'lismuassasalarini boshqarish tushunchasi ta'lismuassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mchnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan taysiflanadi.

Menejment mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir.

Olimlar ta'lismenejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lismenejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lechovga ega;
- ta'lismenejmenti – bu san va san'at (chunki bunda insonlar o'rtaqidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);
- menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat mansaftalarining o'zaro dialektik birligi;
- ta'lismi boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridaqilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'litmizini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tildi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi – ta'lismuassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-

onalarga ta'llim dasturlarini, turlarini, ta'llim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Boshqarish funksiyalari. Boshqarish funksiyasi deganda u yoki bu obyektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdag'i ishlar majmui tushuniladi. Boshqarish nazariysi asoschilaridan Anri Fayol XX asrning boshlarida boshqaruvning besh funksiyasini ajratib ko'rsatgan: rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish, nazorat. A.T.To'xtaboev mazkur funksiyalarini faqat ma'muriy ekanligini ta'kidlab, ma'muriy boshqaruv funksiyalarining uch guruhini ajratib ko'rsatadi: umumiy funksiyalar; ijtimoiy-psixologik funksiyalar; texnologik funksiyalar.

Turli olimlarning fikrlarini umuunlashtirgan holda, boshqaruvning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Axborot-tahlil funksiyasi. Mazkur funksiya Yu.Konarjevskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, boshqaruvda alohida o'rin tutadi; bunda axborotlarni olish va tahlil qilishda jarayon boshlanadi va tugallanadi.

Maqsadli-motivlashtirish funksiyasi. Motivlashtirish belgilangan maqsadga erishish bo'yicha barcha boshqaruv subyektlarida qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasi. Boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglsh) va rejalashtirish funksiyasi uchun maqsadli-motivlashtirish boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi, oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik tizimni va uning ishtirokchilarining harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tartibga solish imkonini beradi.

Tashkiliy-ijrochilik funksiyasi. Bu funksiya boshqaruv faoliyatining barcha yo'naliishlarida o'z ifodasini topadi. Bu kadrlar taniash va joy-joyiga qo'yish, ijrochilarning o'zaro ta'sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to'plash va ularga ishlov berish faoliyatları bilan bog'liq bo'ladi. Buning natijasida u yoki bu pedagogik tizimga xos tarkibiy tuzilish vujudga keladi.

Nazorat-tashxis funksiyasi. Nazorat – bu boshqaruv jarayonining faol bosqichi'aridan biri bo'lib, u boshqaruvning barcha funksiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Umumiy holda nazorat rejalashtirilgan natija bilan haqiqiy erishilgan natijalarni o'zaro solishtirish jarayoni bo'lib, u faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Tartibga solish – muvofiqlashtirish funksiyasi pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish va pedagogik jarayonda yo'l qo'yilayotgan xatoliklarni tuzatish hamda pedagogik jarayon ishtirokchilarining xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi.

Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda boshqaruv metodlari muhim ahamiyat kasb etib, ular boshqaruv jarayonida xodimlar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining yig'indisi hisoblanadi.

Boshqaruv metodlari. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'lim muassasalarini boshqarishga ko'p darajada mos keladigan metodlarning to'rt asosiy guruhi: iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy, ijtimoiy-psixologik va axborotlar to'plash metodlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiy metodlar o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indisini tavsiflab, har bir ishchi va butun muassasa uchun aniq me'yorlar belgilash bilan birqalikda zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, ya'ni xodimlarning innovatsion faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda iqtisodiy metodlardan foydalilanadi.

Rahbarlar tomonidan boshqaruv jarayonida, xodimlarning faoliyati batapsil o'rganilgandan keyin, faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirish uchun bajariladigan vazifalar rejalashtiriladi. Bunda rahbarlar o'z xodimlarning faoliyatlarini natijalariga ko'ra rag'batlantirish, mukofotlash, jazolash (jarima solish) yoki moddiy yordam ko'rsatishlarida boshqarishning mazkur metodidan

foydalanişlari zarur bo'ladı. Iqtisodiy qayta tashkil etishlar mazkur metodlarni kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Tashkiliy-ma'muriy metodlar ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni amalga oshiradi, faqat ularning ta'sir ko'rsatish usullari va shakillari o'zaro farq qiladi. Iqtisodiy metodlarda belgilangan masalalarni hal qilish uchun rahbarlar ta'sir ko'rsatishning turli xil usul va shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladı. Tashkiliy-ma'muriy metodlar qarorlar, buyruqlar, farmoyisilar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mazkur metod rahbarlar va xodimlar, o'qituvchilar va o'quvchilar, umuman olganda, barcha jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud munosabatlarni inobatga olgan holda ularning qiziqishi, manfaatlari, ko'nikma va malakalari, bilimi hamda qobiliyatlarini o'rganib, jamoadagi mavjud sharoitlarni yaxshilash va boshqa zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvosiqi lashtirishga xizmat qiladi.

Tashkiliy-ma'muriy metoddan fodalanişdan ko'zlangan maqsad belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro munosabatlar, aleqlar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzlusiz rivojlanishni huquqiy va me'yoriy hujjatlarga mos ravishda ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy-psixologik metodlar jamoa a'zolari o'rtasida shunday munosabatlarni vejudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda rahbar xodimlarning bemalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtiroy etishi, fikr bildirishi uchan shart-sharoitni va ijodiy muhitni yaratishi zarur.

Boshqaruv uslublari. Boshqaruv uslubi – bu ish usluqlarining to'plami bo'lib, u o'zining faoliyatida ushbu boshqaruv apparatini qo'llaydi. Menejment uslubi – bu rahbarni shaxsiy sifatlarining to'plami, rahbarni qo'l ostidagilar bilan munosabati, rabbarning o'z faoliyatida ishlataidan uslubi va yo'llari, rabbarning xodimlarni amalda bilişidir. Boshqaruv uslubi boshqaruv usulidan kelib chiqadi. Boshqaruv usuli – bu boshqaruv faoliyatini amalga

oshiruvchi usul va yo'llarning to'plamidir. Boshqaruvning uchta uslubi keng tarqalgan:

Avtoritar (direktiv) uslubda rahbar o'z irodasini qo'l ostidagilarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqtish, rag'batlantirish va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi.

Liberal (erkin ish yuritish) uslub rabbarning o'z qarorlarini tavsiyalar ko'rinishida berishi, xodimlarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda rahbar vositachi sisatida faoliyat ko'rsatadi, xodimlariga keng doirada mustaqillik, to'la erkinlik berish bilan bir qatorda, ularning harakatlariga kam e'tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi.

Demokratik (kollegial) uslubda rahbar o'z faoliyatini o'zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Boshqaru vakolatlari, faoliyat uchun javobgarlik xodimlar o'rtasida taqsimlanadi. Xodimlarning o'zaro munosabatlarini rag'batlantirish bilan birgalikda ularning bildirgan fikriga qulq soladi, ular bilan maslahatlashadi, ijobjiy tomonlarini inobatga olib rag'batlantirib boradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Boshqarish deb nimaga aytildi?
2. Ta'lim muassasasini boshqarish va menejment tushunchalarini izohlang.
3. Boshqaruv funksiyasi deganda nima tushuniladi?
4. Boshqaruvning qanday funksiyalari mavjud?
5. Boshqaruv metodlari deganda nima tushuniladi?
6. Boshqaruv metodlariga izoh bering.
7. Boshqaruv uslublari tushunchasini izohlang.
8. Boshqaruv uslublarini tahlil qiling.

4.2. TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH AMALIYOTI

Tayanch tushunchalar: Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi, Metodika birlashmasi, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, metodik xizmat ko'rsatish, yosh o'qituvchilar bilan ishslash.

Pedagogik Kengash – ta'lismuassasasining boshqaruvi organi. Ta'lismuassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va o'qituvchilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o'stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko'rsatadi. **Pedagogik Kengash** ta'lismuassasasi jamoasining yuqori boshqaruvi organi hisoblanadi.

Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

ta'lismuassasasining tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o'tkazadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

ta'lismuassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'naliishlarini belgilaydi;

ta'lismuassasasida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lismamaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

ta'lismuassasasi boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi;

pedagogik jamoaning ma'lum yo'naliishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

ta'lismuassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi **huquqlarga ega**:

ta'lismuassasasini rivojlantirish yo'naliishlarini istiqbol rejasini belgilash;

ta'lismuassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

o'quv rejada məktəb ixtiyoriga berilgan saatlarnı təqsimlash, yillik və təqvimiy iş rejasi məzmunı hamda dars jadvalını mühökama qılış;

o'quv jarayonını təshkil qılışının turli şəkl və metodlarını mühökama qılış, amaliyotga tətbiq etish;

ta'lım müəssasası ta'lım jarayoniga oid barcha masalalarını o'z vakolati doirasında mühökama etish və tegishli qaror qabul qılış;

pedagoglar malakasını oshırış tizimi, ularning ijodiy təshabbuskorlıqlarını rivojlantirish bo'yicha o'z takliflərini berish;

o'quvçılarning bilim darajasını aniqlashga doir ichki nazorat bo'yicha qaror qabul qılışında qatnashish, uni o'tkazish şakli və vaqtini belgilash;

ta'lım oluvchılarnı sıfırdan-sıfırga, kursdan-kursga ko'chirish və bitiruvchılarnı yakuniy attestasiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qılış;

ta'lım darayonını təshkil qılış hamda ta'lım müəssasasını rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha məktəb rəhbəriyatının hisobollarını tinglash;

ta'lım maqsadiga muvofiq holda o'quvçılarnı rag'bətləntirish və jazolash bo'yicha masalalarını hal etish;

chorak, yarim yillik, yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

pedagogik Kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshırışını təlab qılış;

ta'lım-tarbiya jarayonında alohida xizmat ko'rsatgan ta'lım müəssasası xodimlарını rag'bətləntirishga tavsiya qılış;

yakuniy attestasiyadan muvaffaqiyatlı o'tgan o'quvçılarga o'rnatılan taribda hujjatlar berish to'g'risidə qaror qabul qılış.

Pedagogik Kengash yig'ilishləri qarorlaşdırılıb, qabul qilingan hujjatlar ta'lım müəssasası iş yuritish hujjatları bilan birgə saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyatı bir qator hujjatlarda o'z akini topadi: iş rejisi, kengash bayonnoması yozıladıgan muhrlangan daftar, kengash materialları, hisobot.

Pedagogika Kengash hujjatlari besh yil davomida ta'lım müəssasasında saqlanadi.

Ta'lım müəssasası Metodik Kengashi və uning vazifələri. Ta'lım jarayonining sifati har jihatdan o'qituvçılarning g'oyaviy-

nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog'liqdir. Ana shu maqsadda ta'lif muassasasida metodik Kengash va fan metodik birlashmalari ish o'sib boradi. **Metodik Kengash** ta'lif muassasasida ta'lif jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir.

Metodik Kengashning faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

ta'lif jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lif muassasasi metodik ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

ta'lif muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjalarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

ta'lif muassasasi o'quv-metodik ishlariiga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limga mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

ta'lif muassasasi ta'lif jarayonida qo'llashi uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

davlat ta'lif standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;

tashqi va ichki nazorat natijalariga asosan Davlat ta'lif standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

o‘quv jarayoniga o‘qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlarini tashkil qilish;

ta’lim jarayonida milliy maskura va yoshlarda siyosiy ongni shakllantirishga doir ko‘rsatmalar berib borish;

o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko‘rsatmalar berish;

yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

o‘qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma’naviy va moddiy rag‘batlantirishga tavsiya qilish;

pedagogik xodimlarning attestasiyadan o‘tkazish bo‘yicha materiallarni tayyorlash;

ta’lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo‘yicha darsdan tashqari (fakultativ, to‘garak) ishlar, bilimlar bellashuvi, fan olimpiiadalarining 1-bosqichi, ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodika Kengashi yig‘ilishlari qarorlashtirilib, Kengashning quyidagi hujjatlari ta’lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi: ish rejasи, Kengash yig‘ilishi bayonnomasи, Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar, ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar, yillik hisobot.

Metodika birlashmalari va ularning faoliyatini tashkil etish. Ta’lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlar turkumlari bo‘yicha Metodika birlashmalari faoliyat ko‘rsatadi. Metodika birlashmalaringin maqsadi o‘qituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga qo‘ylgan hozirgi zamon talablarining bajariishini ta’minkash borasida o‘zaro yordamni tashkil etish, ijodiy tashabbuslarni uyg‘unlashtirish va ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Metodika birlashmalari o‘zida Metodika Kengashining vazifalarini aks ettiradi. Shu bilan birga Metodika birlashmalari quyidagi vazifalarni ham amalga oshiradi:

fanlar bo'yicha taqvim-mavzu rejalarini tasdiqlashga tavsiya etish;

oraliq va yakuniy nazoratlar uchun o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan sinov materiallarini tasdiqlash;

ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishni tashkil qilish va ommalashtirish;

tegishli yo'naliш yoki fan bo'yicha ta'lim muassasasida metodik ta'minotga bo'lgan chtiyojni aniqlash;

darslarni o'zaro kuzatishlarni tashkil qilish, natijalarni tahlil etish va mutaxassislarga amaliy yordam berish;

ta'lim metodlarini o'rganish maqsadida ochiq darslarni tashkil etish, ilg'or pedagogik tajribalarga doir takliflarni o'rganish, unumlashdirish va ommalashtirish;

yosh mutaxassislarga metodik yordam berish;

ko'rgazma va ko'rsatmali vositalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni berish;

fan xonalarining me'yoriy hujjatlar talablarini asosida jihozlanishini tashkil etish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Metodika birlashmalari boshlang'ich ta'lim yo'naliши bo'yicha bitta, V-XI sinflarda esa o'quv rejasidagi alohida fanlar bo'yicha tashkil etiladi. Agar u yoki bu fan bo'yicha o'qituvchilar soni uch nafardan kam bo'lsa, u holda fan o'qituvchilari shu turkumdagи fan o'qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodika birlashmasiga birlashadilar,

Metodika birlashmasiga ta'lim muassasasi Pedagogika Kengashi qaroriga asosan ijodkor va tajribali o'qituvchilardan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rahbar tayinlanadi. Metodika birlashmalarining faoliyati quyidagi hujjatlar asosida tartibga solinadi: ish rejasi, Birlashma a'zolari haqidagi ma'lumotlar, Birlashma faoliyatiga aloqador bo'lgan o'quv-metodik hujjatlar, Birlashma yig'ilishi bayonnomalari, hisobotlar.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. Fan-teknika taraqqiy etib, ijtimoiy munosabatlар mazmuni axborotlarga tobora boyib borayotgan, fan olamidagi yangiliklar, psixologiya-pedagogika fani rivoj topayotgan bir davrda o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ravishda ishlashlari,

malakalarini oshirib borishlari, mustaqil izlanish ko'nikmasiga ega bo'lislishtan ijobkor bo'lishlarini talab qiladi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan maqsad o'qituvchilarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantrish, ularning kashiy bilimlarini takomillashtirish, natijada esa o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish sifatini keskin oshirishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya ishlarining murakkablashib borishi o'qituvchi oldida turgan vazifalarni kengaytirmoqda. Shunga ko'ra, pedagoglarning malakasini oshirish tizimida ularni ijodiy izlanishga odatlantirish, ijodiy faolligini rag'batlantrish maqsadiga muvofiq ish olib borish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning bir qancha shakllari ishlab chiqilgan. Bu shakllardan nafaqat maktab pedagoglarning malakasini oshirishdagina emas, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining rahbarlari ham xabardor bo'lishlari va ulardan muvaffaqiyatli foydalana olishlari lozim. Pedagoglarning malakasini oshirish shakllari quyidagi ikki guruhga bo'linadi: ta'lim muassasasi doirasida malaka oshirish va ta'lim muassasasidan tashqarida malaka oshirish.

Yosh o'qituvchilar bilan ishlash. Yosh o'qituvchilarining har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Haqiqatan ham yosh o'qituvchi ta'lim muassasasiga ishga keldi deylik: uni o'quvchilar bilan ishslashga tayyor deb ayta olamizmi?

To'g'ri, oliy o'quv yurtida u yaxshi nazariy bilimlarga ega bo'ladi va shu bilan bir vaqtida malakaviy pedagogik amaliyotdan ham o'tib keladi. Biroq u oliy o'quv yurtini tamomlashi bilan o'qituvchi degan nomga ega bo'ladi. Tabiiyki, unda o'quvchilar bilan ishslash tajribasi yetarli emasligi bois mehnat faoliyatining birinchi yilidayoq bir qator muammolarga duch keladi. Zero, yosh o'qituvchiga xarakteri turlicha bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan ishslash oson kechmaydi. U o'z o'quvchilarining qobiliyat darajasi, o'zlashtirishdan ortda qolayotgan o'quvchilar shaxsini o'rganishda ularning har biri o'ziga xos xotira, fikrlash layoqati va diqqatga ega bo'lishlarini hisobga olmaganligi sababli o'quvchilar bilimlarni hosil qilishni tartibga solish imkoniyatini qo'ldan boy beradi. Yosh

o'qituvchining eng katta xatosi, u o'zini bilimi sayoz o'quvchilar bilan ishlashdan olib qochadi. Uning uchun bilimi yuqori bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash oson tuyuladi. Natijada o'zlashtirishi past o'quvchilarning tengdoshlaridan ortda qolishlari kuchayadi, ularning rivojlanishi ta'lif jarayonida tartibsiz kechadi.

Yosh o'qituvchilarga yordamni tashkil etishda asosiy bo'g'in – bu ular bilan bevosita ishlashni yo'lga qo'yishdir. Ularga ma'ruzalar o'qish, nazariy mashg'ulotlarni tashkil etish shart emas, chunki ular oliy ta'lif muassasasida yetarli ma'lumotlarni oladilar. Yosh o'qituvchi amaliy maslahatlarga ehtiyoj sezadi. Bunday yordamni quyidagicha amaliga oshirish mumkin: barcha yosh o'qituvchilarni jalb etish orqali; egohlantirish orqali har bir o'qituvchining darsini kuzatish yo'li bilan; yosh o'qituvchining ishi bilan yaqindan tanishish orqali.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogik Kengashning vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta'lif muassasasida metodik ishlari qay tarzda amalga oshiriladi?
3. Metodik Kengash va metodik birlashmalarning faoliyati haqida gapirib bering.
4. Pedagog kadrlar malakasini oshirishdan maqsad nima? U qanday amalga oshiriladi?

V BOB MAXSUS PEDAGOGIKA

1.1. KORREKTSION PEDAGOGIKA

Tayanch tushunchalar: korrektsiya, korreksion pedagogika, korrektsion pedagogika sohalari, anomalija, korrektsion pedagogikaning asosiy kategoriyalari.

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivejlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya – yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, ta'lilot) – rivojlanishda jismoniy yoki ruhiy nuqsonga ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Korreksion pedagogikaning quyidagi sohalari mavjud: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya

Korreksion pedagogikaning asosiy **maqsadi** – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtaсидаги номувоғиqliкни ю'қотиш yoki kaimaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyalı anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

differensial o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

bolaiarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirtarni ishlab chiqish;

anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogikaning quyidagi kategoriyalari mavjud:

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqish vaqtini hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqtini alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolalarni tarbiyalash – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtaсидаги yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umurniy pedagogik ta'sir

ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarda sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniadi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o'rmini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rmini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariiga tayanadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «reabilitas» – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunda anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirot etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayat va mehnatga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» – moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirot etish uchun imkoniyat yaratadi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlanirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlari quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiatи va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va

psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lif sharoitida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'lumi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'naliishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korektsion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarini tayyorlashning zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarining rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lif o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lif tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatishdir.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Korreksion pedagogika fani nimani o‘rganadi?
2. Korreksion pedagogika fani yana qanday nomlar bilan ataladi?
3. Korreksion pedagogikaning qanday sohalari mavjud?
4. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
5. Korreksion pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
6. Anomal bilan olib boriladigan korreksion ishning asosiy yo‘nalishlariga nimalar kiradi?

1.2. INKLUYUZIV TA’LIM

Tayanch tushunchalar: inklyuziya, inklyuziv, inklyuziv ta’lim, integratsiya, resurs, resurs pedagog.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi. Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion – uyg‘unlashmoq, uyg‘unlash-tirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra negiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘sishni ifodalovechi ta’lin tizimidir. Inklyuziv ta’lim siyosati turli xil ehtiyojli bolalarning ta’lim olishini qo’llab-quvvatlaydi, va yutuqqa erishishiga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta’lim umumta’lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo‘lgan ta’limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishiga oid qo‘sishmcha moslamalarni tashkil qilib, qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta’lim turli xil ehtiyojli bolalarning ta’lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta’lim turli xil ehtiyojlarini

qondirishga qaratilgan ixcham turdag'i dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tatiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa, bu nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar uchun foydali bo'ladi. Inkiyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olishi uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda.

Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta'lim muasasalarida qondirib bo'lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta'lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta'lim maktablarining uncha katta bo'Imagan qismi sifatida faoliyat yuritadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inkyuziv ta'lim siyosati faol amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'lim madaniyati. «Salamanka deklaratsiyasi»ga muvofiq, har bir o'quvchining tafovut, xususiyatlari qo'llab-quvvatlovchi va ma'qullovchi islohot sifatida qarashadi. Uning maqsadi, jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyat va qobiliyatidagi tafovutlar oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy segregatsiyaga yo'l qo'ymaslikdir. Biroq bu kontsepsiya universal foydalanim uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi. Dunyo bo'yicha maktablarda inklyuziyaga ko'pincha umumta'lim maktablarida nogironlarni o'zlarining tengdoshlari bilan birga ta'lim olish deb qaraladi. Biroq inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati to'g'risidagi

bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlataladi.

Nogiron bolani oddiy sharoitga moslashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan bиринчи qadamdir. Imkoniyati heklangan bolalarning umumta'lim muassasalarini tarkibiga qamrab olinishi jahon miqqosida «inklyuziv» yoki «integratsion» ta'lim atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu – diqqat markazida bolaning aynan mакtabга kelib-ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktab ta'limiga qamrab olishdir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga alohida yordamga nuhtoj shaxs sifatida qaraladi. Ushbu ta'lim tizimining quyidagi shakllari mavjud:

Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lмаган bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

Funksional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'lмаган bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lмаган bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi.

Inkyuziv ta'limning maqsad va vazifalari. Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarni hal etish talab etiladi:

ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korrektcion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korrektcion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

o'quvchilarning ta'limdagи teng huquqligini kafolatlash;

jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbat munosabatini shakkantirish.

Inklyuziv ta'linda resurs pedagog va uning vazifalari. Maxsus ehtiyojli bolalarmi umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim analiyotida maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan bирgalikda faoliyat ko'rsatishi va maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka cga bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs pedagog nogiron bolalarni ular uchun zarur bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlaydi, homiyalar topadi, imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatadi, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o'qituvchilarini va muktab ma'muriyatiga maslahatlar beradi.

Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad: umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsusus ta'linga muhitoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Inklyuziv ta'linda deganda nimani tushinasiz?
2. Inklyuziv ta'larning asosiy mohiyati nimadan iborat?
3. Inklyuziv ta'lim qanday vazifalarni hal etishga yordamlashada?
4. Inklyuziv ta'lim madaniyati tushunchasini izohlang.
5. Inklyuziv ta'larning vazifalarini aytib bering.
6. Inklyuziv ta'linda resurs pedagogning rolini tushuntirib bering.

II BO'LIM. PEDAGOGIKA TARIXI

I BOB. PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

1.1. «PEDAGOGIKA TARIXI» FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Tayanch tushunchalar: tarix, pedagogika tarixi, manba, davrlashtirish, xalq pedagogikasi, yozma manbalar, «Urxun-Enasoy» bitiglari.

«Pedagogika tarixi» faning maqsadi – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyotini tizimli yondashuv asosida o'rganishdan iborat.

Maktab va pedagogika ko'p asrlik tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Mazkur davrda pedagogika fani ko'plab g'oyalalar va kontseptsiyalar bilan boyib bordi. «Pedagogika tarixi» fanining predmeti – eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni.

«Pedagogika tarixi» fanining vazifalari:

- 1) milliy o'z-o'zini anglash, kasbiy rivojlanish bilan bog'liqlikda umumiy va pedagogik madaniyatni shakllantirish;
- 2) pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish va tizimlashtirish;
- 3) pedagogik g'oyalarni tahlil etish asosida ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.

Pedagoka tarixini o'rganish manbalari:

- 1) arxeologik yodgorliklar;
- 2) qo'lyozmalar;
- 3) xalq og'zaki ijodi;
- 4) adabiy yodgorliklar;
- 5) hujjatlar;
- 6) badiiy adabiyot;
- 7) memuarlar;
- 8) Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlari.

Pedagogika tarixini davrlashtirish muammosi. Pedagogika tarixini davrlashtirishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. So'nggi yillarda O'zbekistonda pedagogika tarixini o'rganishga doir eng keng tarqalgan davrlashtirish o'zida quyidagi bosqichlarni aks ettiradi:

1) eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar;

2) mustaqillikka erishilgandan to hozirgi kungacha O'zbekistonda pedagogik fikrlar rivoji;

3) jahon pedagogik fikrlari rivoji (eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha).

Biroq pedagogika tarixini insoniyat tarixi bilan bog'liqlikda o'rghanish maqsadida quyidagi tarzda davrlashtish maqsadga muvofiq:

1) eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lif-tarbiya va pedagogik fikrlar;

2) VII asrдан XIV asrning birinchi yarmifacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;

3) Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojllanishi;

4) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab;

5) XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji;

6) XVII asrдан XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;

7) XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;

8) 1917–1991-yillarda O'zbekistonda ta'lif tizimi va pedagogik fikrlar rivoji;

9) Mustaqil O'zbekiston ta'lif tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji;

10) eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi;

11) XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika faning rivoji;

12) hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

1.2. ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI.

1.2.1. IBTIDOIY JAMOA TUZUMIDA TARBIYA

Ibtidoiy jamiyat insoniyat tarixining dastlabki davri bo'lib, mazkur davrda yozma manbalarning saqlanib qolmaganligi ushbu davrda tarbiyaning amalga oshirilishini arxeologik manbalarga asoslangan holda tahlil etishni talab etadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi ikki davrga bo'linadi: 1) ibtidoiy to'da; 2) o'rug'chilik jamoasi.

Qadimgi tosh asri	Peleolit: ilk o'rta so'nggi	mil. av. 700/500–100 ming yilliklar. mil. av. 100–40 ming yilliklar. mil. av. 40–12 ming yilliklar.
O'rta tosh asri	Mezolit	mil. av. 12 – 7 ming yilliklar.
Yangi tosh asri	Neolit	mil. av. 6–4 ming yilliklar.
Mis-tosh asri	Eneolit	mil. av. 4–3 ming yilliklar.
Bronza davri	Bronza davri	mil. av. 3–1 ming yilliklar.
Temir asri	Ilk temir asri	mil. av. X–VIII asrlar.
	So'nggi temir asri	VII–IV asrlar

Insoniyat faoliyatining asosiy turi sifatida tarbiyaning yuzaga kelishi mil.av. 40–35 ming yilliklarda zamonaviy qiyofadagi odamlar (*«homo sapiens»*– *«ongli odam»*)ning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida mehnat tarbiyasi yetakchi o'rin tutgan. Ana shu asosga ko'ra mehnat bilan bog'liqlikda kishilar uch guruhga bo'lingan: 1) bolalar va o'smirlar; 2) ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar; 3) keksalar.

So'nggi paleolitda insoniyat o'z taraqqiyotida yana bir bosqich yuqori ko'tarildi. Odamlar ilk to'da tarzida yashamay qo'ydilar va qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'lindilar. Jamiyatda juft oilalar paydo bo'ldi, ular ayrim urug'larni birlashtirib, urug' jamoasini tashkil etdilar. Odamlar g'orlardan tashqari yerto'la va chaylasimon uylarda ham yashashga o'rgandilar. Juft oilalarning paydo bo'lishi haqida kichik uy-joylarning tarqalishi darak beradi.

O'sha zamon jamoasida ona – ayolning ijtimoiy o'rni baland bo'lib, urug' uning nomi bilan boshlangan. Ayollar uy, o'choq va muqaddas olovning egasi sifatida uy xo'jaligida hamda bolalarni tarbiyalash jarayonida, o'choqda o'tni saqlashda, ovqat pishirishda, ro'zg'or buyumlarini, mehnat qurollarini qo'riqlash, uy-boshpanani asrash paytida muhim vazifalarini bajarganlar.

Mezolit davrida O'zbekistonda qoyatosh suratlari kashf etilgan. Ularning ba'zisi rang berib cheqilgan, ba'zilari o'yib ishlangan. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oiddir. Ular qadimgi odamning fikru o'ylari, atrof-muhit haqidagi tasavvuri, qanday hayvonlarni ovlagani, qaysi mehnat va ov qurollarini qo'llagani haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Neolit davrida ona urug'i matriarxat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga o'tadi. Urug' jamoalari kattalashadi va ularni bir joyda boqish amri mahol bo'lib qoladi. Oqibatda urug' jamoasidan mayda guruhlar – kichik oilalar ajralib chiqa boshlaydi.

O'rta Osiyo hududida bronza davri miloddan avvalgi 3-mingyllik o'rtalaridan boshlanadi va miloddan avvalgi 2-mingyllikka kelib o'z rivojining yuksak darajasiga etadi.

Patriarxat urug'chilikka o'tish patriarchal oilalarning vujudga kelishiga olib keladi. Sunday oila bir-biriga qarindosh ota urug'i bo'yicha yuritiladigan bir necha avlodlardan iborat bo'ladi.

1.2.2. XALQ PEDAGOGIKASI – EMPIRIK BILIMLAR SOHASI SIFATIDA

Xalq pedagogikasi xalq ommasini tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining sohasidir.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy tizimida bolalarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi(qulay shart-sharoiat yaratishi) tushuniladi.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va ainaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish va axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o'qitish jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatishning xalq orasida tarkib topgan metodikasini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy san'at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z metodlari va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagagi texnologiya darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berishda foydalaniш mumkin.

O'zbek xalq og'zaki ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rindi.

Xalq pedagogikasida tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish (o'rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istik bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash), taqiq qilish, ta'na (gina, o'pka) qilish, mashara – mazax qilish, nafbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqtish, uzr so'rash, ont – qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash metodlari bo'lsada, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullah va maqtash, alqash, mukofotlash, qoralash – qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalaniлgan.

1.2.3. ENG QADIMGI YOZMA MANBALARDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARINING YORITHLISHI

«Avesto»dagi ta'limiylar g'oyalar. «Avesto» — zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvida mehnat, ezzgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Zardushtiylik dinining nomi ushbu din asoschisi *Zardusht* (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan olingan. Uning tug'ilgan joyi noma'lum. Zardusht miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi choragida yashagan.

Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi — mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi.

Zardushtiylik yoyilayotgan davrda ibodatxona ham, maxsus ilohiy kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar ochiq havoda, gulxan yonida ado etilgan. Keyinchalik kohinlar Zardusht va'zlarini yozib borganlar. Zardusht dini kohinlari bunday diniy matnlarni yod bilganlar va ibodat paytida o'qiganlar. Zardusht vafotidan bir necha asr o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiya va duolar kitob holiga keltiriidi. Bu zardushtiylar muqaddas kitobi «Avesto» edi. «Avesto» so'zi «qat'iy qonunlar» ma'nosini bildiradi.


Zardusht diniga ko'ra, atrofdagi dunyo ikki qismidan tashkil topgan: yaxshilik va yomonlik. Bular o'rtasida azaldan kurash ketadi. Masalan, nur bilan qorong'ulik, hayot bilan o'lim, ezzgulik bilan yomonlik, qonun bilan qonunsizlik o'rtaasida.

Zardushtiylar hayotining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq.

Zardusht dini bo'yicha har bir inson hayot yo'llini o'zi belgilaydi; kimga yon bosmoqlik, kimni himoya qilishni o'zi hal qiladi.

Zardushtiylikda olov, er, suv va havo muqaddas sanaladi. Ularni yomon, yovuz narsalar bilan aralashtirmaslik lozim.

Zardo'shtiylik axloqining asosiy uchligi




O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ta'lim-tarbiya masalalari. VII – VIII asriarda qabr toshlariga turk-runiy yozuvida o'yib bitilgan «Urxun-Enasoy» bitiglarida ham botalarni vatanparvar, xalqparvar, tadbirkor, uddaburon, oqil qilib tarbiyalash masaialariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Qultegin bitigida turk xalqini uzoqni ko'ra olmaganligi natijasida Tabg'ach eliga qaram bo'lib qolganligi, kelgusi avlodlar bunday xatoliklarni takrorlamasliklari zarurligi quyidagicha uqtiriladi: «So'zimni tugal eshitgil, keyindagi inim, urug'im, xalqim.... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.... Tabg'ach xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafis....ekan. Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu holda birlashtirar ekan... Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yopinchig'igacha qo'ymas ekan. Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi, o'lding».

Pedagog olima A.S.Kaldibekovning fikricha, bu bitigtoshlarda botalarni baynalmilallik ruhida tarbiyalash masalasiغا ham e'tibor qaratilgan. Bitigtoshlarda turk xalqining Tabg'ach xonligiga qarshi olib borgan urushlari ham ifoda etilgan. Biroq turk xonlari (To'nyuquq, Qultegin, Bilga hoqon, Eltarish hoqon) Tabg'ach xonlarining botirligi, siyosatdonligi, ishbilarmonligi, vatanparvar hamda elsevarligini inkor etmaydi. Ayni shu jihatlarni turk xalqida mujassam bo'lishini chin dildan istaydi. Shu bilan birga Tabg'ach xonlarining boshqa xalqlar ozodligi, iqtisodiyoti, madaniy hayotiga xavf solayotgani oshkora ko'rsatib berilgan. Agar ular bu qusurlarni bartaraf etishsa, ular bilan har tomonlarna aloqalarni yo'lga qo'yish foydali ekanligi ta'kidlanadi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogika tarixi qanday davrlashtiriladi?
2. Xalq pedagogikasida qanday didaktik g'oyalar ifodalanadi?
3. «Avesto»da ta'lif-tarbiyaning qanday modeli aks etgan?
4. Tarix va pedagogika tarixinining umumiy hamda o'ziga xosliklarini ochishga doir Venn diagrammasini to'ldiring.

Quyida keltirilgan diagramma bilan tarnishing. Tarix va Pedagogika tarixinining o'ziga xosliklarini diagrammaning kesishinaydigan joylariga yozing. Doiralarning kesishgan joyida ikkita fan uchun ham umumiy ma'lumotni yozing.



5. Quyida keltirilgan parchalarni o'qing va xalq pedagogikasidagi qaysi tarbiya metodi ifodalanganini aniqlang.

1) «Juvon o'lgur yetimcha,

Charximni qilding parcha!

Charxim sirsa go'rga-ya,

Bir labimdan ayridim,

Oqbilakka yetmasdan

Sen ham bo'lgin mendaycha!»

2) Illoho! Tuproq olsang oltin bo'lsin.

3) Barakalla, o'g'lim, yaxshi ish qilib kelibsan!... Indamay kela bergenningda mening o'g'lim bo'lmas eding, men sendan xush vaqt bo'lmas edim.

4) Otam qadrin endi men ham bilaman,

Bosgan izin men ziyorat qilaman.

Bola bo'lar jordan aziz kishiga,

Yig'lama, Dilmurod, darrov kclaman.

II BOB. VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

Tayanch tushunchalar: islom dini, nusulmon maktablari, Qur'oni Karim, hadis ilmi.

Islem dinining tarqalishi va uning ta'lif-tarbiyaga ta'siri. Ma'lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko'pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o'lmash yodgorlik bo'lib, u o'z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Abbosiy xalifalar davrida, ayniqsa dastlabki, uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bog'dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o'ynadi.

Chunonchi, G.N.Sharbatov ta'kidlaganidek, «arablar hamda madaniyat va ilmu fonda arab tilini xalqaro til tariqasida qo'llagan O'rta Osiyo, Eron, Kavkaz va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan yaratilgan ko'pdan-ko'p badiiy, tarixiy, jug'rofiy, ilmiy va diniy asarlar ham mana shu davning mahsulidir».

Musulmon maktablari va unda ta'lif-tarbiya mazmuni. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rtta Osiyoda bir nechta turdagi ta'lif muassasalari (*maktab, madrasa, qorixona, daloilxona*) mavjud edi.

Maktablar boshlang'ich ta'lif muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o'qish o'rgatilgan, din haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o'quv muassasasi hisoblangan, *qorixona* va *daloilxona* («*Daloil al-xayrot*») quyi duniy xizmatchilarni tayyorlagan.

Maktablardagi ta'lif tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rganish ko'p vaqt ni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish

ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng «*Hastiyak*»ni (fors. «Qur'onning ettidan bir qismi») o'qishni boshlaganlar

Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo'limdan, ya'ni: quyi (*ibādat al-islām*) va yuqori (mas'ola) bo'limlardan iborat bo'lган. Lekin barcha madrasalarda ham bo'limlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo'lim «*mushkulāi*» deb yuritilgan.

Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. «Qur'on» – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musuimonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «*qiroat*» ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezungulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'tinga ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Quron»da uylanish, er-xotin, otona va farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va muslimanining oila qurishi Ollohnning farzi ekanligi ta'kidlanib, «Qur'oni Karim»ning «*Baqara*» surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: «Hotinlarining sizlarning ekinzor erlaringiz bo'ladi. Ziroat erlari urug' sepganda Samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o'z xotinlarining farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlarining uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ibnmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey, Muhaminad saodat mujdasini iymonlilarga bergen».

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziylar)ning hadis ilmi rivojiga qe'shgan hissasi. Islom olamida Qur'onidan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hiseblanadi. Haqiqiyligi puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahit deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi seg'lom, to'g'ri, xatosiz degani.

Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarni to‘plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Hadislarni to‘plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg‘ambar alayhissalomni ko‘rgan va bilganlardan yozib olingan ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to‘plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa’d al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilalar bo‘lgan. Dunyoga mashhur mubaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom iba Maji’ Kazviniy, Abu Iso Muhammad as- Samarcandiy, imom at-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to‘plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug‘ alloma birgina «Al-jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») asari ustida o’n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming hadisni to‘plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, «Al-jome’ as-sahih» asaridan odob-axloq mavzuiga bag‘ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad («Adab durdonalari») deb nomlangan bo‘lib, bu asar 1322 ta hadisni o‘z ichiga olgan.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratgan asarlari ichida, «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») eng asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek «al-Jomi’ al-kabiyr» («Katta to‘plam»), «Sahih at-Termiziyy», «Sunan at-Termiziyy», («Termiziyy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi ibn Hojar al-Asqaloniyning yozishicha at-Termiziyy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya’ni qariyb oltmis yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imornlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Abu Iso at-Termiziyy yozib qoldirgan «al-Jome’ as-sahih», «ash-Shamoil an-nabaviya» kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib insonlarni halol, adolatli, e’tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-onalari, ayollarga nisbatan hurmatda va e’tiborli bo‘lishga chorlaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O'rta Osiyoda qanday musulmon maktablari paydo bo'ldi?
2. Qur'oni Karimda qanday ma'naviy-axloqiy masalalar o'z ifodasini topgan?
3. Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziylar haqida nimalarni bilasiz?
4. «Qur'oni Karim va hadislar haqida nimalarni bilasiz?» mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni dastarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.
Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:
 1. Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.
 2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tuganganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukul saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.
 3. Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt talaba o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

III BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI

Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Asarlari: «Al jabr va al-muqobala», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Er satxini o'lchash», «Quyosh soatlari to'g'risida», «Yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» va boshqalar.

Didaktik qarashlari:

- Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, induktsiya, deduktsiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.
- U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakkarda ifodaladi.
- Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.
- Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashxur astronomik jadvallar tuzdi.

Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.

Asarlari: «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma'nolari haqida», «Shaharni o'rghanish haqida» va boshqalar.

Pedagogik qarashlari:

- Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim – so'z va o'rghanish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.
- Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.
- Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va akli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
- Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
Asarlari: «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik qarashlari:

- Beruniy insonni tabiatning eng oliv kamoloti deb qaraydi. U insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo‘ladi.
- Beruniy ta’limotiga ko‘ra inson kamolotida uch narsa muhim rol’ o‘ynaydi: 1.Irsiyat. 2.Muhit. 3.Tarbiya.
- Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dozarbdir. U o‘kuvchiga bilim berishda:
 - o‘quvchini zeriktirmaslik;
 - bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavemaslik;
 - uzviylik, izchillik;
 - yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va xokazoga e’tibor berish kerakligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlari. Asarlari: «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-konun», «Ishq hakida risola», «Xay ibn-Yakzon», «Donishnama» va boshqalar.

Ta’lim-tarbiyaga doir qarashlari:

- Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o‘ch olish, adovat, bo‘xton, irodasizlik kabilardir.
- U fanlar tavsiisi haqida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o‘ringa tibbiyot fanlarini ko‘yadi. Falsafani esa ikki – nazariy va amaliy guruhga bo‘ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinci guruhga fizika, matematika, metafizika va dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni kiritgan.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamao bo‘lib maktabda o‘qitish zarurligini ko‘rsatadi va ta’lim jarayonida quyidagilarga rivoja etish zarurligini ta’kidlaydi: 1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band kilib qo‘ymaslik; 2) ta’limda yengildan qiyingga qarab borish orqali bilim berish; 3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiba mos

bo'lishi; 4) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish; 5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; 6) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan ko'shib olib borish.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida ta'lif-tarbiya masalalari. Maqollar:

«Odamning olasi ichida – yilqiniki tashqi(sirti)da».

«Ho'kizning ortin oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq»

«Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik».

«Odobning boshi – til».

«Ilon o'zining egriligini bilmay, tuyaning bo'ynini egri deydi».

«Ko'kka suzsa yuzga tushun».

«Bir qarg'a bilan qish kelmas».

«Keng to'n to'zimas, kengashli bilig artamas».

«Kichikda qatiqlansa ulg'adu sevinur».

«Erdamsizdan qurt chertilur».

Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik» asari – pandnomma asar sifatida.

«Qutadg'u bilig» – baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lif degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasihat, ta'lif-tarbiyaga oid yetuk didaktik asar, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi. «Qutadg'u bilig» asari Sharqda pandnomma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan.

Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, hamd, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lif maqsadi, o'n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik haqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqeal bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qahramon – Kuntug'di – adolat ramzi, vazir – Oyto'ldi – davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish – aql ramzi, sifatida, O'zgurmish – vazirning qarindoshi – qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida xayotiy

masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga ko'ygan maqsadga bo'yundiriladi.

- O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar.
- O'quv qut beradi, bilim – shon-sharaf,
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.
- Yaxshi nom oladi, ko'r, ezgu kishi,
Yomonlar nasibi – el-yurt qarg'ishi.
- Kishiga chiroydir uyat-andisha,
U asrar nojo'ya ishdan hamisha.
- Yomonlik qilganning ulushi – o'kinch,
Yomonga yaxshi bo'l, mayli har qachon.
- Oq sut bilan kirsa qaysi bir qiliq,
O'lim tutmaguncha o'zgarmas yo'riq.

Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida didaktik qarashlar. Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning ahamiyati, jaxolatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muhabbat qo'yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saqlanish haqidagi, harom va halollikning farzlarini, ularni bir-biridan farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

- Ulug'likka etsang unutma o'zing,
Agar atlas kiysang, unutma bo'zing.
- Qora bosh yag'isi qizii til turur,
Necha bosh edi u, yana ham eyur.
- Ming er do'sting ersa o'qish ko'rmagil,
Bir er dushman ersa, ani ozlarna.
- Ulug'lar ne bersa, emasmen dema,

Hig sur, og'iz ur, emasang ema.

- Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun,
Qolu chiqssa bekta tishing siyur.
- Harislik ma erg'a yovuz xislat bo'l,
Harislik so'ng g'am, o'kinch hasrat ul.

Kaykovusning «Qobusnom» asarining tarbiyaviy ahamiyati. Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus «... barcha fikr va tushunchalarni scening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim», deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan holda kamolga yetkazish yo'llari va usullarini bayon etgan. Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandiikkha ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatiar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'tirasida o'tirmaslik; riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik; yo'lg'onchi kishi bilan muoma'a qilmaslik; baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir yerda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aysa, shu aybri yo'qtotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muhtoj bo'lgan odamni gina, qahr bilan qo'rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf etish; kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday hatti harakatlarga duch keladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Al-Xorazmiyning didaktik qarashlarini bayon eting.
2. Abu Nasr Forobiyning ta’lim va tarbiyaga bergan ta’rifini izohlang.
3. Abu Rayhon Beruniyning shaxs rivojiga doir nazariyasini tushuntirib bering.
4. Abu Ali ibh Sinoning tarbiyaga doir qarashlarini izohlang.
5. Mahmud Qoshg’ariyning «Devonu lug’otit-turk» asarida ifodalangan hikmatlarni tahlil eting.
6. Yusuf Xos Xojibning pandnoma tavsifidagi qarashlarini izohlang.
7. Ahmad Yugnakiy ilm olish haqida qanday fikrlarni ilgari surgan?
8. Kaykovusning javonmardlik tarbiyasiga doir qarashlarini bayon eting.

IV BOB. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA TARBIYA VA MAKTAB

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. Movarcunnahir mo'g'ul urug'lari va qabilalarining ijtimoiy hayotida yuz bergan katta o'zgarish, ularning mahalliy ijtimoiy tuzumini qabul qilishlari, xo'jalik va madaniy hayotdagi o'zgarishlar mo'g'ullarning etnik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi. Mamlakat aholisining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, shubhasiz uning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga tutki ham bo'idi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan shubhasiz mo'g'ullar istilosи va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab inqirozga yuz tutgan fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi.

Garchi yozma manbalarda bizgacha aniq ma'lumotlar yetarli darajada etib kelmagan bo'lsa-da, har qalay bu davrda ilm va ma'rifat ham ayrim yirik hunarmandchilik va savdo-setiq markazlarida jonlanadi. Buxoroda bino qilingan «Mas'udiya» va «Xoniya» kabi madrasalarning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.

So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. So'fiylar inson ma'naviy-ruhiy komillikka erishish yo'llarida to'rt bosqichni o'tishi kerak, deydi.

Birinchi bosqich – **shariat**. Diniy marosimlar va shariat aqidalarini, taqvolarini aynan, izchil bajarish, chunki shariat qonun bo'lib, bu qonun vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – **tariqat**: nafsnı tiyish, xushnudlik, xudoni o'ylash, xilvat, ma'naviy muhabbatni chuqurlashtirib, xudo to'g'risida o'ylash, ya'ni tariqat – fano, o'zdan kechish, ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi yo'l, faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – **ma'rifat**: hamma narsaning, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o'zining mohiyati xudo mohiyati bilan birgaligini bilish va anglash. Bunda odam uchun barcha kibr-u havo, manmanlik, shon-shuhrat bema'ni bo'lib ko'rindi, shunda u orif, ya'ni bilimli, xudoni tanigan bo'ladi.

To‘rtinchı bosqich – **haqiqat**. Bunda so‘fiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vosil bo‘ladi, u bilan birlashadi, shu orqali inson foni, ya’ni «analhaq» bo‘la oladi.

Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’srifat rivojiga qo’shgan hissasi. Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san’ati va davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar yaratilib, u «Temur tuzuklari» nomi ostida shuhrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og‘zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi (yo‘nalishi) va vazifalari, (vazir va qo’shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi) mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo’shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi.

Amir Temur umr bo‘yi quyidagi e’n ikki tamoyilga amal qilgan:

- Har yerda va har vaqtida islom dinini qo‘llab-quvvatlagan.
- Davlat ishlarini kengash asosida boshqargan.
- Salatanat ishlarini murosayu madora orqali yurgizgan.
- Davlat ishlarini qonun-qoida va tuzuklarga asoslanib boshqargan.
- Amirlar va sipohiylargaga hurmat ko‘rgazgan.
- Adolat va insofga tayangan.
- Fuqarolarga izzat-hurmat ko‘rgazgan.
- Azmu jazm bilan ish tutgan.
- Raiyat ahvoldidan doimiy ogoh bo‘lgan.
- Turku tojik, arabu ajamning turli toifalariga hurmat ko‘rsatgan.
- Do‘stlarni unutmagan va ularga yordam bergan.
- Har joyda sipohiylarni hurmat qilgan.

«TEMUR TUZUKLARI»DAGI O'GITLARNI MOHIYATI VA VAZIFASIGA KO'RA QUYIDAGI GURUHLARGA AJRATISH MUMKIN:	«TEMUR TUZUKLARI»DAGI O'GITLARNING AXLOQ VA ODOBGA DOIR TURLARI:
1. Din va shariatga doir. 2. Davlat va uni idora etishga doir. 3. Kengash o'tkazishga oid. 4. Podsho va vazirlarga doir.	1. Adolat va adolatsizlik. 2. So'z va ishonch birligi. 3. Do'st va dushmanlik. 4. Botirlilik va qo'rkoqlik. 5. So'z va shirin-suxanlik.

«Temur tuzuklari»dagi hikmatlardan namunalar:

1. Adevat emas, adolat engadi.
2. So'zlaguvchi gar nodon erur, tinglaguvchi dono o'lsin.
3. Ota bo'limgan, ota qadrini bilmas.
4. Do'shmandan qo'rqma, munofiqdan qo'rq.
5. Ishon. Ammo shubha qil.
6. Kuch – adolatdadit.
7. Do'stlik sinovda chiniqadi.
8. Filning dumি bo'lguncha, chumolining boshi bo'l.
9. Toy mingan – ot ham minadi.
10. Botir jangda bilinar, dono – mashvaratda.
11. Birliksiz kuch bo'lmas.

Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Samarqandda o'z atrofida to'plangan olimlarning bevosita ishtiroki va yordamida Ulug'bek 1424–1428-yillarda shahar yaqinida Qbirahmat anhori bo'yida rasadxona qurdirdi. Doira shaklida bino qilingan bu ulkan imoratning aylanasi 47 metr, balandligi 31 metr edi. Bobo'rning yozishicha, u uch qavatli bo'lgan. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan. Binoning ichki sahni sudsi faxriy (sekstant) va koridorlar bilan to'rt qismrlarga ajratilgan. Rasadxona ichki devorlarida koinot-u Er sharining umumiyl manzarasi tasvirlangan bo'lib, shu tufayli bu mavzu aholi o'rtaida «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat topadi.

Samarqandda Ulug'bek rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa astronomiya sohasida ilmiy dunyoda

olamshumul ahamiyat kash etgan natijalarga erishadi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'mni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.

«Ziji jadidi Ko'ragoniy» dan tashqari Ulug'bek «Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola yozadi.

Ulug'bek davrida maktab islohoti. Ulug'bek Movarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417–1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga «Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir» degan kalima o'yib yozib qo'yildi.

Alloma o'z davlatida ta'lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta'minotiga o'tkazdi, mudarris (o'qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba)larga stipendiya ajratgan.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek madrasa o'quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur'on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

Mutafakkir temonidan barpo etilgan hamda o'zi bevosita ta'lim bergen madrasalarda o'qish quyidagi bosqichlardan iborat bo'lgan:

1. «Anda» (kichik) – o'qish muddati 2 yil.
2. «Aust» (o'rta) – o'qish muddati 3 yil.
3. «A'lo» (oliy) – o'qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtida ular o'rta asr Yevropa universitetlari uchun ham xos bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Bobur 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alaba natijasida Bobur Shimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelda Dehli shahrida Bobur

podshoh nomiga xutba’ o‘qildi. Shu tariqa, yangi sultanat Boburiylar sultanatiga asos solinadi.

Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan mayda mustaqil rojalarni (hukmdorlarni) ham qilich, ham siyosat yo‘li bilan birlashtiradi va 1530-yilgacha markazlashgan yirik saltaniatini barpo etadi. Bu sultanat 332 yil (1526–1858-yillar), ya’ni Hindistonni Buyuk Britaniya to‘liq bosib olgunga qadar hukm surdi.

Bobur xayotiy esdaliklar yozish maktabini «Boburnoma» asari orkali boshlab berdi.

«Muxtasar», «Mubayyin», «Voldiy», «Xatti Boburiy» kabi asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida c’tibor qaratgan.

Uning ijodiga mansub bo‘lgan «Xatti Boburiy» uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o‘rgatish kitobi sifatida foydalanilgan.

Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda mashhur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar – «Boburnoma»dir.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Quyida keltirilgan lavhalar bilan tarnishing va qaysi mutafakkir haqida fikr yuritilayotganlini aniqlang.

1-lavha. U Farg‘ona hokiminining o‘gli bo‘lib, otasi vafotidan so‘ng taxtni egallagan. O‘z yurtiga qalandar sifatida qaytib kelishni orzu qilgan. Ham sarkarda, ham shoir, ham tarixchi, ham geograf sifatida nomi tilga olinadi.

2-lavha. U 1394-yilda Sultoniya shahrida tavallud topgan. 10 yoshga to‘lganda uni Muhammad Sultonning qizi Og‘obegimga unashadirilar. Ona tomonidan Og‘obegimning nasl-u nasabi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312–1342) xonadoniga manusub bo‘lgani tufayli, u «ko‘ragon» unvoniga sazovor bo‘ladi.

3-ilova. U 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko‘pdan-ko‘p harbiy yurishlar va jang-u jadallarni amalga oshirdi. Ko‘p mamlakatlar zabit etildi. Oqibatda Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar bo‘lgan g‘oyat katta hududni qamrab olgan ulkan sultanami vujudga keltirdi.

V BOB. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayet mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoир nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'-vor axloqiy kuch. U o'zida oljanoblik va mardonaver ruhni, vafodorlik-ni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoирning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'verlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan («Qilding ani orifi ul ma'rifat»), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

«Karramno» – keldi manoqib anga

«Ahsani taqvim» – munosib anga.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrli. Boshqalarga ziyon yetkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to'g'ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a'zosidan – shohimi, gadomi – inson nomiga munosib bo'lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezonи – bu xalq g'am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Alisher Navoiy «qanoat» to'g'risida. Qanoat buloqdur-savi olgan bilan kurimaydi; xazinadir – naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradi; daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi yetkazadi.

Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi... Qanoat qo'rg'onadir, u erga kirsang nafs yomonligidan qutularsan, tog'likdir – u yerga chiqsang dushman va do'stga qaramlikdan xalos bo'larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiotsizlik urug'ining mevasi farovonlik...

Alisher Navoiy «sabr» to'g'risida. Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi... Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o'rtoqdir – subbat zerikarli, ammo maqsadga olib boruvchi; ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri estakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga eltuvchi; tuyadir – qadami og'ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so'zli nasixatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qynaladi, ammo so'ngida sog'lik yuz beradi.

Alisher Navoiy «muruvvat va saxovat» to'g'risida. Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajardur (boqiy ildizidir), balki ul shajarning musid samaridur (hosilasidur). Odamiylik kishvarining bahri mavjvari (odamiylik dengizining mavjlari), balki ul mavj bahrining samin gavhari... Ma'dumlikda (insoniy fazilat sifatida) muruvvat karamning urug' qayoshidur (qarindoshidir), balki tav'amon (umuman) qarindoshidur... Sohibi muruvvat (muruvvatli kishi) sharif xalqidin ayrimaydurkim, u qayda bo'lsa Tengri panohida bo'lsin – izzat va sharaf oromgohida.

Muruvvat – barcha bermakdur, emak yo'q, // Futuvvat – barcha qilmoqdur, demak yo'q. Shoir nazdida muruvvat odamgarchilik yuzasidan qilingan yaxshilik, saxovat, himmatdir, o'zida bor narsalarni muhtojlarga berish, emay edirish, kiymay kiydirishdir. Futuvvat esa barchaga yaxshilik ko'rsatish, ammo evaziga hech narsa talab va ta'ma qilmaslikdir

Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. O'rta asrning buyuk adibi Alisher Navoiyning turkiyzabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning farovonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. Mirzo Muhammad Haydaming yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming «shohruhiy» dinorga teng bo'lgan. Bu

mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlariga sarf etgan. U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhori bo'yida bir qancha binolar: «Ixlosiya» madrasasi, uning qarshisida «Xolisiya» xonaqohi, «Qudsiya» jome' masjidi, «Shifoziya» davolash uyi, «Safioziya» hammomi, va ular qoshiga toshhovuz qurdiradi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi. «Ixlosiya» madrasasi va «Xolisiya» xonaqohida bir necha ming kishi istiqomat qilib, fan, adabiyot va san'at bilan mashg'ul bo'lган. O'sha davr tarixchisi Xondamirning yozishicha «Xolisiya» xonaqohida har kuni zaifa saqlab qolish, fursat boy berilgan davrlarda esa istiqlol uchun xalqimiz birdamlik bilan oyoqqa turdi, «yo hayot, yo mamot» shiori ostida qahramonona kurashdi.

Navoiyning oqituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari. Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa aynoni boshi unga o'rinn bo'lmasa. ... Yaramasliliklardan qo'rqa va noplilikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdир, yomon odatni tarqatuvchidir».

«Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qildi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahim-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitnish ranj ila,

Aylamat bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jomiy uchta lirik devon, etti dostondon iborat «Haft avrang» («Yetti taxt»),

(davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati» deb nomlanib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko'tariladi.

Davoniy inson o'zining aqliy qobiliyatini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilish lozimligini uqtiradi: 1) zehn o'tkirligi; 2) fahmlilik; 3) zehn ravshanligi; 4) bilimni tez egallash qobiliyati; 5) qo'yilgan muammoni tezda anglashi; 6) yodlash qobiliyati; 7) xotira.


Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchg'a bo'ladi: 1) inson aqliy faoliyati bilan bog'liq; 2) ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladigan; 3) kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq.

Davoniy insoniy fazilatlarni to'rtga bo'ladi: donolik, adolat, shioat, iffat.

Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bo'limgaganligi tufayli u g'azab va quvvatini o'ziga buysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni buysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Quyida keltirilgan diagramma bilan tarnishing. Abduraxmon Jomiy va Jaloliddin Davoniylar pedagogik qarashlarining o'ziga xosliklarini diagrammaning kesishmaydigan joylariga yozing. Doiralarning kesishgan joyida ikkita mutafakkir qarashlaridagi umumiy fikrni yozing.



VI BOB. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Euxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta’lim-farbiya. XVII-XIX asrlarda O‘rtta Osiyoda bir nechta turdag'i ta’lim muassasalari (*maktab, madrasa, qorixona, daloilxona, otnoyilar maktablari*) mavjud edi. Ayniqsa Qo‘qon, Toshkent, Buxoro kabi shaharlarda ularning soni tez ko‘paygan.

Maktablar boshlang‘ich ta’lim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o‘qish o‘rgatilgan, din haqida dastlabki ma’lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o‘quv muassasasi hisoblangan, *qorixona* va *daloilxona* («*Daloil al-xayrot*») quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

XIX asrdagi Qo‘qon xonlari arxivlariда beklar va xonlar saroylarida *sug‘ir* (etm)lar uchun ochilgan maktablar haqidagi ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bunday maktablar davlat mablag‘lari hisobiga faoliyat yuritgan.

Maktab va madrasalarda ta’lim mazmuni. Maktablardagi ta’lim tzimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etlgani bois savod o‘rganish ko‘p vaqtini olar edi. Chunonchi, faqatgina alisboni o‘rganishga 3–4 oydan bir yilgacha, ba’zida undan ham ko‘p vaqt sarflanar edi. O‘quvchilar dastlabki o‘qish ko‘nikmalarini egallaganlardan so‘ng «*Haftyak*»ni (fors. «Quronning ettdan bir qismi») o‘qishni boshlaganlar

O‘quvchilar «*Haftyak*»ni tugatganlardan so‘ng «*Chor-kitob*» (To‘rt kitob)ni o‘qishga kirishganlar. «*Chor-kitob*» fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, uning birinchi qismida diniy marosimlar (tahorat olish, namoz o‘qish, ro‘za tutsh va h.q.) sheriyl usuida bayon etlgan, ikkinchi qismida yuqorida masalalar katekizis (izoh) shaklda ancha keng yoritilgan parchalar o‘rin olgan. «*Chor-kitob*»ning «*Musulmonlikning muhim masalalari*» deb nomlangan uchinchi qismi o‘quvchilarni shariatning asosiy ustuni –musulmon diniy huquqlari bilan tanishtrgan. Kitobning «*Pandnoma*» (Nasihat kitobi) deb nomlangan va XIII asrda yozilgan to‘rnchi qismida Quroni karimdan olingan odob-axloq masalalariga oid qoidalar sheriyl shaklda bayon etlgan.

Shundan so'ng o'quvchilar mutlaq din masalalariga bag'ishlangan «*Sabotul ojizin*» kitobini o'qishni boshlaganlar. Ushbu asar ko'pincha uning muallifining nomi bilan, yani – «*So'fi Olloyor*» deb yuritladi. Bu sof diniy asar bo'lib, unda diniy masalalar sheriyl usulda bayon qilingan.

Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limi davom ettrish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo'limdan, yani: quyi (*ibādat al-islām*) va yuqori (masola) bo'limlardan iborat bo'lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo'limlar shunday nomlanmagandan qayd etsh lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo'lim «*mushkulāt*» deb yuritgan.

Birinchi bo'limda talabalar din ahkomlarini o'rganganlar. Ikkinci bo'limda esa – Quroni karimga muvofiq holda bayon etlgan islomning asosiy qonunlari o'qitilgan. Bundan tashqari, arab tilshunosligi, mantq, tarix, sher yozish ilmi, metafizika va boshqa fanlar ham o'qitilgan. Madrasalarda barcha mashg'ulotlar arab tilida olib borilgan.

Madrasa talabalarini shartli ravishda uchta kursga bo'lish mumkin.

Birinchi, yani boshlang'ich kurs *adnā* (quyi), ikkinchi kurs – *avsat* (o'rta) va uchinchi kurs – *a'lo* (yuqori) deb nomlangan. Biroq, kurslarning nomlari hamma madrasalarda ham bir xil bo'lmagan. Shu o'rinda bunday kurslarga ajratsh faqat yirik madrasalarda mayjud bo'lgani, talabalar soni 20 kishiga etmagan kichik madrasalarda esa talabalarning barchasi faqat bitta mudarrisga mashg'ulotga qatnaganlarini qayd etsh lozim.

Madrasada darsni tashkil etsh tartbi quyidagicha bo'lgan: bitta darslikdagi aynan bir bobni o'rganayotgan 10–15 nafar talaba bir sinf xonasiga to'planishgan va o'zlariga *oqsoqol* (sardor) saylab olishgan. Bu guruh «*jamoa*», uning oqsoqoli esa «*qori jamoa*» deb nomlangan. Darsni boshiash uchun oqsoqol mudarrisning huzuriga borar va undan mazkur guruh bilan mashg'ulot o'tkazish uchun izn so'rardi.

Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Masjid va xonaqohlar qoshida ochilgan maktablarda faqat o'g'il bolalar

o'qitgan. Qiz bolalar o'z davrining o'qimishli ayollari tomonidan uylarida ochilgan maktablarda o'qitgan. Ayol muallimani o'lkaning turli hududlarida «otnoyi», «otnbibi», «bibiotn», «bibixalifa» deb ataganlar. Qizlar maktabi o'g'il bolalar maktablariga nisbatan ancha kam bo'lgan, ko'p hollarda maktabdorlarning, imomlarning xotnlari maktabdorlik qilgan. Qizlar maktabi haqida K.E.Bendrikov «Turkistonda xalq maorifi tarixidan ocherklar» asarida quyidagi larni yozadi: «Qizlar ishqiy maktublarga berilmasinlar deb, qizlar maktabida yozuvga o'rgatilmagan». Professor U.Dolimovning fikricha, bu so'zlar haqiqatdan ancha yiroq. O'zbek xalqi – o'tmishda eng ko'p shoiralar etshirgan xalq, agar yozuvga o'rgatilmaganida edi, podshohlar saroyiga mansub bo'lgan Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodirabeginlarni qo'ya bering, XIX asrning o'zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar otn, Qamarniso, Nozimaxon kabi o'nlab mashhur shoiralar qaerdan etshib chiqqan!?

O'rta Osiyoda faoliyat yuritgan qizlar maktabining yirik namoyondalaridan biri – Jalon Otn Uvaysiyidir. O'zining butun faoliyat davomida xalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilgan Jalon otn xalqimizning oqila qizlarini tarbiyalash, go'zal hayotga erishishning birdan-bir yo'li deb o'ylab, o'zining butun umrini yosh qizlarga ta'lif-tarbiya berish bag'ishladi.

O'z maktabida qizlarga boshlang'ich ta'lif berar ekan, Jalon Otn ularning zehnnini o'strishiga katta ahamiyat beradi. Otn o'z shogirdlariga savod o'rgatbgina qolmay, ular orasidan ijtdorli qiziarni tanlab sharq sheriyat bilan tanishtradi. Qizlarni nazm bo'stoniga etaklaydi.

Atoqli zullisonayn shoira Dilshodi Barno 50 yildan ortq muallimalik qilib, qizlarga xat-savod o'rgatdi, tabi nazm qizlarga sheriyat ilmidan dars berdi.

Dilshod o'z maktabida yosh qizlarni tarbiyalar, ularga xat-savod o'rgatar va ularni chuqur bilim egasi qilib chiqarishga intlar edi. Shu bilan birga, yosh istedodli qizlarga o'zbek, tojik mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarini ham o'rgatar va ularni nafosat ruhida tarbiyalab, o'z zamonasining ilg'or kishilari qilib etshirishga harakat qilgan.

Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lism» asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Munis o'z davrining yetuk murabiy shoiri sifatda bolalarning savodxonligini va husnixatni yaxshilash yo'lida ko'p izlanadi va yoshlarga husnixatdan ta'lism berib, «bilgancha surib qalamni har yon, ta'lism ishin aylar erdi oson» deydi. «Bilimning eshigi alisbe» deganlaridek, Muis ham ta'limgagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun «umumiy arqom» yozuv ilmini yaratshga bel bog'lagan.

Munisning «Savodi ta'lism» asari ana shu tarzda 1804-yil 6-dekabrda vujudga keladi. Mazkur risola nazariy ma'lumotlar va mashqlarni o'z ichiga olgan. Risola ikki qismidan tarkib topgandir. U «Savodi ta'lism»ning nazariy qismida o'zigacha mavjud bo'lgan bolalarga xat-savod o'rgatuvchi risolalarining barcha nuqson va kamchiliklarni ochib tashlaydi va eski risola bilan o'zi yaratayotgan risolani bir-biri bilan taqqoslab, eski risolaning o'sha kungi talablarga javob bera olmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Risolaning ikkinchi qismida arab alisbosidagi har bir harfning yozilish uslubini marifiy-didaktik nuqtai nazardan sodda qilib tushuntrishga harakat qiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning «Odob as-solihin» («Yaxshi kishilar odobi») asari kundalik turmushimizda har kuni har daqiqada bilish zarur bo'lgan turmush odobiga oid xulq-odob qoidalarining majmuidir. Asar turkiy tlda yozilgan bo'lib, muqaddima, ett bob va xotmadan iborat.

Asarning muqaddimasida uning maqsadi sifatda insonga yaxshi xulq egallashi zarurligi takidlanadi va u odob qoidalarini egallab olmasa va yaxshi xulq bilan odobli va toza bo'lmasa, nafaqat o'ziga, balki butun dunyoga yomonlik targatadi, deydi va quyidagi masnaviyini keltradi:

Adabsiz na o'zi uchun yomonlik qiladi,

Balki butun dunyoga o't qo'yadi.

«Odob as-solihin» asarida bayon etlgan botniy va zohiriy qoidalar:

1. Salomlashish va ruxsat so'rash odobi.

2. Muloqot odobi.
3. Uxlash va yo‘l yurish odobi.
4. Subbatlashish odobi.
5. Er-xotn odobi.
6. Tozalik qoidalari.
7. Mehmon kutsh odobi.
8. Ziyofat va ovqatlanish odobi.
9. Safar qoidalari.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘rta Osiyoda qanqay xonliklar mavjud bo‘lgan?
2. O‘rta Osiyoda xonliklar davrida qanday ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan?
3. O‘rta Osiyoda xonliklar davrida qurilgan qanday madrasalarni bilasiz?
4. O‘rta Osiyoda qizlar maktabini ochgan qaysi otinlarni bilasiz?
5. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga asoslanib, madrasalardagi o‘qitish tizimi haqida qanday fikrlarni bayon eta olasiz?
6. Quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va ko‘rsatilgan ta’lim muassasalaridagi o‘qitish mazmunini qisqacha bayon eting;

Boshlang‘ich maktab	Qorixona	Dalelxona	Qizlar maktabi	Madrasalar

VII BOB. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. O'lkani Rossiya imperiyasi bosib olgandan so'ng 1870-yillarda qizlar ta'limi bo'yicha ba'zi ma'lumotlar mavjud. Turkistonda shahar va qisman qishloqlarda qizlar uchun boshlang'ich maktablar ham mavjud bo'lgan. Qishloq joylarda qizlar maktabi juda kam hollarda uchrar edi. Ba'zi hududlarda 100 ta maktabga bitta qizlar maktabi ham to'g'ri kelmas edi. Biroq ba'zi shaharlarda qizlar maktablarining soni o'g'il bolalar maktablarining chorak qismiga teng kelgan. Toshkent chor Rossiyasi qo'shiniqli tomonidan egallangan paytda shaharning ba'zi qismlarida qizlar maktablari va o'quvchilari soni o'g'il bolalar maktablarining $\frac{1}{2}$ qismiga to'g'ri kelgan va ularda o'quvchilar soni nisbatan kam bo'lgan.

A.P.Xoroshkin va Toshkent shahrida yashovchi mullalarning xabar berishicha, 1864-yilda ruslar bilan bo'lgan urush uchun soliq joriy etsh bo'yicha ro'yxatga olish o'tkazilganda, 8000 ming nafar o'quvchi bolalar, 4000 nafar o'quvchi qizlar qayd etlgan. Birgina Sebzor dahasida 25 nafar o'g'il bolalar va 15 nafar qizlar, Shayxontohur dahasida esa 20 ta o'g'il bolalar va 10 ta qizlar maktablari mavjud bo'lgan. Otnbibi maktabida o'quvchi qizlar bilan birgalikda o'g'il bolalar ham birga ta'lim olgan hollari ham bo'lgan. Qizlar maktablaridagi mashq'ulotlarda asosan fors-tojik va turkiy tildagi asarlar o'rgatlgan. Ushbu ta'lim muassasalarida «Ta'limi bayonot», «Muosharat odobi», «Tarbiyali xotun» va boshqa Sharq axloqiy madaniyatni o'z ichiga oluvchi fanlar o'qitlgan. A.P.Xoroshkinding 1876-yildagi ma'lumotiga ko'ra, qizlar 7–11 yoshdan o'qitgan, 11–15 yoshdan esa tikuvchilikka o'rgatlgan. Bundan shu narsa kuzatladiki, qizlar maktablaridagi ta'lim dasturlari o'g'il bolalar maktablari dasturlariga nisbatan kam qamrovli bo'lgan. O'rta Osiyoda o'g'il va qiz bolalar birga ta'lim oluvchi aralash maktablar bo'lganligi haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. 1906-yil Kaspiyorti viloyati maktablarining ahvoli haqida ma'lumot bergen N.P.Ostroumov turkmanlar orasida, ba'zi joylarda o'g'il va qiz bolalar birga ta'lim oluvchi maktablar mavjud

bo‘lganligi, ularda atigi ikki yoki uch yil davomida ta’lim berilishi haqida ma’lumot beradi.

Mustamlakachilik tzimining o‘rnatlishi va o‘lkada rus aholisi sonining o‘sib borishi bilan rus tilida so‘zlashuvchi aholi qizlarining ta’limiga bo‘lgan ehtyoj o‘sib bordi. Qizlar uchun gimnaziya, bilim yurtlari kabi ta’lim muassasalari tashkil etildi va mazkur maskanlarda mahalliy aholi vakillarini ta’lim olishlariga imkon berilishi kam miqdorda bo‘lsada, qizlar ta’limiga ijobjiy tasir o’tkazdi. XIX asrning 70-yillarda Toshkent va Chimkentda qizlar uchun bo‘lim hamda hunarmandchilik sinflari, Kazalinskda qizlar uchun yakshanba sinflari bo‘lgan boshlang‘ich bilim yurtlari tashkil etildi. Ushbu bilim yurtlarining barchasi muayyan rejalarsiz, asosan, o‘lkadagi rus aholisining ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etган edi.

Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Yerli xalqning aksariyat qismi, o‘z bolalarini rus-tuzem maktablariga berishning oqibatlaridan cho‘chir edi. Bu maktablarda birinchi navbatda pravoslav mazhabi asoslari, rus tili o‘rgatilgani uchun mahalliy xalq o‘z farzandlarini rus-tuzem maktablariga bermasdi. Buni o‘z vaqtida Sirdaryo viloyatidagi rus maktablarini taftish etgan chor amaldori N.K.Smirnov ham qayd etgan edi. U ruslashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim siyosatining muvaffaqiyatsizligi sabablarini quyidagicha izohlaydi va yozadi:

- yerli aholining shaharlardagi rus maktablarining qabul qilmaganligi sababi ularning dasturlarida musulmoncha savod darslari yo‘qligi, darslar bolalar uchun tushunarsiz bo‘lgan rus tilida olib borilishi va o‘qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi;

- rus bolalariga pravoslav dini asoslarini musulmon bolalar huzurida o‘rgatish.

Shuningdek, ruscha xat-savod oddiy turkistonlikka soyda keltirmas edi, chunki o‘lkaning musulmon aholisi barcha narsani – xatlar, hisob-kitoblar va boshqa yozishmalarni mahalliy tillarda va arab yozuvida amalga oshirar, musulmoncha xat-savodli kishi bunda, tabiiy, ko‘proq yutar edi.

Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. O'rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'mnashgan yerlarda ochilgan rus maktablarini Turkistonda maorif sehasida o'z siyosatning quroli qilib olishga harakat qildi (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866-yilda ochilgan edi). Rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinadilar edi. Turkistondag'i boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilalar edi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jaib qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870-yillardan ochila boshladidi: 1876-yili Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, 1879-yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi. Gimnaziyalarga ham yerli aholining bolalari qabul qilinadilar edi. O'qituvchilar seminariyalarida esa mahalliy aholi bolalariga 1/3 o'rinn ajratilgan edi.

1880-yillarning boshlariga kelib rus maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islam dinini o'qitish kerak, toki otonalari bu maktablardan qo'rqmasinlar, degan fikr tarqalgan edi. Turkiston ma'murlari bu fikrining qanchalik to'g'ri ekanligini tekshirishga qaror qildilar. 1884-yil 19-dekabrda Toshkentning «eski shahar» qismida sinab ko'rish uchun birinchi rus-tuzem maktabi ochilgan edi. 10 yillardan keyin Toshkentda bunday maktablar soni to'rttaga ko'paydi. Bu tipdag'i maktablar o'lkadagi yirik shaharlar hamda qishloqlarda ham tashkil etla boshladidi. O'lkada rus, rus-tuzem maktablari ilk bor XIX asming 70-yillarda yuzaga kelgan bo'lsa, 1904-yilga kelib ularning soni 57 taga yetdi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tilini hamda arifmetikani va boshqa fanlarni o'rgatar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratib qo'yilgan edi. O'qish vaqtining qolgan yarmi «Musulmon domla» ixtiyoriga berib qo'yilgan bo'lib, u eski usul maktablaridagidek bolalarga diniy darslar o'qitish bilan shug'ullanardi.

Rus-tuzem maktablarida faqat o'g'il bolalar o'qitilar edi. Otonalar qizlarini bunday maktablarga bermas edilar. 1903-yilda

Turkiston pedagogika to'garagi, Toshkentda qizlar uchun rus-tuzem maktabi ochildi. Lekin bu maktabning faoliyat uzoqqa cho'zilmay, ikki yildan keyin yopilib qoldi.

Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul mакtablarining ochilishi. Jadidlar harakati ijtmoiy-tarbiyashunoslik tafakkurining alohida bir oqimi sifatda Turkistonda yashovchi xalqlar orasida shakllandi. Turkistondagi jadid (jadid so'zi arabcha «yangi» demakadir) maktablarining yuzaga kelishi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog'liqidir.

1851-yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg'or demokratik g'oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtrish yo'lida qizg'in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o'z navbatida jadidchilik oqiminining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko'p yurtlarda safarda bo'lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog'liq ekanligini anglab yetb, jamiyatdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagagi maktab tuzishdan boshladi. Gaspirali tomonidan ochilgan yangi usuldagagi maktab tez orada shuhrat qozondi. Jadid maktablarining ommaviy tus olishiga asosiy sabab I.Gaspirali tomonidan 1883-yildan boshlab nashr etila boshlangan «Tarjimon» gazetasi bo'ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o'zi tashkil etgan maktab uchun bir qator darsliklar va o'quv qo'llanmalar ham yaratdi. Uning yangi usuldagagi maktab hayotiga bag'ishlangan asarlari jumlasiga «Hujai Subyona», «Qirsat turki», «Rahbari muallimin» kabi darslik va o'quv qo'llanmalarni kiritsa bo'ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o'quv jarayonini tashkil etish, darsliklarga qo'yiladigan talablar, o'quv adabiyotda qo'llaniladigan didaktik va metodik ko'rsatmalar bilan jadid maktablari taraqqiyotga uikan hissa qo'shdi.

I.Gaspirali boshqa turkiy xalqlar qatori o'zbek millattdagi ijtmoiy fikrlar taraqqiyoti va shu jumladan, haqiqiy vatanparvar o'zbek ziyyolitari, pedagoglarining kamol topishida ham o'chmas iz qoldirdi.

1893-yili Ismoil Gaspirali Turkistonga kelib, chor hukumat amaldorlarini va Buxoro amiri Abdulahadni musulmon maktablarini isloh qildirishga ko'ndirmoqchi bo'ladi.

Ismail Gaspirali Buxorodan so'ng poezdda Samarqandga borgan, umdan Toshkentga kelib, Turkiston general-gubernatorligidagi amaldoorlar bilan o'z niyat-maqsadlarini o'rtoqlashgan. Biroq Toshkentda uni yaxshi kufb olishmadi, loyihasi esa e'tiborsiz qoldi rildi. 1893-yil 8-iyunda u yana Samarqand orqali Buxoroga qaytb borgan va amir bilan uchrashib, E.J.Laxzarining ko'rsatishicha, uni yangi usuldagи bir mакtab ochishga ko'ndirgan. Ikkinci jadid mакtabini 1898-yilda Qo'qonda Salohiddin domla ochdi. Shu yili To'qmoqda ham yangi usul mакtabi paydo bo'ldi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Marion qori yangi usul mакtabini ochdilar. 1903-yilda, umuman, Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid mакtabi bor edi. Bulardan 6 tasi Buxoro amirligida va 8 tasi Xiva xonligi hududida edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul mакtablarini tashkil etishdagи ma'rifatparvarlik xizmatlari. XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab «*usuli jadid*» mакtablari ochildi. Uni bitirganlar orasidan Turkiston ma'naviy-ma'rifiy dunyosini milliy uyg'onishiga kuchli ijobiy tasir qiladigan zabardast namoyandalar yetishib chiqdi. Ularning «birinchisi», «Turkiston jadidlarining otasi» – **Mahmudxo'ja Behbudiydir.** Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida dunyoga keldi. Otasi *Behbudxo'ja Solixo'ja o'g'li Ahmad Yassaviy* avlodlaridan bo'lib, onasi esa, asli xorazmlik bo'lган. Otasi 1898-yil vafot etgach, u tog'asi, *qozi Muhammad Siddiq* tarbiyasida bo'lib, undan arab, forsiy tillarini chuqur o'rganadi. Behbudiy dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Tinimsiz va qunt bilan o'qib, imom-xathb, so'ngra qozi, muftiy darajasiga ko'tariladi. Bu mansablar shariatning yuqori maqomlari hisoblangan.

Safardan qaytb kelgach, yangi usul mакtablarini ochish yo'lida g'ayrat ko'rsatadi. Shunday mакtablardan birini Behbudiy Saimarqandda birinchilardan bo'lib 1904-yilda o'z uyida tashkil qildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1911-yilda «Padarkush» nomli drama yozdi. U bu asarida o'zining sevimli mavzusi – barchani ilm-marifatli bo'lishga chaqirish, ilmsizlik balosini daf qilish g'oyasini qalamga olgan.

Munavvar qori Abdurashidxonov Vatan va millat fidoyisi, mustamlakachilikni ayovsiz fosh qiluvchi marifiy, siyosiy arbob, tolmas kurashchi, jadidchilik harakatning yirik namoyandasidir. Munavvar qori ham «usuli savtya» mакtabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o'lkasidagi aholini qanday manaviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choraiari faqat mакtab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatning mustamlakachilik boshqaruв usuliga qarshi kurashda faollik ke'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyyolilar va turli guruhlardan iborat «Turon» jadidlar jamiyatni tashkil etdi.

Munavvar qori ochgan yangi usul «Namuna» mакtabida bir necha yuz bela o'qigan. Bu mакtabda tayyorgarligi ancha jiddiy bo'lgan istedodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o'zi esa jadid mакtablari uchun yangi tovush («usuli savtya») usulida darsliklar – «Adibi avval» («Birinchi adib», 1907) alifbosi va «Adibi soniy» («Ikkinci adib», 1907), «Yer yuzi» («Jug'rosiya»), «Havoyijon diniya» (1907) kitoblarini yozib, chop ettrgan. Bular o'lkasidagi jadid mакtablari uchun asosiy darslik sifatda bir necha bor qayta nashr etdi.

Abduqadir Shakuriy (1875–1943) Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog'ida 1901-yilda yangi usuldagagi mакtabni tashkil qiladi. Yangi usuldagagi bu mакtabda arifmetika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o'qitildi. Shakuriy o'zi ochgan yangi usuldagagi mакtabida arab tlining qoidalari va harflarni o'qitshga jiddiy e'tbor bergen holda, o'quvchilarni so'z bo'g'indilar bilan tanishtirar va shu bo'g'indilar asosida bolalar uchun tushunarli sodda so'zlarni tuzardi.

Shakuriy 1907-yilda bolalarning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalardan dastlabki ma'lumot berish maqsadida «Jomeul-hikoyat» («Hikoyalar to'plami») nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang'ich mакtabning

2-3-sinflari uchun terma kitobdir. Kitobdan 48 ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalari va 15 ta she'riy asarlar o'tin olgan. Uning uchinchi o'qish kitobi «Zubdat ul-ash'or» deb ataladi. Muallifning bu o'qish kitobini tuzishdan asosiy maqsadi o'quvchilarning olgan bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlash bilan birga ularda she'riyatni o'rganishga havas uyg'otsh va ularni (o'zbek, tojik, ozarbayjon) klassik adabiyoti namunalari bilan tanishtirishdan iborat edi.

Muallim Shakuri o'z o'quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imtihon tashkil etган.

Abdulla Avloniy (1878–1934) «Tarjimai holi»da yozadi: «1900-yilda uylanib, oila boshlig'i bo'lib qoldim. Shu yilda otam o'lib, o'gay onam bilan bir ukam meni qaramog'imda menga boqim bo'lib qoldi. Bu vaqtida butun oilani boqmoq uchun qish kunlarida ham ishlamoqqqa to'g'ri kelganligidan quvvai muhofazam o'rta darajada bo'lg'on holda madrasani tashlab chiqib ketuvg'a to'g'ri keldi. Shu choqlarda o'zim mehnat ichida yashag'onlig'imdan boylarga va mullalarga qarshi she'rlar yoza boshladim. Madrasadan chiqib ketsam ham maorif ishlaridan chiqib ketmadim. Turli gazetalar o'qishga tutindim. Shul zamonlarda Rusyaning turli shaharlarida chiqqan matbuot – gazeta va jurnallar bilan tanishib, o'qib, ma'lumotimni orttira bordim. «Tarjimon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim... Men ham shul jadidchilar qatoriga kirdim. 1904-yildan jadidchilar to'dasida ishlay boshladim. «Jadid maktabi» ochib, o'qituvchilik ham qildim...».

Abdulla Avloniy nashr etgan ro'znomalar ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lgani uchun ham uning faoliyati cherizm hukumati tomonidan tez-tez ta'qilanan edi. Shundan so'ng u ilg'or g'oyalarni ma'rifat o'chog'i – maktab orqali xalqqa tarqatshga qaror qiladi va 1903-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi usul maktabini ochadi. Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktabda kambag'allarning farzandlarini, yetim-yesirlarni o'qitdi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va ko'rsatilgan ta'lif muassasalaridagi o'qitish mazmunini qisqacha bayon eting;
2. Mazkur ta'lif muassasalaridagi ta'lif mazmunini yozishda qiyosiy tahliiga asoslaning.

Boshlang'ich maktablar	Gimnazi-yalar	Rus maktablari	Rus-tuzem maktablari	Yangi usul maktablari

VIII BOB. 1917–1991-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati (1917–1924-yy). 1917-yilgi fevral voqcalari va oktyabr to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagagi maktablarning keng tarmog'ini yaratish, mакtab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalgalash yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilari, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Maxmudxo'ja Behbudiy, Sadreddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshilar Mashriq Yunusov (Elbek), Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiev (Botu), Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif soxalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Milliy madaniyatimizning eng qadimgi va yirik markazi bo'lgan Samarqandda mashhur ma'rifatparvarlar Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Axmad (Vasliy), Saidaxmadxo'ja Siddiqiy, Mardonquli Shomuhammadzoda zudlik bilan maktab islohotini amalgalash fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan «Hurriyat» gazetasi sahifalarida yangi usuldagagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikri ilgari surdilar. «Anjumanı maorif» jamiyatining mablag'lariga «Rushdiya» maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o'quvchilarga islom diniy ta'limoto, islom tarixi, musulmon huquqi, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarixni o'qitar edilar. Yoz

faslida Samarqandning o‘zida taniqli ma’rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo «Tarbiyat» maktabini ochdi.

1918-yilning yozida Samarqandda «Musulmon o‘qituvchilar uchun pedagogik kurslar» ochildi. O‘sha yilning kuzida Toshkentda Toshkent uyezdining tub erli aholisi uchun maktab o‘qituvchilar kurslari ochildi. 1918-yil 9-aprelda Munavvar qori uyida to‘plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununing musulmon bo‘limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo‘limi dasturlarini tuzadilar. O‘sha yilning 3-mayida dorilfunununning Musulmon bo‘limi rahbariyatiga saylov bo‘lib, unda Munavvarqori rais (rektor), Iso To‘xtaboev bиринчи о‘ринбосар, Burxon Habib ikkinchi о‘ринбосар, Abdusamid qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakur sarkotib bo‘lib saylandi. 13-may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do‘konini binosi (hozirgi o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun «Xalq dorilfununi» ochiladi. Bu bo‘lim tez orada o‘ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang‘ich maktab ochish mo‘ljallangan bo‘lsa-da, aholi ehtiyojiga ko‘ra, ularning soni 24 taga etdi. Dorilfununning musulmon bo‘limi 15 demokratik tashkilot vakillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undaga muallimlar soni 18 nafarga yetadi.

1918-yil 2-iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununning o‘zbeklar uchun maxsus o‘qituvchilar tayyorlovchi bo‘limi – «Dorilmuallimin» ochildi. Unda Fitrat ona tilidan, Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan, Rahimboev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san‘atdan, Rizaev madaniyat tarixi va siyosiy iqtisoddan, Munavvarqori ona tilidan dars berishadi. Bu bo‘limning ochilish marosimida Munavvarqori nutq so‘zlab, inson ma’rifatli bo‘lib, ko‘zi ochilmaguncha vijdoni uyg‘onmasligini, vijdon uyg‘onmasa na o‘zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligini, bu iyemonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori ovro‘pacha usuldagi bunday xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mayjud madrasalarни isloh qiiish va ularda dunyoviy fanlar o‘qitib, milliy ziyolilar tayyorlash g‘oyasini

ham ilgari suradi. Bu qarashlarini – u 1923-yil iyunda Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalq maorisi mudirlari qurultoyidagi ma’ruzasida bayon etgan, 1923-yilda bu yangi usulda 30dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o‘qitilganligi ma’lum.

Munavvarqori 1922-yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif bo‘limi muboshiri (inspektori) bo‘lib ishladi, o’sha yili 23–25-martda bo‘lib o‘tgan II Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok elib, maktab bo‘limiga a‘zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta’lim-tarbiya bilim yurtida va turli maktablarda o‘zbek tili va adabiyotidan dars berdi. Do‘stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo‘limdan iborat «O‘zbekcha til saboqlari» kitobini (1925-yil) nashr ettirdi.

Xalq ta’limining iste’dodli tashkilotchilari Abdulqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Isxoqxon Ibrat, O.Dadaxujaev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziev, Ashurali Zoxiriy, Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Sayd Rizo Alizoda, To‘xtanazar Shermuhamedov, Rafiq Mo‘min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar. Maktablar soni o‘sdi. 1918-yil boshida 330 taga, 1920-yilda Farg‘ona, Sirdaryo, Samarcand viloyatlarida 1405 taga yetdi. Tashkil bo‘lgan maktablar, ayniqsa, qishloq joylarida va tumanlarda asosan 1–2 boshlang‘ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo‘lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo‘qonda va boshqa jeylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muhammara Qodirova, Gulso‘m Kopayeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzoqova, Zaynab Sadiddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta’lim-tarbiya ishlarini olib borganlar.

Keng doiradagi bilimdon ziyo filar qator maktablar faoliyatini namunali darajaga ko‘tardilar. XX asrning 20-yillari boshida Samarcandda Abdulqodir Shakuriy (1875–1943) mudirlik qilgan maktab, 1922-yilda Farg‘ona shahrida Xusanxon Niyoziy boshchiligidagi ochilgan ikkinchi bosqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidan edi.

Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziylolarimiz asr boshidan yozib chiqarib keldilar. 1917-yildan maktablar sonining o'sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko'tarilishi darsliklarga talabni oshirdi. Pedagog, olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917-yilda «Turkiy guliston yoxud axloq» asarini qayta nashr qildi, shuningdek «Maktab gulistoni» o'qish kitobini, ikki jildlik «Adabiyot yoxud milliy she'rler» kitoblarini yaratdi va chop etdi. 1920-yildan Toshkentdag'i o'lka bilim yurtida, so'ngra o'zbek xotin-qizlar bilim yurtida mudirlik kladi.

Fitrat 1917-yilda «O'quv» kitobini, 1919-yilda Sh.Raximiy va Q.Ramazon bilan birga «Ona tili» darsligini, so'ngra «Imlo masalalari» kitobini yozib chiqardi. 1917-yoldayoq Sayid Rizo Alizoda birinchi sinflar uchun «Birinchi yil» o'qish dasturini ishlab chiqdi. Shokirjon Raximiy 1919-yilda birinchi alifbo – «Sovg'a», 1922-yilda «O'zbek alisbosi» darsliklari va boshqa o'quv qo'llanmalarini chiqardi. 1918-yildan u Toshkentda maktab mudiri bo'lgan.

Buxoro va Xorazm respublikalarida ham maktablar, ta'lim-tarbiya maskanlari ochildi. Aholining bolalarni o'qitishga, ilmma'rifatga ishtiyogi kuchayib borgan, bunday talablar katta yig'indarda yangragan. Ammo xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida XX asrning 20-yillari boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922-yilga kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro respublikasida 1921-yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bor edi. Lekin 1924-yil o'rtalariga kelib maktablar 69 tani, o'quvchilar soni 3563 tani tashkil qildi. Xorazmda 40 ta umumta'lim maktablari va internatlarda 2600 nafar bola ta'lim-tarbiya oldi. O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganida turli bosqichdag'i 1500 ta maktab bo'lib, ularda 116 ming o'quvchi o'qir edi.

Tashkil bo'layotgan maorif tizimi, boshqa sohalar uchun o'qituvchilar, mutaxassislar tayyorlash choralarini ko'rildi. Toshkentning Yangi shahar qismida 1918-yilda Turkiston davlat universiteti, Sharqshunoslik instituti, konservatoriya, texnikumlar ochildi. 1920-yilda universitetga Rossiyadan pedagog-professorlar, kitoblar, o'quv qurollari yetkazib kelindi. Bu maskanlar inqilobiy

sinfiylik tamoyili bilan ishladi. Universitetning tayyorlov – ishbilar fakulteti (rabfak)da kambag‘al tabaqaga mansub kishilar o‘qigan. Yerli xalqlar vakillari ularga kam qatnagan.

Toshkentning Eski shahar qismida, Qo‘qon va boshqa shaharlarda muallimlar tayyorlash kurslari, 1920-yildan 7 ta dorilmuallimin (inpros), bir nechta bilim yurtlari faoliyat ko‘rsatdi. 1925-yilga kelib, O‘zbekiston qishloqlarida 2748 muallimlar ishlab turgan yoki ular soni 3–4 barobar oshgan.

1924-yilda Qo‘qon bilim yurtini 13 nafar yigit-qizlar bitirib chiqqdi. Unda keyinchalik O‘zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti Qori-Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan va madaniyat arboblari yetishib chiqdi.

Chet mamlakatlar bilan madaniy aloqalar, yoshlarning xorijda o‘qib kelishlari XX asr boshlaridan kengayib bordi va keyinchalik ham davom etdi. Buxoro respublikasi hukumati tashabbus ko‘rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922-yilda Turkiston, Buxoro va Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o‘qishga junatildi. Buxoro respublikasi hukumati Berlinda yotoqxona uchun bino sotib oldi, o‘quvchilarni moddiy ta’minlab turdi, ularning ahvoli, o‘qishlaridan ogoh bo‘ldi. Yoshlar Germaniyaning turli o‘quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o‘qidilar, mutaxassislar bo‘lib yetishdilar. Afsuski, o‘z ona yurtiga qaytgan yigit-qizlar mustabidlik qatag‘oniga uchradi.

1924–1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani. Ma’lumki, 1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytdan tuzildi. Shuni ta’kidlash lozimki, XX asrning 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har-hil tarzda ta’sir o‘tkazdi, barcha sohadagi o‘zgarishlarni qaramaqarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari hamda yo‘nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

Respublika shatoitlarida madaniy taraqqiyotning zamонавиј rivojlangan darajasiga o‘tish haddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lib, keskin masifikuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Shunday bo‘lsada, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari

avvalo o'zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko'rindi.

1924–25 o'quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I va II bosqichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928–29 o'quv yiliga kelib deyarli 2,5 mingtaga yetdi.

Shu bilan bir vaqtida katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miyosda kampaniya avj oldirildi. 1921–22 o'quv yilidayoq respublikaning ko'pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xatt-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarda kiyinchiliklarga duch keldi: o'qituvchilar, maktab binolari, asbob-jihozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari yetishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo'lsada, izga tusha boshladи, katta yoshli kishilarni o'qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog'i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o'qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo'ldi.

Hamza Xakimzoda Niyoziy, T.Shermuhamedov, T.N.Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo'jaev, Rozi Nazarov, Muhammara Qodirova, Zebuniso Polvonova, P.Qayumov, K.Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o'qituvchilardan bo'lib qoldilar.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmogi yaratildi: texnikumlar, maorif instituti, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur'atlar bilan ommaviy miyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. XX asrning 20-yillari oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5,5 mingtaga yetib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi.

Xalqning bilimga bo'lgan intilishi kun-sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o'sdi, bu narsa millatning ma'naviy

imkoniyatlari yuksalishiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi.

Shunday bo'lsada, bu jarayonlar partianing madaniy sohada zo'rlik ko'rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi. Xalq maorifida bu narsa avvaliga milliy ta'llim shakllari yoyiladigan sohalarni chekiab qo'yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo'q qilib yuborishda o'z aksini topdi. Chunonchi, XX asrning 20-yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta'minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925-yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. Lekin sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928-yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar.

Xalq ma'rifatining yuksalishi yo'lida hamon g'ov bo'lib turgan muammo aholining savodxonligini oshirish bo'lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930-yili umumiy boshlangich ta'llimning joriy etilishi savodsizlik ko'lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Ajratilgan mablag'lar maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. Umumiy ta'llimni amalga oshirish uchun o'qituvchilar, talabalar, ilm-fan xodimlari, yoshlar jamoalarining katta armiyasi safarbar etildi. 30-yillarning oxirlarida umumiy yetti yillik ta'llimni amalga oshirishga kirishildi.

1940-yili respublikada barcha turdag'i 5,5 mingdan ortiq umumta'llim maktablari ishlab turdi, ularda 1,3 min.ga yaqin bolalar o'qidi. Biroq bu davrda maktab yoshidagi hamma bolalarni ham, ayniqsa, qishloq joylarida o'qishga jalb qilishning imkonini bo'lmadi: maktab binolari, uskuna-jihozlar, o'qituvchilar yetishmas edi va hokazo. Maktab ta'llimi turli sohadagi bilimlarni egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo'shilib keta oladigan, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga kirib o'qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko'paytirishga imkon bera oladigan jiddiy islohotga muhtoj edi.

Afsuski, xalq ta'limiga buyruqbozlik nuqtai nazaridan turib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko'rsatkichlari birinchi o'ringa o'tdi. Ahvolni xo'jako'rsinga yaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy holatiga yomon ta'sir o'tkazdi hamda oliv va o'rta matabga sezilarli darajada zarar yetkazdi.

Respublika taraqqiyotining manfaatlari xalq xo'jaligi va madaniyatining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tezlashtirishni talab qilar edi. Tabiiyki, buni markaziy hukumat tushunardi, lekin unga O'zbekistonning xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarida sotsializm, marksizm-leninizm g'yalari bilan sug'orilgan itoatguy yuqori malakali mutaxassis kadrlar kerak edi, Shuning uchun oliv o'quv yurtlarining ta'lim-tarbiya dasturlari, o'quv rejalar, qo'llanmalari va hokazolari avvalo kommunizm prinsiplariga asoslangan bo'lib, mutaxassislarni 4–5 yil muddat davomida partiya, sovet davlatiga sadoqatli bo'lish bilan birga sinfiylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi.

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmida o'rta maxsus va oliv ma'lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o'quv yurtlari ochildi. Davlat sinfiy tamoyilga amal qilib, bu o'quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta'minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o'quv yurtlariga kira olmas edi. Oliy o'quv yutlarida o'qish uchun zarur bo'lgan umumiy ma'lumotni qisqa muddat ichida olish maqsadida ishchi fakultetlari tarmogi yaratildi. Shu tufayli 20-yillarning oxiridayoq respublikadagi oliv o'quv yurtlarida asosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 ming nafarga yaqin talabalar o'qir edi.

Mutaxassislar tayyorlashda RSFSR va boshqa respublikalar ham O'zbekistonga yordam berdilar. 1927-yili faqatgina Rossiya Federatsiyasidagi oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekistondan kelgan 300ga yaqin talabalar ta'lim oldi.

O'rta Osiyodagi birinchi oliv o'quv yurti – 1918-yili ochilgan Turkiston davlat universiteti – bu vaqtga kelib oliv ta'limning eng yirik markaziga aylandi. Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur'atlarini yildan-yilga oshirib bordi: uni bitirib chiqgan kishilar soni 1928-yilga kelib 5 baravar ko'paydi. Ammo ular

orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi.

Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxoziar tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo'lishi tegishli mutaxassislarga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar etishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko'paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o'qish muddatlari ancha qisqartirildi. Mayjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o'quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo'jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo'llari, to'qimachilik transport, tibbiyot institutlari va boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933-yili Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi. 30-yillarning oxirlarida respublikada 44 ming talaba o'qiydigan 30 ta oliy o'quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. Institut va texnikumlarni bitirib chiquvchilarning soni bir necha baravar ko'paydi. Bu yangi mutaxassislar xalq xo'jaligi safiga kelib qo'shildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda asosan ularning soni ko'paytirildi, sisatiga esa e'tibor berilmadi. Institut va texnikumlarda mahalliy millat vakillari kam edi. Yuqori malakali o'zbek professor-o'qituvchilari va o'zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmasdi.

20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926-yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936-yilda 186 ming ayol savodini chiqargan.

Kash-hunar ta'limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, yasli tarbiyachilari, muktab o'qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928-yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o'qigan. 1929-yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932-yilda respublika oliy o'quv yurtlaridagi ta'labalarning 20 foizini o'zbek xotin-qizlari tashkil qilgan. 30-yillarda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi.

Urushning suronli yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943-yidda respublikada 41 oliy o'quv yurti (ularnng 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo'shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari O'zbekistonda barcha turdag'i qo'shinlar uchun zabit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshtga piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamizda joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'uv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

1945–1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Respublika aholisi madaniyatining o'sishida ta'lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo'lib qo'shilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish aholining bilim darajasiga bog'liq.

O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda o'zbek xalqining sa'y-harakatlari bilan ta'lim sohasida ma'lum yutuqlarga erishildi. 1940–41 o'quv yilidan 1970–71 o'quv yiliga bo'lgan davrda umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta'lim maktablari tarmog'i ham kengayib bordi.

Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan, ko'pgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihalarsiz qurildi, ko'pgina chala ishlari bilan

foydalanimishga topshirildi. Qishloq maktablarining 75 foizga yaqini vodoprovod, kanalizatsiyaga, yarmidan ortig'i markazdan turib isitish moslamalariga ega emas edi.

Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebel, asbob-uskunalar bilan yaxshi ta'minlanmasdi. Buning sababi xalq ta'limiga qoldiq prinsipi asosida mablag' ajratilishida ko'rindirdi. Fan, madaniyat va xalq ta'limiga sarf-xarajatlar byudjet mablag'ining atigi 2,7 foizini tashkil etardi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrdagi sessiyasida «O'zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Yangi Qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959-yil martda O'zbekiston Oliy Soveti «Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi.

O'zbekistonda maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash to'g'risidagi 1959-yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bildn o'n yillik o'rta maktablar qayta tashkil etilib, o'n bir yillik o'rta maktablarga aylantirildi, ularda o'quvchilar fan asoslari bilar birga ishlab chiqarish kasblarini ham o'rgana boshladilar, O'quvchilarga kasb ta'limi berishga yuzlab korxonalar, xo'jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o'quv kabinetlari, laboratoriylar, ustaxonalar, o'quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta'limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duchi keldi. Korxonalar, xo'jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga mablar yo'q edi.

Mehnat ta'limi o'qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida istobot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o'rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o'qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta'minlandi. Biroq oliv ma'lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o'qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og'ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o'qituvchilarini yetishmasdi. Aksariyat hollarda o'qituvchilar o'z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.

Sovetlar davrida maktablarning o'quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o'rgatilmasdi. Ona tilini o'rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatiarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o'zbek adabiy tilining yozma va og'zaki shakllarini puxta o'zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O'zbekiston tarixi va ma'nnaviy madaniyati ham mакtabda deyarli o'rgatilmas edi. Sovetlar davrida «SSSR tarixi» deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o'qitildi. Unga ilova sifatida «O'zbekiston SSR tarixi» bir necha soatgina o'qitilar, ko'п hollarda bu kurs o'tilmay qolib ketardi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'nnaviy meros, o'z ona tili, urf-odatlari bilan faxlanish hissi shakllantirilmasdi.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'nnaviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarni o'rganishiga to'sqinlik qildi.

XX asning 70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi.

O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi. Umuonta'lum maktablarida o'quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985-yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg'unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma'naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta'sir o'tkazdi. Umuonta'lum maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, XX asrning 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo'lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo'yab ko'rsatish hollari salbiy ta'sir qildi. Yaqin o'tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g'ururimizning kansitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma'naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydilik kayfiyatları ko'proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o'zlashtirib olmaganchilari sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o'qish-o'qitishda sifat o'zgarishining ro'y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o'quv yilida respublikamizda mavjud 7000dan ortiq umuonta'lum maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya ho'latida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og'ir bo'ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisdigi sababli 5800 ta muktabda o'qish ikki simenada olib borilardi. Madaniy-ma'rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» prinsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta'minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-e'tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta'limga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo'shib hisoblaganda ular byudjet mablag'darining 2,7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy ta'lim-tarbiya ishlari ko'p tomondan o'qituvchi kadrlar sifatiga bog'liq edi. 80-yillarning o'rtalariga kelganda

shaharlardagi kunduzgi umumta'lim mакtablaridagi o'qituvchilarning 80 foizga yaqini oliv ma'lumotli edi. Qishloqlarda axvo! birmuncha yomonroq bo'ldi, ularda ma'lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o'qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o'quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta'sir o'tkazdi. O'quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi ta'lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi.

1985-1990-yillar xalq ta'limi tizimida ayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli ho'lalar yanada keskinlashdi. Maktab, o'rta maxsus va oliv ta'limda rivojlanishning ekstensiv yo'li o'z imkoniyatlardan to'liq foydalaniб bo'ldi. O'qituvchi va talabalarning ijtimoiy faoliigi ortgani sari sovet ta'lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

XX asr 80-yillari o'rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko'zidan yashirishga o'renishdan bo'lak narsa emasdi. Islohotdan ko'zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko'tarish, mutaxassis va o'quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta'limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet masifikasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta'minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadи.

Chunonchi, 1985-1990-yillarda O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig'i bilan bu raqam 920 ming o'ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985-yilda respublika maktablarida o'quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990-yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o'qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro'sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990-yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 mingdan yosh o'qituvchilar tayyorlangani holda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar

sonining muttasil kamayishi ta'lim tizimi va hukmoni maskuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

1945–1991-yillarda hunar-texnika va oliy ta'lim tizimi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo'l, binokorlik o'quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta'limi (FZO) maktablari sanoatni ri-vojlantirishga katta hissa qo'shdi. 1940–1955-yillarda xalq xo'jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o'sib bordi. 1966–1970-yillarda hunar-texnika o'quv yurtlari xalq xo'jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta'limida katta kamchiliklar mavjud edi. O'quv yurtlarida o'zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo'qligidan yosh ishchilarning ko'pchiligi ishlab chiqarishda o'mashib qolmasdi. 1962-yilda oziq-ovqat, engil, trikotaj, gaz va nesti sanoatidagi o'zbek va boshqa yerli aholidan bo'lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati va og'ir sanoatning boshqa sohalarida o'zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi. 1963-yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o'zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960–1970-yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo'jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-

tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda mutaxassis kadrilar tayyorlash son jihatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay kelди.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekisten oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga etdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xo'jaligi uchun yetkazib bergen diplomli mutaxassislar soni 2, 5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940-yildagi 30 tadan 1970-yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnik aloqa institut, Toshkent avtomobil yo'llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg'ona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o'quv yurtlaridagi professor va o'qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958-yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965-yilda bu son 8 mingtaga etdi. Oliy o'quv yurtlari olimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq oliy mакtab ham totalitar tartibot ta'siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy mакtabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko'rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo'jaligi talab-echtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish shular jumlasidandir. Oliy mакtabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo'lib qoldi.

Respublika oliy o'quv yurtlarida sirtqi va kechki ta'lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959-yilgi mакtabning hayot bilan bog'liqligini mustahkamlash to'g'risidagi qonun asosida ta'limning bu shakkllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo'limlar ochildi.

1940-yilda sirtqi va kechki ta'lim tizimida o'qiyotgan talabalar respublika oliv o'quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1966-yilda ularning salmog'i 62 foizga etdi. O'sha vaqtida sirtqi va kechki bo'limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o'rinda deb maqtanish rasm bo'ldi. Lekin bu aslida achinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo'limlarda ta'lim olgan talabalar ixtisosliklari bo'yicha yetarli nazariy bilimga ega bo'lmasdilar. Ular ko'proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o'qirdilar. Bu yillarda oliv o'quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko'paydi, biroq sifati pasaydi.

Respublika oliv o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari maskulurashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo'limlarda o'qigan talabalarning ko'p vaqt mutlaqo keraksiz bo'lgan ilmiy kommunizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-leninchha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o'rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo'yicha fanlarni chuqur, o'zlashtirishiga xalaqit berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko'p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Uлarni o'zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e'tibor berilmasdi. O'zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo'llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko'pincha rus tilida o'qitiladigan fanlarni o'zlashtira olmay, o'qishni tashlab ketishga majbur bo'lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo'lardi. Institutlarda o'zbek guruhiarida rus tilida dars o'tish Markazning O'zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni qo'lga kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975-yillarda oliv o'quv yurtlarini tug'allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo'jaligiga yetkazib berildi. Oliy o'quv yurtlarining soni 1985-yilda 42 taga etdi.

80-yillarning o‘rtalarida respublika o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 282 ming nafar o‘quvchi ta’lim oldi. Bu har yili necha o‘n minglab malakali mutaxassislar bilan respublika xalq xo‘jaligini ta’minlashga imkon berdi. Xalq xo‘jaligining boshqa sohalari uchun ham ko‘piab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970-yilda oliv muktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo‘lsa, bu raqam 1990-yilga kelib 508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko‘rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo‘shtigan hissasi. Siddiq Rajabov 1910-yili 1-aprelda Qozog‘iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Taroz) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to‘liqsiz o‘rta muktabni tugatib, 1926-yili Farg‘ona pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Texnikumni 1930-yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928–29 yillarda Qashqadaryoning G‘uzor tumanidagi olis bir qishiog‘ida ochilgan muktabda o‘qituvchilik qiladi. 1930-yili Farg‘ona pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934–37 yillarda O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o‘qidi. 1935-yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasiga o‘qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarda «Qizil O‘zbekiston» gazetasining mas’ul kotibi bo‘lib ishlaydi.

Siddiq Rajabov 1947–1963-yillarda Nizomiy nomidagi TDPIning pedagogika kafedrasи mudiri lavozimida, 1960–1966-yillarda esa O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiy pedagogika kafedrasiga 1990-yilgacha mudirlik qiladi.

S.Rajabov XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda muktab va maorif taraqqiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o‘zbek olimidir. 1917–1957-yillardagi O‘zbekiston muktablari tarixini o‘rgangan olim, shu mavzuga bag‘ishlangan

doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958-yili birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Olimning qalamidan chiqqan ilmiy maqolalarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o'rinni oldi. 1960-yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1968-yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo'lib saylandi. S.Rajabov pedagogika sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tarixidagi 2017-yilgacha yagona akademigidir.

Akademik Rajabov Sharq donishmandlarining pedagogik merosini o'qib-o'rghanish va keng ommaga tanitishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, o'zi boshi-qoshida yurib, 1986-yili rus tilida «O'zbek pedagogik fikrlar antologiyasi» kitobini Moskvadning «Pedagogika» nashriyotida chop ettirishi O'zbekiston fanida juda katta yutuq bo'ldi. Hamdo'stlik davlatlaridan birnechtasigina bunday salmoqli pedagogik asarni chop ettira olganini hisobga olsak, Siddiq Rajabov pedagogika fani tarixini beqiyos manbalar bilan to'ldirgan juda katta vatanparvar olimdir.

Olimning yana bir katta mehnati Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarini rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishni tashkil etishi bo'ldi. S.Rajabovning mas'ul muharriligidagi professor Malla Ochilov bu kitobni tarjima qilib, 1975-yili nashr ettiridi.

Siddiq Rajabov butun umri davomida pedagogika fanining rivojlanishiga xizmat qildi. Olimning O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan eng katta hissasi, bu albatta, pedagogika oliygochlari talabalari uchun «Pedagogika» darsligini chop ettirishi bo'ldi. Olim darslikning redaktsiyasini boshqardi, birnechta qismlarini o'zi yozdi, 1962, 1966 va 1981-yillarda qayta-qayta to'ldirib, nashr ettirdi.

O'zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida olim yosh tadqiqotchilarga hamisha yordam berib keldi. S.Rajabov o'zoq yillar davomida pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy daraja beradigan ixtisoslashtirilgan Kengashni boshqarib, nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham olimlar tayyorlab berishda

juda katta xizmat qildi. Akademik Rajabov 7 nafar fan doktori, 130 nafar fan nomzodini tayyorladi.

O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo'shgan juda katta xizmati uchun S.Rajabovga 1964-yilda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi» unvoni berildi. Birqancha orden va mcdallar bilan taqdirlandi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. 1917-yil O'zbekiston tarixida qanday siyosiy voqeа ro'y bo'ldi?
2. O'zbekistonda qachon arab yozuvidan lotin yozuviga, so'ngra kirill yozuviga o'tildi?
3. «Savodsizlikni tugatish» kompaniyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistonda sobiq sho'rolar davrida mavjud bo'lган qanday bosqichlardan iborat mifik tabular haqida bilasiz?
5. O'zbekistonda birinchi universitet qachon tashkil etilgan?
6. Quyida keltirilgan chizma bilan tanishing. Chizmaning chap tomondagи ustuniga sobiq sho'rolar davri ta'lim tizimining ijobiliy tomonlarini, o'ng tomonida esa mazkur davr ta'lim tizimining salbiy tomonlarini yozing.

Sobiq sho'rolar davri ta'lim tizimidagi ijobiliy o'zgarishlar	Sobiq sho'rolar davri ta'lim tizimining salbiy tomonlari

IX BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI. MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Bugungi kunda, umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globaliashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q, albatta.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyen eta olishi munkin.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lrim sohasini isloq qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan «o'zbek modeli» – o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir.

Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taraqqiy topgan ilg'or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o'tmishta majburan singdirilgan kommunistik mafturaning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy grajdani pozisiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

Uzoq yillar davomida vujudga kelgan eski ta'lim tizimini tubdan qayta qurmasdan va isloq etmasdan turib bu maqsadga erishish aslo mungkin emas edi.

Agarki O'zbekistonda aholining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, bu islohotlarning roli va ahamiyati o'z-o'zidan tushunarli va ravshan bo'ladi.

Mustaqillik yillarda ta'lim jarayonini yangicha talablar asosida tashkilqilish, takomillashtirish bo'yicha olib borilgan jiddiy izlanishlar natijasida avvallari faqat aholining umumiyy savodxonligini ta'minlash bilan cheklangan ta'lim mazmuni tubdan yangilandi.

MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Amaliyot jarayonida ta'lim turlariaro uzviylikni, uzlusizlikni ta'minlash maqsadida o'quv fanlari bo'yicha DTS hamda o'quv dasturlari takomillashtirilmoqda, muvofiq-lashtirilmoqda.

Ta'lim muassasalarida 9875ta fizika, 9487ta kimyo laboratoriya xonalari, 9390ta biologiya xonalari tashkil etilib, zamnaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan to'ldirildi. Shuningdek, barcha ta'lim muassasalaridagi «Ma'naviyat va ma'rifat», kasbga yo'naltirish, chizmachilik, tasviriy san'at va rassomlik, chet tili xonalari hamda faollar zali, tibbiyot xonasi, ma'muriy-metodik xona va barcha turar joylar zamnaviy mebel va maxsus jihozlar bilan bekamu ko'st ta'minlandi.

O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamnaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda 1500 dan ortiq yangi kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi. Siz, konferensiya qatnashchilarining ko'pchiligi ushbu bilim maskanlari bilan tanishar ekansiz, ular o'z me'moriy qiyofasi va texnik ta'minotiga ko'ra eng yaxshi oliy ta'lim

muassasalaridan aslo qolishmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Kasb-hunar kollejlaridagi zamonaviy o'quv-laboratoriya, kompyuter va ishlab chiqarish asbob-uskunalarini o'quvchilar uchun umumiyligi fanlar bo'yicha nasaqat to'liq bilimlar hajmini egallash, ayni vaqtida ushbu o'quv yurtlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini ham beradi.

Ta'limga jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'limga muassasalari muhim o'rinni egallamoqda. O'tgan davr mobaynidagi ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'limga olmoqda.

O'zbekistonda Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti kabi yuksak xalqaro obro's-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan Yevropa va Osiyoning yetakchi oliy ta'limga muassasalarining filiallari tashkil etildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu oliy ta'limga muassasalarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha bakalavr va magistrler tayyorlanmoqda va biz uchun g'oyat muhim jihatni shundaki, ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda.

Ta'limga tizimini tubdan isloh etish odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va grajdaniy faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhim shundaki, bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda.

Shu borada o'tgan davr mobaynida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 2 million 300 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz bitirib chiqqani, joriy yilda esa 500 mingdan ortiq o'quvchi o'rtaloi sadagi mutaxassis diplomini olib, o'qishni tamomlashini aytib o'tish kifoya. Bu yoshlar nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikasiya qilishning, ayni vaqtida mamlakatimiz kadrlar tarkibini sifat jihatidan yangilashning qudratli omili hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda pedagogik fikrlar mazmuni bilan tanishish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumilashtirish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanganligiga guvoh bo'lish mumkin:

I. Pedagogika fani metodologik g'oyalarining takomillashuvi.

1. Totalitar tuzum davrida o'rganilishi ma'n etilgan milliy-pedagogik qarashlarning o'rganilishi va pedagogika faniga olib kirlishi.

2. Ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda yetakchi o'rinn tutuvchi g'oyalarning pedagogik qarashlarda o'z ifodasini topishi.

II. Pedagogik bilimlar ijtimoiy-g'oyaviy asoslarining boyishi.

1. Ta'lim mazmunida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari, insonparvarlik va demokratik qarashlarning aks etishi.

2. Milliy-madaniy meros namunalaridan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash.

III. Shaxsni ijtimoiylashtirish.

1. Erkin, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol shaxni shakllantirish.

2. Shaxsda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish.

3. Yosh avlodda ijtimoiy voqclikka ongli munosabatni qaror toptirish.

IV. Yangicha ta'limiy qarashlarning paydo bo'lishi.

1. Yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda tayanch o'rinn tutuvchi uzluksiz ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi.

2. Ta'lim sohasida davlat va jamoatchilik boshqaruvinining yo'lga qo'yilishi.

3. Ta'lim marketingi va ta'lim xizmatlari sohasining tashkil etilishi.

4. Ta'limning yangi didaktik parametrlarini aniqlash.

5. Yangi o'quv predmeti va o'quv kurslarini o'qitishning yo'lga qo'yilishi.

6. Hamkorlikda o'qitish va mustaqil ta'limning ommalashuvi.

7. Ta'lim olganlikni tashxis etishning yangi vositalari (reyting tizimi, monitoring)ning amaliyotga tatbiq etilishi.

V. Tarbiya jarayonida ijtimoiy jamoatchilik ta'sirining kuchayishi.

1. Tarbiya jarayonida oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligining rivojlanishi.

2. Tarbiya jarayonida nodavlat va notijorat tashkilotlar hamkorligining yo'lga qo'yilishi.

3. Tarbiya jarayonida ommaviy axborot va multimedia vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish.

VI. Pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning yangi tizimiga asos solinishi.

1. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining isloh etilishi.

2. Pedagog kadrlarni uzlusiz tarzda mahoratlarini oshirib borish tizimining amalga oshirilishi.

VII. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.

1. Pedagog kadrlarning rivojlangan xorijiy davatlarda kasbiy malakalarining oshirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish.

2. Talabalarning o'zlarining tanlagan sohalari bo'yicha chet elda ta'lim olishlarini tashkil etish.

3. Uzlusiz ta'lim tizimida xalqaro donor tashkilotlari xizmatlaridan foydalanishning huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi.

4. O'zaro tajriba almashinuv dasturlari doirasida ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning amalga oshirilishi.

VIII. Maxsus pedagogika ilmiy asoslarining boyitilishi.


1. Anomat bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishda milliy va xorijiy tajriba uyg'unligiga erishish.
2. Inklyuziv ta'llimning yo'lga qo'yilishi va «Ta'llim hamma uchun» dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Mustaqillik yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan ta'llim islohotlarining o'ziga xosligi shundaki...» mavzusida asoslangan esse yozing.

Topshiriqni bajarish tartibi:

1. Mazkur mavzu yuzasidan o'z nuqtai nazaringizni bayon eting.
 2. Nuqtai nazaringizni asoslash uchun dalillar kiriting.
 3. Mavzu yuzasidan aniq xulosalar chiqaring.
2. Quyidagi chizmaga e'tibor qarating. Muammo yuzasidan fikr yuriting.



X BOB. ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI. Ya.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIK NAZARIYASI

Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Misr murakkab davlat tizimiga va keng miqyosli xo'jalikka ega bo'lgan mamlakat bo'lgan. Misr davlati va xo'jaligini boshqarish uchun xat-savodli, bilimdon kishilar zarur bo'lgan. Shu tufayli Misr ftr'avnlari va a'yoni xat-savodli va bilimdon xodimlar tayyorlashga alohida ahamiyat bergenlar. Misrda o'qitish, ta'lif-tarbiya berish maskani mакtablar edi. Mamlakatning hamma shaharlari va yirik qishloqlarida mакtablar bor edi. Maktablarda fir'avnlar, a'yonlar, amaldorlar, ruhoniylarning botalari va o'qishga havaslari bo'lgan kishilarning farzandlari ham o'qiganlar.

Misrda boshlang'ich, o'rtalik, oliy mакtablar bo'lgan. Boshlang'ich mакtablarga bolalar 5-6 yoshdan jalb etilib, harflar o'rgatilib, savodi chiqarilgan. Bolalar mакtabda husnixat bilan shug'ullanib, ular har kuni 3 sahifa yozishlari kerak bo'lgan. Misrdagi o'rtalik va oliy mакtablarning ko'pchiligi mirzolar tayyorlab chiqarganlar. Uni «Mirzolar mакtabi» ham deyishgan.

Misr fir'avnlarining markaziy mahkamasi qoshida podsho xazinasi uchun maxsus amaldor mirzolar tayyorlaydigan mакtablar ham bo'lgan. Bu mакtablar katta tajribaga ega bo'lgan bilimli ustoz-o'qituvchilar bilan ta'minlangan bo'lgan. Maktablarda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyat, adabiyot kabi dunyoviy va diniy bilimlar o'qitilgan.

Misr mакtablarida intizom juda qattiq bo'lib, u tan jazosi bilan mustahkamlangan. O'sha vaqtida yozilgan «Nasihatlar»da: «Ey mirza, dangasalik qilma, yo'qsa jazoga duchor bo'lasan. Qo'lingda kitob bo'lsin, ovoz chiqarib o'qigin va o'zingdan ko'p biladiganlar bilan maslahat qilib ish tut. Bir kun ham yalqovlik qilma yo'qsa kaltak eysan. Axir bolaning qulog'i yelkasida bo'ladi-da, qachon ursang, shunda uning qulog'iga gap kiradi», -deb yozilgan.

Mesopotamiyaliklar maorif ishlariga alohida e'tibor bergenlar. Maktablarda ko'proq podsho, badavlat kishilar, amaldorlar va o'ziga

to‘q kishilarning farzandlari o‘qishgan. Ammo maktabda erkin jamoadan bo‘lgan oddiy kishilar ham o‘qigan bo‘lsalar kerak. Maktablarning quyi sinflarida til, adabiyoi, grammatika, yuqori sinflarda esa matematika, musiqa, huquq, geometriya, astronomiya, tarix, tabobat, veterinariya kabi aniq fanlar bilan bir qatorda diniy fanlar ham o‘qitilgan. Maktablar saroy va ibodatxonalar qoshida bo‘lib, uni ruhoniylar boshqarganlar. Mari va boshqa shaharlardagi qazishlar vaqtida o‘quvchilarga mos o‘tindiqlar qo‘yilgan maktab binosining qoldig‘i topilgan.

Maktablar davlat uchun xo‘jalik, savdo va harbiy ishlarni boshqaruvchi xodimlar tayyorlaganlar. Maktablarda Misrdagi kabi mirzolar tayyorlashga katta ahamiyat berilgan. Maktablarda intizom va nazorat juda qattiq bo‘lgan. yetarli qobiliyatli va tirishqoq bo‘lmagan o‘quvchilar jazolangan. Maktab qoshida «Xivich bilan savalovchi» maxsus nazoratchi bo‘lgan. O‘qituvchilar o‘quvchilarni qunt bilan o‘qishga undaganlar.

Yunoniston unchalik katta bo‘lmagan quldorlik davlatlaridan iborat bo‘lgan. Uning katta shaharlardan biri Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) bo‘lib, bu shaharlar madaniyat markazi hisoblangan.

Bu ikki shaharda tarbiyaning o‘ziga xos tizimi vujudga keldiki, natijada bu tarbiya tizimi «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo‘ldi.

Lekin bu ikki shaharning iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti, madaniyat darajasi turlicha edi. Shuning uchun ular bir-biridan tubdan farq qilar edi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi xukmroialik qilar edi. Shuning uchun ham bu davlatlarda ijtimoiy tarbiya tizimi quldorlarning bolalarini manfaatini ko‘zlar edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Spartada dexqonchilik yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu qullar mehnati evaziga asoslangan edi. Spartada qullar shafqatsiz ta’qib ostiga olinar edi. Shu sababli ular tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarib turar edilar.

Tarbiya ishlari davlat ixtiyorida bo‘lib, asosiy maqsad bolalarni baquvvat, jismonan sog‘lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalashdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda tarbiyalangan, so'ng «Agella» deb atalgan maktabda o'qishgan. O'qish muddati 7–18 yoshgacha davom etgan. Shu maktabda hukumatning taniqli kishisi «pedanom» butun tarbiyaviy ishga rahbarlik qilgan.

Tarbiya jarayonida bu maktabda o'smirlarga alohida e'tibor berishgan. Ularni jismonan sog'lom bo'lishi uchun turli mashqlar bilan chiniqtirishgan. Masalan:sovucca, ochlikka va chanqoqlikka chidash, og'rikka bardosh berishga o'rgatib borishgan. Ta'lim jarayonining asosiy qismini xarbiy gimnastik mashqlar: yugurish, sakrash, nayza otish, qo'l bilan jang qilish, musiqa darsi, qisqa so'zlashuv, madaniyat darsi tashkil etar edi.

Kadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o'ziga xos ediki, unda bolani nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki ma'naviy tomonidan ham barkamol bo'lishi nazarda tutilgan. Bolalarga musiqa, ashula va diniy raqslar ham o'rgatilgan. Bu mashg'ulotlarning mazinuni jangovar hamda harbiy tusda bo'lgan.

Spartada olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning yana muhim tomonlaridan biri yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat bo'lgan.

Shu maqsadda yoshlar «Kreptiyalar»da ya'ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashitirilar edi. Ular shubhali bo'lib ko'ringan qullarni o'ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlар o'tkazib, shu yo'l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Masalan: Vatan dushmanlari bilan kurashda ota-bobolar ko'rsatgan mardligi va jasurligi, qaxramonlar haqida suxbatlar uyushtirishar, shuningdek bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo'nda qilib javob berishga o'rgatib borilar edi.

Spartada 18–20 yoshga yetgandan keyin maxsus «Efeblar» (Efeblar qadimgi Yunonistonda balog'atga yetgan o'spirinlar) guruhiga o'kazilgan. Bu guruhda bolalarga harbiy ta'lim berilgan va ular harbiy xizmatni o'taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. O'g'il bolalar bilan qizlar birga qo'shib o'qitilgan. Ular ham harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Bundan maqsad erkaklar urushga ketgan vaqtlarida qizlar, ayollar shaharni, uy-joyni qo'riqlash, qurollanib qo'riqchilik vazifasini o'tashi,

qullarni itoatda saqlashni ta'minlashi ko'zda tutilgan, ular hatto jangda ham qatnashganlar.

Qadimiy Gretsiyaning ikkinchi shaharlaridan biri Afinada esa xayot, tartib, intizom, maktab tizimi, undagi ta'lim-tarbiya Spartanikidan butunlay farq qilar edi. Afinadagi iqtisadiy hayot Spartadagi singari cheklanib qo'yilgan emas edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Bu yerda tibbiyot ilmi, matematika, tarix, san'at, me'morchilik, xaykaltaroshlik taraqqiy etgan edi.

Tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya birga qo'shib olib borilgan. Lekin bu tarbiyani mukammal egallash faqat feodallarning farzandlariga nasib etgan xolos.

Afinada tarbiya va maorif masalasi Spartaga nishbatan tubdan farq qilar edi. Bu yerda grammatist, polestra, gimnasiy, efeb, demos kabi maktab turlari mayjud edi.

Bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanganlar, 7 yoshdan o'g'il bolalar mакtabga borishgan. Qizlar esa oilada ona ko'magida uy – ro'zg'or ishlariга o'rgatilgan. xotin-qizlar faqat uyda bo'lishgan. Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13–14 yoshgacha «grammatist», (savod o'qitish ma'nosida), «kifarist» (grekcha musiqa o'qituvchisi ma'nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo'lib, xaq to'lanar edi, Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta'lim ololmas edilar.

Bu maktablarda «didaskal» deb atalgan o'qituvchilar mashg'ulot olib borar edilar (men o'qitaman degan ma'nodagi «didasko» so'zidan, keyinroq «didaktika» ta'lim nazariyasi kelib chiqqan).

O'g'il bolalarni mакtabga qullar yetaklab borishgan. Bunday qullar «pedagog» deb atalgan. Afinadagi grammatist maktabida o'qish, yozish va hisoblash o'rgatilgan. O'qishda xarflarni hijjalab o'qitish usuli, so'ng qo'shib o'qish usulidan foydalanganlar. yozuvni o'rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho'p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblangan. Kifarist maktabida o'g'il bolakarga adabiy bilim berilar, estetik mazmundagi deklomatsiyalar o'rgatilar («Iliada va Odisseya»dan parchalar o'qitilar) edi.

O'g'il bolalar 13 – 14 yoshga yetganlaridan keyin «Polestra» kurash mакtabi deb atalgan o'quv yurtiga o'tar edilar. Bu o'quv

yurtida ular 23 yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar edilar. Masalan: sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irgitish mashqlari va suvda suzish o'rgatilgan.

Spartadagi kabi Afina maktablarida ham o'quvchilar bilan siyosiy va axloqiy masalalarda suhbatlar o'tkazilgan, o'qish tekin bo'lgan. «Gimnasiy» maktabida polestra maktabini tugatgan badavlat oila farzadlari tahlil olganlar. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o'rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin bo'lgan.

«Efeb» maktabida 18–20 yoshga qadar tahlil olganlar. Bu maktabda harbiy hizmatga tayyorlanar va o'zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar. Bu maktabda istehkomlar qurishni, harbiy aslahalarni ishlata bilishni, garnizonlarda xizmat qilishni, dengizchilik o'rgatilgan. Bundan tashqari «Demos» (xalq) maktabi ham mavjud edi. Afinada quldorlik jamiyati ichida tabaqalanishning tarbiya sohasiga o'tkazgan ta'siri shundan iborat bo'ladiki, mukammal tarbiya olish faqat badavlat quldorlarning bolalarigagina xos bo'lib qoldi. Aholining ko'pchiligi bolalarini maktablarda o'qita olmaganligi sababli ularga kasb – hunar o'rgatar edilar. Ayrim xat savodli kishilar bolalatiga o'zlarini hat savod o'rgatganlar. Bu usul ham davlat tomonidan qonunlashtirib qo'yilar edi.

Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Yunonistonda inaktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug'ilishiga imkoniyat yaratdi.

Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Arastu va Demokritlar asos soddilar. Ular o'z qarashlari bilan ta'lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta xissa qo'shdilar. Quiida biz bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot er.av. (469–399y)da yashab ijod etgan. Suqrotning fikricha tarbiyadan kutilgan maqsad, buyumlar tabiatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishi, axloqni kamol toptirishi bo'lmog'i lozim edi. Suqrot faylasuf bo'lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so'zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo'li bilan haqiqatni topishlariga undar edi. Suhbatning bu usuli «Suqrot usuli» deb atalgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob

metodini ya'ni «Evristik» suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirdi. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha axloq faqat imtiyozli «mumtoz» largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo'lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo'llarida bo'lmosg'i kerak deydi.

Platon er.av. (424–347) yillarda yashagan. U Suqrotning shogirdi bo'lib «obyektiv idealizm» nazariyasining asoschisidir. U tanadan tashqarida mavjud bo'lgan narsalar haqidagi nazariyani ilgari suradi.

Platon arrestokratianing abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat 3 xil ijtimoiy guruhlardan iborat bo'lishi, ya'ni bular: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo'lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar ularni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo'l hosil etishtirib faylasuflar va jangchilarni boqadilar degan fikri ilgari suradi.

Shuningdek, u qullarni ham saqlanib qolishini aytib uning tasavvurida qullar ham, xunarmandlar ham, huquqsiz doiralar, pastkashlik, qanoat va itoatkorlik fazilatlarigina hunarmand kosiblarga va dehqonlarga xos deb takidlaydi.

Tarbiya – deydi Platon davlat tomonidan tashkil etilmog'i, hukmron guruhlarning manfaatlarini ko'zlamog'i lozim. Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo'yilgan tarbiyachilar rahbarligida tarbiyalanishini tavsiya etadi.

7 yoshdan 12 yoshacha esa davlat maktablarida taxsil olib, ularga o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula darslari o'rgatiladi.

12–16 yoshgacha bo'lgan bolalar jismoniy mashqlarini o'rgatadigan «Polestra» mакtabida, 18 yoshga qadar dunyoviy fanlarni o'qitadigan maktablarda, 18–20 yoshgacha esa «Efeb» maktablarida taxsil olib harbiy ta'lim o'rgatiladi.

Uning fikricha, «Efeb» maktabini tugatgandan so'ng qobiliyatli va iqtidori bo'lgan yigitlar falsafá ilmini o'rgatadigan uchinchi bosqich olib ta'limni o'taydilar.

Platon tarbiya tizimida asosan jismoniy mehnatiga nafratni singdirish, quldorlar manfaatini himoya qilish maqsadi nazarda tutiladi.

Uning pedagogika tarixida tutgan o'mni shundaki, u dastlab maktabgacha tarbiya to'g'risidagi g'oyani ilgari surib, yoshlarga ta'lif berishning izchillik tizimini ishlab chiqqanligidadir.

Yunon faylasuf olimlaridan yana biri Arastudir. U er, av. (384 - 322) yillarda yashagan.

Arastu uch xil tarbiya ya'ni: jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya aqidalarni ishlab chiqib, tarbiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Arastu birinchi bo'lib yoshni davrlarga bo'lish mezonini ishlab chiqishga uringan olimdir.

U insonni yoshlik yillarini 3 davrga, ya'ni: 0-7 yoshgacha; 7 - 14 yoshgacha; 14-21 yoshgacha bo'lgan davrlarga bo'ladi. U oilaviy tarbiyaga doir bir kancha tavsiyalar beradi. Uning fikricha, bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalanadi, go'dakning yoshiga mos keladigan ovqatlar bilan boqish, turli xarakatlari mashkilar orqali uni chiniqtirib borish kerak deydi. O'g'il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktablarida o'qishlari lozim deb uqtiradi. U jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'langan deb hisoblaydi. U bolalarga boshlang'ich ta'lif berish vaqtida jismoniy mashqlar qilish bilan bir qatorda o'qish, yozish, grammatika, rasm va musiqani o'rgatish kerak deb ta'kidlaydi. o'smirlar matabda jiddiy ma'lumot olishlari, ular: adabiyot, tarix, falsafa, matematika, astronomiya va boshqa fanlarni o'rganishlari lozim deydi.

Arastu xotin-qizlarning tarbiyasi erkaklarning tarbiyasiga o'xshashi mumkin emas, chunki xotin-qizlarning tabiatini erkaklarning tabiatidan farq qiladi deb hisoblaydi.

Arastu Platondan farq qilib, bola tarbiyasida oila tarbiyadan chetlashtirilmaydi. Axloqiy tarbiya berish asosan oila zimmasida ekanligini uqtiradi.

Demokrit, er, av, (460-370) yillarda yashagan. U tarbiyani tabiatga muvosiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surgan olim bo'lib, u «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deydi. «Ta'lif mehnat asosidagina go'zal narsalarni hosil qiladi» deb

tarbiya ishida mehnatning roli beqiyos ekanligini takidlaydi. Uning xizmati shundaki, u inson kamolatida mehnat tarbiyasining roliga katta e'tibor berib, yoshlarga mehnat tarbiyasi berishning usullarini ko'rsatib bergenligidadir.

Qadinigi Rimda pedagogik g'oyalar rivoji. Mark Fabiy Kvintilian – mashhur rimlik notiq va pedagog. O'z maktabi tajribalari va antik dunyodagi pedagogik fikrlarga asoslanib, ba'zi pedagogik muammolar aks etgan birinchi maxsus pedagogik qo'llanma – «Notiqni tarbiyalash haqida» asarini yaratgan.

Kvintilian bolalarni tarbiyalashga e'tibor qaratib, bola shaxsi rivojlanishida uning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, «Bilishga intilish irodaga bog'liq, majburan o'qitish mumkin emas» (Kvintilian «O vospitanii oratora», 1-qism, 3, 8-betlar).

Kvintilian bolalar katta tantalarda ishtirok etadigan hamda kattalarning nojo'ya xatti-harakatlarining guvohi bo'ladigan Rim jamiyatining yuqori qatlamlaridagi oila tarbiyasini qattiq tanqid qiladi. U ota-onalardan bola ta'sirlanuvchan bo'lishi, unda yaxshi va yomonlikning osen ildiz otishini esda tutishni talab qildi hamda tarbiyachi-pedagoglarni tanlashda hain bunga e'tibor qaratishni uqtiradi.

Kvintilianning pedagogik qarashlarida bolalarni notiqlik san'atini egallashlariga oid fikrlar ham mavjud. Bo'lajak notiqqa o'tkir xotira, badiiylikni his etish, yaxshi talaffuz qila olish, nutqning yerqinligi va mimikani shakllantirish lozimligini qayd etadi. Notiqni tarbiyalashning eng yaxshi vositasi Kvintilianning fikricha, she'r yod olishdir. U hezirda qo'llanilayotgan she'rni yod olish metodikasini ham o'z davrida taklif qilgan edi: dastlab she'r to'liq o'qib chiqiladi, so'ng qismlarga bo'linadi va navbat bilan qismlar yodlanadi, nihoyasida butun she'r yoddan aytiladi.

XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nashr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. 988-yilda xristian dinini qabul qilingan Krill va Mefodiylar grek alfabetini asosida kirill alifbosini ishlab chiqdilar. Sharqiy slavyan tili rus yozuvini uchun asos qilib olindi. Kiev Rusiga xristian dini bilan birga vizantiya madaniyatining ayrim elementlari ham kira boshlagan.

U vaqtarda maktablar cherkov va monastor qoshida ochilar edi. Rus knyazlarning maslahati bilan 988-yilda knyaz Vladimir cherkov binosini qurib poplar tayinladilar va nomdor kishilarning, o'z mulozimlarining bolalarini yig'ib o'qitdi.

1028-yilda knyaz Yaroslav Novgorod shahrida «oqsoqollar va poplarning» bolalaridan 300 ga yaqinnini to'plab kitob o'qitgan.

Yuqoridaagi ikki faktdan ma'lum buo'ishicha Rossiyada maktablar X asr oxiri XI asr boshlarida ochilgan. Rossiadagi dastlabki maktab cherkovlar va monastorlar huzurida ochilgan va kutubxonalar tashkil etilgan.

XI-XII asrlarda Kiev davlatining madaniyati g'arbiy Yevropadagi yirik davlatlarning madaniyatidan ancha kuchli edi. Rus knyazlari va boyarlari orasida o'qimishli, madaniyatli kishilar bo'lgan. Knyaz Yaroslav birinchi marta kutubxona ochgan, uning tashubbusi bilan grek timlidagi kitoblar rus tilida tarjima qilingan.

Knyaz Svyatoslov ma'lumotli kishilarni o'z atrofiga to'piagan. Svyatoslav o'z zamonasining eng ma'rifatli kishisi edi. XI asr oxirida «Svyatoslav to'plami» nashr qilingan.

Kiev rusning madaniyati – rus, ukrain va belarus xalqlari madaniyatining o'sishiga asosiy manba bo'lgan. Bu kabi faktlar shuni ko'rsatadi, XI-XII asrlar qadimgi rusda madaniyat va maorif rivojlangan. Ana shunday davrda rus pedagogik to'plamlari vujudga keldi: «Izmagarad» (zumrad) «Izbornik Svetoslava», »Zlatoustroy», «Zlatoust» kabilari. Bu to'plamlarda bola tarbiyasi haqidagi fikrlar tavsiya qilingan «Vladimir Monamaxning bolalarga nasihatni» asari juda katta ahamiyatga ega. U bu asarida bolalarni Vatanni sevishga, Vatanni dushmanlardan himoya qilishga, harakatchan mehnatsevar, va betir kishilar bo'lishiga chaqiradi. U bolalarni insonparvar, kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarni izzat qiladigan bo'lib tarbiyalashlarini talab qiladi.

XVI asrning ikkinchi yarimida cherkovlar qoshida maktablar ochila boshlaydi. Lekin bu maktablar rus ma'rifatining talabini qondira olmas edi. Natijada «Savod ustalari» tashkil qilingan.

Iogann Genrix Pestalotsining didaktika va boshlang'ich ta'lim metodikasiga qo'shgan hissasi. Iogann Fridrix Gerbart Germaniyada tug'ildi. Gerbart dastlab lotincha klassik maktabda, so'ngra esa Iyen universitetida o'qidi.

Gerbart universitetni tamomlagach, shveytsariyalik bir aristokrat oilasida tarbiyachi bo'lib ishladi. 1800-yilda u Pestalotssining Burgdorf institutiga bordi. Lekin u ulug' pedagogning demokratik qarashlarini o'zlashtira olmadи.

1802-yildan boshlab Gerbart Gyottingen va Kenigsberg universitetlарida professor bo'lib ishladi. Gerbart bu universitetlarda o'zining pedagoglik faoliyatini kengaytirib yubordi: psixologiya va pedagogikadan leksiyalar o'qidi, o'qituvchilar tayyorlash seminariyalariga rahbarlik qildi. U seminariya huzurida tajriba maktabi ochib, o'zi bu maktabda matematikadan dars berdi.

Gerbart o'zining «Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika» (1806), «Psixologiya darsligi» (1816), «Psixologiyani pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar» (1831), «Pedagogikaga doir leksiyalar ocherki» (1835) degan kitoblarida pedagogikaga doir g'oyalarini keng bayon qilib berdi.

Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Gerbart tarbiya maqsadini belgilab olishga katta ahamiyat berdi. U tarbiyaning maqsadi yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. Gerbart shu maqsadni abadiy va o'zgarmas deb hisoblab, odamlarni mayjud munosabatlarga moslasha oladigan, o'matilgan huquq tartibini hummatlaydigan, shu tartibga itoat qiladigan kishilar qilib tarbiyalashni ko'zda tutdi.

Pedagog o'zi tarbiyalayotgan bolaning oldiga shunday maqsad qo'yishi lozimki, bola ham o'sib katta bo'lganidan keyin o'z oldiga shunday maqsadlar qo'ya bilsin. Mana shu bo'lajak maqsadlar: 1) ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlar va 2) zarur maqsadlar deb ikkiga bo'linishi mumkin.

Odam bir vaqtি kelib inuayyan ixtisos sohasida o'z oldiga qo'yishi mumkin bo'lgan maqsadlar ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlardir.

Zarur maqsadlar deb shunday maqsadlarga aytildiki, bu maqsadlar odamga o'z faoliyatining har qanday sohasida kerak bo'ladi.

Tarbiya ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan maqsadlarni o'z oldiga qo'ygach, u odamda xilma-xil, har tomonlama idrok qilish qobiliyatini o'stirishi, qiziqish doirasini kengaytirishi va to'laroq qilishi lozimi, mana shuning o'zi ichki erkinlik g'oyasiga, takomillik

g'oyasiga muvosiq bo'lib tushadi. Zarur maqsadlarga kelganda tarbiya bo'lajak arbobning axloqini xayrixohlik g'oyasi, huquq va adolat g'oyasi asosida tarkib toptirishga yoki Gerbartning so'zi bilan aytganda, bu arbobda barqaror axloqiy xarakter vujudga keltirishga majburdir. Gerbart tarbiyaning mohiyati bolaning ko'nglini tasavvurlar bilan boyitishdan iborat deb hisoblab, bolaga fazilatli xulq g'oyalarini va sabablarini singdirishni va shu asosda unda axloqiy xarakter vujudga keltirishni istaydi.

Gerbart tarbiya jarayonini boshqarish, o'qitish va axloqiy tarbiya berish, deb uch bo'lakka bo'ladi.

Boshqarish o'z oldiga bolaning kelajagini emas, balki hozirgi vaqtning o'zida, ya'ni tarbiya jarayonining o'zida tartib saqlab turishni vazifa qilib qo'yadi. Gerbart «yovvoyi sho'xlik» bolalarga xos bir narsa deb hisoblab, boshqarish ana shu «yovvoyi sho'xlik»ni yo'qotishi lozim deydi. Boshqarish tashqi tarbiyani saqlab turishi bilan tarbiyalanish uchun shart-sharoit vujudga keltiradi. Lekin boshqarishning o'zi tarbiyalamaydi, balki tarbiyalashning mutlaqo zarur shartidir, xolos, deydi.

Gerbart boshqarishda xilma-xil jazolar sistemasini bat afsil ishlab chiqdi. Jumladan: po'pisa va nazorat qiliш, buyruqlar berish, taqiqlash va tan jazosi kabilar.

Gerbart bu metodlardan aniq, to'g'ri va adolatli foydalanilsa bolalar tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishi mumkin, bolalarni boshqarish vositalari ichida tan jazosi berish metodi asosiy o'rinni egallaydi, deb ta'kidlaydi.

Gerbart tarbiya ishida aqliy ta'limga katta ahamiyat berdi. U ta'limgi tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb hisobladi. Gerbart pedagogikaga tarbiyalovchi ta'lim terminini kiritdi. Ta'limsiz tarbiya bo'lmaydi, deydi u. Gerbart tarbiyalamaydigan ta'limgi tan olmaydi. Ammo Gerbart o'zidan oldin o'tgan pedagoglarning, jumladan, Pestalotssining tarbiyalovchi ta'lim to'g'risidagi qimmatli g'oyasini takomillashtirdi.

Gerbartning fikricha, ta'lim qiziqishlarning ba'zilari tevarak-atrofdagi voqelikni bilishga, ba'zilari ijtimoiy hayotni bilishga intiladi.

Gerbart turli qiziqishlarni oltita mustaqil turga bo'ladi. U quyidagi qiziqishlarni birinchi guruh qiziqishlar qatoriga kiritadi:

imperik qiziqish – fikr yuritishga yo'llaydi; estetik – qiziqish bu hodisalarga badiiy baho berishni ta'minlaydi. Quyidagi qiziqishlar ikkinchi, guruh qiziqishlar qatoriga kiradi: yoqtiruvchi qiziqish – bu qiziqish o'z oila a'zolariga va juda yaqin tanish-bilishlariga qaratilgan qiziqibdir; ijtimoiy qiziqish – odamlarning kengroq doirasini, jamiyatni, o'z xalqini bilishga qaratilgan qiziqibdir. Gerbartning fikricha, odamzod o'z tarixining boshlang'ich davrida bolalarga va o'spirinlarga xos narsalarga va faoliyat turlariga qiziqqan. Shu sababli deydi u, – o'quvchilarga qadimiylar xalqlar tarixi va adabiyoti doirasidan olingen va tobora murakkablashib boradigan gumanitar bilimlar berish kerak.

Gerbart qadimiylar tillarga va matematikaga ham juda yuksak baho berdi, shu bilan birga, u matematikani asosan tafakkurni o'stirish vositasi deb, «ruh uchun kuchli gimnastika» deb hisoblaydi.

Gerbart maktab tizimi masalasini o'zining konservativ ijtimoiy qarashlariga muvofiq hal qilishga urindi. U maktablarning quyidagi tiplarini: elementar maktab, shahar maktabi va gimnaziyani taklif qildi. Maktablarning bu tiplari bir-biriga bog'liq emas, ularning har qaysisi mustaqil yashayveradi: elementar maktab va shahar maktablaridan maxsus maktablargagina o'tish mumkin, gimnaziyadan esa oliv o'quv yurtlariga o'tish mumkin. Klassik gimnaziya ta'limi Gerbart zamonidayoq o'z umrini tugatib qolgan bo'lsa ham, lekin Gerbart bu ta'lim tizimini qizg'in yoqlab chiqdi. Uning fikricha, savdo-sotiq, sanoat, hunar-kasb va hayot uchun amaliy ahamiyati bo'lgan boshqa xil ishlar bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan kishilargina real maktabda o'qib tarbiyalanishi kerak. Aqliy mashg'ulotlar, rahbarlik va boshqaruv ishlari bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan kishilar, ya'ni jamiyatning intizomli tabaqalari esa Gerbartning fikricha, faqat klassik gimnaziyada o'qib ta'lim olishi lozim.

Gerbart ta'lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya hamma mamlakatlarning pedagoglari orasida keng tarqaldi.

Gerbart ta'limni tasviriy ta'lim, analitik ta'lim, sintetik ta'lim ••• uch turga bo'ldi.

Tasviriy ta'lim cheklangan tarzda qo'llaniladi, lekin o'z chegarasi doirasida uning ahamiyati juda katta. U bolaming tajribasini aniqlab olishni va bu tajribani to'ldirishni o'z oldiga

maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchi materialni jonli, obrazli hikoya qilib berish yo'li bilan o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi. Bunda ko'rsatmali vositalar katta rol o'ynaydi.

Analitik ta'lif «ayni bir vaqtida atrofni o'rab turgan» narsalarni ayrim narsalarga, bu narsalarni esa tarkibiy qismlarga, bu tarkibiy qismlarni ham belgilarga bo'lish vazifasini o'z oldiga qo'yadi. Bolalar maktabga kelganlarida ularning boshlarida juda ko'p tasavvurlar bo'ladi. Vazifa shuki, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning bu fikrlari bo'laklarga ajratilishi, tuzatilishi va takomillashtirilishi lozim.

Sintetik ta'lif, asosan, yuqori sinflarda qo'llaniladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilar ekan, uni tasvirlab berish bilan cheklanib qolmaydi, balki umumiy xulosalar chiqaradi, o'quvchilarga bo'lak-bo'lak holda ma'lum bo'lgan, ularning ongida bir-biridan alohida-alohida turgan turli tasavvurlarni bir butun holga keltirib, taqrib qiladi. Gerbart sintetik ta'limga katta ahamiyat beradi.

Gerbartning fikricha, tasvir, tahlil va taqrib o'quv jarayonida birin-ketin kiritiladigan va birining o'mini ikkinchisi izchillik bilan almashtirib turadigan, bir-biridan ajratib qo'yiladigan qandaydir ta'lif metodlar emas. Ta'lif jarayoni ta'limning shu uch usulida birlik bo'lishini ta'minlashi lozim.

Gerbart axloqiy ta'limga nihoyat darajada intelluktualizm ruhi bilan sug'orilgan tizimini ishlab chiqdi. Uning pedagogika tizimida o'qituvchining o'qitish vositasi bilan o'quvchi ongiga axloqiy tushunchalarni singdirishga katta ahamiyat beriladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, Gerbart boshqarishni axloqiy tarbiyadan ajratdi, u faqat hozirgi vaqt uchun tartib o'rnatishi lozim bo'lgan boshqarishga nisbatan axloqiy tarbiyaning prinsipial farqini topishga urindi, lekin bunga ozroq bo'lsa-da, ishontirarli dalil topa olmadi, zotan buiday dalil topish mumkin ham emas edi. Chunki intizom tarbiyaning ham sharti, ham natijasidir.

Gerbart axloqiy tarbiya prinsiplari boshqarish prinsiplariga qarama-qarshidir. Boshqarish bolaning irodasi va ongini tartibga solib turadi. Axloqiy tarbiya tizimida esa tarbiyalanuvchida mavjud bo'lgan yaxshi belgilarning hammasi axloqiy tarbiya metodlariga tayanch bo'lishi lozim. Axloqiy tarbiya «tarbiyalanuvchining yaxshi

xislatlarini chuqur ma'qullash vositasi bilan uning «o'z shaxsini» o'zining nazarida ulug'lashga» intilishi lozim. Tarbiyachi hatto yo'lidan ozgan tarbiyalanuvchining ham yaxshi belgilarini topishi va bunga darhol erisha olmasa, umidsizlikka tushib qolmasligi zarurdir. Axloqiy tarbiya tizimida «bir uchqun shu ondayoq ikkinchi uchqunni chaqnatishi mumkin».

Gerbart axloqiy tarbiyaning o'ziga xos vositalari qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi.

1. Tarbiyalanuvchini tiyib turish (bolani boshqarish, uni itoatkor bo'lishga o'rgatish – bu vositaga xizmat qiladi). Bolalar uchun xattiharakat chegaralarini belgilab qo'yish kerak.

2. Bolani belgilab olish, ya'ni uni shunday sharoitga qo'yish kerakki, bu sharoitda u «qulq solmaslik og'ir kechinmalarga olib kelishini» faqat tarbiyachining ko'rsatmalaridangina emas, balki shu bilan birga o'z tajribasidan ham tushunib oladigan bo'lsin.

3. Xulqning aniq qoidalarini belgilab qo'yish.

4. Tarbiyalanuvchining ko'nglida «osoyishtalik va ravshanlik» bo'lishini ta'minlab turish, ya'ni «tarbiyalanuvchida haqiqatga nisbatan shubha tug'ilishi» uchun asos bermaslik.

5. Ma'qullash va sazo berib turish yo'li bilan bolaning ko'nglini «to'iqinlantirib» turish.

6. Bolani «xabardor» qilib turish, ya'ni uning nuqsonlarini ko'rsatib va tuzatib turish.

Axloqiy tarbiyada jazo choralarini ham qo'llash kerak, lekin intizom o'rnatish uchun qo'llaniladigan jazo choralarini tarbiyalash maqsadida beriladigan jazo choralaridan farq qilinishi lozim, tarbiyaviy jazo choralarini qasos g'oyasi bilan bog'lanmasdan, balki tarbiyalanuvchiga xayrixohlik bilan qilinayotgan ogohlantirish choralarini bo'lishi lozim.

Tarbiyalanuvchining ongida har qaysi narsani o'zimcha mustaqil hal qila beraman, degan fikrning kuchayib ketishiga yo'l qo'yish juda xavflidir. Tarbiyalanuvchining har qanday odamlar orasida (ulsatchilikda) bo'lishiga juda ehtiyyotlik bilan qarash kerak, «ijtimoiy turmush oqimi bolani o'z girdobiga tortmasligi va tarbiyaga qaraganda zo'rroq bo'lib ketmasligi lozim». Gerbart tarbiyachining obro'sini nihoyatda darajada yuqori ko'tarishni talab qildi, bu obro' tarbiyalanuvchining nazarida «ko'pchilikning

fikridan» hamisha ustun bo‘ladi deb hisobladi, shuning uchun ham «tarbiyachi juda zo‘r obro‘ga ega bo‘lishi, tarbiyaluvchi bunday obro‘ oldida boshqalarning har qanday fikrini nazar-e’tiborga olmaydigan bo‘lishi g‘oyat zarurdir».

Gerbart g‘oyalari Germaniyada, Rossiyada, G‘arbiy Yevropaning ko‘pgina mamlakatlarida keng tarqaldi. Amerikada ham bu g‘oyaga talab tug‘ildi.

Yevropa va AQSh da klassik o‘rtta maktablar ko‘p jihatdan Gerbart pedagogikasiga asoslanib qurildi. Gerbartning bolalarni boshqarish tizimi keng yoyildi. Bu tizim bolalar tashabbusini bo‘g‘ishga va ularni kattalarning obro‘yiga hech so‘zsiz bo‘ysundirishga qaratilgan tizim edi.

Gerbart pedagogikaning ilmiy fan darajasiga ko‘tarish uchun ko‘p ish qildi. U pedagogikaning o‘ziga xos tushunchalar tizimi borligini ko‘rsatdi.

Gerbartning didaktika masalalarini ishlab chiqqanligi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning ko‘p tomonlama qiziqish to‘g‘risida, ta’limning tizimli bo‘lishi to‘g‘risida, qiziqish va diqqatni o‘sirish to‘g‘risida aytgan fikrlari hech shubhasiz qimmatlidir. Gerbartning ta’lim bilan tarbiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab berishga uringanligiga ijobiy baho bersa arziydi.

Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg (1790–1866) XIX asr o‘rtalarida demokratik pedagogikaning taraqqiyarvar namoyandasidir. Disterverg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtida, adabiy va metodik ishlarni ham muvaffaqiyat bilan bajarib turdi. U «Nemis o‘qituvchilarini o‘qitish uchun qo‘llanma» (1835) degan kitobini nashr qildirdi. Ushbu kitobda Disterverg ta’limning umumiy vazifalarini va tamoyillari to‘g‘risidagi o‘zining taraqiyarvar qarashlarini bayon qilib berdi. Disterveg umuminsoniy tarbiya g‘oyasini himoya qilib chiqdi, shu ideyaga tayanib turib, pedagogika masalalarining yukori toifaviy va shovinistik manfaatlarini ko‘zlab hal kilishga qarshi kurashdi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli fuqarolar tarbiyalab etishtirishdir. Odamlarda insoniyatga va o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog‘langan holda

rivojlantirilishi lozim. Disterveg «inson – menin nomim, nemis – menin lakabimdir» deydi.

Disterveg Pestalotsi singari, tarbiyaning eng muhim tamoyili uning tabiat bilan uyg'unligidir, deb hisobladi. Disterveg tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishini quyidagi mazmunda talqin etdi, ya'ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o'quvchining yoshi va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. Disterveg o'qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o'ziga xos belgilarini sinchiklab o'rganishlari kerak, deb aytdi: u psixologiyani «tarbiya to'g'risidagi fanning asosi» deb bildi. Distervegning katta xizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o'rganish zarurligini ko'rsatib berdi.

Disterveg tabiatga uyg'un bo'lish tamoyiliga qo'shimcha ravishda tarbiya madaniyat bilan uygun tavsifda bo'lishi ham kerak, deb ta'lab qildi. U bunday deb yozadi: «Tarbiyalash chog'ida odamning tug'ilgan va u yashashi kerak bo'lgan joy hamda vaqt sharoitini, xullas, keng va umumiy hajmdagi butun zamonaviy madaniyatni e'tiborga olishi zarur».

Distervegning fikricha, bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish zamonaviy voqealik olg'a surayotgan asosiy tatablarning biri bo'lishi lozim. Lekin bolalarda tashabbuskorlikni o'stirish tarbiyaning obyektiv tomoni bo'lgan muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan taqdirdagina ijobji ahamiyatga ega bo'ladi.

Disterveg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu «haqiqatga, go'zalikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir», deb aytdi.

Disterveg ham, Pestalotsii singari, ta'limning asosiy vaifasi bolalarning aqliy kuchlarini va kobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Lekin u formal ta'lim moddiy ta'lim bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatib, sof formal ta'lim bo'lmaydi, lekin o'quvchining o'zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina kimmatga egadir, deb uqtirib o'tdi.

Ta'lim insonning har tomonlama kamolotga etishiga va uning axlokiy tarbiyasiga yordam berishi lozim. O'qitilayotgan har bir

narsa ta'lum jihatdan qimmatga ega bo'lish bilan bir qatorda, axloqiy ahamiyatga ham egadir.

Disterveg tarix, geografiya, ona tili va adabiyotning o'qitilishini bolalarga ta'lum berishda katta roli borligini ko'rsatib o'tdi. U tabiyot va matematika fanlariga yuksak baho berdi, bu fanlar bolalarning intellektual o'sishi uchun muhim vosita ekanligini ko'rsatdi va hamma tipdag'i umumiylar ta'lum maktabalarida bu fanlar o'qitilishi lozim, deb hisobladi. Shu bilan birga, u tabiyot va matematika o'quvchilarni zarur bilimlar bilan lozim bo'lgan darajada qurollantirishi, ularning kelajak amaliy faoliyatga tayyorlashi lozim deb talab qildi.

Distervegning fikricha, boshlang'ich mактабда o'quvchilarni o'qитilgan materialni o'zlashtirish ustida mustakil ishlay oladigan qilishga, ularda buning uchun malaka hosil kilish, ularning aqliy kuch va kobiliyatlarini o'stirishga asosiy e'tibor berilishi zarur. O'qituvchi ko'rsatmali o'qitish yuli bilan bolalardagi barcha sezgi organlarini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Disterveg boshlang'ich mактабning o'quv rejasiga tabiyotni, fizikadan boshlang'ich ma'lumotlar, amaliy geometriya, geografiyani kiritib, bu rejani kengaytirishni talab etdi. U o'rta mактабда real bilimlarni o'qitish tamoyilini qizg'in himoya qildi va o'z zamonidagi klassik gimnaziyani qoraladi.

Disterveg rivojlantiruvchi ta'lum didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta'lumning 33 qonuni tariqasida bayon qilib berdi. Disterveg, avvalo tabiatga uyg'un tarzda bola idrokining xususiyatlari muvofiq o'qitishni talab etdi. U misollardan koidalarga: buyumlar va bu buyumlar to'g'risida konkret tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so'zlarga o'tishni taklif kiladi. Disterveg bolalarni ularning sezgi organlari bevosita his qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtida, bolaning o'z sezgi organlari bilan idrok qilayotgan butun materialni o'ylab ko'rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o'tdi. Disterveg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lum «uzoqqa», «oddiy narsalardan murakkab narsalarga», «osonroq narsalardan, qiyinroq narsalarga», «ma'lum narsadan, noma'lum narsaga» o'tish kerak degan qoidalar bilan bog'langan ta'lmdir. O'z vaqtida Komenskiy ta'riflab bergen bu koidalarni Disterveg yanada

taraqqiy ettirdi, pedagog bu koidalarni formal ravishda qo'llanmasligi kerak, deb xaqli ravishda ogohlantirdi.

Disterveg o'qitilayotgan materialning mustahkam o'zlashtirilishiga katta e'tibor beradi. Disterveg «O'quvchilar o'rganib olgan narsalarni unutib qo'ymasliklariga harakat qil» degan qoidani ilgari surdi va o'tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez qaytarib turishni maslahat beradi. Distervegning koidalalaridan birida «Asoslarni o'rganishda shoshilma» deyiladi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta'kidlashicha, muvaffaqiyatlari ta'lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo'ladi. Bunday ta'lim bolaning akliy kuchlarinigina o'stirib qolmaydi, balki shu bilan birga uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini ham kamol toptiradi. Distervegning fikricha, ma'lum bir ta'lim metodining kanchalik samarali bo'lishi bu metodning o'quvchilarning akliy kuchlarini qo'zg'atishga qanchalik yordam berishi bilan belgilanadi. «Agar har qanday metod, – deydi u, - o'quvchilarni oddiy idrok kilishga yoki passivlikka odatlantirgan bo'lsa, yomon metoddir, agar o'quvchilarda tashabbuskorlikni qo'zg'atadigan bo'lsa, u yaxshi metoddir». U boshlang'ich ta'lim uchun «elementar» yoki rivojlantiruvchi metodni taysiya qiladi, metod o'quvchilarning aqliy kuchlarini nihoyat darajada qo'zgatadi, ularga «qidirish, chamlab ko'rish, muhokama yuritish va nixoyat, topish» imkonini beradi. Distervegning fikricha, «Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib berib qo'ya koladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi».

Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. Mashhur donishmand, chexoslaviyalik gumanist-pedagog Ya.A.Komenskiy demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixidan o'rinnoldi. U o'zining amaliy hayotini, pedagogik faoliyatini, ilmiy asarlarini, xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalashda bag'ishladi.

A.Ya.Komenskiyning xizmati shundaki, u yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash haqidagi fan pedagogika fanining vazifalarini payqabgina qolmasdan, balki pedagogik ilmining poydevorini qurdi va rivojlanish yo'llarini ko'rsatib o'tdi.

Yan Amos Komenskiy 1592-yil 25-martda Chexoslavakiyaning Moravyada «Chex qarindoshlari» jamoasiga taalluqli oilada tug'ildi. Komenskiylar oilasi Moravyada Koman qishlog'idan

ko'chib kelishgan, shuning uchun ham ularni bu yerda Komnachilar oilasi deb atalgan.

Komenskiy yashagan davr Yevropa mamlakatlarida sinfiy kurash keskinlashib tarixiy voqeallar sodir bo'lgan vaqtlar edi. Bu davr feodal ishiab chiqarish munosabatlarining borishi kapitalistik tuzum asoslарining targ'ib topayotgan davri edi. Chexiyada boshlagan o'ttiz yillik urush bu urush o'zining mohiyati jihatidan chex xalqining nemis katolik feodalariga qarshi kurash edi. Yevropaning barcha kuchli davlatlari bu urushda qatnashdi. Keng xalq ommasi jalg etilgan bu kurashdan Komenskiylar oilasi chetda turmadi, chunki Komenskiylar oilasiga mansub bo'lgan «Chex qardoshlari» jamoasi burjua demokratik islohotlar o'tkazishni talab qilib, bu kurashda ishtirok etdi. «Chex qardoshlar» jamoasi o'z safiga chex xalqining ozodligi va mustahkamligi uchun kurashib kelayotgan vatarparvarlarni birlashtirdi. Chex xalqining ozodligi uchun kurash Yevropa xalqlari feodalizmga qarshi olib borilayotgan kurashning bir qismi edi. Chex qardoshlari cherkovning diniy marosimlarini bajarishdan voz kechdilar, dvoryanlarga qarshi kurashdilar hamma bolalarga ijtimoiy ta'lim berishni amalga oshirdilar, kambag'al oilalarga yordam berdi.

Komenskiy 12 yoshda yetim qolib, muhtojliklarni boshidan kechirdi. «Chex qardoshlari» jamoasi ochgan mакtabda boshlang'ich ta'lim oldi, 1608–1610-yillarda lotin mакtabida o'qidi. Jamoa hisobidan Germaniyada o'qishga yuborildi. Komenskiy Xerborin va Gaydelberg universitetlarida ta'lim oldi. U «Hamma narsalar ensiklopediyasi» nomli ensiklopediyani yozishga kirishdi. U shu yillarda ona-tilining to'liq lug'ati – «Chex tili xazinasi»ni tuza boshladi va Ratkening didaktik ideallari bilan tanishdi. Komenskiy 1614-yilda vataniga qaytdi va Premerovadagi mакtabiga o'qituvchilik qildi. U 1616-yilda «Chex qardoshlari» jamoasiga boshliq qilib saylandi. 1618–21 yillarda jamoa tomonidan ochilgan mакtabda boshchilik qildi. U mакtabda ishlash jarayonida o'qitish metodlarini takomillashtirishga intildi.

Komenskiy nemis dvoryanlari va katolik cherkovi zulmiga qarshi kurashda aktiv qatnashdi. Reaksiya kuchlari chex jamoasi a'zolarini va Komenskiyni ta'qib ostiga oldilar. U quvg'inda hayot kechirdi.

Komenskiy 1627-yilda chex tilida «Chex didaktikasi» asarini yozishga kirishdi. Katolik zulmi va quvg‘in kuchaygach, Komenskiy va boshqa jamoa a’zolari Pol’shaning Leshno shahrida o’tashdilar.

Komenskiy Leshnoda maktab oshib o’qituvchilik qildi. 1632–38 yillarda bu asarni qayta ishlab lotin tilida tarjima qiladi va uni «Buyuk didaktika» deb ataydi. Komenskiy 1631-yilda «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» 1633-yilda «Fizika? 1632-yilda «Astronomiya», 1632-yilda «Onalar maktabi» kabi asarlarini yaratdi. Komenskiy Shvesiyada borib maktab islohoti o’tkazishga kirishdi va maktablarda lotin tili o’qitish metodikasini ishlab chiqdi.

1648-yilda Komenskiy Leshnoga qaytib Shvesiya hukumatining topshirig‘iga asosan «Lotin tilining muqaddimasi», «Latinizm zali», «Tillarining engi yaxshi metodi» kabi asarlarini nashr qildi.

1660-yilda Komenskiy Vengiriyaga boradi va maktablar ochdi. U o’qitish jarayonini jonlashtirish, bolalarga bilimga qiziqish uyg‘otish uchun «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi asari» asosida 8 ta o’quv pyesasini yozdi va ulardan «O’yn maktab» kitobini tuzdi. 1654-yil Komenskiy «Hislar vositasi bilan idora qilingan narsalarnitng suratlari» nomli asarini yozdi. Bu asar Yevropaning ayrim mamlakatlari maktablarida XIX asrning ikkinchi yarimigacha darslik sifatida foydalandi.

Komenskiy Leshno shahri vayron bo’lgach, Gollandiyaga ko’chib bordi va Amsterdam shahrida o’tashib qoldi. Umrining oxirigacha shu erda yashadi va 1670-yil 15-noyabrda Amsterdam shahrida vafot etdi. Komenskiy umrining so’nggi yillarini xalqlar o’rtasida tinchlik o’rnatish va tinchlikni saqlash muamolarini o’rganishga bag’ishladi.

U otashin vatanparvar edi. U umr bo’yi o’z vatanining mustaqilligi uchun kurashdi. Uning barcha asarlarini chuqur vatanparvarlik hissi bilan sug’orilgan. Komenskiy dindor odam edi. Uning pedagogikaga oid barcha asarlarida o’sha davrning ta’siri ko’rinadi. Komenskiy dunyo qarashicha uning didaktik ta’limotiga XVI–XVII asr tabiat falsafasining va Bekonning seneualistik falsafasining ta’siri kuchli. Komenskiy idrok qilingan narsalarning hammasi, avvalo sezgilarda mayjuddir deb hisoblaydi.

Hamma bolalar uchun yagona tipda maktab bo’lishi kerak. Jinsi, tabaqaasi, ota-onasining mol mulkidan qat’iy nazar hamma bolalarga

umumiylar majburiy ta'lif berish kerak degan talablar uning ruhiga singigan demokratizm ifodasidir. U o'g'il va qiz bolalarni ham o'z ona tilida o'qitishini talab qildi.

Uning dunyoqarashidagi ayrim xususiyatlar uyg'onish davri madaniyatning ta'siri ostida vujudga kealdi. Komenskiy inson eng mukammal va eng go'zal mavjudotdir deb ta'lif berdi. Tabiat ko'rsatgan yo'ldan borganda uning ruhi ham kamolga etgan zotdir. Komenskiy maktabini insonparvarlik ustaxonasi deb bildi. Komenskiy tarbiyasining maqsadini dindan keltirib chiqardi. Uning fikricha tarbiyaning uch vazifasi bor: 1. O'zini va tevarak atrofisidagi olamni bilish (aqliy tarbiya). 2. O'z-o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya). 3. Xudoni tanish (dinniy tarbiya).

Komenskiy o'rta asr pedagogikasidan farqli o'laroq bolaga aqliy tarbiya berishni muhim ish, deb hisoblaydi.

Komenskiy tarbiyaning roliga yuksak baho bergan. Inson saqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi, insonga bolalik chog'idan tarbiya berilishi lozim.

Tarbiyaning tabiatga mosligi haqidagi fikr dastlab Aristotel asarlarida uchraydi, lekin u bu masalani batafsil yoritmagan. Russo, Pestalossi, Disterveglarning asarlarida ham tarbiyaning tabiatga uyg'unligi haqida fikr yuritilladi, lekin ular tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lish masalasini turlicha tushunadilar.

«Buyuk didaktika» asarida bayon etilgan asosiy fikrlardan biri tarbiya va o'qishning tabiatga uyg'un bo'lishi haqidagi g'oyadir.

Tarbiyaning tabiatga mostik tamoyilini birinchi marotaba Komenskiy nazariyi va amaliy jihatdan ishlab chiqdi.

Komenskiy inson tabiatining bir qismi va u tabiatining bir qismi sifatida uning eng asosiy umumiy qonuniyatlariga buysunadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, tabiatning bu qonuniyatları o'simliklar va hayvonot olamiga ham, shuningdek insonga nisbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi.

Komenskiy maktabning aniq tartibini tabiatdan olmoq kerak, tabiatni ham o'z harakatlarda namoyon qilayotgan jarayonlarini kuzatishga asoslanib bilish lozim, deb ta'lif beradi. Ta'lif-tarbiya «Bolaning tabiiy qobiliyatlariga moslansa, yengil va osonsoq o'qitish mumkin».

1. O'qishni o'z vaqtida, ya'ni kishining sikri boshqa narsalarga bo'linmasdan turib boshlash kerak.
 2. Bolaning aqli o'qitish uchun yetarli darajada tayyorlagan bo'lishi lozim.
 3. O'qitishda umumiyyadan xususiyga qarab borishi lozim.
 4. Osonroq narsalarni o'rgatishdan qiyinroq narsalarini o'rganishga o'tish kerak.
 5. O'rganiladigan material ko'plik qilib, bolani qiyinab qo'ymasin.
 6. Hamma narsani sekin-asta o'rgata borish lozim.
 7. Bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o'rgatmaslik kerak.
 8. Hamma narsa tashqi sezgi organlari orqali idrok etilishi zarur.
 9. O'qitishni har doim bir usuida olib borish kerak.
- Go'daklikda jismoniy jihatdan o'sadi va sezgi organlari rivojlanadi. Bolalik davrida eslash qobiliyati, til va qo'lli rivojlanadi. O'smirlik davrida tafakkuri o'sadi. Yetuklik davrida iroda takomillashadi.
- Komenskiy bolalarni 6 yoshga qadar Onalar mакtabida tarbiyalashni taklif qiladi. Bolalik davrida jamoalar va qishloqlarda ona tilida olti yillik boshlang'ich mакtab bo'lishi lozim. O'smirlar uchun shaharlarda lotin mакtabi yoki gimnaziya bo'lishi kerak.
- Komenskiy hamma uchun umumiyy maktab bo'lishi lozim degan fikrni ilgari sordi. Uning fikricha onalar mакtabida bolalar boshlang'ich ma'lumot, tabiat ilmi sohasida suv yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o'simlik, qush, ho'kiz va hokazo'larni ekanligini bilib olishlari kerak.
- Bolalarni yoshlilik chog'idanoq uy ruzg'or ishlariiga, mehnatga o'rgatish kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda ozodalikka, mehnatsavarlikka, kattalarni hurmat qilishga, mo'minqobililik, rostgo'ylik, odillikka o'rgatish kerak.
- Uning fikricha, lotin mакtabi, gimnaziyada grek tillari, ona tili va hokazo fanlar o'qitilishi kerak.
- Akademiyada ilohiyot, yuridik va tibbiyot fakultetlari bo'lishi kerak. Komenskiy didaktik prinsiplar deganda quyidagilarni nazarda tutadi:
1. Onglik va faollik.

2. Ko'rsatmalilik.
3. Izchilik va tizimlilik.
4. Mashq qilish, bilim va malakalarini puxta egallash.

Ong'lilik va faollik tamoyilii ta'sim jarayonida o'qquvchilarning passiv bo'lib materialni tushunmay mexanik ravishda quruq yodlashi emas, balki bilim va malakalarini faol ravishda anglab chuqr va asosli bilim olishi zarur.

Ta'simda ko'rsatmalilikdan foydalanish qadimiyyidir. Komenskiyning fikricha, ko'rsatmalilik tamoyili ko'rsatib o'tish usuli emas, balki barcha sezgi organlari narsalar va hodisalarini eng ravshan, asosli mustahkam puxta o'zlashtirib olishga ja'b qilish vositasidir.

Ko'rsatmalilik tamoyilini joriy etishda quyidagilarga amal qilish zarur:

- 1) mavjud narsalarning o'zini ko'rsatish yoki tabiiy holda kuzatishlar o'tkazish;
- 2) narsalarning modelini yoki nusxasini ko'rsatish;
- 3) narsa va hodisalar tasvirlangan suratlarni ko'rsatish.

Ilm sirlarini bilib olish uchun yoshlardan quyidagilar talab qilinadi.

1. Sof aqlga ega bo'lish;
2. O'rganish zarur bo'lgan narsani ko'rish;
3. Diqqatni to'play olish;
4. Kuzatish lozim bo'lgan narsalarni ma'lum tartibda ketma-ket ko'rsatish.

Sezgilar vositasida mukammal idrok qilingan narsalar, hodisalar xotirada uzoq vaqt mustahkamlanadi. Komenskiy shunday yozadi: «Agar kishi biror marta qand yegan bo'lsa, tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi». Ko'z bilan ko'rilgan narsani isbotlashning hojati yo'q. Shuning uchun Komenskiy maktablar va muallimlar darslarda ko'rsatma qurollarni ko'proq ishlatsishi zarur deb bildi.

Izchilik va tizimlilikni ajratib bo'lmaydi. O'quv materiallarini matematikaga xilof ish qilmasdan to'g'ri tekshirib chiqish o'qitishni nimadan boshlab va unda ketma-ketlikka rioya qilish, yangi material bilan oldin o'tilganlarni bir-biriga bog'lash.

Uning fikricha, ta'lim boshidan oxirigacha izchil davom etishi ta'limning poydevorini mustahkam qurilishini ta'minlaydi. Hozir o'r ganilgan bilimlar oldingisiga asoslanilsa, keyingisiga yo'l ochiladi.

Ta'limda umumiydan-xususiyga, ma'lumdan-noma'lumga, uzoqdan-yaqinga kabi qoidalarga amal qilinadi. Uning fikricha, mashq qilish va takrorlash tamoyilii o'quvchilarning ongiga asoslanib bilimlarini puxta egallashga xizmat qilishi kerak.

Mashqlar natijasida bola so'zlarni quruq yodlay olmasligi, narsa va hodisalarни tushunib olishi bilimlarni o'zlashtirishi va amalda qo'llashi lozim. Bola o'qib to'g'ri tushunib olgan bilimlarning barchasi uning xotirasiga mustahkam saqlanib qoladi. O'rgatmoqchi bo'lgan narsani bolaga amalda bajartirish kerak. Mashq qilish va takrorlash bilimlarning ongli va puxta o'zlashtirishida muhim rol o'yndaydi.

Dars o'quv mashg'ulotini tashkil etishning asosiy shakli va quyidagilarni taqozo qiladi.

a) bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilarning o'zgarmas tarkibi;

b) o'quv mashg'ulotlarini, darslarni qat'iy jadval asosida tashkil etish;

v) muallim bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilarga bir fan o'rgatishi;

g) butun o'quv mashg'uloti davomida o'qituvchilarning rahbarlik roli.

Komenskiyning fikricha, bolalarni maktabga har yili bir marta qabal qilish lozim. O'qishga qabul qilinganlar sinflarga taqsimlanib chiqilishi kerak. Maktabda sinflar soni qancha bo'lsa, sinf xonalari ham shuncha bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari har kuni to'rt soat, gimnaziya o'quvchilari olti soat o'qishi kerak. Har bir darsda ma'lum vazifani bajarish kerak. Muallim biror narsani tushuntirayotganda hamma bolalar diqqat bilan tenglasinlar.

Komenskiy butun dunyoda pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotida juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham butun insoniyat Komenskiyni qadriaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi Sharq deganda qaysi davlatlarni tushunasiz?
2. Qadimgi Yunoniston haqida nimalarни bilasiz? Qadimgi Rim haqidachi?
3. Qadimgi Yunoniston olimlaridan kimlarni bilasiz?
4. Qadimgi Rim mutafakkirlaridan kimlar haqida ma'lumotga egasiz?
5. Sinf-dars tizimi kim tomonidan ishlab chiqilgan?
6. Quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va ko'rsatilgan ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari mazmunini qisqacha bayon eting. Mazkur ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari mazmunini yozishda qiyosiy tahlilga asoslaning.

Yan Amos Komenskiy	Iogann Genrix Pestalotsi	Adolf Disterveg

XI BOB. XIX ASRNING 2-YARMI – XX ASRDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI. K.D.USHINSKIYNING PEDAGOGIK MEROsi

XIX asrning oxiri – **XX** asrda **G’arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo‘nalishlari.** Reformatorlik pedagogikasining asosiy yo‘nalishlari: 1. Mehnat maktablari tarafsdorlarining harakatlari. 2. Harakatlar pedagogikasi. 3. Badiiy tarbiya. 4. Individual pedagogika. 5. «Fuqarolik tarbiyasi» pedagogikasi.

Reformatatorlik pedagogikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillari: 1. Ishlab chiqarishning murakkab texnika bilan ta’minlanishi. 2. Tabiiy-matematik kadrlar jamoasiga bo‘lgan ehtiyoj. 3. Malakali raqobatbardosh ishchilarga bo‘lgan ehtiyoj.

Nemis pedagogi Georg Kershenshteynerning pedagogik nazariyasi: 1. Maktab bolalarning ikkita ehtiyojini qqqonoqtirishi zarur: idrok etish va ijod qqilish. 2. Nafaqat so‘z, kittob yordamida, balki amaliy tajriba vositasida o‘rganish zarur. 3. Ko‘pcitlik bolalarning qo‘l mehnati – ularning har tomonlama rivojlanish maydoni. 4. «Faqat kitob emas, balki ijodiyl ish bolalarni uyqu va lanjlikdan xalos ettuvchi». 5. Mehnat maktabida o‘qitishning asosiy metodi: ximiya, fizika fanlari bo‘yicha laboratoriyalarda, metal, daraxtlarga ishlov beradigan amaliy mashg‘ulotlarda, jonli buurchaklarda, rasm chizish sinflari, yer maydonchalaridagi musttaqil ishlar. 6. Maktab ishida «ma’naviy umumiylilik» uning ijtimoiy ahamiyati. Asari: »*Kelajak maktabi-mehnat maktabi*».

Djon Dyuining pedagogik kontseptsiyasi. XX asr boshlarida, chet el va ayniqsa amerika pedagogikasida maktab ta’limi masalalari bo‘yicha pragmatik (yunoncha «pragma» – harakat, amaliyat) g‘oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdoni Djen Dyui (1859–1952-yillar) maktab ta’limining o‘z kontseptsiyasini yaratishga ko‘p urindi. Bu yo‘nalishlar vakillari (Dj.Dyui, G.Kershenshteyner) o‘qitish bu o‘quvchining «tajribasini qayta tashkil etish» uzlusiz jarayoni deb hisoblaydilar.

O‘qitishni Dyui kundalik hayotdan olingan arnaliy inasalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang‘ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan: «Oldindan tuzilgan o‘quv kurslari kerak emas».

«O'qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak», «Bola o'qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak», «Bajarish yordamida o'qitish – mакtabda asosiy metod». Shunday qilib, Dyui maktabda ta'lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta'limi tan olmaydi va o'qishni tor hamda o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat hisoblaydi. Asari: «Maktab va jamiyat».

«Harakatlar pedagogikasi» kontseptsiyasи ko'п jihatdan Dj.Dyuining falsafiy (pragmatizm) va psixologik qarashlarining oqibati hisoblanadi. Uning muallifi, reformatorlardan biri nemis pedagogi Vilgelm Avgust Lay (1862–1926-yillar) bilim olish jarayonida ko'zga tashlanuvchi quydagi uch bosqichni ko'rsatadi: idrok etish, qayta ishlab chiqish, ifoda etish. Bilimlarni formallashtirish metodlari: amaliy va ijodiy ishlar, tajriba, illyustratsiya, ganjkorlik, o'yin, ashula aytish, sport, raqs tushish. Asari: «Harakat maktabi».

M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o'rni. Mixail Vasilevich Lomonosov – rus tabiatshunos olimi, rus adabiy tilining asoschisi, shoir, rassom, tarixchi. Moskvada, Kievda (1734), so'ngra Peterburg akademiyasi universitetida o'qigan (1735). 1736-yildan Germanianing Merburg va Frayburg universitetlarida kimyo va metalluriya fanlaridan ta'lim olgan. Peterburg Fanlar Akademiyasining birinchi akademigi (1745). 1748-yilda Rossiya Fanlar Akademiyasi qoshida 1-kimyoviy labooratoriya asos solgan. 1755-yilda Lomonosovning tashabbusi bilan Moskva univeersiteti tashkil etilgan (keyinchalik unga Lomonosov nomi berilgan). Moddalarning atom-molekulyar tuzilishi haqidagi tushunchalarini rivojlantirgan, kimyoviy reaksiyalarda massaning saqlanish qonunini topgan (1756), korpuskulyar (atom-molekulyar) ta'limoto asoslarini taklif etgan (1741 – 50). Venera sayyorasida atmosfera mavjudligini aniqlagan (1761). Falsafiy va grajdanilik ruhidagi rus odasining ijodkori. Dostonlar, she'riy nomalar, tragediyalar va hajviy asarlar, fundamental filologik tadqiqotlar hamda rus tilining ilmiy grammatikasi muallifi. Ranglar haqidagi nazariyani olg'a surgan. Bir qancha optik asboblar yasagan. Mozaika san'atini rivojlantirgan, smaltalar ishlab chiqarishga katta hissa qo'shgan, shogirdlari bilan

birga koshinkor nAQShlarning yangi turlarini taklif etgan. Shvetsiya Fanlar Akademiyasi (1760), Bolonya FA (1764) faxriy a'zosi.

L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. Lev Nikolaevich Tolstoy (1828. 28.8(9.9), Tuła guberniyasi Yasnaya Polyana qishlog'i – 1910.7(20). 11, Lipetsk viloyati, hoz. Lev Tolstoy bekati; Yasnaya Polyanada dafn etilgan) – rus yozuvchisi, ma'rifatpari. Rossiyadagi kadimiy dvoryanlar sulolasidan, graf. Peterburg Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi (1873), faxriy akademigi (1900). 1844–47 yillarda Qozon universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetlarida o'qigan. 1851–53 yillarda Kavkazda bo'lib, janglarda ishtirok etgan. 1854-yilda Dunay armiyasiga yuborilgan; iltimosiga ko'ra, qamaldagi Sevastopolga o'tkazilgan. Qrim urushida qatnashigan. Tolstoy 1855-yilda Peterburgga borib, N.A.Nekrasovning «Sovremennik» (*«Zamondosh»*) jurnali va jurnal atrofидаги yozuvchilar (I.S.Turgenev, I.A.Goncharov, N.G.Chernishevskiy va boshqalar) bilan hamkorlik qilgan. Bolalik kezlarida rus va arab xalq ertaklari, A.S.Pushkin she'rlari, shuningdek, Yusuf haqidagi Injil rivoyoti ta'sirida she'rlar yozgan. Birinchi yirik asari – «Inson kamolotining to'rt davri» avtobiografik asari (*«Bolalik»*, 1852; *«O'smirlilik»*, 1852–54; *«Yoshlik»*, 1855–57; *«Yigitlik»*, yozilmay qolgan). Urush lavhalari va askarlarning maishiy turmushi Tolstoyning *«Sevastopol hikoyalari»* (1855) to'plamiga kirgan hikoya va ocherklarida o'z ifodasini topgan. 50-yillar Tolstoy ruhiy hayot lavhalari va maishiy turmush tafsillarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, hayotning axloqiy falsafiy asoslarini tasviri bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Tolstoy ijodida shakllana boshlagan bu ijodiy tamoyil *«Kazaklar»* qissasi (1863)da, ayniqsa, yaqqol ko'rindi. Bu asarda o'z in'ikosini topgan xalq hayoti mavzui va voqelikning epik tasviri Tolstoyning 60-yillar ijodida yanada teranlashadi.

Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan *«Urush va tinchlik»* (1863–69) epopeyasi Tolstoyning 60-yillarda ijodiy kamolotga erishganidan shahodat beradi. Yozuvchi *«Urush va tinchlik»* romani bilan o'z davrida ro'y bergan va o'zi shaxsan guvoh bo'lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimmi, u Napolconning 1805–1807 va 1812–1814-yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko'plab qahramoular ishtirok etgan epik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta

mahorat bilan uyg'unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, 19-asr o'rtalarida epik asarlari davri o'tdi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida kuch ola boshiagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa «Urush va tinchlik»dek epopeyaning maydonga kelishi uchun unumli zamin bo'la olmas edi. 1812-yillarda Rossianining Napoleon qo'shirlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelisha olmagan turli tabaka va sinflarni dushmanga karshi kurash shiori ostida birlashtirdiki, Tolstoyning rus xalqi ongidagi ana shu uyg'onishga murojaat etishi «Urush va tinchlik» romanining yuzaga kelishi uchun hayotbaxsh zamin vazifasini o'tadi.

Tolstoyning 70-yillar ijodida «Anna Karenina» romani alohida mavqega ega. «Urush va tinchlik»dan bu romanni yozguniga qadar bo'lган davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik va adolat to'g'risidagi orzu umidlari ro'yobga chiqmadи. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. Mazkur romanda Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi izzirobli o'yiali aks etdi. Romanda Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat 3 oilaning bir-biri bilan chatishgan, ammo mustaqil syujet chizig'iga ega bo'lган tarixi tasvir etilgan. Tolstoy aksar rus yozuvchilaridek, nasroniy diniga katta e'tiqod qo'ygan, hayotda ro'y berayotgan voqealarga va kishilarning xatti-harakatlariiga ham shu din nuqtai nazaridan yondashgan.

70-yillarda ruhiy izzirob iqlimida yashagan Tolstoy o'z hayot yo'lini qayta nazardan o'tkazdi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo'li bilan bog'liq jamiyat qatlamining ma'naviy asoslari yolg'onga asoslangan, degan xulosaga keldi. Uning bunday qarashlari «Iqrornoma» (1880) va «E'tiqodim nimada?» (1884) asarlari o'z ifodasini topdi. T.ning shu davrda yozgan asarlari orasida «Ivan Ilichaning ulimi» (1886), «Kreytser sonatasi» (1889) qissalari, ayniqscha, e'tiborga loyiq.

Tolstoy 80-yillarda dramaturgiya janrlarida ham ijod qilib, «Zulmat hokimiyyati» (1886) dramasi va «Ma'rifat mevalari» (1890) komediyasini yozadi. Bu asarlarda qishloq axlidagi jaholat, shahar madaniyatining qishloqqa ko'rsatayotgan salbiy ta'siri katta badiiy kuch bilan tasvirlangan.

Tolstoy dunyoqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning so'nggi yirik asarlaridan biri – «Tirilish» romani (1889–99)da o'z aksini topdi. Hayotda bo'lib o'tgan oddiy voqeа – bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiyadolatsizlikka asoslangan jamiyatning ichki, ma'naviy asoslarini ochib tashlaydi.

Tolstoy hayotining Yasnaya Polyanadagi so'nggi kunlari ruhiy izziroblar po'rtanasida kechdi. U yaqin kishilarini to'qigan ig'vo va fasod to'ridan qochib, 1910-yilda Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketadi va yo'lda shamollah, vafot etadi.

O'zbekistonda Tolstoy ijodiga qiziqish u hayot paytlardayoq boshlangan. Uning «Odamlar nima bilan tirik?», «Xudo haqiqatni ko'rsa ham tezda ayta olmaydi» maqolalari 1887–1902-yillarda «Turkiston viloyatining gazeti»da o'zbek tilida nashr etilgan. Tolstoy haqidagi «Rossiya mamlakatining mashhur yozuvchisi» degan maqola esa 1889-yilda shu gazetada taniqli ma'rifatparvar Sattorxon Abdug'afforov tarjimasida bosilgan. Tolstoyning bolalar uchun yozgan qator hikoyalari Saidrasul Aziziy («Ustodi avval», 1902), Aliasqar Kalinin («Muallimi soniy», 1903), Abdulla Ayloni («Birinchi muallim», 1909; «Ikkinchi muallim», 1912) singari jadid ma'rifatparvarlarining o'quv qo'llanmalari va darsliklarida e'lon qilingan hamda usuli savtiya maktablarida o'qitilgan.

Tolstoy nafakat buyuk yozuvchi, balki adolatparvar va xalqparvar inson sifatida ham o'zbek jadidlarining e'tiborini o'ziga jaib etgan. Birinchi o'zbek advokati Ubaydulla Xo'jayev 1909-yilda Tolstoyma uning yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik haqidagi ta'lomi yuzasidan xat yozib, o'sha yilning 5-iyunida undan javob olgan. Islom dinining taniqli arboblaridan biri Abduvohid Qoriev esa 1910-yilda Yasnaya Polyanaga maxsus borib, Tolstoy bilan bir necha marta muloqotda bo'lgan.

Tolstoy 1859–1862-yillarda krestyan bolalari uchun maktab ochadi. Tosltoyning pedagogik kontseptsiyasi asosini «erkin tarbiya» g'oyasi tashkil etadi. Tolstoyning fikricha, ideal maktab – bu erkin hamkorlikka asoslangan, ya'ni o'qituvchi bilimlarni taqdim etadi, o'quvchilar uni erkin tarzda idrok etishadi. Bunday maktabning asosiy funksiyasi – erkin ta'lim berishdir. Tolstoy pedagogik kontseptsiyasidagi yetakchi tamoyil bolaarning o'ziga xosligini hisobga olishdir.

K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to‘grisida. K.D.Ushinskiy 1824-yil 19-fevralda Tula shahrida tug‘ildi. Ushinskiy bolalik va o‘smyrlilik davrlarini Chernigov gubernasiga qarashli Novgorod-Seversk shahri yaqinida bo‘lgan otanasing katta bo‘imagan erida o‘tqazadi.

22 yoshdan boshlab Ushinskiy YaroslovIdagi adliya liseyida eusiklopediya, qonun-shunoslik, davlat huquqi va moliya fanlari kafedrasida professorlik vazifasida ishlay boshladi.

K.D.Ushinskiy o‘qituvchilik va professorlik faoliyatini davrida hamma bilimini talabalarga berishga, ularda ilm-fanlarni qunt bilan, jiddiy suratda o‘qish havasini to‘g‘dirishga, ularda xalqqa muhabbat, unga xizmat qilish uchun tayyer turishi hissasini tarbiyalashga intiladi. Ushinskiyning taraqqiyparvarlik faoliyatini ko‘rolmagan reaksiyon kayfiyatdag‘i professorlar, lisey rahbarlari, ichki ishlar vazirligining xodimlari uning ustidan hukumatga chaqiq xati yozdilar, K.D.Ushinskiyning fikri mavjud tuzumga noto‘g‘ri, buzuq, xavfli kishi deb tuhmat toshi otilgan.

1884-yilda Yevropada bo‘lib o‘tgan inqiloblar podsho hukumatini chuchitadi. Podsho hukumiati shubhali kishilarni ta’qib ostiga ola boshlaydi. Shu jumladan Ushinskiy ham 1849-yilda liseydan «yomon otliq» qilib ishdan bo‘shatiladi. Shundan so‘ng u moddiy jihatdan qiynaladi. Shu yillari o‘z zamonasini uchun mashhur bo‘lgan «Zamondosh («Sovremennik»)» va «O‘qish uchun kutubxona» («Biblioteka dlya chiteniya») jurnallarida adabiy xodim bo‘lib ishlaydi, chet tillarini (ingliz tili) o‘rganadi. Chet tillardagi asarlarni rus tiliga tarjima qiladi.

1859-yilda Ushinskiy Smolniy aslzoda qizlar institutida o‘qituvchi va inspektorlik vazifasida ishga o‘tadi. Bu o‘rta ma‘lumot beradigan maktab yopiq o‘quv yurti bo‘lgan, bunda qizlar ta’lim va tarbiya olganlar. Ushinskiy institutga ishga borgach tubdan islohotlar o‘tkazadi.

1860-61-yillarda «Xalq maorifi ministrligi» jurnaliga rahbarlik qildi, quruq, kishilarni qiziqtirmaydigan umumiy jurnalni ilmiy pedagogika jurnaliga aylantirdi.

K.D.Ushinskiyning tarbiya nazariyasini salsafa, filologiya, pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, tarix fanlari qonuniyatlariga asoslanadi.

Uning fikricha, tarbiyaning vazifasi yoshlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat: tarbiyachi va o'qituvchilar tarbiyaning prinsipini, qoidalarni o'rganishlari kerak va shu bilan birga ana shu qoida va qonunlarni amaliyotga qo'llay bilishlari kerak.

Ushinskiy «Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asarida tarbiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqdi. Bu asar pedagogik-psixologik asardir. Chunonchi, sezgilarning fiziologik asoslari: xotira, idrok, nutq, tafakkur kabi psixik jarayonlar va ularning rivojlanishi yoritilgan. Bu asarda psixik hodisalarining ro'y berishi haqida xulosalar chiqariladi.

K.D.Ushinskiy pedagogik tizimga xalqchillik prinsipini asos qilib olgan. Ushinskiy tarbiyaning xalqchilligi degan iborani xalqning barcha bolalarini mакtabda o'qitish, ona tilini ta'limning asosi qilib olish, bolalarga o'z vatanlari tarixidan, geografiyasidan, tabiatidan keng bilim berish deb bildi. Xalq ruhi bilan sug'orilgan tarbiya bolalarga vatanga muhabbat, vatan oldidagi burchlarini sezish hissini o'stirish va butun kuchlarini vatan, xalq xizmatiga qaratilgan bo'lishi lozim.

Har bir avlod o'z xis tuyg'ularini, tarixiy voqialar, diniy e'tiqod, maslak natijalarini, boshidan kechirgan qayg'u va xursanchiliklarini ona tili xazinasiga qo'shadi. Xalq butun ma'naviy xayoti natijalarini ehtiyoq qilib o'z tilida saqlab keladi. Til bor ekan, xalq ham bor, xalqning hayot ekanligini til orqali bilish mumkin.

Bola ona tilini o'zlashtirganda tovush va birikmalarini bilibgina qolmasdan tushunchalar, fikrlar va tuyg'ular badiiy obrazlarni ham o'zlashtiradi.

Ushinskiy kishi kamolga etgan bo'lishi uchun uning aqliy, jismoniy va axloqiy o'sishi **bir**-biriga uyg'un bo'lishi kerak deb bildi.

Ushinskiyning fikricha axloqiy tarbiyaning vositalari qo'yidagilar: 1. Ta'lim; 2. O'qituvchining shaxsiy namunasi yoshlar qalbiga quyosh nuridek ta'sir etadi. 3. E'tiqod bolalarda-e'tiqodni tarbiyalamay turib ular qalbini rivojlantirib bo'lmaydi. 4. O'qituvchining mohirligi bilan munosabatda bo'lishi (pedagogik odob). 5. Ogohlantirish. 6. Qiziqtirish va jazolash.

Ushinskiy insonnинг to'g'ri rivojlanishida zarur shart mehnat deb biladi. Mehnat moddiy boylik yaratadi, insonnинг aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan takomil-lashtiriladi, qadr-qimmatini oshiradi. U

jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatning birlashtirilishini talab qildi. «O‘qish ham mehnatdir va mehnat bo‘lib qoladi, ammo to‘la ma‘noli mehnat bo‘lishi lozim» – deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi. Ushinskiy didaktika sohasidagi qarashlarini «Ona tilini o‘qitish yuzasidan qo‘llanma, «Maktab-maorif ishlarini o‘rganish uchun Shveysariya bo‘ylab sayohat» maqolalarida bayon etdi.

Ushinskiyning fikricha ta‘lim tamoyillari quyidagilar: 1) ta‘lim bolalarning kuchi etadigan bo‘lishi; 2) izchillik; 3) ko‘rsatmalilik; 4) puxta va mustahkamlilik.

Ushinskiy ko‘rsatmalilik prinzipni kishining yoshi va psixologiyasidagi xususiyatlar nuqtai nazaridan asosladi. U ko‘rsatmali vositalariga suratlar, kolleksiyalar, modellar va hokozolarni kiritgan.

Ushinskiy o‘quv materialni anglab, puxta va mustahkam o‘zlashtirishga katta e’tibor berdi. O‘quv materiallarini takrorlashga doir metodikani ishlab chiqdi.

Ushinskiy ta‘lim jarayonida ikkita bosqich borligini ko‘rsatdi: birinchidan, bolalar o‘qituvchining rahbarligi bilan buyum yoki hodisani kuzatadilar va shu buyum yoki hodisa haqida umumiyl tushuncha hosil qiladilar. Buning o‘zi uchga bo‘linadi: 1. Bolalar o‘qituvchining rahbarligida buyum yoki hodisani bevosita o‘zlashtiradilar. 2. O‘qituvchining rahbarligida o‘rganilayotgan buyum yoki hodisa to‘g‘risida olgan tasavvurlarini bir-biridan ajratadi, farq qiladi, solishtirib ko‘radilar ular to‘g‘risida tushuncha hosil qiladilar. 3. O‘qituvchi o‘zi izoh berib, bolalar olgan tushunchalarini to‘ldiradi, asosiy jihatlarini ikkinchi darajali jihatlardan ayirib, tushunchalarini bir tizimga soladi.

Ushinskiy «Rus tilining dastlabgi o‘qitish» nomli maqolasida zarur metodik ko‘rsatmalar berdi. Uning fikricha o‘qitishning uch vazifasi bor: 1. Bolalarning nutqini o‘stirish. 2. Bolalarni o‘z tilidan foydalanishga o‘rgatish. 3. Tilning mashqini o‘zlashtirish. Bu vazifalar bir vaqtida bajariladi.

K.D.Ushinskiy o‘qitish prinsipiiga asoslangan holda boshlang‘ich ta‘limga doir darsliklar ham tuzdi:

1. Ona tili darsligi – bu alifbedan boshlanadi, bunda bolalarning fikrini o‘stirish va tasavvurlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

2. Bolalar dunyosi darsligi – bu 3–4 sinfga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda bolalarga geografiya va tabiyotdan boshlangich ma’lumot berishi ko‘zda tutilgan.

Ushinskiyning fikricha, o‘qituvchi xalq orasida chiqqan bo‘lishi kerak: u pedagogika va psixologiyani bilishi, pedagogik odob va mahoratlarga ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘z ustida mustaqil ishlab, ongini turli yangiliklar bilan boyitib borishi lozim.

Ushinskiy 1861-yilda «O‘qituvechilar seminariyasining proekti» maqolasida boshlangich mакtablar uchun o‘qituvchilar tayyorlash tizimini taklif etdi. Xulosa qilganimizda, Ushinskiy Rossiyada maorif sohasida ko‘p xizmat qildi. U «Rus dumboqchalarining do‘sti», »Rus muallimlarining muallimidir».

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyidagi mavzuga doir asosiy tushunchalar bilan tanishing va ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.

- () pedagogik kontsepsiya
- () pedagogik qarashlar.
- () pedagogik nazariya

2-topshiriq:

1) quyida keltirilgan jadval bilan tanishing va ko‘rsatilgan ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari mazmunini qisqacha bayon eting;

2) mazkur ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari mazmunini yozishda qiyosiy tahlilga asoslaning.

Mixail Vasilevich Lomonosov	Lev Nikolaevich Tolstoy	Konstantin Dmitrievich Ushinskiy

XII BOB. HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI

Jahon mamlakatlari ta'lism tizimi. Dunyo ta'lism makonining yuzaga kelishi, faol integratsion jarayonlar, ta'lismni «inson kapital» sifatida e'tirof etilishi, ma'lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo'ylab tan olinishi chet el tajribasini o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

1997-yilda XTSK (Xalqaro ta'lism standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yetta bosqich ko'rsatilgan. 0 – mактабгача та'lism; 1 – boshlang'ich ta'lism; 2 – o'rta ta'lismning birinchi bosqichi; 3 – o'rta ta'lismning ikkinchi bosqichi; 4 – o'rta ta'lismidan keyingi ta'lism (oliy ta'lism emas); 5 – oliy ta'lismning birinchi bosqichi; 6 – oliy ta'lismning ikkinchi bosqichi – oliy ta'lismidan keyingi ta'lism.

Jahon ta'lism tizimining ko'p omilli ko'rinishga egaligi metablokli, makroregional va alohida davlatlardaga ta'lism tizimini tahlil etishga imkon beradi. Jahon ta'lism tizimining o'zaro aloqadorligi va o'zaro harakati belgilariga ko'ra regionlarni bir necha turga bo'lish mumkin:

Birinchi turga integratsion jarayon generatorlari hisoblangan regionlar kiradi. Bunday regionga eng yorqin misol sifatida G'arbiy Yevropani keltirish mumkin. Birlik g'oyasi 1990-yillardan G'arbiy Yevropa davlatlarida ta'lism islohotlarining asosiga aylandi. Birinchi turga mansub regionlarga shuningdek, AQSh va Kanada kabilarni ham kiritish mumkin. Jahonda integratsion jarayonlarning generatori sifatida yangi Osiyo-Tinchokeani regioni ham shakllanmoqda. Unga Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong, shuningdek, Malayziya, Tayland, Filippin va Indoneziya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

Ikkinchi turga integratsion jarayonlarga muvaffaqiyatli javob qaytarayotgan hududlar tegishli. Birinchi navbatda bu Lotin Amerikasi davlatlaridir. Tarixda bo'lgani singari bugungi kunda ham Lotin Amerikasiga integratsion o'choqlar zonasasi sifatida AQSh va G'arbiy Yevropa tomonidan ta'sir ko'rsatilmoqda.

Uchinchi turga ta'lism jarayoni integratsiyasiga kam e'tibor qaratayotgan regionlar kiradi. Mazkur guruhga Saxara janubidan boshlab Afrika davlatlarining katta qismi, janubiy va janubiy-

sharqiy Osiyorning qator davlatlari, Tinch va Atlantika okeani havzasidagi uncha katta bo'lmagan orol davlatlarini kiritish mumkin. Afrika davlatlarida maktab ta'liming davomiyligi minimal daraja – 4 yildan kam. Mazkur hududlarda aholining ko'pchiligi savodsiz. Masalan, janubiy Saxarada yashovchi 140 mln afrikalik savodsizligicha qolmoqda. Maktab ta'limi davomiyligining eng pastligi Nigeriyada – 2,1 yil, keyin Burkina-Fasoda – 2,4 yil, Gveniyada – 2,7 yil, Jibutida – 3,4 yil.

XX asrning oxiriga kelib qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sabablarga ko'ra ta'larning uzlusizligi va integratsion jarayonlarda og'ishlar kuzatilayotan hududlar ajratib ko'rsatildi. Bunday hududlarga arab davlatlari, Sharqiy Yevropa va Sobiq SSSR davlatlari kiradi. Arab davlatlarida ichki integratsiyaga tayanadigan to'rtta subregionni shakllantirisha intilish kuzatilmoxda. Bu hududlarga: Mag'rib (Liviya bilan birga), Yaqin Sharq (Misr, Iroq, Suriya, Livan, lordaniya), Fors ko'rfazi (Saudiya Arabiston, Quvayt, BAA, Qatar, Ummon, Baxrayn), Qizil dengiz bo'yи va Mavritaniya davlatlari.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Rivojlangan xorijiy davatlarda ta'larning mamlakat ichki siyosatiga faol tasir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligining e'tirof qilingani haqiqatdir. Shu tufayli ham rivojlangan mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Masalan, yaponlarda «maktab muvaffaqiyat va farovondlik timsoli»gina bo'lib qolmay, «u insonlarni barkamollashtiradi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risida g'amxo'rlik qilish taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Frantsiya Prezidenti F.Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb hisobiagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni ikki mingdan ortiq. Frantsiya, AQSh, Yaponiyada ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab

davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lif markazlari, masalan, AQShda xalqaro ta'lif instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga qaratilgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQShdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv jadvalining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan o'quv fanlarini tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Frantsiya va Germaniya ta'limga ham sezilarli ta'sir etayotir.

Germaniyada to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy o'quv fanlari bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Frantsiya boshlang'ich maktablarida ta'lif mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'lifi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi o'quv fanlariga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinoq Amerika ta'lifi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy o'rta ta'lif maktablarining yangi musiqa ta'lifi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqaasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda XX asrning 60–80-yillarida tabiiy-ilmiy ta'lif dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSh va Frantsiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv dasturlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Frantsiyada XX asrning 70–80-yillarda

to'liqsiz o'rta maktablar o'kuv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy-gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'kuv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi: Frantsiya maktablarida ularga 6–10 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'kuv soatlari ajratildi.

Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim ishini tabaqaqlashtirish muammolarini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'llinni tabaqaqlashtirish eng dolzARB masalaga aylangan. O'quvchilarini tabaqaqlashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, frantsuz pedagoglari ta'lim jarayonida sinf o'quvchilarini uch tabaqaqaga ajratib o'qitishni afzal ko'radilar. Bular quyidagilar:

1. Gomogenlar – matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar.

2. Yarim gomogen – tabiiy turkumdag'i fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'kuvchilar.

3. Gegeron – barcha fanlarni har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilar va hokazo.

Tabaqaqlashtirish jarayonining yangi muhim yo'nalishi to'ldiruvchi ta'limni rivojlantirish bo'lib qolmoqda.

To'ldiruvchi maktablar paydo bo'lishining sababi AQSh va G'arbiy Yevropada o'zlashtirishi past o'quvchilarining ko'payib borayotganligi, funktsional savodsizlik avj olayotganlidir.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda. AQShda bu xizmatga omnnaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan. Milliy telekompaniya maxsus o'kuv kanali orqali 130 soatlik o'kuv ko'rsatuvlari tashkil etiladi.

O'kuv jarayonlarini tabaqaqlashtirib olib borish bo'yicha chet el mamlakatlarining ko'pchiligidagi tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.

Keyingi davrlarda o'z tengdoshlariga nisbatan qobiliyatda bir necha barobor ilgarilab ketgan bolalar ko'plab topilmoqda. Ular o'qishni juda erta boshlab ta'lim kurslarini o'zlashtirishda katta

shov-shuvlarga sabab bo‘ladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Shunday iqtidorlar maktabi G‘arbda XX asrning 60-yillardayoq paydo bo‘lgan edi. Bunday maktablarning o‘quv dasturlari bolalar qobiliyatini va imkoniyatini to‘la ro‘yobga chiqarishni ta’mirlab berish darajasida murakkab tuzilgan.

Qobiliyatli bolalar bilan ishslash dasturlari AQShda keng quloch yoygan. Ayrim shaharlarda oliy toifali bolaiar bog‘chalari ochilgan bo‘lib, ularda 4–5 yoshli o‘quvchilar maktab dasturida o‘qitiladilar. AQShda «Merit» dasturi asosida har yili yuqori sinflar va kollejlardan eng qobiliyatli bolalardan 600 mingtasi tanlab olinadi. Ular o‘rtasida test sinovlari o‘tkazilib eng qobiliyatli 35 ming o‘quvchi tanlab olinadi va o‘qitiladi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, yaxshi shart-sharoitga ega bo‘lgan turarjoy, eng olyi darajadagi universitetlarga qabul va boshqalar amalga oshiriladi.

Lekin iqtidorli bolalarga qarama-qarshi qutbda turgan aqli zaif o‘quvchilarning taqdiri ham chet cllik hamkasblarni tobora tashvishlanfirmoqda, bunday holni kelib chiqish sabablarini o‘rganish, oldini olish bo‘yicha ko‘pgina profilaktik ishlar olib borilmoqda va ular uchun maxsus maktablar ochilmoqda. Lekin statistik ma’lumotlar bunday bolalar soni tobora oshib borayotganligini ko‘rsatayotir.

XX asrning 70-yillarda AQShda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o‘qituvchi buyrug‘i bilan ish tutish, ko‘proq o‘quvchilarga mustaqil ishslash imkoniyatini berishdan iborat. Ta’lim tarkibi sinfda ishslash, mustaqil mashg‘ulot, o‘qituvchi konsultatsiyasini o‘z ichiga oladi.

Germaniya maktablarida sinfda o‘quvchilar sonini qisqartirish sari yo‘l tutilgan. Bunday o‘quvchilarning har biriga individual paketlar (topshiriqlar) tarqatiladi. Toshiriqlarni o‘quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo‘lganda u o‘qituvchidan konsultatsiya oladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko‘zda tutilgan maqsadlar:

- maktablarning insonparvarlik, umuminsoniylik yo‘nalishlarini kuchaytirish;
- o‘quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali yo‘llarini qidirib topish;

- tarbiyaning yangi shakllarda – o‘quvchilar kengashi, maktab kengashlaridan, tarbiyaviy o‘yinlardan foydalanish;
- maktab o‘quv dasturlarini ixtisoslashtirish, fanlarning o‘zaro aloqasini mustahkamlash, takomillashtirish;
- maktabni mehnat, insoniy faoliyat bilan yakintashtirish, kasbga yo‘naltirish ishlarini qayta tashkil etish;
- tabaqalashtirib o‘qitishni yo‘lga ko‘yish, maxsus o‘kuv muassasalarini (ham iqtidorli, ham aqliy, jismoniy zaif o‘quvchilar uchun) rivojlantirish;
- yangi, ya’ni o‘quv texnik vositalarni ta’limdagи salmog‘ini oshirish, o‘qituvchilar uchun kompyuter ta’limini yo‘lga ko‘yish;
- pedagogik g‘oyalarni amalga oshirishda keng kamrovli tadqiqotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

AQSh ta’lim tizimi. Amerika Qo‘shma shtatlarida ta’lim tiziminining tuzilishi quyidagicha:

- 1) bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 2) 1–8- sinflargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar);
- 3) 9–12-sinflardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14–17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.
- 4) Amerika Qo‘shma Shtatlarida navbatdagи ta’lim boskichi oliy ta’lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda dorilfununlar va boshqa oliy o‘kuv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQShda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagи o‘quv yurtlari davlat, jamoa, xususiyalar tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onaiar shug‘ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan besh yoshgacha xususiy yoki davlat bog‘chalariidan foydalanish mumkin, lekin bolalar bog‘chalari kichik va bu tizim kam rivojlangan. Enaga yonlash bir xafizada 200 dollarga tushadi. Bog‘chalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak bo‘luvchi hamma jixozlar va ovqatni ota-onalarning o‘zi olib keladi. Besh yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvechi tayyorlov muassasalarida

ta'lif boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13–15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kashga yunaltirish vazifalari hal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lif turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, sayohatlar uyuştiriladi, ammo ularning hammasiga xaq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan talabalar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. Urta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-kor asoslari berib boriladi.

AQShda OO'Yulari asosiy funksiyalariga ko'ra quyidagi 6 turga tasniflanadi:

1. Tadqiqot universitetlari: I va II guruh. (3%, 125 OO'Yu), doktorlik darajasini beradi. Bu universitetlarning I va II guruhlari orasidagi farq federal moiyyaviy yordam hajmi bilan bog'liq, ya'ni II guruh OO'Yulariga nisbatan kamroq mablag' ajratiladi.

2. Doktorlik universitetlari: I va II guruh (3%, 111 OO'Yu). Ta'limning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi. I va II guruh orasida farq ilmiy darajalar soniga bog'liq: I guruh uchun 5ta yo'nalish bo'yicha 40ta doktorlik darajasi, II guruh uchun 3ta yo'nalish bo'yicha 10ta doktorlik darajasi beriladi.

3. Magistrlik o'quv muassasalari (15%, 529 OO'Yu), bakalavriat va magistrlik dasturlariga ega. Bu o'quv muassasasini ko'p tarmoqli hamda keng qamrovli universitet va kollejlardan deb atashadi. I guruh – milliy, II guruh – regional hisoblanadi.

4. Bakalavr OO'Yularining 4 yillik kollejlari – I, II guruh. (18%, 637 OO'Yu) – juda katta to'lov asosida o'qitiladigan, mamlakatning eng nufuzli universitetlari magistraturalariga kadrlar yetkazib beradigan elitar ta'lif muassasalari.

5. Ixtisoslashtirilgan OO'Yulari yoki bakalavr diplomi bilan qabul qilinadigan kasbiy maktablar (20%, 722 OO'Yu), (tibbiyot, huquqshunoslik, pedagogik, boshqaruv va h.)

6. Iikki yillik kollejlardan va institutlardan (41%, 471 OO'Yu).

Yaponiya ta'lif tizimi va uning o'ziga xosliklari. Yaponiya – juda tez rivojlanayotgan davlat bo'lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehgatsevarlik va ishbilarmonligi bilan beg'liqdirdi.

Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so'nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish – bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va xalqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda.

Yaponiya davlati 6800ga yaqin orollardan tashkil topgan bo'lib, mamlakat maydonining 99%ni asosan eng yirik 4ta orol – Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari tashkil etadi. Aholisi 127ming kishidan iborat. Aholi umrining davomiyligi millatning sog'lomligini va aholi xayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko'rsatkichdir. Yaponlar uchun oila asosiy hayotiy boylik hisoblanadi. Bu joyda ajrashish dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kam uchraydi. Yaponiya ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponiya zamonaviy ta'lim tizimining tarixi quyidagi 5ta davrga bo'linadi:

1. Asos solingan davr. 1867–1885-yillarni qamrab oladi. Zamonaviy ta'limning ilk tuzilishiga asos solingan.
2. Birlashuv (konsolidatsiya) davri. 1886–1916-yillarni o'z ichiga oladi. Turli maktab qonunlari chiqarilgan, tizimli ta'lim yaratilgan.
3. Tarqalish (ekspansiya) davri. 1917–1936-yillarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi bo'yicha favquloddagi kengash tavsiyalariga asosan rivojlantirildi.
4. Harbiy davr. 1937–1945-yillar. Militaristik ta'lim tizimi.
5. Zamonaviy davr. 1945dan hozirgi davrgacha ta'lim islohotlari.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867–1868-yillarda boshlangan Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini anglatdi.

1872-yili «Ta'lim haqida» qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirilgan. 1893-yilda kash-ta'limi yo'nalishidagi 1-kollej paydo bo'lgan. 1908-yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6 yillik qilib belgiladi. 1946-yili qabul qilingan Konstitusiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchiarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy

ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliv ta'lim tizimlariga kiruvchi oliv o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariqa qarab 3,2,1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9% – xususiy, 40,8% – davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollarini uchun onalik birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi – ularning hayotlarining maqsadlaridir.

Yapon tarbiyachilarining bolalarni kichik guruhlarga «xan»larga bo'lib o'qitishlari tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bu bolalarda qarorlar qabul qilishga, o'zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a'zolarini barchasini tashabbuskor bo'lishga o'rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o'zları boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko'radi.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagagi kamchilikni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarining bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori o'rta maktab 10,11,12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95%ni kunduzgi maktablarda o'qiydi.

Yaponiyada o'quv yili – 240, AQShda – 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o'tiladi.

Universitetlarga yuqori va o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95tasi davlat tasarrufida, 34tasi munitsipal, 31tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 3 nasar, 2-toifali universitetlarda esa 20tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tiladi.

Yaponiyada oliy ta'limgaj majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqidir. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. To'liq sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb ta'lim kollejlari.
4. Texnika institutlari.

Germaniya ta'lim tizimi. Germaniya Federativ Respublikasi 16ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo'lib, har biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Ta'lim muassasalari asosan davlat tasarrufida bo'lib, ular uchun ta'lim dasturiga tegishli bo'lgan davlat ko'rsatmalari mavjud.

Ta'limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) hukumatining konpetentsiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta'lim vazirligi ta'lim siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqadi, OO'Yularini kengaytirishga mablag' ajratadi.

GFR konstitutsiyasiga ko'ra har bir Federal Yet o'z hududidagi maktab va oliy ta'limni rejalashtirish va amaliyotga tadbiq etish bo'yicha o'zi javob berishga qaramay, burcha Federal Yerlar va Federal hukumat umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish kurslarida birlikni ta'minlash maqsadida hamkorlik qiladilar. Federal organlar va Federal Yerlarning ta'lim sohasi bo'yicha

siyosati kelishilgan: ta'limning davomiyligi, ta'tillar, o'quv dasturi, imtihonlarni o'zaro tan olish, attestatlar, maktabni tugatganligi haqida guvohnoma, diplomlar, unvonlar shular jumlasidandir.

Har bir Federal Yerda ta'lim tizimi haqida o'zining qonuni mayjud, lekin buning hammasi umumiy federal qonun asosida ishlab chiqilgan. Har bir Federal Yer maktabga qatnash vaqt, o'qish muddati va darsliklarni belgilashda mustaqildir. O'quv rejalar va ta'lim darajasi har bir Federal Yer uchun turlichadir. O'qitish dasturlari, darsliklar viloyat xukumati bosqichida tasdiqlanganadi. Har bir fan bo'yicha tegishli vazirlik tomonidan tasdiqlangan bir necha darsliklar mayjud bo'lib, o'qituvchi darslikni o'zi tanlash huquqiga ega. Shu tariqa ta'limning ko'p variantliligiga erishiladi, fikrlar plyuralizmi ta'ninlanadi.

Federal hukumatning huquqlari asosiy qonunlarni qabul qilishda, jumladan moliyalashtirish masalalarida chegaralangan. Ta'limdagi xarajatlar haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- birorta Federal Erlar davlat umumta'lim, kasbiy va oliv o'quv yurtlarida o'qish uchun pul olmaydi;
- barcha Federal erlarda o'quvchilarni uydan maktabga, maktabdan uyg'a tashuvchi avtobuslarni o'z hisobidan beradi;
- deyarli barcha o'quvchilarga davrslik va o'quv qo'llanmalarni qiymatining ozgina qismiga beradi;
- ma'lum toifadagi o'quvchilar va talabalarga mayjud federal qonunlarga ko'ra davlat moddiy yordam ko'rsatadi.

Germaniyada xususiy maktablarga ruxsat berilgan, ular orasida diniy maktablar ham bor. Bu maktablarda taxminan 8% o'quvchilar tahsil oladilar. Xususiy maktablar o'quv dasturlarini tanlashda davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi bois turli pedagogik muqobilarning aprobatasiyasi o'tkazilib turiladi.

Sekin asta differentsiyalashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishdag'i turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichiga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruhlari bo'lib, bu erlarga

bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xohishiga ko'ra ixtiyoriydir.

2. Ta'larning birinchi bosqichi. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'larning maqsadi – bolalarga ta'lim Ining ikkinchi bosqichidagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

3. Ta'lim Ining ikkinchi bosqichi (Sekundastufe I) «yo'nalishli bosqich» deb nomlanuvchi bosqichdir, unda bolalarni ularning iqtidoriga ko'ra o'quv muassasalarining kerakli turiga yo'naltiradi: asosiy maktablar, real maktablar, gimnaziyalar, kompleks maktablar. O'quvchilar ta'lim haqidagi attestatni real va asosiy maktablarni bitirgachgina olishadi.

4. Ta'lim II ning ikkinchi bosqichi (Sekundastufe II)ga gimnaziyaning yuqori sinflari, shuningdek kasbiy ta'lim va muassasalarda kasbiy ta'lim kiradi. Muassasalarda kasbiy ta'limi «dual tizimi» deb ham ataladi, unda ta'lim va ishlab chiqarishda amaliyat 2 yil davomida olib boriladi, bu o'qishni tugatish o'rma ta'limni tugatish bilan teng bo'lib, yakunida faqat kasbiy sohada o'qishni davom ettirish mumkin. Gimnaziyada 3 yil o'qib, o'quvchilar umumiy shahodatnema «yetuklik attestati» – abitur oladilar, bu ularga istagan oly o'quv yurtiga kirishga imkon beradi.

5. Ta'larning uchinchi bosqichi oliy ma'lumot haqida diplom beruvchi oly o'quv yurtlari va malaka oshirish o'quv muassasalari.

GFR ta'lim tizimi umumYevropa ta'lim tizimiga integratsiyalashgan: o'quv muassasalarining barcha turlari Yevropa Ittifoqi (ES) dasturini amalga oshirishga mo'ljallangan, EI davlatlari ta'lim standartlarini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilinadi, diplomlar bu davlatlarda kuchga ega.

Germaniya uzoq davrlardan beri fan va madaniyat markazi sifatida mashhurdir. Shiller, Gyote, Shneiger, Gumboldt, Kant, Hegel va boshqalar kabi buyuk shoirlar, yozuvchilar, filosoflar va jamoat arboblari hammaga tanish. Germaniyada o'rta asrlarda tashkil topgan 1-universitet mavjud. Eng qadimiy universitet bu Geydelberg universiteti bo'lib, 1386-yil tashkil topgan. 1388-yil tashkil topgan

Kyoln universiteti qadimiy universitetlardan sanaladi. Bu o'quv muassasaları qadimiy an'analari va klassik ta'limi bilan mashhurdir.

Hozirgi kunda universitetlar va boshqa oliv o'quv yurtlari soni sezilarli darajada ortdi, ta'lim tizimi ham o'zgardi. Avvalgiday gumanitar ta'lim an'analari muhim o'rinni egallaydi, lekin texnik ta'lim, nazariya bilan amaliyot birligi, fanlararo ta'lim ham birinchi o'ringa chiqmoqda. Oly o'quv yurtlari fan va texnikaning oxirgi yutuqlari – yo'nalishlarni aks etiruvchi dasturlarni kiritmoqdalar. Shu maqsadda o'quv rejaları qayta ko'rib chiqilmoqda.

Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar. Qiyosiy pedagogik tizim bu qiyosiy pedagogika metodologiyasi asosida pedagogikaning xalqaro, regional, milliy tajribalarini o'rganish va tatbiq qilish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik tizimni ma'lum davlat, region, aniq o'quv muassasida rivojlantirish bo'yicha qiyoslashga yo'naltirilgan dinamik pedagogik tizimdir.

Qiyoslash texnologiyasi ikkita bo'limdan iborat bo'lib, birinchisi «o'rganish va qayd qilish», ikkinchisi «tuzish va tatbiq qilish» deb nomlanadi.

«O'rganish va qayd qilish» bo'limida qiyosiy tadqiqotlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- ta'lim tizimi va uning elementlarini rivojlanish holati va yo'nalishlarini aniqlash;
- ma'lumotlarni to'plash;
- aklarni tahlil va tasnif qilish;
- qiyoslash mezonlarini tanlash.

«Tuzish va tadbiq qilish» bo'limidagi qiyosiy tadqiqotlar esa quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan obyektning prognostic modelini tuzish;
- a) tattbiq qilish shakli, metodi va chegaralari; b) xususiy va umumiylilikni aniqlash;
- eng maqbul modelni tuzish;
- ta'lim muassasalariga tatbiq etish.

Qiyosiy pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlari zamon va makon omillaridir. Zamon omili_bir xil pedagogik tizimini turli tarixiy davrlar, asrlar, yillarda taqqoslashni nazarda tutadi. Bunda

turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan pedagogik nazariyalar o'rganiladi.

Makon omili esa turli hududlarda joylashgan davlatlarning pedagogik tizimlarini taqqoslashni nazarda tutadi. Quyida makon omiliga ko'ra turli davlatlar ta'lif modelini taqqoslab ko'ramiz. Masalan:

Amerika modeli: kichik o'rta maktab → o'rta maktab → katta o'rta maktab → 2 yillik kollej → universitet tizimidagi 4 yillik kollej → magistratura → doktorantura.

Fransiya modeli: onalar maktabi → o'rta maktab → kollej → texnologik, kasbiy va umumta'lif litseyi → universitet → magistratura → doktorantura.

Germaniya modeli: umumiy muktab → real bilim yurti, gimnaziya va asosiy muktab → oliv o'quv yurti → magistratura → doktorantura.

Angliya modeli: birlashgan muktab → grammatik va zamonaviy muktab → kollej → universitet, magistratura, doktorantura.

Rossiya modeli: umumta'lif maktabi → to'liq o'rta muktab, gimnaziya va litsey-kollej → institut, universitet, akademiya → magistratura → doktorantura.

Qozog'iston modeli: to'liq umumta'lif o'rta muktab → kollej → universitet, akademiya (bakalavriat) → magistratura → doktorantura.

Demak, zamon va makon omillariga ko'ra pedagogik tizimlar modelini taqqoslashda yangi pedagogik bilimlar yuzaga keladi. Uning mazmunida quyidagilar aks etadi:

- ta'lifning zamonaviy holatini qayd etish;
- ta'lif siyosatini takomillashtirish, muqobil ta'lifi siyosatini taklif qilish;
- ta'lif jarayonlarida kutilayotgan holatlarni bashorai qilish;
- qiyosiy pedagogikaning nazariyasi va metodologiyasini boyitish.

XX asr oxirida jahon ta'lif tizimida quyidagi global tendentsiyalar ajratib ko'rsatildi:

1) ta'lif tizimini demokratlashtirishga intilish, ya'ni ta'lifning hamma uchun ochiqligi, ta'lif tizimining uzluksizligi, ta'lif muassasalariga mustaqillikning taqdim etilishi;

2) shaxsga ta'lrim olish huquqining to'liq ta'minlanishi (har bir insonga millati, irqi, kelib chiqishidan qat'iy nazar istalgan turdag'i ta'lum muassasasida ta'lum olishi);

3) ma'lumot olishga ijimoiy-iqtisodiy omillarning sezilarli ta'siri (pulli-shartnoma asosida tahcil olish);

4) xiirma-xil qiziqish va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-tashkiliy tadbirlar ko'laming ortib borishi;

5) ta'lum xizmatlari bozorining o'sishi;

6) oliv ta'lum tarmoqlarining kengayishi va talabalarning ijtimoiy tarkibining o'zgarishi;

7) ta'limga boshqarish sohasida o'ta markazlashurilgan va markazlashtirilmagan boshqaruv uyg'unligini ta'minlash;

8) rivojlangan davlatlar tomonidan ta'lum moliyalashtiriladigan asosiy obyekiga aylanishi;

9) ta'lum dasturlarini doimiy yangilash va modernizatsiyalash;

10) «o'rtacha o'zlashtirish»ga yo'nalgalikdan, har bir o'quvchining o'ziga xosliklarini ochish hamda ularning qiziqishi va qobiliyatlarini rivojlantirishga etibor qaratilishi;

11) rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalar ta'limi uchun qo'shimcha resurslarni izlab topish.

Xalqaro loyihamar va ta'lum dasturlari. Jahon ta'limi muammiyolarini hal etishda turli ta'lum tizimlari ishtiroti zaruriyatini talab etadigan yirik xalqaro dastur va loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik xalqaro loyihalarga quyidagilar kiradi:

- ERAZMUS – maqsad Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar talabalarinin mobilligini taminlash (masalan, dastur doirasida 10% talabalar Yevropa mamlakatlaridagi boshqa oliv ta'lum muasssalarda o'qishga borishlari kerak).

- LINGVA – bu dastur kichik sinflardan boshlab chet tillarni o'rganish samaradorligini oshirishga mo'ljalangan.

- EVRIKA -- ushbu loyihaning maqsadi Sharqiy Yevropa davlatlari bilan amalga ooshirilayotgan tadqiqotlarni uyg'g'unlashtirish.

- ESPRIT – yangi axborot texnologiyalarini yaratish sohasida Yevropa universitetlalariri, kompyuter firm kuch va imkoniyatlarini birlashtirishni talab etuvchi loyiha.

- EIPDAS – arab davlatlarida ta’limni rejałashtirish va boshqarishni takomillashtirish sohasiga doir dastur.
- TEMPUS – Yevropa Ittifoqining hamkor-davlatlarda olyi ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturi.
- IRIS – xotin-qizlarning kasbiy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan loyihamalar tizimi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyida keltirilgan tushunchalarni tahlil eting.

Tushunchalar	Mehiyati
Ta’lim tizimi	
Integratsiya	
Model	
Loyiha	
Xalqaro loyihamalar	

2-topshiriq. «Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’lim tizimi» mavzusidagi konseptual jadvalni to‘ldiring.

Iqtisodiy rivojlangan xorijiy davlatlar	Ta’lim tizimi			
	<i>Maktabgacha ta’lim</i>	<i>Umumiy o’rta ta’lim</i>	<i>O’rta maxsus ta’lim</i>	<i>Oliy ta’lim</i>
Amerika Qo’shma Shtatlari				
Germaniya				
Yaponiya				

III BO'LIM. PEDAGOGIK MAHORAT

I BOR. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHА, UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Tayanch tushunchalar: Pedagogik faoliyat, mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik madaniyat, pedagogik qobiliyat, insonparvarlik, kasbiy bilimdonlik.

Pedagogik mahorat – pedagogik kategoriya sifatida. «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lrim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo o‘qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Zero, o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog‘lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta‘minlovchi muhim omildir.

Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo‘lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889–1939) nomi bilan bevosita bog‘liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya’ni faqat tarbiyasini emas, ma’naviy qiyofasini ham yo‘qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo‘ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo‘lganligining o‘zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho‘qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga 1988-yil – «Makarenko yili» deb e’lon qilindi.

A.S.Makarenko bo‘lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o‘rganishi zarurligini ta‘kidlab, shunday deydi: «Tarbiyachi taslikil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasini».

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas’uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo‘lgan ilg‘or nazariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi.

Natijada 1979-yili «Pedagogik mahorat asoslari» fani yaratildi va u barcha pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogoda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdag'i masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

Pedagogik faoliyat bu mazmunini o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qilgan faoliyatdir.

Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik faoliyat bu bir tomonlama emas, balki ikkitomonlama (hamkorlikdagi) faoliyatdir. Unda ikkita faol tomon ishtirok etadi: o'qituvchi – o'quvchi (o'quvchi). Maqsad – o'quvchi, o'quvchi shaxsi, uning rivojlanishidir.

Mohir pedagog deb ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkillay oladigan, buning uchun o'quvchi psixologiyasini yaxshi bilgan, o'zida pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta'lim jarayonini zamonaliviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatları asosida samarali tashkillay oladigan va olib boradigan pedagogga ayta olamiz (shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanlari bir o'quv faniga birlashtirilgandir).

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida «pedagogik mahorat» tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

- pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (N.V.Kuzmina., N.V.Kuxarev);

- «o'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari, metodik san'ati va shaxsiy fazilatlari sintezi» (A.I.Sherbakov);

- «pedagogik faoliyatni egallanganlikning yuqori darajasi, ixtisoslikka doir bilim, ko'nikma va malakalar hamda kasbiy ahamiyatlari sifatlar majmui» (Pedagogik lug'at);

- «kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining

gumanistik yo'naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlarini va pedagogik texnikasi» (I.A.Zyazyun);

– «pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulobazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi» (I.P. Rachenko).

– pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N.N.Azizzoxaeva);

– «pedagogik mahorat – o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir» (A.Xoliqov);

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, «pedagogik mahorat» tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik mahorat – bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.


Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

– pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalashga yo'naltirilganligi;

– mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

– pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, keljakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan uqib olish);

– pedagogik madaniyat va texnikani egallash, ya’ni o’z-o’zini boshqara olish, o’zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.



5-rasm. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari

N.M.Egamberdiyevaning fikricha, pedagog shaxsining insonparvar yo’nalganligi quyidagilarda yorqin namoyon bo’ladi:

I. Ta’lim maqsadi, o’quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo’naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarash: 1) shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi; 2) shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasи emas, ta’lim tizimi maqsadi; 3) har bir o’quvchi qobiliyatli, ko’plab o’quvchilar iqtidorli; 4) shaxsning muhim sifatlari sifatida yuksak axloqiy

qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

II. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish: 1) pedagogik muhabbat, o'quvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; 2) o'quvchiga yuksak ishonch bilan qarash; 3) hamkorlik, muloqot mahorati; 4) to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish; 5) ijobiy rag'batlantirishning muhimligi; 6) o'quvchi shaxsiga ta'lim subyekti, faoliik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat; 7) o'qituvchi va o'quvchi huquqlarini tenglashtirish; o'quvchining erkin tanlashga bo'lgan huquqi tushuniladi.

III. Zamonaviy sharoitda to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan natija bermaydigan metod sifatida voz kechish. Majburlashsiz o'qitish quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik; 2) o'qitishga tug'ma qiziqishlarni ko'payganligi; 3) majburlashning o'mini muvafaqqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish; 4) o'quvchilarni crkinlik va tashabbuskorlikka qo'yib berilishi; 5) jamaa orqali bilvosita o'quvchilarning qo'llanilishi; 6) o'quvchilarga ularning subyektivligi, o'z-o'zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, madaniy tenglashuvi, hayotiy o'z o'mini belgilashiga yordam ko'rsatish, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

IV. Individual yondashuvni yangicha talqin etish: 1) «o'quv fanidan o'quvchiga qarab borish emas, o'quvchidan o'quv faniga borish» tamoyilining bajarilishi; 2) o'quvchilarning qobiliyatlarini va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitish; 3) o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchiga yo'nalganlikdan voz kechish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash; 4) shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyallari, yo'nalganligi, Men-qontseptsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining o'ziga xosligi)ning qo'llanilishi; 5) shaxsning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'ziga xosliklarini hisobga olish.

V. Ijobiy ma'nodagi «Men-kontseptsiyasi»ni shakllantirish: 1) pedagogik muloqotning o'quvchilarda o'ziga ijobiy munosabatni rivojlantirishning yo'nalganligi; 2) hayotiy faoliyatning ijobiy yo'l-yo'riq va motivlarini shakllantirish.

Pedagogik mahorat o‘z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o‘qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasra, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatalishdan nariga o‘tmaydi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me’yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobililik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnomma tushuniladi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik deganda esa, pedagogik voqeqlikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. N.Azizzxo‘jayeva takidlab o‘tganidek, bu xislat pedagogik jarayon mantig‘ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko‘ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatları va yo‘nalishlarini tushunish imkoniyatini ta‘minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruktsiyalashni osonlashtiradi.

Pedagogik qobiliyatlar – ta‘lim-tarbiyaviy maqsadlar va o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo‘llay olishdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda uch katta guruhga bo‘lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: 1) ta‘lim oluvchilarga ijobiy yo‘nalganlik – ta‘lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do‘stona munosabat, xayriyohlik; 2) vazminlik, o‘z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o‘qituvchi zaruriy tarzda o‘z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg‘u, g‘azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak; 3) o‘z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o‘qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro‘y bergen bo‘lsa ham o‘zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlar sifatida quyidagi larni keltirib o'tish mumkin: 1) tushuntirish qobiliyat - o'rganilayotgan materialni ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib yetkazish, buning uchun o'qituvchi ta'lim oluvchilar uchun yangi bo'lgan materialni «ularning ko'zlar bilan ko'ra bilishi kerak»; akademik qobiliyat - o'z fanini, sohasini chuqur bilishi, umumiy va ilmiy dunyoqarashning kengligi; nutq qobiliyat - o'z fikrlari, histuyg'ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o'rinni foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, yetkazayotgan ma'lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni «og'irlashtiruvchi» tuzilmalardan foydalanmaslik, qo'llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi: tashkilotchilik qobiliyat - o'quvchilar jamoasini tashkillay olish va o'z faoliyatini tashkillay olish; rejalashtirish, nazorat qilish; kommunikativ qobiliyat - o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda muloqotni to'g'ri tashkillash; pedagogik kuzatuvchanlik - o'quvchining ko'rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik; pedagogik takt - ta'lim oluvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishda aniq vaziyatdan, ta'lim oluvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik; suggestiv qobiliyat - ta'lim oluvchiga emotsiyonal-irodaviy ta'sir o'tkazish, talab qo'yish va talabning bajarilishini qat'iy nazorat qilish (bir tomondan qo'rqtishsiz, qistovsiz - boshqa tomondan bo'shlik qilmasdan); pedagogik prognoz - o'z harakatlari natijasini, shaxsida bo'lib o'tadigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish; diqqatni to'g'ri taqsimlay olish - bir paytning o'zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o'z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, ta'lim oluvchilar jamoasi hulqini nazorat qilib turish.

Pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsuldar sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nonni bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir

necha xil ta'riflari mavjud. Biroq barcha ta'riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy yetuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tadbiq etilishini ta'minlovchi, o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir.

Pedagogik madaniyatning musassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha olib berilgan: «Pedagogik madaniyat – bu umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiy lashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyallar aks etgan».

O'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- 1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg'usining mavjudligi;
- 2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, tafabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyanoblilik, xolislik;
- 3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

- 4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'pqirraligi, yoqtirgan ijodiy istuning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyatini.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldidi,

davlat oldida javob beradigan, ta'lif-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lif-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sınıf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lif va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. A.Xoliqov tomonidan e'tirof etilganidek, o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy g'oyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o'qitish aks etadi. Tarbiyaviy ish – bu tarbiyaning tizimliliği, to'laligi, uzviyligi va uzlusizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muaiyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati – zaruriylik, foydalilik va tabbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko'rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinci majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan tabiiy «ko'shib» ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o'ziga axlokiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni kamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv – uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy

maqsadning asosiy va bog'liq tomontarini shakllantirish)ni; rsjalarashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bsvosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakatidir. O'rgatish – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyatini aks ettirsa, o'rganish anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallah jarayoni bo'lib, avval egallanganlari o'zgaradi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: konstruktiv, tashkilotchilikka doir va kommunikativ. Konstruktiv faoliyat mazmunli (o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv operativ (o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish); konstruktiv-moddiy (pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini loyihalash) jihatlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotchilik faoliyat – o'quvchilarни faoliyatning xilma-xil turiliga jalb etish. Kommunikativ faoliyat – pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alchida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi. ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'igan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-onal, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir

vaqtning o‘zida jamiki ta’sirlarga va o‘quvchilarning o‘zida paydo bo‘lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘ybogga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta’kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (ta’lim-tarbiya) jarayonda o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o‘z faoliyatini mantiqan o‘quvchilar chtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga xosligi o‘qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to‘la anglab, o‘z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o‘sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;

- o‘quvchilar qiziqishlarini e’tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish;

O‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta’sir ko‘rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o‘zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lif-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lif-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini urutmaslik lozim.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogik mahorat nima?
2. Pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari qanday bo'ladi?
3. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?
4. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
5. O'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
6. Pedagogik mahoratning qanday tarkibiy qismlari mavjud?

II BOB. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

Tayanch tushunchalar: qobiliyat, iqtidor, iste'dod, pedagogik qobiliyat, umumi qobiliyat, maxsus qobiliyat, shaxsiy sifatlar, kasbiy sifatlar

Qobiliyatning psixologik tavsifi. Qobiliyat – odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkonini oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi, hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarish imkonini aslo yo'q emas.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaalar nati-jasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumi va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir.

Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ldi. Faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida yuzaga chiqadigan farqlar qobiliyatlar to'g'risida mulohaza yuritish imkonini beradi.

Demak, shaxsniig faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati qobiliyatlar deyiladi. Ushbu

xususiyatni aniqlash uchun ba'zi bir omillarni tahlil qilish maqsadga muvofik; a) shaxsnинг muayyan sifatlari yig'indisi belgilangan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bera olmasa-psixologik sifatlar, ya'ni qobiliyatlar mavjud emasdir (juda zaifdir). Lekin xususiyatli shaxs ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi, degan ma'no anglatmaydi, biroq ularni egallah vaqti cho'zilib ketadi, xolos.

Shunday qilib, qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan birga: a) ularni shaxslarning mavjud boshqa xususiyatlariga, aqliy sifatlarga, xotira xislatlarga xarakter fazilatlariiga, hissiy kechinmalariga va boshqalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas; b) shuningdek, qobiliyatlarini shaxsnинг mazkur xususiyatlari bilan qatorga qo'yish, ularni ayniylashtirish ham nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, mulohaza bildirilgan sifatlardan ba'zi biri yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bera olsa yoki ularning ta'siriда vujudga kelsa, u holda shaxsnинг mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb atash imkoniyati tug'iladi.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki, qobiliyatni biz «har bir insonning o'ziga xos psixologik hususiyatlari» deb aniqlashtirdik, shuning uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo-fiziologik hususiyatlar, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo'ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek hamda qobiliyat o'zining to'la rivojiga etib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash asle mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak.

Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshishini nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida

paydo bo'lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo'li bilan biz ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo'llaniladi, degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go'dakda absolyut eshitish qobiliyati, tovush balandligini bilish dunyoga kelishidan oldin mavjud bo'lmaydi. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste'dod nishonasi mavjud bo'lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidadir.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham bir tekisda kechmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlilikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning turli bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan paydo bo'lib qolmaydi.

Qibiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat ta'labi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdag'i faoliyatlar uchun o'ziga hostarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) matematik qobiliyat: matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish – amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rmatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan o'tishlik, masala echishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat; nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolet, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qibiliyatlar tarkibidan ko'tinib turibdiki, matematik va adabiy qibiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstrukturlik, tibbiy qibiliyatlar va shunga o'xshash qibiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Rus olimi I.P.Pavlov o‘z ta’limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o‘rta» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uehta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliv nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal sistemasidan iboratligi to‘g‘risidagi ta’limotiga asoslanadi. Birinchi signallar sistemasi obrazlar emotsiyalardan va ikkinchi sigiallar sistemasi esa obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signallar sistemasi I. P. Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi. Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

1) shaxs psixik faoliyatida birinchi signallar sistemasining signallari nisbatan ustunlik qilsa, bu inson «badiiy» tipga taalluqlidir;

2) mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo‘lsa-bu shaxs «fikrlovchi tipga» munosibdir;

3) agarida har ikkala signallar aralashib ketgan bo‘lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) – bu inson «o‘rta tipga» mansub odamdir.

4) Tipologiyaning o‘ziga xos tomonlari qisqacha ifodalanganda yoki tavsif qilinganida quyidagilar namoyon bo‘ladi:

1. «Badiiy tip» uchun bevosita u taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok, his-tuyg‘ular (emotsiyalar) natijasida vujudga keldigian obrazlarning yorqinliga xosdir.

2. «Fikrlovchi tip» uchun mavhumlarning, mantiqiy tizilmalarning, nazariy mulohazalarning, metodologik muammolarning ustunligi muvofigidir.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to‘plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko‘rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o‘qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tablil qilishimiz mungkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikasiyalaydi va o‘qituvchini o‘qibiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfdagi ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.

2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyat: Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyat. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O'qituvchining o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyat, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtini harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat. Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyat. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushunishi va his qilish qobiliyat, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr-mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlari orasida ma'lum turkumi yetakchilik, ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida yetakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga o'quvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (ko'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarning yetakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hainkorlik, individual faoliyatini tashkillashtiradi. Qobiliyatlardan muayyan darajada

umumiylar va torroq ma'noda maxsus sifatlarni ajratish orqali ma'lum turkum tizimini yuzaga keltirish mumkin. Bundan keilib chiqqan holda qobiliyatlar umumiylar va maxsus qibiliyatlar guruhiiga ajratish maqsadga muvofiq. Umumiylar qibiliyatlar (sifatlardan) maxsus qibiliyatlarga (sifatlarga) zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsnинг umumiylar qibiliyatlarini hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qibiliyatlar ko'lam jihatdan torrok bo'lishiga qaramay, chiqurroq inohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi.

Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishi. Pedagogik qobiliyat – bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi.

Pedagogik psixologiyada o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qibiliyatlarning tutgan o'rnni ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib borilgan.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli beniboya muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'laming ortishiga bevosita bog'liq.

XX asning 70-80-yillarda o'qituvchining xarakter-xislatlari, pedagogik qibiliyatlar, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chiqur o'r ganildi. Jumladan, rus olimasi N.V.Kuzmina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qibiliyatlarning o'rni va uiarni tarkib toptirishga oid qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan. U o'z tadqiqotlarida pedagogik qibiliyatlarini gnostik (bilishga oid), proyektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan), konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ turlarga ajratib, ularning har biriga chiqur psixologik ta'rif beradi. N.V.Kuzmina pedagogik qibiliyatning muhim alomatlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham

kiritadi, o'qituvchining bu hislati o'quvchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat – bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo qiladi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismidan iborat ekanligini ta'kidlaydi: 1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat; 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi; 3) yuksak axloqiy hislarning mavjudligi; 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faoliyk va barqaror mustaqililik; 5) qat'iy va siqliq xarakter; 6) pedagogik qibiliyatlar.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qibiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi: 1) didaktik qibiliyatlar; 2) akademik qibiliyatlar; 3) pertseptiv qibiliyatlar; 4) nutq qibiliyatları; 5) tashkilotchilik qobiliyati; 6) avtoritar qibiliyatlar; 7) kommunikativ qibiliyatlar; 8) pedagogik xayolot; 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qibiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi. Ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qibiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan pedagogning maxsus pedagogik qibiliyatlarni egallaganligiga bog'liq: T.I.Gavakov pedagogik qibiliyatlarni quyidagi tarzda guruholashtirishni taklif etadi: obyekt(ta'lim oluvchilar)ni his eta olish; kommunikativ (kishilar bilan aloqa o'rnatish, samimiylik, muloqotchanlik); pertseptiv (kasbiy etuklik, empatiya, pedagogik intuitsiya); shaxs dinamizmi (irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyati); emotSIONAL barqarorlik (o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati); kreativ (ijodiy ishga qobiliyatlilik).

Maxsus qibiliyatlar ham o'qituvchining o'rgatuvchilik, ham tarbiyaviy ishiga taaaaluqlidir. O'qituvchining o'qitish, o'qish va o'rgatishga doir qibiliyatlariga quyidagi larni kiritish mumkin: o'rganiladiganlarini ko'ra olish va his eta olish qobiliyati; o'quv

materialini mustaqil tanlay olish, ta'limning samarali metodlari va maqbul vositalarini aniqlay olish; o'quv materialini tushunarli bayon eta olish, uning barcha ta'lim oluvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash; ta'lim oluvchilarning individualigini hisobga olish bilan bog'liqlikda o'qitish jarayonini tashkil eta olish qobiliyati; o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalana olish qobiliyati; ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishini tashkil etish qobiliyati; o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati; o'zining shaxsiy tajribasini boshqalarga uzatish qobiliyati; mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatililik.

Tarbiyaviy ishni tashkil etish bilan bog'liq pedagogik qobiliyatlar quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi: boshqa kishilarning ichki his-tuyg'ularini to'g'ri baholay olish, boshqalar haqida qayg'ura olish qobiliyati (empatiyaga qobiliyatililik); taqlid uchun namuna bo'lishga qobiliyatilik; tarbiyaviy jarayonda individual o'ziga xosliklarini hisobga olishga qobiliyatilik; rag'bat va o'zaro bir-birini tushunish, muloqotni zarur uslubini tanlay olishga qobiliyatilik; o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tarbiyalanuvchilar orasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

1) tashkilotchilik – ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;

2) diagnostik – o'quv materialini tanlay olish, o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o'quvchilarning bilihga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'ballash, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyathlik;

3) pertseptiv – ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholash, psixikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlay olish ko'nikmasi;

4) kommunikativ – ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'mata olish ko'nikmasi;

5) suggestiv (suggestiya – ishontirish) – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatish;

6) tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda obyektiv baholay olish ko'nikmasi;

7) ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;

8) gnostik – obyekt, jarayonni va o'z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalay olish qibiliyati.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrflashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan holatlarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagini alomatlar, uncha katta bo'limagan tashqi belgilar asosida o'quvchi ruhiyatidagi ko'z ilg'amasi o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat – ixcham, ma'neli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi, qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan

bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – sinf-guruh yoki jamoani uyuştirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalg qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyuştirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyuştirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati – o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql-farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi – avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazo), shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham yetkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyatlar – muomala va muloqot o'mata olish, bolalarga aralashish qobiliyati, o'quvchilarga to'g'ri yondashish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'mata bilish, pedagogik nazokatning mayjudligi.

8. Psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar – insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiyot etishini oldindan aytib bera olishda ifodalananadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati – bir necha obyektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. O'quvchi, o'qituvchi

uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, uning kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishining taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o‘z fikrini (yoki o‘quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o‘quvchilarini o‘z diqqat-e’tiborida tutadi, toliqish, e’tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o‘z shaxsiy xatti-harakatlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish-turishini) ham kuzatib boradi.

10. Konstruktiv qobiliyat – o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o‘quvchi shaxsining rivojini loyihalashga, o‘quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o‘quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarni har temonlama o‘rganish qobiliyatlari shaxsning aql-idroki, his-tuyg‘usi va iroda sifatlarining namoyon bo‘lishidan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Pedagogik qobiliyatlari umumi qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog‘langan. Ular o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini (talabalarni) ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta’lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Pedagogik qobiliyatlari o‘qituvchi xarakter-xislatlari bilan bog‘liq. Uyushqoqlik, qat’iylik, haqqoniylig pedagogik faoliyat darajasining ortishiga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko‘ngilchanlik,adolatsizlik pedagog faoliyat samarasini pasaytiradi.

Har bir o‘qituvchi o‘ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo‘ladи. Ulardan ba’zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba’zilari qattiqqa’iroq, boshqalari yumshoqroq bo‘ladilar. Bu xususiyatlari yaxshi, ulardan oqilonha foydalanishni bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bundan o‘qituvchiga his-tuyg‘ular, emotsiyalar yot bo‘lishi kerak, degan ma’no kelib chiqmaydi,

aksincha u quvonishi ham, g‘azablanishi ham, qayg‘uga tushishi ham, xafa bo‘lishi ham mungkin va lozim. Shu o‘rinda rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikrlarini yana takror keltirish o‘rinlidir: «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo‘lishni bilishi lozim, u o‘zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin». Bu yerda gap o‘qituvchining qandaydir bir andozadagi (qolipdagi) shaxsga barovarlashtirish zarurligi to‘g‘risida emas, balki uning o‘z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o‘zida shaxsning zarur xislatlarini tarkib toptirishi, o‘z kamchiliklariga barham berishi to‘g‘risida boradi.

O‘qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari tizimi. O‘qituvchiilik faoliyati «Inson-inson» kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e’tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga egalik, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e’tiborli bo‘lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo‘nalgan bo‘lishi, hissiy javobgarlikka ega bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

M.G.Davletshinning fikricha, pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnomasi)da bo‘lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

- shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);
- kasbga xos bilimlarga egalik (ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va boshqalar);
- o‘z kasbiga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e’tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivoanganligi, pedagogik takt va hakovolar);

– shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg‘ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o‘quvchilarining bilish faoliyatini boshqara olish, o‘quv maqsadlarini rejalashtira olish va boshqalar);

– muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o‘ziga alb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish,

bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilish va hakozolar);

– gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti daraasini aniqlay olish, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natialarini tanqidiy tahlil qila olishi va boshqalar);

– ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyatni va hakozolar).

E.M.Ivanov kasbiy faoliyatga individ va mehnat jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zaro harakati usuli sifatida qaraydi. B.G.Ananев, K.K.Platonov va M.O.Ochilovlar kasbiy faoliyatda individ va xodim shaxsini shakllantirishga ta'sir etishda o'zaroaloqadorlikning mayjudligini qayd etib o'tishadi.

V.A.Slastyonin, S.B.Elkanov, A.J.Ajibaevalar «pedagoglik kasb tarbiyası» tushunchasini quyidagicha izohlashadi: «Natijasi bo'lajak pedagog tomonidan kasbiy qadriyatlarni va ideallarni egallah, uning ma'naviy ehtiyojlarini va qiziqishlarini, ijtimoiy qimmatga ega motivlarni kengaytirish, hissiy, axloqiy va estetik tuyg'ularni, empatik qobiliyatlarni boyitish, amaliy pedagogik ko'nikma, malaka, odatlarni, o'z-o'zini refleksiya qilish tajribasini egallah kabi shaxs xususiyatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan tadrijiy dialektik harakatdir».

Pedagogik mutaxassislik – mazkur kasb doirasidagi, ta'limga natijasida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini tavsif etuvchi, hamda ularning qo'yilishi va o'zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta'minlovechi faoliyat turi.

Pedagogik mutaxassislik – pedagogik ixtisos doirasidagi muayyan faoliyat turi. U aniq mehnat predmeti va mutaxassisning aniq funksiyasi bilan bog'liq.

Pedagogik malaka – mutaxassisning ma'lum turdagji vazifani hal etishdagi imkoniyatlarini ifodalovchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko'rinishi.

Kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismilarni o'zida uyg'unlashtiradi. I.P.Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, N.M. Egamberdieva pedagogik ta'limga kasbiy etukliki (professionallashuv),

ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo‘nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi:

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;
- kasbiy chuqur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo‘naltirilganlik;
- ijtimoiy faoliik.

Istalgan kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki, istalgan faoliyat belgilangan sifatlar to‘plamini talab etadi. A.V.Karpovning fikricha, kasbiy zaruriy sifat – bu uni belgilangan me’yor darajasida amalga oshirish uchun yetarli va zarur faoliyat subyektining individual xususiyatidir. Uning ta’kidlashicha, kasb vazifasida faqatgina shaxsiy psixik emas, balki psixikadan tashqari – somatik, biologik, morfologik, tipologik, neyrodinamik xususiyatlar ham yuzaga chiqishi mumkin. Bundan tashqari olim kasbiy etuklikning tuzilishini ifoda etuvchi individual sifatlar guruhini ham belgilab beradi:

- absolyut kasbiy zaruriy sifatlar – o‘rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat;
- o‘zida faoliyatning yuqori va sifat ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlar;
- u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik;
- anti kasbiy zaruriy sifatlar – ularning rivojlanishining minimal darajasini taklif etuvechi yoki biror va shunga o‘xshash faoliyatda qarama-qarshi ko‘rsatkich sifatida yuzaga chiquvchi xususiyatlar.

N.M.Egamberdievaning fikricha esa, o‘qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatlari shaxs sifatlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi:

1) shaxsga yo‘nalganlik: e’tiqod, ijtimoiy faoliik, fuqarolik his-tuyg‘usining mavjudligi;

2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoavyiylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylilik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, olyjanobllilik, xolislik;

3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni bayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faoliyk, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyatini.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chiqqan holda, pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlarini quyidagi turkumlash mumkin:

Pedagogning kasbiy zaruriy sifatlari: mchnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadni aniq belgilay olish, unga erishish yo'llarini tanlay olish, tashkilotchilik, qat'iyatlilik,adolatlilik, mahorat, pedagogik takti, talabchanlik, ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallash, o'z mehnati samaradorligini muntazam oshirib borish va boshqalar.

Pedagogning shaxsiy sifatlari: insoniylik, samimiylilik, mehribonlik, sabr-chidamlilik, tartiblilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, javobgarlik, burchga sadoqat, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, iltifotlilik, qalban g'amxo'rlik ko'rsatish va boshqalar.

O'qituvchining kasbiy bilimlari darajasi. O'qituvchining pedagogik qobiliyati tizimida kasbiy biiimlar asosida shakilanadigan qoida va tamoyillarning anglanishi muhim ahamiyati ega. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, o'qituvchining kasbiy bilimlari darajasini quyidagi tarzda turkumlash mumkin: 1) metodologik – umumifalsafiy doirada rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlar, tarbiya maqsadining shartlanganligi va boshqalar; 2) nazariy – pedagogika va psixologiyaning qonunlari, tamoyillari va qoidalari hamda faoliyatning asosiy shakllari; 3) metodik – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish darajasi; 4) texnologik – aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish darajasi; 5) kasbiy fikrlash – pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish va umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish qobiliyati; tanqidiy fikrlash – biror

bir harakatga doir qaror qabul qilishda ratsional, refleksiv fikrash; aqlning tanqidiyligi – bu insonning o‘zining va boshqa fikrlarni obyektiv baholay olish, ilgari surilayotgan fikr va g‘oyalarni har tomonlama va chuqur tahlil etish ko‘nikmasi; ijtimoiy etuklik – jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyat, me’yor, ustyanovka, xulq-atvor namunalarini egallaganlikning yuqori darajasi; faoliyat strategiyasi – istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish mahorati; kasbiy salohiyati – belgilangan darajada o‘zining majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini aniqlab beruvchi tabiiy va o‘zlashtirilgan sifatlar yig‘indisi.

S.A.Madyarova pedagogning kasbiy salohiyatining tuzilishini quyidagi tarzda turkumlashni taklif etgan (1-jadval).

1-jadval

Pedagog kasbiy salohiyatining tuzilishi

Kasbiy tayyorgarlik	Pedagogik ijodkorlik	Kasbiy yetuklik	Pedagogik madaniyat
- kasbiy yo‘nalganlik	- pedagogik intellekt	- innovatsion faoliyat	- pedagogik fikrash uslubi;
- kasbiy shakllanish	- kasbiy kompetentlik	- insonparvar yo‘nalganiik	- pedagogik texnika;
- kasbiy ixtisoslik	- faoliyatning individual uslubi	- kasbiy rivojlanish;	- muloqot mahorati;
- pedagogik faoliyatga tayyorlik	- mehnatga ijodiy munosabat	- kasbiy pozitsiya;	- maxsus faollik;
- kasbiy orien-tatsiya	- ijodiy tashabbuskorlikning rivojlanishi.	- kasbiy faollik.	- metodik mahorat.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Qobiliyat» tushunchasiga ta’rif bering.
2. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik qobiliyat qanday tuzilishga ega?
4. Pedagogning kasbiy bilimlar darajasining tuzilishini bayon eting.
5. Pedagogning kasbiy va shaxsiy fazilatlariga nimalar kiradi?
6. Pedagogik salohiyatning tarkibiy qismlarini sanab bering.
7. Innovatsion salohiyat deganda nimani tushunasiz?
8. Innovatsion salohiyatning tuzilishini bayon eting.
9. Pedagogik mahorat tiziimida akmeologik qobiliyatlar qanday ahamiyatga ega?
10. Autopsixologik kompetentlik nuqtai nazaridan kreativ qobiliyatlarga nimalarni kiritish mumkin?

III BOB. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

Tayanch tushunchalar: muloqot, aloqa o'rnatish, muomala uslublari, yuzni o'qish san'ati, pedagogik ta'sir ko'rsatish, ishontirish, ma'qullah, pedagogik nizo, kommunikatsiya.

Kommunikativ qobiliyat va uning tuzilishi. Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdır. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo'lmeq'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'tnata oladigan muomala va munosabatlariga bog'liq.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishiga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatlichkeitdir.

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarining bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini «o'qish» ko'nikmasi) 2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ke'nikmasi (muavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajarata olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

Tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o'z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsa-hodisalarning alohida tarkibiy

qismlarga ajratish qonuniyat va usullarini o'zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi. O.O.Kamenkoning fikricha, o'z-o'zini tahlil etish falsafa va psixologiyada o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatalmaydi. Biroq o'z-o'zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o'z-o'zini tahlil etish asosida amalga oshishini esda tutish zarur. Chunki aynan pedagogik voqelikda o'z-o'zini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularaing o'zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan «Men-kontseptsiyasi»ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiylaridan biridir.

O'z-o'zini tahlil etish usullari quyidagilarga e'tibor qaratishni talab etadi:

1) ijtimoiylikka yo'naltirilgan o'zaroharakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o'ziga xosliklari, qadriyatları tizimi kabilarni obyekt sifatida ko'rib chiqish;

2) o'z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;

3) noma'lumdan ma'lumni ajratib olish;

4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O'z-o'zini tahlil etish o'z-o'zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko'rinishga o'tadi. O'z-o'zini anglash natijasida shaxsda o'zining kimligini anglash, o'zining jamiyatdagi o'rnini tushunib etish, boshqalarning ko'z o'ngida kim sifatida gavdalananishini his etish kabilar shakllanadi. O'z-o'zini anglash o'z-o'ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumki, o'z-o'zini anglash usullari ham mantiqiy, ham emotsional darajada o'z-o'zini tahlil etish natijasida olingan axborotlarni aniqlashtirish va umumlashtirishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'z-o'zini tahlil etish va o'z-o'zini anglash pedagogda o'zi va boshqalarning u haqidagi tasavvuri sifatidagi kasbiy «Men qiyofasi»ning shakllanishiga olib keladi.

Pedagogik (kommunikativ) ta'sir ko'rsatish metodlari. Ta'lif va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta'lif va tarbiya jarayonida o'qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. O'qivchining u yoki bu xatti-harakati o'qituvchi nazoratida bo'lib, ijobjiy jihatlari rag'batlantirib boriladi yoki aksincha nojo'ya xatti-harakati to'xtatib qo'yiladi.

Istiqbol – ta'sirchan pedagogik usul bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma'lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo'ladi. Ushbu usul maktab o'quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag'batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta'sirning eng an'anaviy usuli bo'lib, o'quvchilar xulq-atvoriga ijobjiy ta'sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so'zsiz bajarilishi uchun o'quvchi rag'batlantiriladi. Nomaqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o'z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi, uni qo'llash jarayonida o'qituvchidan nihoyatda ehtiyojkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim usuli bo'li, o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag'batlantirib borishda namoyon bo'ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma'lum bir yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bir-birlariga do'stona munosabatini shakllantiradi.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o'rGANISH pedagogik ta'sir etishda ikki metod: ishontirish va uqtirishdan keng foydalanish lozimligini ko'rsatadi.

Ishontirish – o'quvchilarga xatti-harakatlarning to'g'riligi va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorigarning noto'g'riligini tushuntirish va isbotlashdir. Ishontirish jarayonida o'quvchilarda

yangi bilim, ko'nikma, maiaka hamda axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular esa o'quvchilar va ularning atrofidagilar uchun me'yor (mezon) bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining har qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, oqibat natijada o'quvchi ruhiyatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatishga, ya'ni o'quvchilarda ijobjiy hissiyotlarni: xulq-atvor, munosabatlari, xatti-harakatlarni shakllantirish va mustahkamlashga yo'nalgan bo'ladi. Lekin ishontirish va uqtirishning texnologik mexanizmlari turlichadir.

O'sib borayotgan yoshlar ijtimoiy muhit va tabiat bilan ham o'zaro ta'sirlanadilar. Bu o'zaro ta'sir natijasida ularda ishonch, yangi bilimlar va munosabatlari, axloqiy me'yorlar majmui vujudga keladi.

Ishontirish haqiqiy va soxta bo'lishi mumkin. Haqiqiy ishonch real voqelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi. O'zining haqiqiy ishonchiga sodiq bo'lishi uchun kishi hatto o'limiga ham rozi bo'ladi. Masalan, Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalangan askarlarimizning jang maydonida ko'rsatgan matonatlari.

Soxta ishonch esa, avvalo sinf jamoasi, qolaversa, jamiyat uchun zararli bo'lган odatlarning shakllanishiga olib keladi. Soxta ishonch o'quvchilarning o'zi va atrofidagilar ta'sirining umumlashuv natijasida vujudga keladi.

Ayrim o'quvchilarda soxta ishonch hosil bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1) faqat a'lo bahoga o'qish – bu bilim olishda ko'r-ko'ronalik, quruq yodlashga olib boradi;

2) o'zini o'ta itoatkorona tutish – bu o'quvchi faoliyatini nihoyatda past bo'lishiga olib keladi. Me'yordagi o'quvchi o'qituvchidan ba'zan tanbeh olib turishi kerak;

3) o'qituvchini aldash-bu o'quvchini o'ta aqlii va topqirligidan dalolat beradi;

4) maktab ichki tartib-qoidasini buzish faqat kuchli xarakterga ega bo'lган o'quvchigagina xos bo'lib, u o'qituvchi tomonidan tanqid qilib turiladi;

5) haddan tashqari ko‘p mehnat qilish – bu kerak bo‘lmagan tirishqoqlikdir.

Yuqorida keltirilgan ishonchning bunday turi o‘quvchida shakllanib, asta-sekin boqimandalik, o‘qish va mehnat faoliyatida sustkashlik kayfiyatini sodir qiladi.

Soxta ishonchni bartaraf qilish uchun o‘qituvchi quyidagi uch yo‘nalishda ish olib borishi kerak:

1. Sinf jamoasida sog‘lom ijtimoiy fikrni shakllantirish.
2. Muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy hayotiy tajriba yaratish.
3. Soxta ishonchni asosiy tarzda inkor qilish.

Soxta ishonchni o‘zgartirishning quyidagi usullari mavjud:

1) o‘quvchini o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga undash. Uning fikriga qarama-qarshi fikrda bo‘lgan kishi bilan yaqindan tanishish (masalan, bola o‘qishni xohlamaydi, lekin uning tanish o‘rtog‘i ko‘p o‘qiydi va biladi, ammo o‘zining «quruq yodlovchi» yoki «o‘ta bilimdon» qilib ko‘rsatmaydi);

2) noto‘g‘ri qarashlar va ishonch oqibatda nimalarga olib kelishini ko‘rsatish (masalan, ana shunday xislatlarga ega bo‘lib, o‘z hayotini barbod qilgan, o‘z erki, g‘ururi va vijdonini yo‘qotgan kishilar haqida so‘zlab berish. Buning uchun hayotiy misollar, badiiy asarlar, kinofilmalar va boshqalardan foydalanish mumkin);

3) soxta ishonchni yoqlab, himoya qiluvchi o‘quvchi fikrini mantiqiy rivojlantirib, uni hayratga soluvchi holatga yetkazish. Masalan, barcha o‘quvchilar o‘qituvchilarni aldash, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmaslik nimalarga olib borishi mumkin).

Ishontirishning biron tashkil etuvchisiga amal qilmaslik ham tarbiyaviy ish samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday holatda o‘quvchida faqat bilish shakllangan xolos. Inson o‘zini qanday tutishi lozimligini bilishi, aynan shunday tutishi lozimligini tushunishi, lekin o‘zini bunga majbur qilolmasligi mumkin.

Demak, bu uning irodaviy sifatlari rivojlanmaganligini, xulq-atvor qoidalariiga amal qilish malakasi tarkib topmaganligini anglatadi.

Ishontirish bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me’yorlari tizimi bo‘lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish

yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto'g'ri fikrlar o'zgaradi.

Munozara, tortishuv, suhbat, o'qituvchi hikoyasi va uning shaxsiy ibrat namunasi ishontirish shakllari bo'lib hisoblanadi. Ishontirish o'quvchilarga ta'sir etish metodi sifatida yuqori samara berishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) ishontirishning shakli va mazmuni, o'quvchilar yosh davriga mos bo'lishi lozim (kichik maktab yoshida ertak, rivoyat va fantastik hikoyalari misolida, so'ngra esa borliq dunyoni o'rganish inson ma'naviy dunyosini o'rganish);

2) ishontirish o'quvchilarning individual xususiyatlariiga mos bo'lishi lozim. Buning uchun o'quvchining haqiqiy hayot tarzini o'rganish zarur;

3) ishontirish umumiy tarzdagi qoida va prinsiplardan tashqari aniq dalil va misollarni ham o'z ichiga olishi zarur (o'qitishdan ko'rgazmalilikka e'tibor berish);

4) ishontirish jarayonida ba'zi holatlarda barcha bir xil xabardor bo'lgan dalil va xulq-atvorni muhokama qilishga to'g'ri keladi. Bu, o'z navbatida dalilning haqqoniyligi to'g'risidagi ikkilanishlarni yo'qqa chiqarishga va umumiy to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi;

5) boshqalarni ishontirar ekan, o'qituvchi o'z fikriga qat'iy ishonishi zarur.

Ishontirish jarayonini tashkil etishda o'quvchi ruhiy qiyofasining o'ziga xosligini e'tiborga olish lozim. Buning uchun pedagog o'quvchi oliy asab tizimining tipini, uning ta'lim-tarbiya va kamolotining rivojlanish doirasini bilishi zarur. Masalan: bola kuchli muvozanatlashgan (sangvinik) asab tizimi tipiga ega bo'lsin. Unda tormozlanish jarayoniga nisbatan qo'zg'alish jarayoni kuchliroq bo'ladi. Bu holda o'qituvchi ishontirish jarayonini o'quvchi asab tizimini ortiqcha qo'zg'alishiga yo'l qo'ymaydigan, qo'shimcha hissiyot sodir qilmaydigan tarzda olib borishi kerak.

Fikr, sezgi va irodaviy xislatlar bir butun yaxlitlikni tashkil etgandagina, ishontirish metodi haqiqiy harakatlantiruchi kuchga aylanishi mumkin. Bu metodni qo'llashda ishontirish tarkibi bilish, sezgi, hissiyot, xulq-atvorga amal qilish maqsadga muvofiq.

Ishontirish natijasi o'qituvchining so'z mulkiga ham bog'liqdir. Pedagogning so'zi va ishi ham bir bo'lishi kerak. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning «aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, biliyi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi» (Aziz Yunusov). So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. So'z qudratini baqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: «So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidaa xatos qilgan bo'lasiz».

O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvechi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarini ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir. So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rishi lozim.

Ishontirish metodini qayta tarbiyalash, ya'ni qarash va munosabatlarni shakllantirishda qo'llash, u yoki bu xislatlarni namoyish qilish zarur bo'lgan maxsus vaziyatlar yaratish orqali amalga oshirilishi ham mumkin. Tasodifiy vaziyatlar quyidagi yo'llar bilan yaratiladi: darsda o'quvchiga kutimagan savol berish, darsdan tashqaridagi noto'g'ri xatti-harakatiga iqror bo'lishiga

majbur qilish, o‘yinda esa harakat qilishga undash. Maktab hayotida tasdiqlanganidek, ba‘zan o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit bo‘Imagani uchun ham tarbiyasi og‘irlar qatoriga qo‘silib qolar ekan. Undan darsda onda-sonda so‘rashadi: o‘qituvchi uning bilimiga ishonmaydi, dars paytida unga e’tibor berishga vaqtidan qizg‘anadi. Agar o‘quvchiga tez-tez murojaat qilinsa, unga o‘z fikrini bayon qilish taklif etilsa, uning xulqida shakllanib qolgan stereotiplar asta-sekin o‘zgara boshlaydi.

Uqtirish – kishilarning muloqot faoliyati jarayonida o‘zaro ta’sir etishlari vositalardan biridir. Uqtirishning o‘ziga xosligi, inson ruhiyatiga uning o‘ziga sezdirmasdan ta’sir etishi, shaxs psixikasi, tarkibiy tuzilishiga beixliyor kirib borish va kundalik hayotdagi qiliqlar, intilishlar, motivlar va yo‘l- yo‘riqlarda aks etishidir.

Har qanday pedagogik ta’sir etishda uqtirish elementi mavjud bo‘ladi. To‘g‘ri tashkil etilgan uqtirish o‘quvchilarning ongli ravishdagini faolligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

So‘z yordamida o‘quvchida tetiklik yoki qo‘rquv, xursandlik yoki xafalik, o‘ziga ishonch va ishonmaslik, qiziquvchanlik yoki zerikish, boshqalarga ishonish yoki ulardan hadiksirash kabi sezgilarni vujudga keltirish mumkin. O‘qituvchining yomon kayfiyati to‘lqin kabi bir zumda o‘quvchilarni qamrab olishini ham faqat uqtirish bilangina tushunish mumkin. Yoki asabiylashgan xarakterga ega bo‘lgan guruh rahbari tez orada asabiy holat guruhda muloqot me‘yoriga aylanib qolgantigidan taajjublanadi.

Pedagogik uqtirish sarmaradorligini oshirishning umumiy shartlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materialining mazmuni;
- uqtirish amalga oshirilayotgan vaziyat;
- uqtirish natijasida o‘qituvchining ishonchi;
- o‘quvchilarning o‘qituvchiga munosabati (hurmat qilishi);
- o‘quvchilarning yosh davrlari va individual xususiyatlari e’tiborga olinishi;
- o‘quvchilarning uqtirish texnikasini egallaganliklari;
- uqtirish natijasida qaror topgan xislatlarni ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uqtirishni turkumlarga ajratish uchun quyidagilar asos qilib olinadi.

1. Uqtirib ta'sir etish manbalari bo'yicha: a) boshqa kishi tomonidan uqtirish; b) o'z-o'zini uqtirish – bunday uqtirish obyekti va subyekti bir-biri bilan ustma-ust tushadi

2. Uqtirish obyektining holati bo'yicha: a) uyg'oq holatda uqtirish; b) tabiiy uyqu holatida uqtirish; v) gipnoz holatida uqtirish. Zamonaviy didaktikada gipnoz holatda uqtirish va tabiiy uyqu holatida uqtirish (tush ko'rayotganda chet tilini o'rghanish – gipnopediya) ham qo'llanilishidan qat'i nazar, biz pedagogik munosabatlar istiqbolini belgilovchi uyg'oq holatda uqtirishni o'rghanamiz.

3. O'qituvchining maqsadi bo'yicha: a) oldindan mo'ljallangan uqtirish; b) oldindan mo'ljallanmagan uqtirish. Oldindan mo'ljallangan uqtirishda o'qituvchi o'z maqsadiga erishish uchun o'quvchiga ongli va izchillik bilan ruhiy ta'sir ko'rsatib boradi.

4. Uqtirib ta'sir ko'rsatish uning oqibatiga qarab: a) ijobiy (odatlar, qiziqishlar, qarashlar, munosabatlar); b) salbiy (o'z-o'zini past baholash, mas'uliyatsizlik, jur'atsizlik va hokazolar) ko'rinishlar bo'lishi mumkin.

5. Uqtirish mazmuniga qarab ikki turga bo'linadi: a) ochiqdan-ochiq uqtirish, bunda uqtirish maqsadi uning shakliga mos keladi. Uqtiruvchi to'g'ridan-tug'ri va ochiq holda o'quvchini ba'zi xatti-harakatlarini bajarishga yoki bundan o'zini to'xtatishga chaqiradi. «Sen bundan keyin doim darsni tayyorlab kelasan, senga ishonaman» (aniq shaxsga yo'naltirilgan fikr); b) yopiq (vositali) uqtirish. Bunda ta'sir etish maqsadi «niqoblangan» bo'ladi. O'quvchi uqtiruvchini kuchga ega ekanligini ko'p hollarda anglamaydi. Bu holda so'zlovchi tingloychida aynan o'zidagi tasavvur, qiyofa va sezgilarni gavdalantiradi. Natijada uning oldida to'la ishonch qozonadi. Uqtirish kishilarning muloqotda o'zaro ta'sir etish jarayoni sisatida ixtiyoriy va ixtiyorsiz to'g'ridan-to'g'ri ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Kommunikativ qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Kommunikativ qobiliyatning qanday turlari mavjud?
3. O‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini tahlil etish tushunchalarini qanday izohlash mumkin?
4. Pedagogik ta’sir ko‘rsatishning samarali metodlariga nimalar kiradi?
5. Ishontirish metodining afzalliklari nimada?
6. Ishontirish metodini qo‘llashda qanday qoidalarga rioya qilish lozim?
7. Uqtirish metodining mohiyatini bayon cting.

IV BOB. PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ODOB

Tayanch tushunchalar: takt, taktika, pedagogik takt, taktikani tanlash, pozitsiya, shroit, usul, odob, pedagog odobi, pedagog odobi fazilatlari

Pedagogik takt tushunchasi. Takt axloqiy tushuncha bo'lib, u insoularning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalangiga asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatlari vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lif oluvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, ta'lif oluvchining holatini, intilishlari, qiziqishtilarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'mnatish o'Ichovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlari qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. Shunday ekan, o'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va rulijiy kechinmalarga tez beriluvechi, ota-onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik taktga zid bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqtish, haqorat, mensiymaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish o'quvchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va o'qevchi o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar, ko'pincha, dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'tadi. Bunda ayniqsa yosh o'qituvchilarning pedagogik takti sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

O‘qituvchining taktik mahorati bordaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o‘rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda o‘quvchilar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo‘lmish pedagogik taktga ega bo‘lish o‘qituvchi uchun juda zarurdir.

Shunday qilib, pedagogik takt bu o‘qituvchining ta’lim oluvchilarga nisbatan amalga oshiradigan ta’sirining mezonidir.

Taktikani tanlash va uni qo’llash qoidalari. Taktika tanlash turli vaziyatlarda xilma-xil rollarni bajarish bilan bog‘liq. Bu haqida ma’lumotni psixoterapevt A.B.Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to‘rtta pozitsiya bo‘lib, ular quyidagicha: «yuqoridan pastga», «pastdan yuqoriga», «yonma-yon» va «aralashmaslik» pozitsiyasi.

«Yuqoridan pastga» pozitsiyasida o‘qituvchi mustaqil hal etishni namoyish etadi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oлади. Bu pozitsiya «ota-on» pozitsiyasi.

«Pastdan yuqoriga» pozitsiyasi tobeklik, shaxsning o‘ziga ishonmasligi. A.B.Dobrovich so‘zi bilan aytganda, bu «ta’lim oluvchi» pozitsiyasi.

«Yonma-yon» pozitsiyasida farosatlilik va vazminlik, vaziyatga qarab ish tutish, boshqalarning ham manfaatini o‘ylash, o‘zi va ular o‘rtasida mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlash ifoda etiladi. Bu «katta odam» pozitsiyasi.

«Aralashmaslik» pozitsiyasi – aralashmaslik, faollikni namoyon etmaslik.

Har bir pozitsiyaning qo’llanishi vaziyat talabiga mos tanlanadi. Muloqot ikki tomonlama jarayon bo‘lganligi uchun o‘qituvchi ta’lim oluvchi rolini ham inobatga olishi shart. O‘qituvchining odatiy pozitsiyasi bu hamkorlikda ish olib borayotgan «katta odam», ya’ni ishga aloqador darajani talab qiluvchi pozitsiyadir. Bu pozitsiya ta’lim oluvchida teng huquqli sheriklikni shakllantiradi, o‘zar ishonch muhitini yaratadi. Bunda quyidagi jumtlalarni qo’llash mumkin: «Sizlar bilan maslahatlashmoqchi edim», «Kelinglar, o‘ylab ko‘raylik» va hokazo.

Pedagogik ta’sirning yetakchi metodi – pedagogik talabdir. Pedagogik talab iltimos, rag‘batlantirish, ma’qullash, faoliyatga

undash, ta'lif oluvchiga nisbatan ishonchni namoyish qilish va boshqa shakkarda ifodalanadi.

Insonparvarlik pedagogikasida pedagog tarbiyalanuvchilar birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatda quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan:

1) tarbiyalanuvchilarga mehrli bo'lish, o'z mehrini ko'rsata olish;

2) ta'lif oluvchilar hatti-harakatlarining «ichki rag'batlantiruvchi kuchlarini» ko'ra olish;

3) vaziyatni to'g'ri baholay olish;

4) maqsadga muvofiq ta'sir etish usulini tanlash;

5) ta'lif oluvchilar bilan samarali muloqotni tashkil etish.

Pedagog va ta'lif oluvchi pozitsiyalarining to'g'ri kelmasligi ko'p konfliktlarga sabab bo'ladi, shuning uchun konlliki vaziyatlarda qo'llanitadigan sinalgan quyidagi qoidalarni bilish kerak:

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o'z qo'liga olish. Bu emotsiyonal taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo'riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo'lish kerak. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta'sir ham ko'rsatadi. Shunday qilib, tashqi vazminlik va xotirjamlik!

Ikkinchi qoida. O'z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta'sir ko'rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o'rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harakatlari motivlarini tushuna olish. Aqliy tahsilning ishga solinishi emotsiyonal qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o'z holatini tushuntirish (Shu meni o'yantiryapti...) YA'ni hatti-harakatni darrov baho'lamang, oldin tug'ilgan vaziyatga bo'lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling.

To'rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Ta'lif olevchi bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko'rsatish.

Beshinchi qoida. Samarali echim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so'ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo'llari).

«Pedagogik odob» tushunchasi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari. Odob deganda, rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi bilan tur mush sharoitining alohida tarzi, an'analarini negizida odamlar o'rtasida paydo bo'lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari ham deb qaraladi.

Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlarini, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'limtarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarda namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi – jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablari,

mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalgalashadigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi vaa axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'mni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashianadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmati, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchanlik va adolatlari bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi

axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularning chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining muomala odobi. Muomala odobi o'z tabiat, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo'ladi. Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma'naviy, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o'rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o'ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega. Bu xususiyat va mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi o'rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bog'lanishlarga asoslanadi.

Muomala odobi bevosita baho beruvchanlik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy prinsiplar, qoidalar, talablar, an'analarga, urfatatlarga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomalaodobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalariga muamolasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat, davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi. Pedagogik jarayonda muomila odobi o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilik faoliyatida qo'yiladigan axloqiy talablar, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-an'anaviy, madaniy qadriyatlardan ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalariga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida, unda qatnashayotgan kishilaning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalananadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalarini, usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Muomala odobining tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda subyekt-obeye'kt munosabatlari shaklida ifaodalanadi. Subyekt-obeye'kt munosabatlari muallim o'zining professional burchini bajarayotganida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamiyat tashkilotlarining vakillari bilan o'qituvchi o'rtaсидаги aloqalarda vujudga keladi. U o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik tashabbuskorlik, o'zaro g'amxo'rlik, har birlarining inson sifatida qadr-qimmatini e'zozlash kabilarda namoyon bo'ladi. Ular o'qituvchining pedagogik faoliyatida boshqalar bilan muamalasining xarakterini baholashda xizmat qiladi. O'zaro ta'sirlar o'quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlарини xususiyatларини aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik jarayoning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida turlicha muomala-munosabatlар mavjud. Masalan, o'quv ishlari sohasida, jamiyat toashiriqlarini bajarishda o'quvchilar, bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish paytlardagi muomala, shuningdek, o'qituvchining Vatanga, xalqqa bo'lgan munosabati o'ziga, xos xususiyatlarga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, agar o'qituvchining bu muomala munosabati o'z professional vazifasini burchini bajarish jarayonida sodir bo'lsa, jamiyat o'qituvchining pedagoglik kasbining ijtimoiy mavqeini, unga ma'lum bir huquq va vakoletlar berilganligini nazarda tutadi.

Pedagogik etikada muomola odobining biror jihatni, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talabiarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilarini bilan muomalasi-bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtaсидаги o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi-figurasi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan

muomalada bo'jadi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning obyekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayriyoh, ijobjiy hissiyotda bo'lislari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Pedagogik muomala-munosabatlarda hissiyot aralashgani uchun ularning axloqiy va ruhiy jihatlarini bir-biridan ajratish qiyin bo'la-di. Shuning uchun ham bunday hodisalar haqida gapirganda, odatda, pedagogik jamoadagi axloqiy-ruhiy vaziyat tushunchasi ishlataladi.

Dernak, o'qituvchining muomala odobi-u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z professional vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondoshuv assosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rta-sidagi muomala; o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rta-sidagi muomala; o'qituvchi bilan ota-onalar o'rta-sidagi muomala; o'qituvchi bilan muktab rahbarlari o'rta-sidagi muomala.

Muomala odobida o'qituvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo'naliishi, so'zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtai-nazari namoyon bo'ladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Takt deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik taktika tushunchasiga ta'rif bering.
3. Pedagogik taktikani tanlash usullarini aytib bering.
4. Pedagogik taktikani qo'llash qoidalariga nimalar kiradi?
5. Pedagog odobi deganda nima tushuniladi?
6. Pedagog odobining o'ziga xosliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Pedagog odobi fazilatlariga nimalar kiradi?

V BOB. PEDAGOGIK TEKNIKA

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnika, mimik va pantomimik ifodalilik, o‘z hissiyotlarini boshqara olish, xushmuomalaflik, xayrixohlik, rejissyorlik va aktyorlik ko‘nikmalarini.

Pedagogik texnika haqida ma’lumot. Pedagogik texnika – o‘qituvchining nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o‘qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalarini hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali o‘quvchilar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabijardir.

O‘qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko‘nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o‘qituvchi ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaliviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga ja‘lb etib kelmoqda.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o‘qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo‘ladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo‘ya ta’sirlarga berilmaslik;

- mukammal ijtimoiy perceptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'mida qo'llay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lism-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

- o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlar;
- ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilishi;
- ta'lism muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lism-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;
- o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi obyektlar oldida o'z harakatlарини boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatları muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsity xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), histuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lism va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnikaning namoyon bo'lish xususiyatlari. O'qituvchining tashqi ko'rinishi pedagogik texnikasini nameyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insонning tashqi ko'rinishi atrofdagilarga estetik ma'no va zavq kasb etib, doimiy e'tiborda bo'lishini unutmashlik kerak. O'qituvchining tashqi ko'rinishini asosan namoyish etuvchi muhim hususiyatlari uning chehrasidagi mehribonlik, jiddiylik, yurishida bosiqlik, tabiiylilikdir. O'qituvchi sinfga kirishi bilan so'zsiz o'quvchilar e'tiborida bo'ladi, ular biian muloqotga kirishadi.

Sinf sahnasida bajarilayotgan uning xoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o'quvchilarga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar ilk bor darsga kirishlaridan oldin his-hayajonini, qo'rquvini engishlari, o'zlarini erkin tutishlari, birinchi dars paytida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday muvaffaqiyatsizlikdan o'zlarini yo'qtmasliklari lozim.

O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holallar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining hatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassurnida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

Pantomimika – bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir. U asosiy firkni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'lii, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini «chiza» olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura bilish, qo'l va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini aniq

va to'liq bayon qilib qo'sini, boshini turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim (oyoqlari 12–15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining yurishi, qo'l va oyoq orqali imo-ishoralar ortiqcha harakatlardan holi bo'lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qo'llari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o'quvchilarning e'tiborini bo'lib, g'ashini keltiradi va o'rganilayotgan fanga, o'qituvchiga nisbatan humatsizlik kayfiyatini uyg'otadi.

O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida o'z hissiy holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida qizg'in kuzatuv ostida bo'ladi. Uning kayfiyatidagi o'zgarishlar pantomimik harakatlarida namoyon bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida (darsda, darsdan tashqari nashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatida bo'la olish qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Pantomimik harakatlar tizimi o'qituvchiga birdaniga paydo bo'ladigan ko'nikma emas. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi, ilk pedagogik faoliyati davrida kamchiliklarini tezda topib bartaraf eta olishi darkor. Chunki, yillar davomida o'qituvchi o'zining har bir harakatiga moslashib uni odad qilib olishi mumkin. Mukammal pantomimik malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lon asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiy lashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi.

Gavda tutish estetikasi oldinga-orqaga tebranish, og'irlikni bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tkazib turish, stul suyanchig'iga tayanib turish, boshni qashlash, burunni artish, qulqoq kavlash kabi zararli odatlarga yo'l qo'ymaydi. O'qituvchi gavdasining harakati chegarali va bosiq bo'lishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlardan holi bo'lishi shart.

Mimika – yuz muskullari orqali o‘z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O‘qituvchining yuz ifodasi va qarashi ba’zan o‘quvchilarga so‘zdan ham qattiqroq ta’sir ko‘rsatadi. Mimika axborotning xususiy ahamiyatini oshiradi, uni puxtarloq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi kayfiyati va munosabatini uning yuzidan uqib oladilar. Shuning uchun ham o‘qituvchining yuzi uning sezgirligini ifodalashi bilan birga ularni yashirib turishi ham lozim. Oiia tashvishlari, tashqaridagi kelishmovchiliklarni o‘qituvchi o‘zining yuz ifodasida bildirmasligi kerak. Yuz ifodasi va harakatlar faqat dars maqsadiga, o‘quvtarbiyaviy ishni yaxshilashga yo‘naltirilishi lozim. Yuz ifodasida ko‘zlar muhim o‘rin tutadi. Jozibasiz ko‘zlar ma’nosiz qalbni aks ettiradi. O‘qituvchi yuz muskullari va ko‘zlarini tez-tez harakatlantirish bilan birga ularni birday qotib qolishidan ehtirot bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nigohi o‘quvchilarga qaratilgan bo‘lishi, bevosita ko‘rish kontaktini vujudga keltirishi zarur, barcha o‘quvchilarni diqqat markazida ushlab turishga intilishi lozim.

Mimik harakatlar, ifodalar ma’lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar o‘qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda «uqib» oladilar. Shuning uchun oiladagi ba’zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g‘am va tashvishning o‘qituvchi chehrasida va mimik belgilari ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg‘ulotlarini mukammal bajarishida o‘zining salbiy ta’sicini ko‘rsatadi. O‘qituvchining chehrasida, mimik belgilari faqat dars mashg‘ulotlariga xos bo‘lgan, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko‘rinishlarni ifodalash lozim.

O‘qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo‘lishi kerak. O‘qituvchi chehra ko‘rinishidagi mimik ifoda, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma’qullah, ta’qiqlash, norozilik, quvonch, faxlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o‘zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik

ifodaning asosiy belgilarini namoyish etishda qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Inson his tuyg'ulari uning yuzida – yuz mushaklarini qisqarishi va bo'shashishi natijasida – namoyon bo'ladi. Yuz mushaklari holatini boshqarish unchalik qiyin bo'lmanligi uchun odamlar haqiqiy hislarini yashirishga ham urinadilar.

Yuz mushaklari harakatlari simmetrikligi ushbu insonning samimiyligidan dalolat beradi. Inson so'zlarida qanchalik yolg'oni ko'p qo'shsa, simmetriya shunchalik buziladi.

Haqiqatni bildiruvchi mimika juda tez, sezdirmasdan namoyon bo'lishi mumkin va uni to'g'ri talqin qilish uchun tajriba yoki hattoki maxsus trenirovka kerak. Yana bir xususiyat: ijobiy hissiyotlar salbiyga qaraganda osonroq anglanadi.

Ayniqsa, inson lablari hissiy ifodaliligi bilan ajralib turadi (masalan, lablarni tishlash – hayajonni, bir tomonga qiyshaygan lablar ishonqiramaslik yoki istehzonli anglatishi mumkin)

Tabassum odatda do'stona munosabat yoki qo'llab quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Erkak kishi uchun tabassum u har qanday vaziyatda ham o'zini tuta olishini namoyish qilishi bo'lsa, ayoq tabassumi ko'proq haqiqiy kayfiyatini bildiradi.

Tabassum turli hissiyotlarni anglatganligi uchun ularning ba'zi turlarini hisobga olish maqsadga muvosiq:

- 1) ortiqcha ko'p jilmayish – qo'llab quvvatlanishga ehtiyoj;
- 2) qiyshiq kulish – nazorat qilinayotgan asabiylik;
- 3) ko'tarilgan qoshlar va tabassum – bo'ysunishga tayyorlik;
- 4) pastga tushirilgan qoshlar va tabassum – o'zini katta olish;
- 5) tabassum bilan bir paytda pastki qovoqlarning ko'tarilmastigi – samimiyatsizlik;
- 6) tabassum bilan bir paytda ko'zlarning olayishi – qo'rqtish.

Turli hislar kechirayotganda yuz mimikasini bilish faqatgina boshqalarini tushunishdagina emas, balki o'z imitatsiya mahoratini o'stirish uchun ham zarurdir.

Odamning ichki kechinmalari haqida eng to'g'ri ma'lumotni ko'zlar namoyon qiladi:

- 1) ko'zning odatiy ifodasidagi o'zgarish;

2) ko'zlarining beixtiyor harakatlari – hayajon, oriyat, yolg'on, qo'rquv, asabiylashuv;

3) yonib turgan nigoh – qizishish;

4) qotib qolgan nigoh – o'yga cho'kkalik yoki holsizlik;

5) qorachig'tarning kattarishi qiziqish va qabul qilinayotgan axborotdan, atrofdagilardan, taomdan va boshqa shunga o'xshash omillardan qoniqish his etayotganligi yoki qattiq og'riq: ma'lum dori-darmon yoki narkotik qabul qilganligi;

6) qorachiqlarning kichrayishi – g'azablanish yoki ma'lum turdag'i narkotiklarni qabul qilganligi va boshqalar.

Muloqot davomida ko'proq eshitayotgan odam suhbatdoshi ko'ziga qarab turadi. Muloqotning umumiy vaqtining uchidan biridan kamroq vaqt ichida ko'zingizga qarab turgan insonning sizga nisbatan samimiyligiga shubhalaning; butun dialog davomida tikilib qarayotgan inson yoki sizga nisbatan katta qiziqish bildirmoqda yoki (agar qorachig'i kichraygan bo'lsa) uning sizga nisbatan adovati bor, yoki sizni o'ziga tobe qilmoqchi.

Insonning ichki holati haqida uning statik holati ma'lumot berishi mumkin. Shunisi qiziqliki, agar ma'lum bir turishlar (poza) inson uchun odatiy bo'lib qolgan bo'lsa bu uning xarakteridagi turg'un sifatlardan dalolat beradi.

Quyida bir necha pozaning psixologik nuqtai nazardan talqinini ko'rib chiqamiz:

1) qo'llar orqada, bosh yuqori ko'tarilgan, iyak oldinga surilgan – o'ziga ishonch, o'zini boshqalardan ustun qo'yish;

2) tananing yuqori qismi oldga intilgan, qo'llar belda – dadillik, o'ziga ishonch va faol harakatlarga tayyorligi, tajovuzkorlik, o'z fikrini oxirigacha himoya qilishlikka tayyorlik;

3) qo'llar bilan stol yoki stulga tayanish – suhbatdoshi bilan to'la kontakt yo'qligi;

4) qo'llar tirsaklar ochilgan holda bosh ortqasida qovushgan – o'zini boshqalardan ustunligini his etish;

5) bosh barmoqlarini beibog' yoki cho'ntaklarga solib turish – tajovuz, o'ziga ishonganlikni ifodalaydi;

6) bosh barmoqni cho'ntaklardan chiqargan holda turish – o'zini katta olishlik;

7) qo'l va oyoqlar almashtirilgan holda – suhbatdoshiga nisbatan ishonqiramaslik va o'zini himoyalash;

8) qo'l va oyoqlar almashtirilmagan holda, pidjak tugmalari echilgan – ishonish belgisi;

9) boshning chetga egilishi – qiziqish uyg'onganligi;

10) boshning quyi egilganligi – salbiy munosabat;

11) boshning sal ortga egilganligi – tajovuz belgisi;

12) stul chetida o'tirish – har qaysi momentda turib ketishga tayyorgarlik: chiqib ketish uchun yoki harakt qilish uchun, o'ziga e'tiborni qaratib, suhbatga qo'shilish uchun yoki qizishgan inson o'zini qo'lda tutish uchun qilgan harakati.

Insonlar his-tuyg'ularini aniqlashda faqat beixtiyor qo'l harakatlariiga diqqatni qaratish lozim. Har xil odamlarda bir xil qo'l harakatlari turli ma'noga ega bo'lishi mumkin, lekin ma'nosи o'xshash holatlar ham mayjud:

1) qo'llarning faol harakati – ko'pincha ijobiy emotsiyalar, do'stona munosabat va qiziqishni anglatadi;

2) ortiqcha qo'l harakati – hayajon, o'ziga ishonchsizlik belgisi;

3) kaftlar ochiq – ochiqlik ifodasi;

4) qo'llarni musht qilish – ichki qo'zg'alish, tajovuz;

5) so'zlayotganda og'izni qo'l bilan to'sish – hayron bo'lish / yolg'on so'zlash / suhbatdoshiga ma'lumotni ishonib yetkazish;

6) so'zlayotganda burunga tegib turish – aytayoigan so'zlariga ishonqiramaslik / yolg'on / yangidan-yangi dalillar izlash;

7) qovog'ini barmoq bilan ishqalamoq – yolg'on / ishonqiramaslik; so'zlayotganda yuzining turli qismlarini ishqalash – tashvish, uyalish, o'ziga ishonmaslik;

8) iyagini silash – qaror qabul qilish;

9) qo'llarning beixtiyor ortiqcha harakatlanishi (biror narsani aylantirish, burash, kiyimining detallariga tegish) – ogohlilik, asabiylashganlik, uyalish;

10) kiyim yoqasini tortish – yolg'oni oshkor bo'lganligini sezgan odam yoki g'azabdan havo etishmasligi;

11) biror narsaga tayanishga bo'lgan intilish – vaziyatning murakkabligini his qilish, ushbu vaziyatdan chiqib ketish yo'llini topa olmayotganligidan dalolat beradi.

Pedagogik texnikani egallash yo'llari. O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (nutq tempi, diksiyasi, toyush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'yaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1/2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchilarning nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhabat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'llimidan ko'ngillari seviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning nutqlari o'quvchilar ongiga tez ta'sir etadi, o'quv materiallarini oson o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishchlari, so'zlarining chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi uchun mashq qilishlari, ovoz diapazonlarining kuchi, nutq tembrining harakatchanligi va diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi toyushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.

O'qituvchi toyush diapazonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni

o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining notiqlik texnikasi so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslda ko'rib chiqiladi.

2. Pedagogik texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika o'qituvchilarning individual shaxsiy xususiyatlari ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, tikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyanı o'qituvchilarning o'zları mustaqil fikr yuritishlari, mustaqil bilim olishlari, pedagogik mahoratini oshirib borishlari orqali qo'lga kiritadilar va mohir o'qituvchiga xes fazilatlarni tarbiyalaydilar hamda kasbiy ideal sari harakat qiladilar.

3. Pedagogik texnika sirlarini mukammal bilish o'qituvchining tashkiliy – metodik malakalarni egallashiga ham bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko'nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'sib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'sib o'qish, ishlash har bir o'qituvchiga refleksiv qobiliyatları asosida, o'zini boshqalar ko'zi

bilan ko'rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni sezabiliшni, muornala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy — metodik malakalarini egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashig'ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik texnikani bir maromda egallashda, har bir o'qituvchining o'z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o'qituvchi o'zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni, o'qituvchining dastlabki o'quv tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro'y beradigan nuqsonlar e'tirof etiladi. Bunda natija yaxshu bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko'nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlarini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuuni o'z ichiga oladi.

5. Shuni ham umutmaslik lozimki, pedagogik texnikani namoyish etishda o'qituvchining umumiyligi madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rinni tutadi. Agar o'qituvchining tashqi ko'rinishi qashshoq, so'zlarni talassuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omti, bo'lar-bo'lmas voqealarga nisbatan o'z hissiyotiga erk beradigan bo'lsa, tarbiyalanuvchilarining e'tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta'kidlash joizki, pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalarini egallash yo'llari to'g'risida bildirilgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni

egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi.

Pedagogik texnikani egallahning asosiy yo'llari o'qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg'ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o'rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) ishlashdir. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalarini egallah individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallahda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya ni talabalik yillarda o'zida tajribali o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallahda muhim rol o'ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o'tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o'qish asosida, integratsion bilimlarni egallah, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlар (turli artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) o'qituvchi tomonidan muntazam mashg'ulotlar asosida egallanadi. Tegishli ko'nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o'qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda o'qituvchining jamoada faoliyat olib borishi va mashg'ulotlarda o'z-o'zini nazorat qilishi alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda ma'lum darajada ko'rsatib berilmagan.

Har qanday jamoada, xoh o'qituvchilar, xoh o'quvchilar jamoasi bo'lsin, o'qituvchi ular oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rishi, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlab topishi va sinab ko'rishi, o'zining jamoa bilan birga bajaradigan ishi

xususiyatlarini anglashi lozim. Shundagina pedagogik faoliyatning individual uslublarini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ldi. Jamoa shaxsning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini tarbiyalash laboratoriysi, pedagogik vazifalarni hal qilishning yangi usullarini tekshirib ko'radigan, nazariy va amaliy masalalar, turli muammolar muhokama qilinadigan tajriba maydoni bo'lib qolishi mumkin.

Psixologlar pedagogik texnikaning keng imkoniyatlarini jamoa bo'lib o'rganishni, o'qituvchilar orasida bunday jamoalarning eng qulay miqdorini 10–14 kishidan iborat etib belgilashni ta'kidlab o'tadilar. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har birining boshqa o'qituvchilar bilan birga faoliyat olib borishda individual psixologik muaminoilarini juda to'liq ravishda aniqlab hal etish, refleksiv va empatik darajasini jiddiy oshirish, kasbiy pedagogik fahm-farosatini rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarining kengaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy hamkorlik jihatidan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borishga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va ovozning tabiiy bir holatga qo'yilishi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, bundan oldingi tarbiyaviy metodlarning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, misnik va pantomimik harakatlar bo'lishi mumkin.

Bunday ko'nikma va malakalarning mavjudligi pedagogik texnika imkoniyatlarini mukammal shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan

muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakkantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakkantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to'liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib bori!gan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiy sababi aynan pedagogik texnikaga oid ma'lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda. Pedagogik texnika to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalarga e'tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo'qligi, o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o'qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo'qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik texnikaning qanday tamoyillari mavjud?
3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi? Nima uchun ular ikki guruhg'a bo'linadi?
4. Pedagogik texnikaning usul va vositalari haqida nimalarini bilasiz?
5. Yosh o'qituvchilar faoliyatida yo'l qo'yadigan pedagogik texnikaga doir xatolarni tahlil eting.
6. Mimika va pantomimikaning o'qituvchining pedagogik mahoratida tutgan o'rni qanday?
7. O'qituvchining pantomimik harakatlari tizimida qanday psixologik holatlar o'z aksini topadi?

VI BOB. NUTQ TEHNİKASI VA MADANIYATI

Tayanch tushunchalar: nutq, nutq organlari, nutq apporati, til va nutq, og'zaki nutqning psixologik tuzilishi, nutq unsurlari, nutq texnikasi, o'qituvchi nutqi, nutq madaniyati, nutq orfologik me'yorlari, nutq uslubi.

Nutq pedagog uchun kasbiy zaruriyat sifatida. Nutq – tildagi mayjud ifoda vositalaridan soydalangan holda reallikka aylangan fikr bo'lib ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1) ichki nutq; 2) tashqi nutq.

O'qituvchi ongida hosil bo'ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og'iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'ylashi ichki nutqdir.

O'qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta'siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq – tashqi nutq bo'lib, u ijtimoiy hodisadir.

O'qituvchining nutqiy faoliyati: so'zlash, mutolaa qilish va eshitishdan iborat. Nutq hodisasi monolog, dialog, polilog, deklamatsiya hamda ayrim matn va kitob shaklida bo'lishi mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o'zining hajmi bilan notiqqa havola etiladi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida nutqning quyidagi o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Funktsiyalari: muloqot, shaxsga ta'sir ko'rsatish, ta'lim va tarbiya vositasi.

2. Shakliari: tashqi nutq (og'zaki): monolog, dialog, polilog; yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar; ichki nuqt.

3. Nutq texnikasi: pedagog ovozining kasbiy sifati: tembr, intonatsiya, diktsiya, temporitm (bir minuda 120 ta so'z).

4. Nutqiy faoliyat turlari: o'qish, yozish, gapirish.

5. Nutq uslublari: ilmiy, rasmiy, so'zlashuv, badiiy, ommabop.

6. Nutqqa qo'yiladigan talablar: talaffuzning aniqligi, ifodaviylik, emotSIONALLIK, diktsiyaning tushunarligi, tovushlarning aniq talaffuz qilinishi, obrazlilik, nutq madaniyati, so'zdan foydalanish qoidalariga rioya qilish, temporitmga amal qilish.

7. Nutqni egallahsha yo'l qo'yiladigan kamchiliklar: monotonlik, temporitunning oshib ketishi, noto'g'ri diktsiya, so'zlarni noo'rin qo'llash, til qoidalarini buzish.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyatni madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallahsha har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilitniga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilitmini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O'qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o'qituvchining shijoatiga bog'liq. Shu qobiliyat tufayli o'qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi o'qituvchining nutq madaniyatiga xos bo'lgan vositalarni unutmashligi kerak:

1. Nutq madaniyati o'qituvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko'rsatuvchi, o'z ona tilimizga e'tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o'qituvchilarni ma'naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma'lum ma'noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining pirovard maqsadi erkin fikr egasi bo'lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar ma'naviy jihatdan tarbiyalash.

4. Nutq madaniyati — bu, avvalo, o'qituvchilarda nutqiy ko'nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko'nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va

mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o'zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o'qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o'qib borishi, she'rilar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o'qiy olishi, radio va televide niye eshittirishlarini kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko'rinishi nutqiy taqlid bo'lib, yosh o'qituvchilar o'zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma'noli va ta'sirchan nutq so'zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san'atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o'rganishi mumkin.

Nutq madaniyatining va notiqlik san'atiga umumiy, o'xshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o'qituvchi nutqiy faoliyatining ta'sirchan, chiroyli bo'lishi uchun zarur hodisa bo'lib, uning nutqiy madaniyatini o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san'ati kabi nutqning ma'noliligi, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi.

Ba'zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir.

Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko'rindi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O'qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba'zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog'liq. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilari emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qilib kishilar qalbiga qizz'in ta'sir qiluvchi kishilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik, til

materialining xarakteriga qarab emas, balki, notiqning chinakam so'z ustasi ekanligiga, tinglovchilarni o'ziga jaib etishida, ta'sirchan nutqiy san'atiga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik – bu nutqning og'zaki shakli. Notiqlik san'ati og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo'lgan tushunchalardir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini nazarda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsadi va pirovard orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Chin ma'nodagi notiqlik san'ati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan nutq vositasida o'qituvchilar jamiyat talablarini asosida yosh avlodga muayyan ta'lim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan kadirlarni tayyorlaydi.

4. San'atkor notiq nutqi, asosan, ko'pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

5. O'qituvchilar adabiy tilning keng imkoniyatlari va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan tajribali notiq bo'lishi mumkin. Biroq hamma o'qituvchi ham san'atkor ma'nosidagi mukammal notiq bo'la olmaydi. Lekin adabiy tildan foydalananuvchi har bir o'qituvchi nutq madaniyatidan xabardor bo'lishi shart.

6. Nutq madaniyati ko'pchilikka mo'ljallangan, ma'lum bir maqsadni ko'zda tutib ish ko'ruchni soha. Bu ma'noda u keng omma uchun mo'ljallangan talabdir, ammo notiqlik – shaxsiy qobiliyatdir.

7. Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiy tilni va uming normalarini o'rganish va bu normalarni qayta ishlash ishi bilan ham shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy – normativ faoliyatni ko'zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko'proq nutqning mazmunini, mantiqiy asoslarini, mundarijaviy tuzilishini e'tiborga oladi, nutq madaniyati esa, nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi.

9. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a'zolarini ona tili, ya'ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozasi talabiga ko'ra o'tinli foydalana olish ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida har qanday san'atkor notiq uchun ham zarur.

10. Notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi va ifodaliligi. O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni notiq-o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqining o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, sodda tilda gapirishlari maqsadga muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq-o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi.

O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasи bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarni avvalo nutq rejasi bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim. Vaqtini hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'zlash

muddati oldin e'lon qilinib, shunga riosa qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mu洛hazalarni keltirish ham maqsadga muvosiqdir. Bunday fikrlar notiq fikrining to'g'riliгини, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiste'mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalardan, hikmatli so'zlardan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o'mni bilan foydalanish ham ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Nutqning o'quvchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o'qituvchining nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bili shi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o'mni bor. Samimiylit, xushmuomalalik, odoblilik, o'quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o'quvchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi.

Mukammal notiqlik san'atiga ega bo'lish – o'qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o'tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o'quvchilarda his-tuyg'u va qiziqish uyg'otishi, uning e'tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatic jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchilardan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Nutq texnikasi va uning o'ziga xosliklari. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlaridan biri o'qituvchining nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini egallashdan iberat.

O'qituvchining nutq madaniyatiga ega bo'lishi, to'g'ri nafas olishni ishlab chiqishi eng katta – eng asosiy qiymatdir. Og'zaki nutq mahoratini yuksaltirish, nasaqat hikoya va tushuntirish, balki urg'u berilgan so'z ham pedagogik ta'sir usullaridan yaxshiroq foydalanishga imkon yaratadi.

Pedagog o'zining ovozi va ko'rinishini boshqarishni bilishi, tashqi qiyofani, mimikani ushlab turishni bilishi zarur.

Men faqat «buyoqqa kel» so'zini 15–20 xilda gapira olganimdan, yuz, tashqi qiyofa va ovozni 20 xil ko'rinishda bera olganimdan so'nggina haqiqiy mahorat egasiga aylandim, – degan A.S. Makarenko.

O'qituvchining takomillashgan nutqqa ega bo'lishi – o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlash garovidir. O'quvchilar o'qituvchi nutqiga alohida e'tibor beradilar. Biror harf yoki tovush noto'g'ri aytilishi kulgiga sababchi bo'ladi. Bir xil ohangdag'i nutq o'quvchilarni tez charchatadi.

Ayrim mutaxassislar tovush va uning tembri tag'ma xususiyat, deydiilar, lekin hozirgi eksperimental fiziologiya tovush sifatining o'zgarishi mumkinligini tasdiqlaydi. Nutqning ifodali, sof bo'lishi ustida ishlash fikrlarning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Nutq imoshora, mimika, harakat bilan birga sodir bo'ladi, uzlusiz o'zini tuta bilish ta'sirchan vositalarini tanlashga muvaffaqiyatli ravishda tuzatish kiritib borish imkonini beradi.

Bugungi kunda nutq texnikasi bo'yicha bir necha mashq komplekslari ishlab chiqilgan. Ular, asosan teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan bo'lib, so'zlashish paytida nafas olish, tovush hosil qilish va uni ma'noli ifodalash malakalarini takomillashtiradi, bu esa o'qituvchiga o'z so'zi mazmunini o'quvchilarga yanadi to'laqonli qilib yetkazishga imkon beradi.

Nafas olish organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyani bajaradi. Shu bilan birga u nutq energiya bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq so'zlayotganda nafas olish – fonatsion nafas olish deyiladi (reng-o-tovush). Kundalik hayotdagi nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvechi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi. Nutq so'zleshda qaysi mushaklarning ishtirot etishiga qarab nafas olish 4 turga bo'linadi.

Yuqori nafas – yelkalarning ko'tarilib tushishi va ko'krak qafasining yuqori qismi ishtirotida hosil qilinadi. Bu bo'sh yuzaki nafas bo'lib, unda o'pkaning faqat yuqori qismi ishtirot etadi.

Ko'krak nafas – qovurg'alar o'rtaсидаги mushaklar yordamida hosil bo'ladi. Bunda ko'proq nafasning ko'ndalang hajmi o'zgaradi. Diafragma ishtirotidagi nafas – ko'krak nafasning bo'ylama hajmini oshishi hisobiga vujudga keladi. Diafragma – qovurg'ali nafas, diafragmaning qisqarishi qovurg'alar oralig'idagi nafas mushaklari ishtirotida vujudga keladi.

Tovush – chiqarilayotgan havo hiqqildoqdan o'tishi paytida ovoz pardalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Tovush o'zining qo'yidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

Tovush kuchi – tovush apparati organlarining faol ishlashiga bog'liq. Chiqarilayotgan havo oqimining tovush tarqalishiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi.

Ammo, oddiy nafas olgandagi havo nutq uchun kamlik qiladi. Nutq so'zlayotganda nafas chiqarish, nafas olishga qaraganda ancha cho'ziqroq davom etadi. Ovoz nafas chiqarganda yuzaga keladi. Diafragmani, qorin muskullarini va qovurg'alararo muskullarni mustahkam qiluvchi maxsus mashqlar mayjud. Bularga yetgan joyda burun orgali chuqur nafas olish kiradi. Siz o'pkaning kichik

bo'lakchalari nafasga to'lib kelayotganini, qorin muskullarining taranglashayotganini va pastki qovurg' alarning kengayayotganligini sezasiz. Xuddi shunday mashqni tik turgan holda bajarishga urinib ko'rish kerak. Amme, iloji boricha havo o'pkaning pastki qismlarida bo'lishi zarur.

Ovoz – tomoqdan (o'pkadan) kelayotgan havoning ovoz paylari orqali o'tishida hosil bo'ladi va og'iz bo'shlig'i yordamida kuchayadi. Ovoz maxsus mashq qilinib turilmasa, ba'zan yo'qolib ketadi.

Ovoz apparati uch qismdan iborat:

1. Generator – ovoz generatsiyasi ovoz paylarida hosil bo'ladi, bunda og'iz bo'shlig'ining roli kam. Ovoz paylari shovqin va tonlarni farqlaydi.

2. Rezonator tizimi – bunda tomoq, halqum, burun bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i qauashadi va ular ovozning kuchini (statikasini) va dinamikasini ta'minlaydi.

3. Energetika tizimi – o'pkadan kelayotgan kuchli nafasning miqdori va tezligini ta'minlaydi.

Pedagogning nutqi uchun avvalambor tovushning kuchi zarur. Bu o'pkadan kelayotgan nafasning kuchiga va tezligiga bog'liq.

Tovushning yuqoriligi – bu tovushni uzoqqa yetkaza olish va yuqori-pastligini boshqara cishdir.

Tovushning harakatchanligi va o'zgaravchanligini tovushning mazmuniga, sharoitiga, tinglovchilarning kayfiyatiga qarab oson o'zgartira olish mumkin. Harakatchanligi esa past, o'rta, yuqori tiplarga bo'linadi.

Tovush parvozi – tovushning uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlab olish.

Tovush ixchamligi va harakatchanligi uni mazmunga tinglovchi moslab o'zgartira olish imkoniyatini bildiradi.

Diapazon – tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohang bilan belgilanadi. Diapazon qisqarishi nutqning bir ohantli bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.

Tembr – tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yoqimliligi va alohidaligidir.

Diktsiya – aniq talassuz qilish. Talaffuzning aniqligi o‘qituvchi nutqining o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri tushunilishini ta’minlaydi.

Ritm – bu ayrim so‘z va bo‘g‘inlarning aytilishi muddati va to‘xtash, nutq va ifodalarning navbat bilan o‘z o‘rnida ishlatilishini bildiradi. Ritm nutqning eng asosiy qismidir, chunki, nutq ohangi va to‘xtamlar ham tinglovchilarga beixtiyor o‘zgacha hissiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘zlayotganda obrazga kirish, ovozni kerakli joyda pastlatish, ohista gapirish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq.

Ongli ravishda ovozni mashq qildirish uzoq, muntazam va individual davom etadi. Ko‘p olimlar olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, past ovoz o‘quvchilar tomonidan yaxshi idrok etiladi. Past ovoz ularga yuqori ovozga nisbatan yoqadi. Yuqori ovoz o‘quvchilarni ham, o‘qituvchining o‘zini ham tez charchatib qo‘yadi. O‘qituvchi kasb kasalliklarining 40,2 foizini ovoz kasalliklari tashkil etadi. Ovoz kasalligining sabablari: a) yuqori ovozda gapirish; b) ovoz apparatlaridan to‘g‘ri foydalanmaslik; v) ovoz gigiyenasiqa amal qilmaslik; g) ovoz apparatining tug‘ma kamchiliklaridir. Turli xil ovoz kasalliklarining oldini olish maqsadida ishdan so‘ng pedagog 2–3 soat davomida kam va sekin gapirishi kerak. 3–4 soat dars berishdan so‘ng bir soat ovoz apparatlariga dam berish kerak.

O‘qituvchilar asabiylashmasligi, ayniqsa, ovqat yeyish kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Masalan: achchiq, issiq, sovuq, spirtli ichimliklar ichish, chekish ovoz paydo bo‘lish a‘zolarining qizarishiga, yallig‘lanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tomoqni qurib qolishidan saqlash uchun mutaxassislar soda va yod eritmasi bilan halqumni chayqab turishni tavsiya etadilar. Quyidagi maslahatlar ham o‘qituvchilarga foydali:

1) bir xil tonda gapirish ovoz muskullarini charchatib qo‘yadi. Agar har xil, ifodalgi belgilari bilan gapirilsa, ovoz apparatlari sog‘lom bo‘ladi;

2) bo‘r-melning mayda changlari ovoz paylari uchun juda ham zararli, doimo doskani ho‘l latta bilan artish kerak;

3) dars bergandan so‘ng, agar havo sovuq bo‘lsa, tez yurmaslik kerak. Chunki, sovuq havo xalqumni yallig‘lantiradi.

O'quvchilarning o'qituvchi nutqini yaxshi idrok etishlari uchun o'qituvchi tovush, so'zlarni aniq va ifodali talaffuz qilishi kerak. Tovush, bo'g'in va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda ovoz apparati: lablar, til, tish, jag'lar, tanglay, kichik til, halqum, evoz paylari qatnashadi. Nutqdagi organik kamchiliklarni jarrohlik va logopedik uslublar bilan bartaraf etish mumkin.

Noorganik kamchiliklar esa: to'ng'illab gapirish, soqovlanish, duduqlanish, ba'zi bir tovushlarni talaffuz eta olmaslik, burunda gapirish, tez gapirish, chala gapirish.

Bularni bartaraf etish uchun nutq organlari harakatini artikulyatsiya gimnastikasi orqali mashq qildirish tavsiya etiladi. Bu ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: a) nutq apparatlarini mashq qildirish, b) har bir unli va undosh tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasini mashq qilish.

Nutqning tezligi, alohida bo'g'indarning va so'zlarning jaranglashi, shuningdek, nutq ritmidagi pauzalarga rioya qilish nutqning ritmini tashkil etadi. K.S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, intonatsiya va pauzaning o'zi, so'zdan ham ortiqroq eshituvchiga hissiy ta'sir etar ekan. Nutq tezligi o'qituvchining individual xususiyatlariga, nutq mazmuniga va muloqot vaziyatiga qarab o'zgaradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari: o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishslash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir.

Pedagog malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchiga xos shaxsiy fazilatlarni va kasbiy malakalarni shakkantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruh bilan yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma'ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o'qishda egallanishi mumkin.

Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (to'g'ri artikulyatsiya, sonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko'rsatilish mumkin.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'naliшинing boshlanishdayoq ko'pgina xatoliklarning oldini olishida, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishida yordam beradi.

Nutq qobiliyatini o'stirish vositalari. Matn o'qish. Matnni baland ovozda o'qish. Bunda vaqtı-vaqtı bilan faraz qilinayotgan auditoriyaga nigoh tashlab turing. Bunda faraziy ko'z qarashlar orqali erkin nutq hissiga erishishga harakat qiling. Shu bilan birgalikda matnning keyingi so'zlarini bir zumda oldindan o'qib xotirangizda saqlash va keyin talaffuz qilishga o'rganing. Shunda nutqingizda uzilish bo'lmaydi.

Matn ma'nosini yetkazib berish. Matnning ikkitadan beshta gapgacha bo'lgan qismini o'qib uni gapirib bering. Bunda so'zmaso'z gapirishga yoki o'z so'zlarining bilan ifodalashga harakat qiling.

Fikr yuritish. Erkin nutqqa ko'p marotaba o'qish yoki yodlash olib kelmaydi. Aksincha bu maqsadga erishishga konspekt va tayanch iboralar asosida nutq tuzish va fikr yuritish zamin yaratadi.

«Fikr yuritish» iborasidan tafakkur va nutq o'rtaсидаги mustahkam bog'lanishni belgilash uchun foydalananamiz. Bu degani, fikrning asosi kalit so'zlar qatori orqali ifodalangan. Bitta fikrni kalit so'zlarga tayangan holda turlicha shakllantirish mumkin.

Hikoya. O'zingiz yoki boshqa kimdir bilan sodir bo'lgan voqealarni gapirib berishda mashq qiling.

Ish yuzasidan axborot berish. Gazeta maqolasidan kalit so'zlar majmuasini tayyorlang va «o'zingizning so'zlariningiz»ga o'girgan holda uning mazmunini yoriting. Shundan so'ng maqolani birgina

gapgacha qisqartiring, keyin esa o‘z fikrlaringizni qo‘sishish orqali uni kengaytiring.

Rasmlarni sharhlash, ekspromt tarzda nutq so‘zlash ham katta samara beradi.

Notiq nuqtai nazarini ifodalovchi nutq. Aniq mavzuga (xobbi, kasbiy maqsad va hokazo) bag‘ishlangan 3 minutdan 5 minutgacha bo‘lgan axborot tayyorlang. Uning boshki qismida kalit so‘zlardan foydalaning, oxirgi qismini esa erkin tarzda shakllantiring (nutqni ham ovoz chiqarib, ham ovozsiz takrorlab ko‘ring). Maqolada berilgan ma’lumotga o‘z munosabatingizni aniqlang: shu fikrga qo‘shilasizmi yo‘qmi? Fikringizni tasdiqlovchi qo‘sishimcha ma’lumetlar keltiring.

Notiqlar nutqini o‘rganish. Notiqlar chiqishlarini kuzatganda ularni ikki nuqtai nazardan tahlil qiling:

1) nima deyildi?

2) qanday aytildi? (ovozi kuchi, balandligi, urg‘u, temp, talaffuzi, imo-ishora).

Nutq tahlili. Chop etilgan nutq «jonli» nutqni aynan ifodalay olmaydi, lekin ko‘p narsaga o‘rgatishi mumkin: tuzilishi, kompozitsiyasi, uslub va boshqaga.

Munozaralar. Nazariy tayyorgarlik, mashqlarni mustaqil bajarganingizdan so‘ng oldin kichik, keyin esa kattaroq auditoriyalar oldida nutq so‘zlashda mashq qilishingiz kerak.

Nutq. Endi dokladga o‘tsa ham bo‘ladi. Buning uchun oldin o‘zingiz puxta bilgan bilimlar sohasini tanlang va barcha ko‘rsatmalarni yodda tutgan holda nutq so‘zlashga harakat qiling.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nutqning o‘ziga xosliklarini sanab bering.
2. Nutq madaniyati deganda nima tushuniladi?
3. Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati o‘rtasidagi aloqadorlik va farqli jihatlarni bayon eting.
4. Nutq texnikasiga nimalar kiradi?
5. O‘qituvchi nutqiy faoliyatining komponentlarini bayon eting.
6. O‘qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish vositalariiga nimalar kiradi?
7. Nutqning ta’sirchanligi va ifodaliligi qanday namoyon bo‘ladi?

ASOSIY TUSHUNCHALARING IZOHЛИ LUG'ATI

Avtokratlik – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko'rsatmalar berish va jazolash kabi shakkarda boshqalarga (masalan, o'qituvchining talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta'sir etishga moyilligi.

Agressivlik – dushmanlik, boshqalarga, atrofdagilarga zarar yetkazish, tajovuz qilish, noqulaylik tug'dirish maqsadini amalga oshiruvchi shaxsning xususiyati.

Dolzarblashtirish – shaxsda mavjud bilim, malaka va ko'nikmalarni turli axloqiy shakllar va hisssiy holatlarni qayta ishlab chiqish va ularni botiniy holatdan zohiriylashtirish.

Aksiologiya – qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'lilot, aksiologik qadriyatlar mohiyati.

Aksiologik yondashuv – insonparvarlik pedagogikasiga xos bo'lgan xususiyat, bunda inson ijtimoiy qadriyat va jamiyat rivojlanishining provard maqsadi sifatida qaraladi. Aksiologik tafakkur o'zaro aloqadagi ham o'zaro harakatdagi dunyo kontseptsiyasiga asoslanadi.

Amaliy tadqiqotlar – pedagogik jarayonning ayrim jihatlarini chuqur o'rganishiga qaratilgan ishlari, pedagogik amaliyot qonunlarini ochish.

Anketalashtirish – anketa yordamida ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, psixologik pedagogik va boshqa tadqiqotlar uchun dastlabki materiallarni yig'ish jarayoni.

Antropologiya – odamning biologik tabiatini har tomonlama o'rzanuvchi fan.

Assimilyatsiya – yangi sharoitda tayyor malaka va ko'nikmalardan jiddiy o'zgarishsiz foydalish.

Autotrening – o'zini-o'zi ishontirish, shaxsning o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan maxsus mashqlar to'plami. Autotreningdan shaxsning o'z ruhiy holati va xulqini boshqarishda foydalaniлади.

Axborotli malaka – ta'lim va tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

Axloq – shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakkidan biridir.

Bayon qilish – o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan material mazmunini izchil so'zlab berish metodi.

Bilish faoliyati – idrok qilish hissi, nazariy fikrlash va amaliy faoliyat birligi.

Boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektni o‘z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

Burch – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

Vazifa – maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

Verbal – ifodalı, og‘zaki.

Gumanizm – 1) insonning insonga bo‘lgan mechri-muhabbati, uning shani,qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg‘urish g‘oyalari bilan sug‘orilgan va kishilar o‘rtasidagi tenglik, halollik, insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan dunyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.

Davlat ta’lim standarti – uzlusiz ta’limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablar.

Didaktika – ta’lim va o‘qitish nazariyasi hamda o‘qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

Dolzarblikni asoslash – ta’lim va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotining istiqboldagi taraqqiyoti muammolarini o‘z vaqtida o‘rganish hamda hal qilish zarurligini ko‘rsatish.

Dunyoqarash – shaxsning tafakkur tarzi va yo‘nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e’tiqod hamda fikr-o‘ylar tizimi.

Idrok etish malakasi – boshqa subyektning xususiyatlarini – uning muloqoti va muloqotga hozirligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy – pedagogik malaka.

Ideal – oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

Ijtimoiy idrok etish – kishilar tomonidan ijtimoiy obyektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

Izoblash, tushuntirish – og‘zaki izoh, yoritilishi lozim bo‘lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

Ilmiy muammo (masala) – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

Ilmiy yangilik – muayyan davrga nisbatan ma’lum bo‘lmagan va pedagogikaga oid adabiyotlarda qayd qilinmagan nazariy, amaliy xulosalar, ta’lim qonuniyatları, uning tuzilmasi, mexanizmlari mazmuni, tamoyillari va texnologiyalari.

Individuallik – shaxsning betakror biosotsiologik xususiyatlari.

Intellekt – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqiliy qobiliyatlar to'plami.

Ishontira olish – axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi, erkin ravishda o'zlashishiga erishishni ko'zlagan ruhiy ta'sir etish metodi.

Ishonch hosil qilish – shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o'zlashtirish vositasida tarbiyalash metodi. Tegishli ma'lumotlar va argumentlarga asoslanib, shaxsning o'z hukmi hamda xulosalari to'g'riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

Ichki pozitsiya (mavqe) – shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog'liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo'nalgaligini belgilovchi ijtimoiy ko'rsatkichlari tizimi.

Istiqlolni belgilash malakasi – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

Kalokagatiya – go'zallik, oljanoblik hamda jismoniy va ma'naviy boyliklar uyg'unligi.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va tarbiyalanuvchining o'zaro zinchilik ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarni tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorlarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorlarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyorlik birligi.

Kibernetika – axborotlar almashish, ularni qayta ishlashni boshqarish haqidagi fan.

Kognitiv – bilish jarayoni.

Kollektiv – jamoa, umumiylar maqsad yo'lida shaxslarning o'zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg'un sotsial (ijtimoiy) guruh.

Kommunikatsiya – kishilarning o'zaro muloqotlarida axborotlar almashish taysifi.

Kommunikativ ko'nikma – muomala qila olish, pedagogik texnika malaka va ko'nikma tushunchasi.

Kommunikativ faoliyat – pedagogning tarbiyalanuvchilar, boshqa pedagoglar, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan maqsadga muvofiq o'rnatgan munosabatlari.

Konstruktiv faoliyat – u o‘zida konstruktiv mazmun (o‘quv materiallarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv – operativ (o‘zining va talabaning xatti-harakatlarini rejafashtirish), konstruktiv – material (pedagogik jarayonning o‘quv-material bazasini loyihalashtirish) ni birlashtiradi.

Konflikt – qarama-qarshi qarashlar, fikrlar to‘qnashuvi, jiddiy ziddiyat, qizg‘in bahs.

Kreativiik – betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostonart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.

Kuzatish – biror pedagogik hodisa bo‘yicha konkret faktik material olish maqsadini ko‘zlagan idrok etishning shakli.

Ko‘nikma – o‘rganish natijasida qo‘lga kiritilgan, beixtiyor, avtomatik tarzda bajariladigan harakat. Ko‘nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir.

Ko‘rsatma – chtiyojning mavjudligi va obyektiv vaziyat hamda uni qondirish bilan bog‘liq ravishda oldindan shaxslarning ma’lum faolligini tayyorlash, ularni joylashtirish.

Malaka – shaxsnинг o‘zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagи yangiliklar bilan birga, ma’lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Malaka tavsifnomasi – o‘qituvchining nazariy va amaliy bilimlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Maqsad – faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

Metodika – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo‘llanadigan metodlar.

Metodologiya – 1) dunyonи ilmiy bilish metodi haqidagi ta’limot; 2) biror fonda, shu jumladan pedagogikada qo‘llaniladigan metodlar.

Motiv – ma’lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

Motivatsiya – shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to‘plami bo‘lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi, faoliyatning yo‘nalishi, faolligi, uyg‘unligi hamda turg‘unligini belgilaydi.

Muammoli o‘qitish – o‘quv mashg‘ulotini tashkil etish shakli bo‘lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi

va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat – o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi.

Muloqotning yetakchi tipi – rivojlanishning ma'lum bir davrida atrofdagi kishilar bilan muomalada yetakchilik qiladigan muloqot tipi bo'lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi.

Nazariy bosqich – tadqiqot obyekti to'g'risidagi amaldagi va istiqboldagi tasavvurlar hamda ularga bo'lgan talab o'rtaсидаги зиддиyatni engish.

Nazariy tahlil – pedagogik hodisalarning alohida jihatlari, belgilari, xususiyatlari o'ziga xosligini aniqlash va tahlili etish.

Obyekt – insonning, subyektning bilish predmeti va faoliyati.

Odat – kishining ma'lum e'tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me'yordan kelib chiqib amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Pedagog – tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi.

Pedagogika – yosh avlod ta'lim va tarbiyasi haqidagi fan.

Pedagogikada antropologik yondashuv – odam to'g'risidagi barcha fanlar ma'lumotlardan muntazam foydalanish va pedagogik jarayonni tashkil etish hamda ainalga oshirishda ularni hisobga olish.

Pedagogikaning nazariy vazifasi – ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

Pedagogikaning texnologik vazifasi – diagnostik sath – pedagogik hodisalar holatini aniqlash; bashorat qilish sathi – pedagogik faoliyatni eksperimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o'matish; loyiha sathi – pedagogik faoliyatning nazariy kontseptsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv qo'llanmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik sathi – pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflektik tuzatma (korrektirovka) sathi – ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baholash.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari – pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik ixtisoslik – ta’lim natijasi o’laroq bilim, malaka va ko’nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy guruh doirasidagi faoliyat turi.

Pedagogik ixtisoslashish – pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

Pedagogik malaka – muayyan toifadagi vazifalarni hal qishim imkoniyatiga ega bo’lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil etish, harakatga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

Pedagogik muloqot – ta’lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birqalikdagi faoliyatları mazmunidan kelib chiqadigan o’zaro aloqalarni o’rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo’llab-quvvatlashni tashkil etishning ko’p qirrali jarayoni.

Pedagogik takt – bolalar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo’lishning pedagogik tamoyili, o’lchovi, o’quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to’g’ri muloqotda bo’la olish malakasi.

Pedagogik texnika – 1) har bir ta’lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta’sir o’tkazishda samarali qo’llash uchun zarur bo’lgan malaka va ko’nikmalar majmuasi; 2) har bir ta’lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta’minlash uchun zarur bo’lgan malaka va ko’nikmalar.

Pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tarbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o’zaro bog’langan harakatlari tizimidir; 2) ta’lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to’plamini qo’llash bilan bog’liq bo’lgan pedagogning uzluksiz, o’zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qat’iy ilmiy loyihalashtirilgan pedagogik harakat; 4) ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o’zaro hamkorligi asosida o’qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo’llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

Pedagogik tizim – shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta’limning o’zaro bog’langan tashkiliy tuzilmasi.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogning kommunikativ madaniyati – pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnatna olishi, ular bilan muloqot o'matishga bo'lgan doimiy intilishi.

Pedagog nuqtai nazari (pozitsiyasi) – pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayonga bo'lgan intellektual va bissiy munosabati.

Pedagogik haqqoniylig – o'qituvchinig obyektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

Proektiv malaka – malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarini konkret ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

Preskreptiv – me'yoriy.

Psixologiya – 1) shaxsning obyektiv borliqni faol aks ettirish jarayonini o'r ganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar to'plami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasi.

Ratsionalizatsiya – metodlarni yoki biror ish – harakatni takomillashtirish.

Releksatsiya – kuchli hayajon va jismoniy zo'riqishdan so'ng engil tortish, tinchlanishning umumiy holati.

Retrospektiv – o'tmishga murojaat etish.

Refleksiv malaka – pedagogga nisbatan qo'llanadigan nazorat – baholash faoliyati.

Refleksiya – takrorlash, aks etish, o'z harakatlari va holatlarini tahlil qilish.

Rivojlanishning ehtimollik nazariyasi – shaxs psixikasi rivojlanishining har bir davrini tasodifiy faktlar yig'indisiga ko'ra belgilashga asoslangan nazariya va u avvalgi rivojlanish davridagi erishilgan sathga nisbatangina bog'liq bo'ladi.

Rol ijro etish – qatnashuvchilarning yakka va guruh bo'lib turli rollarda (sahnada) chiqishi, obrazga kirishi.

Ruhiy pedagogik tayyorgarlik – pedagogikaning metodologik asoslarini va kategoriyalarini, shaxsning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti qonuniyatlarini, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologiyalarini bilish.

Suggestiya – uqtirish, to'la ishonch hosil qilish.

Suhbat – kuzatuv chog'ida yetarli darajada aniq bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigan tadqiqot metodi.

Tadqiqot obyekti – ziddiyat va muammoli vaziyat tug‘diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy tahlilga muhtoj obyekt.

Tadqiqot predmeti – bevosita o‘rganilishi lozim bo‘lgan va amaliy yoki nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadigan obyektning mohiyati, ma’lum bir tomoni, xususiyati.

Takt – misli ko‘rilmagan tarzda o‘zini tuta bilish.

Ta’lim – 1) shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo‘naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g‘oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko‘nikma, axloq meyorlariga qaratilgan jamiyat a‘zolarining ta’lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

Ta’limning madaniy insonparvarlik vazifasi – kishining hayot to‘silalarini engishga yordam beradigan ma’naviy kuchi, qobiliyati, malakalari, tabiat va ijtimoiy hayotga moslashish vaziyatidagi xarakteri, ma’naviy mas’uliyatining shakllanishi, shaxsiy, kasbiy takomili hamda shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshirilishini ta’minlovchi imkoniyatlari, shaxsning intellektual, axloqiy erkinlikka, shaxsiy muxtoriyati shuningdek, baxtiga erishish uchun zarur bo‘lgan vositalar shaxsning individual ijodiy taraqqiy etishi va ma’naviy imkoniyatlarining ochilishi uchun sharoitlar yaratishi.

Ta’lim turlari – sokratcha suhbat metodi, an‘anaviy ta’lim, izohli-namunali (illyustrativ) ta’lim, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta’lim, ta’limni algoritmlash jarayoni, differentsiatsiyali, individual ta’lim va boshqalar.

Tarbiya – 1) shaxsning ma’naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvosiq ta’sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Taqlid qilish – biror harakat, qiliq, ahd, fikr va hissiyotni takrorlash, aynan o‘zlashtirish.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o‘rab olgan dunyodagi o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma’lum bo‘lgan voqealarni qidirish, kelajakni ko‘ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo‘ladi.

Temperament – 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg‘un individual xususiyatlarining qonumiylari.

munesabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari: intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlар ritmi.

Faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadiga muvofiq qayta buniyod etilishi.

Faoliyatning yetakchi turi – bola hayotining muayyan davridagi psixik rivojlanishini yetari darajada ta'minlovchi hamda keyingi taraqqiyotiga asos bo'luvchi faoliyatdir.

Fundamental – asosiy fundamental

Xayrixohlik – kishilarga ochiq ko'ngilli bo'lish, iltifotli, marhamatli bo'lish.

Shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

Shaxs dinamikasi – kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan holda subyektning xususiyatlari va sifatining vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

Shaxsiy fazilat – shaxs tomonidan o'zining axloqiy, ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o'rmini anglay olish xususiyati.

E'tiqod – shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'zining xatti-harakatlariga bo'lgan subyektiv munosabati.

Evristika – ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik qoidalari tizimi.

Empirik – tajribaga asoslangan.

Empirik bosqich – tadqiqot obyekti to'g'risida har tomonlama tasavvur hosil qilish, ta'lim amaliyoti, ilmiy bilimlar saviyasi va hodisalar mohiyatiga erishishga bo'lgan talab o'rtasidagi ziddiyat, ilmiy muamrnioni nomlash.

O'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

O'z-o'zini tarbiyalash – 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini timmay amalga oshirish.

O‘qitish – ta’lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o‘qituvchining faoliyati.

O‘qitish – 1) ta’limning o‘ziga xos usuli bo‘lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta’minlanadi; 2) o‘quvchi va o‘qituvchi, o‘quvchining boshqa o‘quvchilar bilan aloqasi natijasi o‘laroq atrof-muhit, uning qonuniyatları, taraqqiyot tarixi va ularning o‘rganilish usullarini bilishning muntazam boshqarilish jarayoni.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati – sotsial ijtimoiy pedagogik fenomen bo‘lib, ijodiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

O‘qitish vazifasi – ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

O‘quv-bilish faoliyati – insoniyat tomonidan to‘plangan madaniy boylikni egallash bilan bog‘liq faoliyat.

O‘quv faoliyati – shaxsning yangi biliim, malaka va ko‘nikmalarni egallash jarayoni.

Qanoat – ma’lum maqsadga erishish yo‘lida ijobiy tuyg‘u bilan bog‘langan shaxsning psixologik holati.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab bo‘ladigan faoliyat yo‘nalashining ongli shakli.

G‘ayri ixtiyoriylik – tashqi holat yoki shaxsiy kayfiyatlar ta’sirida dastiabki ishonchlargacha moyil kishi xulqining xususiyati.

Halollik – shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarini, axloqiy me’yorlarni rostgo‘ylik bilan saqlash.

Yaxlitlik – pedagogik jarayonning sintezlashgan sifati bo‘lib, uning oliy darajadagi taraqqiyotini, unda faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlar, obyektlar faoliyatini ta’minlovchi jarayondir.

Yaxlit pedagogik jarayon – tarbiya jarayonida ta’lim va ta’lim jarayonida tarbiya berishning o‘zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 71 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллый истиқлол, иқтисодиёт, сиёсат, мафкура. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 315 б.
4. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т.: Ўзбекистон, 1999. – 686 б.
6. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курамиз. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999 – 381 б.
7. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – шировард мақсадимиз. 8-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 528 б.
8. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
9. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик тараққиёт йўли. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 24 б.
- 10.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 11.Каримов И.А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 24 б.
- 12.Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 59 б.
- 13.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
- 14.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan

iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

15. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлитининг тарови”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қалинганилигининг 24 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2016 йил 8 декабрь.

16. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг “Китоб маҳсулотларини чон этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарқибот килиш бўйича комиссия тушиб тўғрисида”ги Фармойиши. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил, 13 январь.

17. Ўзбекистон Республикасининг “Гаълим тўғрисида”ги Конуни// “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори” китобида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 20-29.

18. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш мизлий дастури”// “Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори” китобида. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 31-61.

19. Мизлий истиқлол ғояси: асосий тушунчга ва тамоийллар – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 80 б.

20. Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги конуни // Ахборот ва ахборотлаштиришга оид норматив-хуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Адолат, 2008. – 290 б.

21. Абдираззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Т., 1995. 24 с.

22. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Т., 1997. – 46 с.

23. Абдуллаева М.Х. Интеграция как средство обогащения интеллектуального и воспитательного потенциала занятий по гуманитарным дисциплинам // Формирование интеллектуального, духовно-нравственного и физического потенциала учащихся общеобразовательной школы Республики Узбекистан на

современном этапе. – Ташкент: УзНИИПН им. Т.Н.Кары Ниязи, 2005. – С.137-149.

24.Абдуллаева Ш.К. Технология преподавания общественных наук в учебных заведениях среднего специального профессионального образования (на примере учебной дисциплины «Основы духовности»): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2001. – 18 с.

25.Абдуллаев М., Хакимов Э. Введение в этику (краткий курс). – Фергана: Фаргон, 2001. – 94 с.

26.Абдуллаев М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах: Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 1991. – 21 с.

27.Абдуллаева Д.С. Миллий тарихий хотиранинг моҳияти ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Дисс. ... фал. фан. ном. – Т., 2006. – 155 б.

28.Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана: XX век. – Т.: Узбекистан, 2000. – 180 с.

29.Адизов Б.Р. Бонпланчич таълимни юқодий ташкил этишининг назарий асослари: Пед.фан.док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.

30.Ажибаева А.Ж. Реализация личностно-ориентированного подхода в профессиональном воспитании будущего учителя: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Бишкек, 2007. – 23 с.

31.Ализхўжасва Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг педагогик технологияси. – Т.: ТДГУ, 2000. – 52 б.

32.Ангеловский К. Учителя и инновации / Книга для учителя. Перевод с македонского В.П.Диденко. – М.: Просвещение, 1991. – 158 с.

33.Аннамуратова С.К. Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана. – Т.: Фан, 1991. – 369 с.

34.Арзикулов Д.Н. Касбий камолотнинг психологик ўзига хос хусусиятлари: Психология фанлари номзоди. ... дисс. Автореф. – Т.: 2002. – 22 б.

35.Ахмеджанов М.М. Диагностика подготовленности педагога к профессиональной деятельности: Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – Т.: 1994. – 23 с.

36.Ахутина Т. В., Камардина И. О., Пылаева Н. М. Нейропсихолог в школе. Индивидуальный подход к детям с

трудностями обучения в условиях общего образования. – М.: Издательство: Секачев Владимир Юрьевич, 2013. – 57 с.

37.Ачилдиев А.С. Проблема взаимодействия национального самосознания и национальной культуры: Автореф... канд.филос.наук. – Т., 1994. – 22 с.

38.Батракова С.Н. Методология становления педагогического процесса // Педагогика. – Москва, 2003. - №3. – С.11-16.

39.Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Т.: Шарқ, 2000. – 94 б.

40.Бегматов А. Глобаллашув, миллий маънавият ва ахборот тизимлари. // Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат ва жамият курилиши академияси жорий архиви, 2006.

41.Белухин Д.А. Основы личностно ориентированной педагогики. –Воронеж: МОДЭК, 2005. – 286 с.

42.Бережкова Е.В., Красенский В.В. Парадигма науки и тенденции развития образования// Педагогика. – М., 2007. - №1. – С.22-28.

43.Бим-Бад Б.М. Педагогическая антропология. -- М.: УРАО, 2003. – 208 с.

44.Блейк С., Пейп С., Чошанов М.А. Использование достижений нейропсихологии в педагогике США. // Ж. Педагогика. – Москва, 2004. - №5. – С.85-90.

45.Бозиев Р.С. Вуз как воспитательное пространство// Педагогика. – М., 2002.- № 7. – С.52-71.

46.Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно ориентированного образования. – Ростов-на-Дону: РГПУ, 2000. – 256 с.

47.Бордовская Н.В., Рean А.А. Педагогика. – СПб.: Питер, 2001. – 276 с/

48.Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. P. 176-188.

49.Бурлацкая М., Рубина Л., Шапко И. Мнение студентов о качестве образования в педагогическом вузе// Народное образование. – М., 2002.- № 5. – С.82-90.

- 50.Введенский В.Н. Педагогическая профессия как социальный институт// Педагогика. – М., 2006.- № 2. – С.59-65.
- 51.Вершловский С.Г. Психолого-педагогические проблемы деятельности молодого учителя. – Л.: Знание, 1983. – 32 с.
- 52.Вульфов Б.З. Учитель: профессиональная духовность // Педагогика. – Москва, 1995. - №2. – С. 48-52.
- 53.Гершунский Б.С. Образовательно-педагогическая диагностика. Теория, методология, практика. – М.: Флинта, Наука, 2003. – 768 с.
- 54.Гершунский Б.С. Философия образования XXI века (В поисках практико-ориентированных образовательных концепций). – М.: Совершенство, 1998. – 608 с.
- 55.Гозиев Э.Г. Психологические основы развитие самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов. Автореф. дис. ... док.псих.наук. – Т., 1991. – 38 с
- 56.Гринин Л.Е., Коратаев А.В. Социальная микроэволюция и исторический процесс. // Ж.Философия и общество. – М., 2007. - №2. – С.19.
- 57.Гулметов Э., Қобижонова Т., Эрназаров Ш., Маврулов А. Маданиятшунослик. – Т.: “ЎАЖБНТ” маркази, 2000. – 179 б.
- 58.Гусейнов А.А. Этика. – М.: Гардариқа, 1999. – 470 с.
- 59.Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 29 б.
- 71.Давлетшин М.Г., Жалилова С.И. Олий мактабда таълим жараёни самарадорлигининг психологик томонлари – Т.:ТДПУ, 2001. – 10 б.
- 72.Давлетшин М.Г. Кобилият ва унинг диагностикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 134 б.
- 73.Дахин А. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и ... неопределенность// Народное образование. – Москва, 2002. -№ 2. – С.55-60.
- 74.Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.
- 75.Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при

изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук. -- Т., 2002. -- 146 с.

76.Доброхотова Т.А. Нейропсихиатрия. -- М.: Издательство БИНОМ, 2006. -- 304 с.

77.Доброхотова Т.А., Брагина Н.Н. Левши. -- Москва: Книга Лтд, 1994. -- 230 с.

78.Дугин А.Г. Эволюция парадигмальных оснований науки. -- М.: Владос, 2002. -- 178 с.

79.Дулина Н.В., Токарев В.В., Василенко И.В. Методы исследования системы ценностных ориентаций. -- Волгоград, 1999. -- 356 с.

80.Евразийский информационный и библиотечный конгресс «Общество знаний: партнерство культуры, науки и образования для инновационного развития»// Библиотековедение. -- Москва, 2006.- № 2. -- С.8-27.

81.Ермессна В. Д., Хризман Т. Н. Мальчики и девочки – два разных мира. Нейропсихологии – учителям, воспитателям, родителям, школьным психологам – М.: «ЛИНКА-ПРЕСС», 1998. -- 184 с.

82.Ермаков Д.С. Образование для устойчивого развития// Педагогика. -- 2006.- № 9. -- С.23-29.

83.Ефимова И.В. Межполушарная асимметрия мозга и двигательные способности // Физиология человека. -- 1996. -- Т. 22. -- № 1. -- С. 35-39.

84.Жалолов А. Мустақиллик масъулияти. -- Т.: Ўзбекистон, 1996. -- 90 б.

85.Жалолов А. Ҳаёт фалсафаси ва фалсафа ҳаёти. // ж. Мулокот. -- №1997. -- 5-сон. -- Б.15.

86.Жамолдинова О. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришида узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал килишининг педагогик механизmlарини тақомиллаштириши: Автореф. ... пед. фан. док. -- Т., 2015. -- 83 б.

87.Жумаева Н.Э. Умумий ўрта таълимий инсониаркварлантитиришида ўқитиш тамойиллари ва методларининг ўзаро алоқадорлиги: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. -- Карши, 2005. -- 162 б.

88.Журавлёв В.И. Педагогика в системе наук о человеке. -- М.: Педагогика, 1990. -- 168 с.

89. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Т.: Маънавият, 2008. – 461 б.
90. Закиров А.А. Особенности сотрудничества преподавателей и обучающихся в учебной деятельности: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Т., 2002. – 22 с.
91. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 288 с.
92. Зсленкова И.Л. Этика. – Минск: Тетра-Системс, 1998. – 367 с.
93. Ибодуллаева О.Н. Кичик мактаб ёшидаги ўкувчиларда иксошварварликни шакллантиришининг педагогик асослари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2004. – 141 б.
94. Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.
95. Иброхимов А. Ватан туйгуси. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 190 б.
96. Игровое обучение иностранным языкам и иноязычному общению/ Сост. Е.А.Маслыко, П.К.Бабинская и др. – Минск: Высшая школа, 1992. – 448 с.
97. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. – Т.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 448 б.
98. Исмоилова З.К. Бўлажак мутахассислар шахсни шакллантиришнинг ғоявий асослари // Kasb-hunar ta’limi j. - №3, 2007. – Б.18.
99. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Илгор педагогик технологиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 101 б.
100. Кабуш В.Т. Теория и практика формирования гуманистической воспитательной системы: Автореф. ... докт. пед. наук. – Минск, 2001. – 37 с.
101. Каримова В. Психология. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ месори нашриёти, 2002. – 204 б.
102. Каримов С., Ўразов Ш., Саматов Х., Абдувохилов С. Оммавий маданият – миллий маданият күшандаси. – Самарқанд: «Zarafshon», 2015. – 118 б.
103. Каххарова М. Жамиятда маънавий-ахлоқий муҳит: муаммо ва сўнмлар. Автореф. ... фал.фан.док. – Т., 2012. – 56 б.
104. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2003. – 176 с.

105. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. – СПб., 1999. – 182 с.
106. Кораблева М. Главное – развитие студента как личности// Дошкольное воспитание. – Москва, 2005.- № 6. – С.122-123.
107. Корсак К. Проблемы педагогики и перспективы их решения// Народное образование. – Москва, 2002.- № 2. – С.44-54.
108. Коршунова Н.Л. Нужна ли педагогике новая парадигма?// Педагогика. – Москва, 2002.- № 7. – С.22-27.
109. Костин А.К. Регионализация образования – стратегическое направление образовательной политики// Педагогика. – М., 2005. № 8. – С .26-32.
110. Краевский В.В. Воспитание или образование?// Педагогика. – М., 2001.- № 3. – С.74-78.
111. Краевский В.В. Общие основы педагогики. – М.: Академия, 2003. – 256 с.
112. Кривов Ю.И. О месте понятия «социализация» в современной педагогике// Педагогика. – М., 2003.- № 2. – С.14-22.
113. Криско В. Секреты психологической войны. Цели, задачи, формы, опыт. – Минск: Харвест, 1999. – 244 с.
114. Кузьмина Т. Оптимизация обучения младших школьников на основе нейропедагогического подхода. – Таллин, 2010. – 248 с.
115. Кукушин В.С. Теория и методика воспитательной работы. – Ростов-на-Дону: Март, 2002. – 320 с.
116. Кукушкин В.С., Столяренко Л.Д. Этнопедагогика и этно психология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2000. – 443 с.
117. Кун Т. Структура научных революций. – М.: Владос, 2002. – 167 с.
118. Куницына В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение. – СПб.: Питер, 2001. – 544 с.
119. Крылова И.Б. Педагогическая, психологическая и нравственная поддержка как пространство личностных изменений ребёнка и взрослого// Классный руководитель. – М., 2000.- № 3. – С.26-29.
120. Курбонбоев М. Таалабалар маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари (жамоалар асосида); Дис. ... педагогика фанлари номзоди. – Тошкент, 1998.- 155 б.

121. Курбанов Ш.А. Социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров: Дис. ... докт. пед. наук в форме научного доклада. – Т., 2000. – 527 с.
122. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Подготовка кадров новой формации – приоритет развития страны// Современные технологии образования в высшей школе. – Бишкек, 1998. – С.119-124.
123. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Формирование принципов идеи национальной независимости в сознании детей и учащейся молодёжи. – Т.: Университет, 2002. – 288 с.
124. Лазарев С., Ставринова Н.Н. Критерии и уровни готовности будущего педагога к исследовательской деятельности// Педагогика. – М., 2006.- № 2. – С.51-59.
125. Лебединский В.В. Нарушения психического развития в детском возрасте. – М.: «Академия», 2003. – 144 с.
126. Леонтьев А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – 392 с.
127. Лесохина Л.Н. Образование в структуре человеческой деятельности: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – СПб., 1991. – 32 с.
128. Липская Л.А. Философско-антропологический фундамент современного образования// Педагогика. – М., 2006.- № 2. – С.25-28.
129. Литвицова Л.С., Жирецко О.Е. Нравственно-экологическое воспитание школьников: Основные аспекты, сценарии, мероприятия. Метод. библиотека. – М.: 5 за знания, 2005. – 208 с.
130. Личность. Культура. Этнос/ Под ред. А.Л.Белика. – М.: Смысл, 2001. – 533 с.
131. Лихачёв Б.Т. Педагогика. Курс лекций. – М.: Юрай-Издат, 2003. – 607 с.
132. Лотман Ю. М. Асимметрия и диалог. Семиосфера. – Санкт-Петербург, 2000. – 603 с.
133. Лузина Л.М. Философско-антропологический подход в современной методологии воспитания: Дис. ... докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 1998. – 46 с.
134. Лuria A.P. Основы нейропсихологии. – М.: «Академия», 2006. – 384 с.

135. Лызы Н.А. Взгляд на парадигмы и изменения в педагогике// Педагогика. – М., 2005.- № 8. – С.16-26.
136. Маврулов А. Маннавий баркамол инсон тарбияси. – Т.: O'zbekiston, 2008. – 80 б.
137. Мажитова Ш.Н. Педагогические основы целостного развития личности будущего учителя в процессе профессиональной подготовки: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2005. – 172 с.
138. Макаровская И.В. Коммуникативная компетентность и представление учителя о себе: Дис. ... канд. психол. наук. – СПб., 2003. – 196 с.
139. Малкина-Пых И.Г. Техники позитивной терапии и НЛЛ. – М.: «Эксмо», 2004. – 187 с.
140. Маматкулова Р. Воспитание морально-этических качеств студентов университетов на основе национально-духовного наследия народа: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т., 1995. – 22 с.
141. Марданов Ш.Қ. Яяги таълимий қадриятлар асосида педагог кадрларни тайёрлаш ва малакасини ошириш. – Т.: Фан, 2006. – 232 б.
142. Марданов Ш. Педагог кадрларни таълимий қадриятлар асосида тайёрлани ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: Пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2006. – 302 б.
143. Маркова А. Н. Психология труда учителя /Кн. для учителей. – М.: Просвещение, 1993. – 190 с.
144. Марков Б. Очерки социальной антропологии. – СПб, 1998. – 278 с.
145. Мартишина Н.В. Ценностный компонент творческого потенциала личности педагога// Педагогика. – М., 2006.- № 3. – С.48-57.
146. Маслоу А. Психология бытия. // Пер. с англ. О.О. Чистякова. – Рефл-бук: Ваклер, 1997. – 84 с
147. Маҳкамов У.И. Юкори синф ўқувчиларида ахлоқий маданиятни шакллантиришининг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 1998. – 286 б.
148. Маҳкамова М.Ю. Бўлажак тарбиячиларда педагогик мулоқот маданиятини шакллантириш: Педагогика фанлари номзоди. ...дисс.Автореф. – Т., 2002. – 21 б.

149. Махмутова Г.И. Олій педагогик таълим тизимида талабаларни маънавий шакллантиришнинг ижтимоий педагогик хусусиятлари: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т.: 2004. – 179 б.
150. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати // тузувчи ва масъул муҳаррир К.Назаров. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – 760 б.
151. Межев В. Культура и образование// Альма матер. – М., 2004.- № 5. – С.5-9.
152. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – М.: Дело, 1994. – 215 с.
153. Мороз А.Г. Профессиональная адаптация выпускника педагогического вуза: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Киев, 1983. – 50 с.
154. Москвич В.А. Проблема связи латеральных профилей с индивидуальными различиями человека (в дифференциальной психофизиологии): Автореф. ... дисс. док. псих. наук. – Уфа: ОГУ, 2002 – 50 с.
155. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – М.: Академия, 2003. – 200 с.
156. Мудрик А.В. Основы социальной педагогики. – М.: ACADEMA, 2006. – 205 с.
157. Мурадова Д. Освоение новых знаний и умений посредством инновационных методов как стержневая основа развития креативности // ж. Ҳалқ таълими. – 2006.- № 1. – С.152-155.
158. Муслимов Н.А. Қасб таълими ўқитувчини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2007. – 315 б.
159. Мустафаева Ф.А. Социальная педагогика. – М.: Академический Проект-Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – 528 с.
160. Мустакиллик: Изоҳли илмий-оммабөй луғат. – Т.: Шарқ, 2000. – 320 б.
161. Мусурмонова О. Юкори синф талабалари маънавий маданиятини шакллантиришнинг шакл ва методлари. – Т.: Фан, 1995. – 165 б.

162. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий түрур. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – 200 б.
163. Мусурмонова О., Баубекова Г. Ўзбек халқ педагогикаси. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашириёти, 2000. – 64 б.
164. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Педагогика фанлари доктори. ...дисс. – Т., 1993. – 364 б.
165. Мухсиева А. Оиласда миллий тарбияни таъкил этишнинг методик асослари. – Т.: Фан, 2009. – 116 б.
166. Насриздинова Д.Х. Гуманитаризация подготовки будущего учителя-бакалавра в системе высшего педагогического образования: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2000. – 146 с.
167. Немов Р.С. Психология. Книга 2. Психология образования. – М.: Владос, 2000. – 606 с.
168. Непрерывное образование: краткий словарь/ Под ред. И.А.Лобанова и В.Н.Скворцова. – СПб.: Файздер, 2003. – 48 с.
169. Никитина Н.Н., Железнякова О.М., Петухов М.А. Основы профессионально-педагогической деятельности. – М.: Мастерство, 2002. – 288 с.
170. Нищенова З.Т. Мустакил ижодий фикрланинг шакллантиришнинг психологик асослари: Ісих.фан.док. ... дис. – Т., 2005. – 391 б.
171. Ёқубова М. Ижтимоий тараққиёт ва маданиятнинг ахборотлашуви. – Т.: ЎзМУ, 2010. – 90 б.
172. Оғбёрн Г. Философия техники. – М.: Современные тетради, 2005. – 278 с.
173. Ортиков Н. Миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ўкувчи шахсини ахлоқий шакллантириш: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2000. – 305 б.
174. Отамуротов С. Отамуротов С. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – 243 б.
175. Одабнома. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – 60 б.
176. Очилов М., Очилова Н. Ўқитувчи одоби. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 132 б.
177. Очилов.М. Муаллим – қалб меъмори. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – 429 б.

178. Педагогика/ Под ред. П.И.Пидкасистого. – М.: Нед.общество России, 1998. – 640 с.
179. Педагогический энциклопедический словарь. – М.:Большая Российская энциклопедия, 2003. – 720 с.
180. Педагогические технологии/ Под ред. В.С.Кукушина. – М.-Ростов-на-Дону: Март, 2006. – 336 с.
181. Педагогические основы формирования личности учащегося в средней общеобразовательной школе Республики Узбекистан на современном этапе. – Т.: Фан, 2005. – 167 с.
182. Писаренко В.И., Писаренко И.Я. Педагогическая этика. – Минск: Народная асвета, 1986. – 240 с.
183. Подласый И.П. Педагогика. – М.: Высшее образование, 2006. – 540 с.
184. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.1. – 574 с.
185. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2005. Кн.2. – 256 с.
186. Подласый И.П. Продуктивная педагогика. – М.: Народное образование, 2003. – 496 с.
187. Поляков С.Д. Технологии воспитания. – М.: ВЛАДОС, 2002. – 144 с.
188. Психология и педагогика / Под ред. А.А.Радугина. – М.: Центр, 2002. – 256 с.
189. Пўлатов Х. Мустақиллигимиз қадриятлари – «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1993 йил, 7 май.
190. Радутин А.А. Этика. – М.: Центр, 2003. – 224 с.
191. Расулов А. Глобал жараёнлар ва маънавият. // Ж. Ўзбекистон матбуоти. – Т., 2008. – 5-6-сонлар. – Б.8-9.
192. Ратанова Т.А., Шляхта Н.Ф. Психодиагностические методы изучения личности. – М.: ВЛАДОС, 1998. – 264 с.
193. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида қасбий-маданий муносабатларнинг шаклланиши: Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2004. – 160 б.
194. Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. -- Ростов-на-Дону.: Феникс, 1996. – 225 с.
195. Розанов В.В. Мысли о литературе. – М., 1993. – 436 с.
196. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2013. – 713 с.

197. Руденко В.Н. Культурологические основания целостности содержания высшего образования// Педагогика. – М., 2004.- № 1. – С.43-48.
198. Рузисва Д. Олий таълим муассасаси талабаларида миллий ифтихор түйгусини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2007. – 255 б.
199. Рызбасева А.К. Культура профессионально-педагогического коллектива студенческой группы как условие формирования личности будущего учителя: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Алма-Ата, 1991. – 21 с.
200. Садохин А.П. Культурология: теория и история культуры. Учеб. пособие. – М.: Эксмо, 2005. – 624 с.
201. Сафаров Н. Прогрессивные идеи и опыт народной педагогики Узбекистана: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Алма-Ата, 1993. – 25 с.
202. Сафаров Р.А. Культура повседневия. – Т.: Шарқ, 1999. – 206 с.
203. Сафарова Р.Ғ., Мусаев У.Қ., Иноятова М., Мусаев Ж., Акрамова Г., Нуржанова Р., Бакоева Л., Юсупова Ф., Мирзаева М., Ҳасанова Г., Нельматов Ш., Маммуров Б., Махмудова Д. Умумий ўрга таълим мазмунини модернизацияланинг дидактик параметрлари. – Т.: Фан, 2008. – 222 б.
204. Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – 230 б.
205. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: Автореф. ... дисс.док.пед.наук. – Т., 2005. – 38 с.
206. Сафонова Е.М. Воспитательная деятельность в контексте личностного подхода к образованию // Педагогика. – М., 2003.- № 3. – С.38-44.
207. Селевко Г.К. Педагогические технологии на основе дидактического и методического усовершенствования. – М.: НИИ школьных технологий, 2005. – 288 с.
208. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теория и методика. М.:Академия, 2002. – 420 с.
209. Семенович А.В. Нейропсихологическая диагностика и коррекция в детском возрасте. – М.: «Академия», 2007. – 232 с.

210. Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: ВЛАДОС, 1999. – 90 с.
211. Сиволапов А.В. Модернизация воспитательных концепций: закономерности и противоречия// Педагогика. – 2005.- № 9. – С.57-64.
212. Сидикова Ш. Эстетика: қысқача курс. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мерзінің нағашында, 2002. – 72 б.
213. Скворцов В.Н. Социально-экономические проблемы теории непрерывного образования. – СПб.: Петрополис, 2004. – 276 с.
214. Сластёин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. – М.: Школьная пресса. 2005. – 510 с.
215. Сластёин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003.– Ч.1. – 288 с.
216. Сластёин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003.– Ч.2. – 256 с.
217. Сластёин В.А., Чижакова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. – М.: Академия, 2003. – 192 с.
218. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека. – М.: Питер, 1995. – 215 с.
219. Содикова Ш.А. Таалабаларни ижтимасий-педагогик фаолиятта тайёрлаш. – Т.: ТДПУ, 2009. – 68 б.
220. Соколова Э. Образование – путь к культуре мира и толерантности// Народное образование. – М., 2002.- № 2. – С.111-118.
221. Социально-педагогическая концепция личности. – Т.: Фан, 1995. – 282 с.
222. Социальная педагогика/ Под ред. М.А.Галазузовой. – М.: ВЛАДОС, 2003. – 416 с.
223. Социальная экология. Метод. рекомендации по проведению семинарских и практических занятий. – Т.: ТГПУ, 2005. – 24 с.
224. Степанов Е.Н., Лузина Л.М. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – М.: Сфера, 2003. – 160 с.
225. Столяренко А.М. Общая педагогика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 479 с.

226. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 448 с.
227. Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности. Автореф. дис. ... докл.псх. наук. – Т., 2001. – 41с.
228. Тарантей В.П. Социально-педагогические проблемы профессионального становления молодых учителей в современных условиях: Дис. ... докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 1994. – 80 с.
229. Тарбия: (ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия). / Тузувчи М.Н.Аминов. – Т.: “Ўзбекистон мактабий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. – 740 б.
230. Тесленко А. Социализация молодёжи: теоретико-методологический аспект// Альма матер. – М., 2005.- № 4. – С.26-29.
231. Тестов В.Л. Фундаментальность образования: современные подходы// Педагогика. – М., 2006.- № 4. – С.3-9.
232. Толипов У.К., Усмонбоеva М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 205 б.
233. Толпыкина Т.В., Толпыкин В.Е. Культурология. Учебник. – М.: Гардарики, 2005. – 380 с.
234. Турдикулов Э.А. Экологическое образование учащихся в процессе изучения предметов естественнонаучного цикла: (Физ. аспекты экол. образования): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 1982. – 38 с.
235. Тройнев В.А., Тройнев И.В. Интенсивные педагогические технологии в гуманитарном образовании (методология и практика). – М.: Дашков и К°, 2006. – 282 с.
236. Умаров А.А. Ижтимоий-маданий таракқиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шаклилантиришида мутолаанинг роли: Социология файлари доктори. ... дисс. – Т., 2005. – 274 б.
237. Умаров Э. Эстетика: (Нафосатшунослик). – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 246 б.
238. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Культурология. – Ташкент: Янги аср азроти, 2006. – 160 с.
239. Umarov E., Karimov R., Mirtsaidova M. Estetika asoslari. -- Т.: “Cho’lpon” nashriyoti, 2006. – 200 б.

240. Умаров Э.У., Загыртдинова Ф.Б. Этика. – Т.: Изд-полиграф. творч. дом им. Чулпана, 2005. – 136 с.
241. Фалсафа: комусий лугат (Тузувчи ва масъул мухаррир Қ.Назаров). – Т.: Шарқ, 2004. – 496 б.
242. Фёдорова С.Н. Профессиональная культура педагога// Педагогика. – М., 2006.- № 2. – С.65-70.
243. Филонов Г.Н. Свобода личности и воспитание// Педагогика. – М., 2005.- № 9. – С.25-33.
244. Хайруллаев М. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Ўзбекистон, 1995. – 240 б.
245. Харламов И.Ф. Педагогика в вопросах и ответах. – М.: Гардарики, 2001. – 256 с.
246. Харламов И.Ф. Формирование личностных качеств в процессе воспитания// Педагогика. – М., 2003.- № 3. – С.52-59.
247. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения/ Пер. с англ. – СПб.: Речь, 2001.- 240 с.
248. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. ... дис. автореф. – Т., 2012. – 46 б.
249. Шепилова Н. Моделирование процесса социально-педагогической адаптации студентов вуза// Дошкольное воспитание. – М., 2005.- № 6. – С.119-121.
250. Шер Абдулла. Ахлоқшунослик. – Т.: “ЎАЗБИТ” маркази, 2003. – 256 б.
251. Шиянов Е.Н. Аксиологические основания процесса воспитания// Педагогика.- М., 2007.- № 10. – С.33-37.
252. Шодмонова Ш. Олий ўқув юрги талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожланиши (Касб таълими йўналиши мисолида): Пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2010. – 340 б.
253. Щуркова Н.Е. Новое воспитание. – М.: Пед. общество России, 2000. – 128 с.
254. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нариёти, 2009. – 232 б.
255. Эгамбердисна Н. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш

назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.

256. Эргашева Ш.Т. Проблемы модернизации профессионального образования//Личностно-ориентированный подход к современному обучению и воспитанию. – Т.: УзНИИПН им. Кары-Ниязи, 2008. Вып. 3. ч 3. С. 39-41.

257. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Т.: Маънавияг, 1999. – 239 б.

258. Эшбеков Т. Мафкура майдонида ахборот психологик хавфезизлик. – Т., 2011. – 111 б.

259. Юдин Б.О. Гуманитарной составляющей высшего образования// Алма матэр. – М., 2004.- № 5. – С.3-5.

260. Юлдашбаева З.Б. Культурология. – М.: Высшая школа, 2005. – 279 с.

261. Юлдашев Д.Г. Системы повышения квалификации педагогических кадров. – Т.: Шарқ, 1996. – 160 с.

262. Юсупов Э. Мустакиллик ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 175 б.

263. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998. – 156 б.

264. Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Дис. ... докт. пед. наук. – Т., 2005. – 303 с.

265. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: Сентябрь, 2000. – 112 с.

266. Ярмакеев И.Е. Развитие профессионально-смыслового потенциала личности будущего учителя // Педагогика. – М., 2006. – С.43-50.

267. Ярматов Р. Бўлажак ўқитувчи шахсини тарбиялани ва ривож-лантириш. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2009. – 128 б.

268. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. Е – М. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 178 б.

269. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.39.

270. Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури: педагогик илмий тадқиқот муаммолари ва йўналишилари. – Т.: Фан, 1999. – 193 б.
271. Куронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед.фандок. ... дисс. – Т., 1998. – 316 б.
272. Куронов М. Болам баҳтили бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Т.: «Маънавият», 2013. – 320 б.
273. Куронов М. Биз англәётган ҳақиқат. – Т.: «Маънавият», 2008. – 152 б.
274. Куронов М. Мағкуравий таҳдидлар ва ёнилар тарбияси. – Т.: Академия, 2008. – 88 б.
275. Куронов М., Курбонниёзова З. Ижтимоий педагогика – Т.: РТМ, 2002. – 134 б.
276. Куронов М. Миллий тарбия. – Т.: Маънавият, 2007. – 240 б.
277. Файбуллаев О. Ўзбекистон мустакиллиги шароитида ёнилар эстетик тафаккурининг ривожланиши масалалари: Фал. фан. док. ... дисс. – Самарқанд, 2005. – 161 б.
278. Ҳайдарова О. Педагогик қасбга тайёрлик самараси. // Халқ таълими. – Т., 2004. - №2. – Б.31-33.

MUNDARIJA

SO'Z BOSH.....	3
----------------	---

I BO'LIM. PEDAGOGIKA NAZARIYASI

I BOB. PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

1.1 O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari.....	4
1.2. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.....	23
1.3. Sahxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.....	39
1.4. Yaxlit pedagogik jarayon.....	52

II BOB. DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI

2.1. Didaktika – pedagogik ta'lrim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida	60
2.2. Ta'lim mazmuni	81
2.3. Ta'lim metodlari va vositalari	92
2.4. Ta'limni tashkil etish shakllari. Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.....	105
2.5. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.....	113

III BOB. TARBIYA NAZARIYASI

3.1. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya qonuniyatları va tamoyillari.....	125
3.2. Jarnoa tarbiya obyekti va subyekti sifatida	128
3.3. Tarbiyaning umumiy metodlari	135
3.4. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya	143
3.5. Fuqarolik tarbiyasi	149
3.6. Ma'naviy-axloqiy tarbiya	154
3.7. O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi	164

IV BOB. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI

4.1. Ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari	173
4.2. Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyoti	177

V BOB MAXSUS PEDAGOGIKA

1.1. Korreksion pedagogika.....	185
---------------------------------	-----

II BO'LIM. PEDAGOGIKA TARIXI

I BOB. PEDAGOGIKA TARIXI FAN SIFATIDA, ENG QADIMGI DAVRLARDAN VII ASRGACHA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR	192
II BOB. VII ASRDAN XIV ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.....	201
III BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI	205
IV BOB. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA TARBIYA VA MAKTAB	211
V BOB. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASRDA MOVARAUNNAHRDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	216
VI BOB. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJ.....	222
VII BOB. XVII ASRDAN XIX ASRNING YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	227
VIII BOB. 1917-1991-YILLARDA O'ZBEKİSTONDA TA'LIM TİZİMİ VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI	235
IX BOB. MUSTAQIL O'ZBEKİSTON TA'LIM TİZİMİ. MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI	256
X BOB. ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX ASRNING BIRINCHI YARMINDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING	

RIVOJLANISH TARIXI. YA.A.KOMENSKIYNING PEDA-	GOGIK NAZARIYASI.....	260
XI BOB. XIX ASRNING 2-YARMI – XX ASRDA JAHON	PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI. K.D.USHINSKIYNING	PEDAGOGIK MEROSSI.....
		285
XII BOB. HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI	TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI	294
 III BO'LIM. PEDAGOGIK MAHORAT		
I-BOB. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA,	UNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI VA	AHAMİYATI.....
		310
II BOB. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK	QOBILIYAT	322
 III BOB. O'QITUVCHINING KOMMUNİKATIV		
QOBILIYATI		339
IV BOB. PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ODOB.....	349	
V BOB. PEDAGOGIK TEXNIKA	357	
VI BOB. NUTQ TEXNIKASI VA MADANIYATI.....	371	
ASOSIY TUSHUNCHALARING IZOHLI LUG'ATI	384	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	394	

B. X. XODJAEV

UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

Muharrir: A.Tilavov

Texnik muharrir: Yu.O‘rinov

Badiiy muharrir: I.Zaxidova

Musahhiha: N.Muhamedova

Dizayner: Yu.O‘rinov

Nash.lits. № AI 245. 02.10.2013.

Terishga 05.12.2017 -yilda berildi. Bosishga 06.02.2018 -yilda
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times»
garniturası. Shartli b.t. 26. Nashr b.t. 24.18. Adadi 500 nusxa.

Buyurtma № 130.

Bahosi shartnoma asosida.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13–54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHI bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Shiroq ko‘chasi, 100-uy.
Telefon: (371) 228–07–96, faks: (371) 228–07–95.



«Sano-standart»
nashriyoti

ISBN 978-9943-5002-3-5

9 789943 500235